

Ergasheva Marziya Ramazonovna

KOSTYUM KOMPOZITSIYASI VA TARIXI

Darslik



Buxoro – 2020

BBK 24.2

O-64

UDK 547 Kostyum kompozitsiyasi va tarixi. Darslik. M.R.Ergasheva – Toshkent: 2020. – 177 b.

Taqrizchilar:

Davronov F.Q. – “DAVRON-QAHRAMON SERVIS” MCHJ direktori.

Z.Sh. To'xtayeva. – Buxoro muhandislik-texnologiya instituti “Yengil sanoat texnologiyalari” kafedrasini mudiri dots. .

ANNOTATSIYA

Kostyum kompozitsiyasi va tarixi kursi qadimiy kiyimlarning nazariy asosidir. Ushbu darslikda qadimiy xalqlar kostyumi, urf – odatlari ularning asrlar davomida shakllanishi, ularga kiritilgan o'zgarishlar va ularning sabab va oqibatlarini haqida ma'lumot beradi. Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida tayyorlangan bo'lib, 5321600 – Engil sanoat texnologiyalari va jihozlari yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Hozirgi yengil sanoat mahsulotlarida dunyo miqyosida o'zgarishlar yuz berayotgan davrda Kostyum kompozitsiyasi va tarixi - o'tmish madaniyatini kelajak avlodga to'kis yetkazish muhim ahamiyatga egadir.

АННОТАЦИЯ

Курс истории и композиции костюма является теоретической основой древней одежды. В этом учебнике содержится информация о костюме и обычаях древних народов, их формировании на протяжении веков, произошедших в них изменениях, их причинах и последствиях. Учебник основан на стандартной программе, утвержденной Министерством высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан, и предназначено для студентов, обучающихся по направлению 5321600 – Технологии и оборудования легкой промышленности. В зависимости от изменений продукции легкой промышленности на мировом уровне, история и композиция костюма имеет особое значение для передачи исторической культуры прошлого будущим поколениям.

ANNOTATION

The course of the history and composition of the costume is the theoretical basis of ancient clothing. This textbook contains information about the costume and customs of ancient peoples, their formation over the centuries that have taken place. The textbook is based on a standard program approved by the Ministry of Higher and Secondary Special Education of the Republic of Uzbekistan and is intended for students studying in the direction 5321600 - Technology and equipment of light industry. Depending on them changes, their causes and consequences. changes in light industry products at the world level, the history and composition of the costume is of particular importance for transferring the historical culture of the past to future generations

MUNDARIJA

KIRISH.....	6
Qadimiy Misr kostyumlari.....	7
Qadimiy Yunon kostyumlari.....	14
Qadimiy Rim kostyumlari.....	22
G'arbiy Evropa kostyumlari.....	30
Rus xalqi kostyumlari.....	51
Qadimiy Hind kostyumlari.....	56
O'rta Osiyo kostyumlari.....	64
O'zbek milliy kiyimlari kompozitsiyasi va tarixi.....	109
XIX asr oxiri -XX asrning birinchi yarmida o'zbek kostyumlari.....	125
Qadimiy Bobil-Ossuriya kostyumlari.....	138
Qadimiy Fors kostyumlari.....	143
Qadimiy Xitoy kostyumlari.....	147
Yaponiya kostyumlari.....	156
Glossariy.....	168

СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ.....	6
Древние Египетские костюмы.....	7
Древнегреческие костюмы.....	14
Древнеримские костюмы.....	22
Западноевропейские костюмы	30
Русские народные костюмы.....	51
Древнеиндийские костюмы.....	56
Среднеазиатские костюмы.....	64
История и композиция узбекского национального костюма.....	109
Узбекские костюмы конца XIX - начала XX веков.....	125
Древние Вавилонские костюмы.....	138
Древнеперсидские костюмы.....	143
Древнекитайские костюмы.....	147
Японские костюмы.....	156
Глоссарий	168

CONTENT

INTRODUCTION.....	6
Ancient Egyptian costumes.....	7
Ancient Greek costumes	14
Ancient Roman costumes	22
Western European costumes.....	30
Russian folk costumes	51
Ancient indian costumes.....	56
Central Asian Costumes.....	64
The history and composition of the Uzbek national costume.....	109
Uzbek costumes of the late XIX - early XX centuries	125
Ancient Babylonian costumes.....	138
Ancient Persian costumes.....	143
Ancient Chinese costumes.....	147
Japanese costumes	156
Glossary	168

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotida tub o'zgarishlar amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti asosan xomashyo yo'nalishidan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish yo'liga izchil o'tayotganligi, mamlakat eksport salohiyati kengayayotganligi ishlab chiqarishning har bir sohasi oldiga yangi vazifalarni qo'ydi.

Kostyum kompozitsiyasi va tarixini o'rganish talabalarga kostyumning kelib chiqishi, uning davrlar mobaynida o'zgarib borishi, inson ongi va tafakkurining o'zgarib borishi sari, kostyumda paydo bo'lgan o'zgarishlarni o'rganish, ularga e'tiborni qaratish, yoshlar tafakkuriga ijobiy ta'sir etibgina qolmay, balki tarixga, o'tmishga nazar tashlash va ularni o'rganish, kelajakda kostyumda yangiliklar yaratishni nazarda tutadi.

Libos esa kiyim, ust-bosh, odam egniga kiyadigan buyumlardir.

Kiyim - bu matodan qilingan, odam tanasidagi qobiq sistemasi bo'lib, eng avvalo, tanani tashqi muhit sharoitidan saqlaydi va insonning o'ziga xos ba'zi xususiyatlarini namoyon qilib, estetik funksiyalarni bajaradi.

Qadimdan hozirgacha insoniyat o'tmishi kostyum tarixida o'z aksini topgan. Har bir mamlakat va xalqlarning rivojlanish bosqichlari insoniyat kiyimida o'ziga xos xususiyatlarda ifodalangan.

Kostyum shakli paydo bo'lishiga, uning o'zgarishiga, mukammallashib borishiga quyidagilar sabab bo'lgan: tabiiy omil - koinot, yer, tashqi muhit, iqlim, fasl va b.; ijtimoiy-iqtisodiy omil - jamoaning tuzumi, xalqning tarixiy taqdiri, etnik guruhi va millati, din, turmush tarzi, fan va texnika rivojlanishda va b.; insoniy omil - jinsi, yoshi, gavda tuzilishi, psixologik turi.

Har qanday davr kostyumi san'at asari bo'lgan, chunki inson o'zining estetik didiga va tasavvuriga binoan badiiy obraz yaratgan. Kostyum davr va uslubga binoan o'zgarib turuvchi murakkab san'at asar va o'ziga xos kompozitsiyaga egadir.

Kostyum tarixini tadqiqot qilish uchun turli manbalardan foydalanish mumkin: davr va xalq tarixi, tasviriy san'at asarlari, amaliy san'at asarlari, adabiyot ma'lumotlari va saqlanib qolgan libos namunalari hamda moda jurnallaridan va boshqalar.

Ushbu darslik yozilishi jarayonida rus tilida nashr etilgan ko'pgina adabiyotlardan foydalanildi (adabiyot ro'yxati keltirilgan).

Qadimiy Misr kostyumlari



Miloddan avvalgi to'rtinchi ming yillikning oxirlarida qadimiy Misr yirik markazlashgan quldorlik mamlakati bo'lib, davlatni fir'avn boshqargan. Uning hukmronligi cheksiz edi. Misrliklarning tasavvurida fir'avn Xudoning yerdagi soyasi hisoblangan. Kohinlar (din ruhoniylari) fir'avnning cheksiz huquqini himoya qilib, ijtimoiy tengsizlik va zulmga imkon yaratishgan.

Nil daryosi vodiysining tabiiy sharoiti qadimiy Misr xo'jaligining rivojiga sabab bo'lgan. 1.1 – rasm. Qadimiy Misr



Misrliklar, asosan, dehqonchilik, chorvachilik va har xil hunarmandchilik (to'quvchilik, zargarlik, kulolchilik) bilan shug'ullanganlar. Mamlakat aholisi har xil tabaqalardan, ya'ni quldorlar, aslzodalar, shaharliklar, erkin dehqonlar va qullardan iborat edi.

Tabiat kuchlariga sig'inish va afsonalar Misr madaniyatining manbai bo'lgan. Odamlar quyoshga, oyga, yerga, suvga, hayvonlarga (timsohga, chiyabo'riga, sigirga, kalxatga, ilonga, qo'ng'izga va boshqalarga), o'simliklarga sig'inishgan. Din mamlakat hayotining barcha tomonlariga ta'sir etgan. Jumladan, san'atda, odamlarning estetik tasavvurida katta rol o'ynagan. Ilohiylashtirilgan narsalar doimo ma'no timsoli bo'lgan. Misol uchun, moviy nilufar — serhosillikni va abadiylikni bildirgan, ilon — saltanat belgisi bo'lgan.

Tasviriy san'at (devoriy tasvirlar) ramziy va chizmalı bo'lgan. Xususan, odamlar tasviri ham chizma shakl shartli ifodalangan. Devoriy tasvirlar va haykallarda ularning qomati, turishi, ishoralari qonunlashtirilgan edi. qadimiy misrliklar baland bo'yli, keng yelkali, beli va bo'ksasi tor, ozg'in bo'lishgan. Ayollari esa xushro'y, nafosatli, kelishgan, yuzlari va bodomsimon ko'zlari chiroyli bo'lgan(1.2-rasm). Taniqli sharqshunos olim G.Erbesning yozishicha, — **"Ularning tomirida bir tomchi ham chet elliklar qoni qo'shilmagan, odamlarining tana terisi qorachadan kelgan, sog'lom yuzlari qizil, qirra burun, keng peshonali, qaldirg'och qoshli, tim qora sochli bo'lgan. Bilaguzuklar bilan bezatilgan qo'l va oyoqlari go'zallik timsollari bo'lgan"**.

Me'morchilik misli ko'rilmagan yuksak darajaga erishgan edi. Misr ehromlari, ibodatxonalari, shaharlari hozirgi zamongacha odamzodni hayajonga soladi, ularning ko'p sirlari haligacha yechilmagan.



1.2-rasm. Misr ehromlari devoridagi suratlar.

Musiqqa, raqs, tasviriy san'at ham yuksak darajaga erishgan edi. Ehromlardan topilgan namunalar yordamida dekorativ amaliy san'at buyumlari bilan tanishishimiz mumkin. Ularning barchasi yuksak did bilan yaratilgan va hozirgacha insonni hayratda qoldiradi.

Misr — zig'irning vatani hisoblanadi. Nil daryosi vodiysining tabiiy sharoitlari ushbu o'simlikni o'stirishga qulay bo'lgan. Misr tikuvchilarining mahorati misli ko'rilmagan darajaga erishgan edi. O'sha zamon zig'ir tola matosining tashqi ko'rinishi va xususiyatlari to'g'risida hozirgacha saqlanib qolgan mato namunalari yordamida tanishish mumkin. 1sm² shunday gazmolda 84 tanda va 60 arqoq iplari o'tkazilgan; 240 m juda ingichka va hattoki ko'zga ko'rinmaydigan xom ipning vazni 1 g edi. To'quvchi bunday ipni faqat barmoqlari bilan sezardi. Misrning zig'ir tola matosining yupqaligi tabiiy ipak matolardan qolishmasdi. 5 qavat zig'ir tola gazlamadan tayyorlangan kiyim ostidagi tana aniq ko'rinar edi.

Matoning fakturasi ham har xil bo'lgan. Yangi podshohlik davrdagi to'rsimon, yaltiroq munchoqlar va tilla kashtalar bilan bezatilgan gazmollar odamda unutilmas taassurot qoldiradi.

Matolarning ranglari rangbarang bo'lgan. Rang tanlash tasodifiy bo'lmagan Zangori rang — Nil daryosi (suv) va osmonning; sariq rang — qum va yerning; yashil rang — o'simlikning; qizil — quyoshning timsoli hisoblanardi; qora rang bilan esa tasvirning chegarasi chizilardi.

Naqshda, asosan, quyosh nurlari, geometrik shakllar (yo'l-yo'l, ilonizi) va stilizastiyalangan o'simliklar va hayvonlar tasvirlanar edi (1.3-rasm).

Misr naqshining tekisligi, osoyishtaligi, vazminligi o'ziga xos xususiyatlarga ega edi.



1.3-rasm. Misr naqshlari

Qadimiy podshohlik kostyumi (miloddan oldingi 3000—2400 yy.)

Bu davrda, asosan, erkaklar faqat bir kiyim — peshband "*sxenti*"ni kiyganlar. Ular shakli to'rt burchak yoki trapestiyasimon bo'lib, o'lchamlari har xil edi. Sxenti belga ingichka charm kamar yoki tasma bilan biriktirilardi. Sxenti gavdaning orqasida burmalanardi, oldida esa qator ritmik taxlamalar qilinardi. Sxentining ustidan yoki tananing ustiga to'rt burchakli peshband kiyishgan(1.4-rasm). Boylar kuyimi zig'ir tolali matodan, qu'llarniki esa dag'al teridan qilinardi. Faqat fir'avn, vazirlar, koinlar va boy yer egalaring kiyimlari bezatilar edi.

Fir'avnning saltanat belgisi ilon "*urey*" va kalxat bilan bezatilgan toj edi (1.5-rasm).



1.4-rasm. Peshband "*sxenti*" ni har xil ko'rinishlari.

Uning ikkinchi bosh kiyimi "*plat*" bo'lgan. U trapestiyasimon shaklli bo'lib, yo'l-yo'l matodan tikilar edi, peshonasida esa tor tasma yoki metall chambarak bilan mahkamlanardi. Bo'yniga taqiladigan yumaloq marjonyoqa yerdagi turmush manbai — quyosh ramzini ifodalardi. Yoqa bir necha qavat yelimlangan matodan tayyorlanib, tasvirlar bilan bezatildi yoki to'rsimon to'qilib, qimmatbaho toshlar bilan bezatildi.


Cho'pon hassasi va sun'iy oltin soqol ibtidoiy qabilalardan qolgan ramziy belgidir. Soqolni tasma yordamida ko'zoynakga o'xshatib quloqqa mahkamlanardi. Fir'avnning soqolida ham "*urey*" qilinardi.

Misrliklar sochlarini butunlay olib tashlab, boshlariga o'simlik tolalaridan yoki jundan yasalgan parik kiyishardi. Bu pariklar ham bosh kiyim hisoblanib, boshni issiqdan saqlardi. Parikning katta-kichikligi va uning shakli shaxsning ijtimoiy holini ifodalardi. Yirik yer egalari bir necha kokildan iborat bo'lgan parik kiyishardi, mayda yer egalari va qullar esa kichik parik kiyishgan.

Kohinlarning kiyimi qimmatbaho kamar bilan bezatilgan. ibodat qilish paytida ular qoplon terisini yoki kalxat va boshqa niqoblarni kiyishgan.

Ayollar kiyimining shakli oddiy bo'lgan. U ikkita to'rt burchak matodan tikilgan ko'ylak "*kalaziris*" edi (1.6, 1.8-rasmlar). Kalaziris ko'krakning pastidan boshlanib, tovongacha yetardi va bitta yoki ikkita keng tasma yordamida yelkada

ushlanardi. Bu kiyimni barcha ayollar, hattoki fir'avn oila a'zolari va qullar ham kiyishgan. Ijtimoiy farqi faqat matoda bo'lgan: boylar — yupqa gazmoldan, qullar va dehqonlar esa dag'al matodan kiyganlar.



1.5-rasm. Misr kostyumlari.

Bu davrning oxirida kiyimlar shakli o'zgarib boshlaydi. Yangi, mukammalroq sxenti paydo bo'ldi. Burmalar va plissirovka bilan bezashga intilish boshlandi. Kiyimlarning rangi qizil, zangori, yashil bo'lgan. Duradgorlik rivoj topishi bilan sariq, jigir rang va feruza ranglar kirdi.

Oyoq kiyimi qamishdan to'qilgan shippaklar edi.

O'rta Podshohlik kostyumi miloddan oldingi 2400—1600 yy.)

Bu davrda viloyatlarning bir-biridan ajralib ketishi o'z-o'zi bilan ovora bo'lib qolgan hayotga olib keldi va shunga qaramasdan fir'avnning huquqi birmuncha oshdi.

Bu davr san'at yodgorliklarida sxentining ustidan yupqa matodan qilingan peshbandlar tasvirlangan. Ular to'rt burchak shaklli bo'lib, sal-pal burmalangandi.

Ayollarning kiyimi erkaklarnikiga o'xshash bo'lib, burmalari xali bir xil, didsiz qilingandi.

Oddiy aholida oddiy sxenti va kalaziris saqlanib qolgandi.



1.6-rasm.

Yangi podshohlik kostymi (miloddan avvalgi 1600 - 1050 yy.)



1.7-rasm

Bu davr misrliklarning giksosslardan ozod bo'lganligi bilan farqlanadi. Keng tashqi savdo ichki bozorda yangi noma'lum xashamatli narsalarning paydo bo'lishiga va san'atning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Kiyimda sinfiy farq, oldingidan ham ko'proq sezilardi. Aslzodalar va kohinlar kiyimi matosining yupqaligi bilan, tilla va sirlangan bezaklar, serburmalar va plissirovkalar bilan farqlanishi bilan birga harir bo'lgan ip va zig'ir matolardan tikilgandi. Xilma-xil ranglarga bo'yalgan matolarni ayol qullar kashtalardi.

Shu yangiliklarning kirib kelishiga qaramasdan kiyimning shakli o'zgarishi joriy qilingan chegaralarda sodir bo'lgandi. Tor, tanaga yopishib turgan kiyimga intilish, hattoki, burmalagan kiyimlarda ham sezilardi. Shu sababdan odamlar yo'rgaklanganga o'xshash bo'lgan va ularning harakatlari yodlangandek edi.

Bu vaqtda erkak va ayollar kiyimlarining bir-biriga o'xshashi qayd qilingandi. Erkaklarning kiyimi plissirovka qilingan yubka va yopinchoqdan iborat edi. Katta yumaloq yoqa — marjonni faqat fir'avn va uning oila a'zolari kiyibgina qolmay, balki, boy tabaqalar ham kiyishgan, kiyim turlari: sxenti, uch burchakli peshband va boshqa kohinlik anjomlari saqlanib qolgandi. Kambag'al aholi tabaqalarining kiyimlari oddiylicha qoldi.

Ayollarning kiyimi erkaklarnikiga o'xshash bo'lsa ham, tor ko'ylak kalaziris saqlanib qolgandi.

Misrlilar Suriyani bosib olgach, kiyinish madaniyatida birmuncha o'zgarish ko'zga tashlanadi. Xususan, Suriyadan yopinchoq plashch-naramnik kirib keldi. Uni nafaqat erkaklar, shuningdek ayollar ham kiya boshlaganlar. U to'rtburchak shakldagi matoni ikkiga buklanib, ikki yoni tikilgan, boshning kirib chiqishi uchun bo'yni kesilgan uzun kiyim edi. Ayollar charmli peshband va ko'krakpech kiyishgan.

Oyoq kiyimi juda oddiy bo'lgan. Bu charm yoki qamishdan ishlangan shippak edi. Ularning kostyumlarida har xil bezaklar bo'lgan: qo'l va oyoq bilaguzuklari, uzuklar, marjonlar, sirg'alar, tilla va sirdan yasalgan tilla qoshlar va boshqalar bo'lgan. Kambag'allar esa chinni pasta va sirlangan loydan yasalgan bezaklarni taqishgan. Erkak va ayollarning bosh kiyimlari juda xilma-xil va murakkab bo'lgan. Ularning shakli va bezagi shaxsning ijtimoiy holini ifodalardi.


Ayollar yuziga pushti-qizil upani surgan, qosh va kipriklarini qoraga bo'yashgan. Erkaklar esa kipriklarini yashil rangga bo'yar edilar. Qo'l va oyoq tirnoqlarini esa maxsus o'simlik (*genna*) bilan qizg'ish sariq rangga bo'yar edilar.

Misrda paydo bo'lgan badiiy elementlar keyinchalik boshqa madaniyatlarga ham ta'sir etib, rivojlanib, Evropa kostyumiga ham kirgan va hozirgi zamongacha saqlanib qolgan.



Tayanch iboralar; urey, plat, kalaziris, sxenti, naramnik.

Topshiriq savollari



nimalarni

1. Yangi podshohlik davri qaysi davrlarni o'z ichiga oladi.
2. Saltanat belgisi nima edi?
3. O'rta podshohlik qaysi davrlarni o' ichiga oladi?
4. Taniqli sharqshunos olim G.Erbes qadimiy Misr xalqi haqida yozgan edi?

Qadimiy Yunon kostyumlari



Qadimiy sivilizatsiyalarning badiiy merosida Yunoniston va Rim ustalarining ijodi muhim o'rin egallaydi. Yunonistonning ajoyib madaniyati Bolqon yarimorolining janubida miloddan avvalgi VII—I asrlarda ravnaq topgan. Uning tabiiy sharoiti, iliq, dengiz iqlimi, serhosil vodiylari va tor yaylovlari, boy foydali qazilmalari qadimiy yunonlarning asosiy turmush tarzini ifodalaydi. 2.1-rasm. Qadimiy Yunoniston




Yunonistonning siyosiy tuzilishi qadimiy sharq istibdodlaridan keskin farqlanardi. Yunoniston quldor mamlakat bo'lsa ham, uning asosi demokratiya edi. Erkin aholi teng xuquqlarga ega edi. Barcha muhim masalalar kengash va ovoz berish yordamida hal qilinardi.

Qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo iqtisodning asosi edi. Miloddan avvalgi V asrda mamlakatda san'at ravnaq topgan va bu asr Yunoniston tarixida "**Oltin asr**" deb ataladi. San'at asarlarida quldorlik demokratiyasining rivojlanishi, urf-odatlar, ozod ellarning qarashlari va didlari yorqin ifodalangan. Bu davrda Afinada qurilish, shahar markazini tiklash, yangi ibodatxonalarni va ijtimoiy binolarni (maktab, stadion va b.) qurilishi juda yuksak darajaga erishgan. Bu vaqtda ulug' Fidiy, Miron, Poliklet ajoyib haykallar va muhtasham binolar bunyod etganlar; Sofokl va Evripid tragediya va she'rlar yozgan va boshqa taniqli yozuvchilar, olimlar, faylasuflar ijod etgandi.

Bu davrda inson barkamolligi shuhratlangan. Mard va har tomonlama barkamol, mukammal odam siymosi estetik ideal bo'lgan. Kuch, go'zallik, sport bilan shug'ullanish natijasida garmoniyaga oid rivojlangan tana chiroy uchun eng zarur namuna bo'lgan. Yunonlar insondagi sog'liq va go'zallikni oldingi o'ringa, boylikni esa, keyingi o'ringa qo'yar edilar.

Yunonlarning dini afsonalardan ayrilmas edi. Ular tushunmagan narsalarga odam qiyofasini bergan edilar. "**Xudolarni o'ziga qaratish uchun, ularga odam qiyofasini berish kerak**" deb o'ylashgan(2.2-rasm). Yunonlarning xudosi ideallashgan mukammal odamning siymosi bo'lgan. Hayvonlar esa, san'atda insonga bo'ysungan va tabiat kuchini ifodalovchi bo'lib afsonalarga kirgan.

Vatanparvarlik, yuqori ong, barkamol insonning cheksiz qobiliyatiga ishonish, badiiy tilning oddiyligi va ifodaliligi, sharoitni to'g'ri aks ettirish — antik madaniyatning asosiy xususiyatlaridan biri edi.



2.2- rasm. Yunon ilohlari



2.3-rasm. Yunon naqshlari.

Antik san'at Evropa madaniyatining kelajagida muhim ahamiyat kasb etgan. Antik san'atdagi inson go'zalligi orasidagi tasavvurlar mujassamlanib, tarixda birinchi marotaba odamning tanasi va ruhi go'zallik, estetik idealning asosiga olingan. Polikletning nazariy asarida o'lchov birligi sifatida odamning bo'yi olingan. Yunon jamiyatida ayollarning xuquqlari cheklanganiga qaramasdan, ular siymolari san'atda sog'lom, yaxlit shaxs va har tomonlama barkamol ifodalangan

edi; Misol uchun, Afrodita iloxining (Venera Miloskaya. 2.2-rasm) haykali hozirgacha ayollarning go'zallik timsoli hisoblanadi.

Yunonlarning turmush tarzi va estetik tasavvurlari ta'sirida kostyumlari shakllangan. Qulay iqlim, odam tanasiga estetik qarash antik yunon kostyumi shakllarining uyg'unligini va yengilligini aniqlagan edi.

O'z kiyimlari uchun yunonlar yumshoq, to'kilib turadigan, yaxshi burmalanadigan matolarni qo'llagan edilar. Matolarni qo'lda to'quv dastgohda ishlab chiqarar edilar. To'quvchilik mahorati yuqori baholanardi. Afsonalar bo'yicha barcha Olimp ilohlari va boshqa a'zolari mashhur to'qimachilar bo'lishgan va o'zaro shu kasbda musobaqalar o'tkazishgan.

Yunon matolarining to'la tarkibi jun va zig'ir bo'lgan. Paxtani ular birinchi marotaba Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn)ning harbiy yurishlarida Hindistonda ko'rishgandi.

Yunonlarni kostyumning, asosan, plastik tomoni qiziqtirgani uchun, ular kiyimda sidirg'a matolarni qo'llashgan. Ko'k, qizil, to'qqizil, yashil, sariq, jigar-rang va, asosan, oq ranglar uchrardi. Kulrang va jigar ranglar motam ranglari edi. Sidirg'a gazmollar kashtalangan, applikatsiya qilingan yoki tasvirlangan hoshiyalar bilan bezatilgan. Me'morchilikda va amaliy san'atda naqsh buyumning bezagi bo'lgan. Naqshlar o'simlik shakllaridan uyg'unlik asosida ishlangan. Ikkinchi manba — geometriya bo'lgan. U go'zal, san'at har qanday shaklning asosi deb hisoblangan. O'simlik va geometrik tasvirlar, svilizatsiyalashgan tasvirlarda meandr, krit tulki va palmettalar eng ko'p uchragan.



2.4-rasm. Imperator va a'yonlari liboslari.


San'atning barcha turlari kabi yunonliklar uchun kostyum yaratish ijod edi. Matoning plastik xususiyatlaridan go'zallikni yaratib, yunonlar go'zallik qonunlari bo'yicha mato bilan ishlash mahoratini o'rganishgan.

Har xil yo'nalishlarda joylashgan, tana shaklini ko'rsatadigan va harakatlarga binoan o'zgaradigan burmalar kostyumning estetik asosi bo'lgan edi. Yunon kostyumini yaratish uchun gazmolning shunday fakturasini tanlash kerak ediki, qaysiki yaxshi taxlanib, naqsh va bezaklar bilan uyg'unlashsin. "**Odamning aqli bovar qilmaydi, qanday qilib qadimiy yunon va rimliklar shunday go'zal, o'ziga xos garmonik drapirovkalarni o'ylab topishgan**" Yunon kostyumining tuzilishi asosi to'g'nab qo'yilgan, mahkamlangan yoki gavdaga o'ralgan gazmol parchasi edi. Matoning eniga, uzunligiga, mahkamlangan joyiga, taxlanish usuliga, bukilish, o'ranish va joylanishiga qarab kostyumning har xil turlari yaratilgan.

Erkaklar va ayollar kiyimining asosiy turlari ko'ylak "**xiton**" va yopinchoq "**gimatiy**" bo'lgan. Ular to'g'ri to'rtburchak shaklida zig'ir yoki jun matolardan qilingan.

Erkaklar kostyumi. Erkaklar xitoni (2.5-rasm) ko'pincha bir parcha matodan qilinardi. Yon tomonidan qo'li uchun joy qoldirib tikilardi. Ba'zan, xitonning yon tomoni ochiq qoldirilar yoki yeng qilinardi. Bunday xiton yaxlit to'qilardi. Odatda, xitonning uzunligi tizzagacha bo'lgan, uzun xitonni esa kohinlar va aktyorlar turli marosimlarda kiyishgan. Xitondan, odatda, uyda yoki ichki kiyim sifatda foydalanishgan.

Eng keng tarqalgan ustki kiyim yopinchoq "**gimatiy**" to'g'ri to'rtburchak (1,7x4 m) jun matodan qilinardi. Uning eng keng tarqalgan kiyish usuli: sal drapirovkalanagan yoki taxlamalar hosil qilingan, bir tomoni chap yelkadan ko'krakka tushib turgan, ikkinchi tomonini esa orqadan o'ng qo'lining tagidan o'tkazilib, chiroyli taxlamalar bilan joylashtirilardi.



2.5-rasm. senator va magistratlar tunika va togada

Kengroq va uzunroq gimatiyni "**pallium**" yoki "**palladium**" deb atashgan va uni dramaturglar, notiqalar kiyishgan. Bu kiyim odamning tashqi ko'rinishiga ulug'vorlik salobatini berardi, drapirovka gavdaning plastik egiluvchanligini ta'kidlardirdi. Drapirovkalarining to'g'ri, aylana va egri yo'nalishda joylanishi va bitta yelkadagi markazga yig'ilishi tananing harakatlariga muvofiq bo'lib, bu obrazning dinamikligini ta'kidlardirdi.

Yunonlarning ustki kiyimi gimatiydan tashqari yopinchoq "**xlamida**" ham bo'lgan. Uni sayohatchilar va jangchilar kiyishgan. U ham to'g'ri to'rtburchak

matodan qilinib, gimatiyga nisbatan kaltaroq edi. Xlamida yelkaga tashlanardi va chap yoki o'ng yelkaga to'g'nag'ich "fibula" bilan mahkamlanardi. Erkin tomonlari chiroyli faldalar naysimon burma bilan to'kilib turardi, bir qo'li ochiq qoldirilardi. Odatda, xlamidani bosma movutga o'xshagan jun matodan tayyorlashgan.



2.6-rasm. Kalta xiton va fibulali plashda (erkak), peplosda (ayol)



2.7-rasm. Sayohatchi va jangchi gimatiy va uzun xitonda (sayohatchi) kalta xiton, dubulg'a "kirasa" va "kinemides" da (jangchi)

Yunonlar, ko'pincha, boshyalang yurishgan, ammo sayohatga keng soyabonli yumaloq, fetrdan tayyorlangan keng soyabonli shlyapa kiyishgan.

Jangchilar kiyimi. Ichki kiyimi kalta xiton bo'lgan, uning ostidan metaldan peshband kiyishgan. Xitonning ustidan sovut "kirasa", boshga dubulg'a (shlem) kiyishgan. Boldirni "kinemides" (2.7-rasm) bilan himoya qilishgan. Ustki kiyimi xlamida bo'lgan.

Kosiblar va qullar, odatda, yengsiz yoki kalta yengli dag'al jun matodan xiton kiyishgan. Qullar esa, o'ng tomoni ochiq "ekzomida" yoki ishlagan paytda peshband kiyishgan.

Ayollar kiyimi. Yunon jamiyatida ayollarning xuquqlari cheklanganiga qaramasdan, avlodlar tarbiyalagan go'zallik tuyg'usi, umumiy madaniyat rivoji yunon ayolining kiyim bichimini aniqlar edi. Kiyim ayol qomatining chiroyini ko'rsatishi, to'kilib turishi lozim edi.

Insoniyat tarixida yunonlar birinchi bo'lib topgan drapirovkalarining joylanishi va ritmikasi badiiy birlik qonuniga itoat etgan.

Ayollarning kiyimlari erkaklarnikiga nisbatan xilma-xil bo'lgan. Asosiy kiyimi hisoblangan xiton va gimatiydan tashqari boshqalari ham bor edi.

Xitonning bir necha turi bo'lgan: qaytarmali (yoqasimon) xiton "**diplodiy**", keng "**ionik**" yoki tor "**darik**" xitonlar. Diplodiy odamning bo'yidan 60-70 sm uzunroq to'g'ri to'rtburchakli matodan qilinib, yon tomonlari tikilmasdi. Tapa tomoni esa qaytarilardi va yelkasi to'g'nag'ich "**fibula**" bilan mahkamlanib, drapirovkalanardi. Xitonning qaytarmasi boshqa rangli mato bilan yoki kashta bilan bezatilib, diplodiyning erkin faldalari va drapirovkalari bilan uyg'unlashgan.



2.8-rasm. Yunon naqshlari va kostyumlari

Eng oddiy xiton — darik xitoni edi. U bo'y baravar bir parcha matodan qilinib, yelkasi fibulalar bilan mahkamlanardi, yon tomoni esa ochiq, tikilmasdan qolardi. Ba'zan u ikkita parcha matodan, orqa bo'lagi uzunroq, qilinib, boshga yopinchoq, sifatida tashlanardi

Spartan qizlari o'ng tomoni tikilmagan va yelkasi biriktirilmagan xiton "**peplos**"ni kiyishgan. Odatda, Afina peplosda tasvirlanardi. Eng murakkab, serdrapirovkalangan go'zal ayollar kiyimi — ionik xiton bo'lgan. U ikki parcha keng, uzun, yumshoq matodan qilinib, yelkasi ko'pgina fibulalar bilan mahkamlanib, ser drapirovkalarni hosil etardi.

Xitonlar belidan, ko'kraginging pastidan yoki bo'ksasidan belbog' bilan bog'lanardi, ortiqcha uzunligi belbog'ning ustidan tushirib qo'yilib, "**klopos**"ni(2.11-rasm) hosil etardi. Ba'zan xitonlar ikki joyidan bog'lanardi, ayniqsa, ionik xitonlar turli usulda bog'lanar edi. Ayollarning ustki kiyimi xilma-xil drapirovkalangan gimatiy edi. Ayollar gimatiyi erkaklarnikiga nisbatan kichikroq

ammo ko'rinishi go'zalroq, edi. Ayollarga xiton va gimatiysiz ko'chaga chiqish taqiqlangandi, erkaklar esa gimatiyni xitonsiz kiyishardi.

Hunarmand va savdogar tabaqasiga mansub ayollar jun yoki zig'ir matodan sipo xiton va gimatiy kiyishgan, ko'chaga chiqqanlarida gimatiy bilan boshlarini ham yopishgan. Qullar, odatda, o'z milliy kiyimini kiyishardi.



2.9-rasm. Diplodiy

Yunon ayollari husniga go'zal soch turmaklari (pricheskalar) yanada husn qo'shardi. Sochlari uzun bo'lib, Gomerining "**tillajingalak**" sochlari eng chiroyli hisoblanardi. Sochni orqaga turmaklash usuli "**korimbos**" klassik usul, deb hisoblanardi. Ayollar ko'pincha sochini tasmalar va to'rlar bilan bezatishardi.(2.10-rasm).

Ayollarda bosh kiyimi asosan bo'lmagan, ular namgarchilikda gimatiyni boshga tashlab yurishgan yoki dumaloq, poholdan qilingan shlyapa "**foliya**"ni kiyishgan.



2.10-rasm. Ayollar soch turmaklari, diadema va bezaklari.

Ayollarda kiyimiga qo'shimcha soyabon va bargsimon elpig'ich (2.8-rasm)bo'lgan. Oyoq, kiyimlari turli shaklli shippaklar edi. Ular yorqin rangli charmdan qilinib, oltin va kumush bilan bezatilardi.

Zargarlikda Yunoniston yuksak mahoratga erishgan. Sirg'alar, marjonlar, kameya va intaliyalar, uzuklar, zanjirlar, tillaqosh "*diadema*"lar, bilakuzuklar oltin va kumushdan ishlangan va qimmatbaho toshlar qadalib, uyma naqshlar bilan bezatilgandi.

Yunon ayolini kosmetikasiz tasavvur qilish mumkin emasdi. Ular bronza oynaga qarab yuzlarini qizilga, lablarini, qosh va kipriklarini bo'yashib, atirlar separ edilar. Atirlari nozik flakon "*lekif*"larda saqlanardi, bu idishlar haqiqiy san'at asari bo'lgan. Insoniyat ko'p marotaba yunonlar kiyimiga o'xshash kiyim yaratishga intildi, ammo qadimiy Yunonistonda o'ziga xos sharoitlarda san'at asosida yaratilgan kostyumlarning plastik go'zalligi faqat o'z davri sharoitida kamolotga erishishi mumkin. Lekin antik kostyumning asosiy badiiy elementlari — umumiy plastik shakli, mutanosibliklari, drapirovka ritmlari Evropa madaniyatining boyligi bo'ldi va keyingi davrlarda Evropa kostyumining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.




2.11-rasm.

Tayanch iboralar



Instita, senator, magistrat, diadema, lekif, korimbos, foliya, ionik, darik, diplody:



Topshiriq savollari

1. Yunonistonni "Oltin asr" deb nomlanishiga asosiy omillar nima edi?
2. Qadimiy Yunoniston estetik ideali kim edi?

3. Qadimiy Yunon ayollari kostyumlari nomlari nima edi
4. Qadimiy Yunon erkaklari kostyumlari qanday edi?

Qadimiy Rim kostyumlari



Qadimiy Rimning tarixi miloddan avvalgi VIII asrdan boshlanib, milodning V asrida qullarning qo'zg'oloni va vahshiy qabilalar hujumidan keyin nihoyasiga yetgan edi. Rim mamlakati harbiy imperiya bo'lgan. Rimning tarixiy taqdiri uning tabiiy sharoitlari bilan asoslangan edi. Serhosil yerlarning kamligi Rim jamiyatining harbiylashtirilishiga sabab bo'ldi va rimliklarni bosqinchilik urushlariga olib keldi. Yashash uchun kurash rimliklarni qiyinchiliklar bilan kurashga chorladi, og'ir turmush sharoiti esa ularni juda ishbilarmon odam qildi.

Rim jamiyatining aniq, sinfiy tabaqalanishi qadimiy rimliklarning kostyumida o'z ifodasini topdi. Bir tomonda erkin aholining murakkab, hashamatli, yorqin va rang-barang kiyimlari bo'lsa, ikkinchi tomonda esa, qullar va kambag'allarning oddiy dag'al kiyimlari bo'lgan.

Lekin Rim jamiyatida quldorlar orasida ham tengsizlik bor edi. Ayniqsa, sinfiy tabaqalanish Rim imperiyasida (I—V asrlar) kuchayib ketgan edi. Aholining har xil tabaqalarining kiyimi ularning jamiyatda egallagan o'rni bilan bog'liq edi. Ba'zan, kostyumda maxsus belgilar uchrar edi. Kiyimda zamon ruhidagi dabdabalik misli ko'rilmagan darajaga yetib, ma'naviy madaniyatni juda past darajaga tushirdi.



3.1-rasm. Qadimgi Rim

Qadimiy rimliklarning kiyimi respublikachilik davrida yaratilgan. Jangovar jangchi va basavlat ayollar ularning estetik ideali bo'lgan. Murakkab kiyimlar gavdaga savlat va salobat baxsh etgan.

Kiyim tayyorlash uchun qo'llangan matolar: jun, zig'ir va sharqdan olib kelingan harir shoyilar bo'lgan. Kostyumda yorqin ranglar qo'llanar edi: qizil, binafsha, to'qqizil (qirmizi) va sariq. Oq rang tantanali deb hisoblanardi.

Chetdan qaraganda, rimliklarning kostyumi yunonlarnikiga o'xshash bo'lib, ammo bu o'xshashlik faqat niqob edi, chunki yunonlar va rimliklarning kostyumlari drapirovkalanardi. Ammo Rimda odamning go'zalligi to'g'risidagi tasavvur va kostyumning estetik baholanishi Yunonistonga nisbatan mutlaqo boshqa edi. Rimda go'zal odam tanasiga sig'inishmas edi. Rimda iqlim sovuqroq

bo'lgani uchun kiyimlar yopiq bo'lib, issiq saqlashi kerak edi. Bundan tashqari, Rimning oliy tabaqalari yunonlarga nisbatan boshqacha bo'lgan. Ular ishlamagan va shuning uchun ularda tananing mashq qilishiga ehtiyoj yo'q edi. Rimliklarning kostyumi, harbiy kostyumdan tashqari, tez harakat qilishga imkoniyat bermas edi. Umuman, sekin yurish, kostyumdagi benuqsonlik va sun'iy harakatlar nazokatning cho'qqisi deb hisoblangandi.

Erkaklar kostyumi. Rimliklar kostyumining asosi ichki kiyim "*tunika*" va ustki kiyim "*toga*" bo'lgan. Ularning ko'rinishi yunonlar kiyimiga o'xshash edi, ammo bichimi va mohiyati bilan farqlanardi.

Tunika — to'g'ri shaklli, yengli, bichilgan ichki kiyim bo'lgan. Uning asosiy turlari "*kolombium*", "*talaris*" va "*dalmatika*" bo'lgan.

"*Kolombium*" — uzunligi boldirgacha bo'lgan, keng emas, kalta yengli tunika. "*Talaris*" — boylarning uzun yengli tunikasi. "*Dalmatika*" (3.2-rasm)— uzunroq, keng yengli, yoyilib turganda xoch (krest)ga o'xshagan kiyim. Shuning uchun dalmatikani nasroniylar kiyishgan (rimliklar avval butparast edilar, I asrdan boshlab nasroniylikni qabul qilishgan), sarkardalar kiyishgan qirmizi rangli tunika eng bashang kiyim edi. Uni palmettalar bilan kashtalangan qirmizi matodan tikishardi. Senatorning tunikasi vertikal qizil chiziq bilan bezatilardi va shu bilan u farqlanardi.

Salqin paytlarda rimliklar baravariga bir necha tunika kiyishardi. Misol uchun, imperator Avgust birdaniga to'rtta tunika kiygandi.




3.2-rasm. Dalmatika.




3.3-rasm "toga preteksta"

Rimning ramziy ustki kiyimi "*toga*" bo'lgan. Uni faqat erkin rim fuqarolari kiyishi mumkin edi. Chet elliklar va qullarga togani kiyish man etilgandi.

Toga katta to'g'ri to'rtburchak (6x1,8 m) yoki ellipssimon jun mato parchasidan qilinardi. Toganing murakkab drapirovkalarini hosil qilish juda qiyin edi, shuning uchun bu ishni qullar bajarardi.



3.4-rasm. Rim sarkardasi va jangchilari
Tunikada, u ichki kiyim bo'lgani uchun, ko'chada yurish mumkin emas edi.




3.5-rasm.

Qirmizi rang saltanat ramzi bo'lgan. Qirmizi rangli togani faqat imperator kiyishi mumkin edi. Qirmizi chiziqda "*toga preteksta*"ni (3.3-rasm) magistrat, stenzor, pretor, kvestor va koinlar kiyishi mumkin edi. Saqlanib qolgan qadimiy odatga binoan, toga protekstani 17 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar kiyishardi. 17 yoshga to'lgan kundan boshlab ular oq togani kiyar edilar, bu balog'atga yetganlik ramzi edi.

Togadan tashqari "*lasterna*" tantanali plashch, deb hisoblanardi. Lasternaning uzunligi tizzagacha bo'lib, unga qo'llangan matolar juda qimmatbaho, ya'ni tilla va kumush bilan to'qilgan edi. Odatda, uni orqaga tashlab, ikki yelkani yopishar va ikki uchini bo'ynining oldida maxsus to'qa "*fibula*" bilan biriktirib qo'yishardi. Keyinchalik lasterna o'zgarib boshladi va oddiy matodan qilingan oq toganing ustidan kiyadigan plashch bo'lib qoldi.

Rim imperatori va yuqori lavozimli shaxslar, odatda, "*poludamentum*" — o'rtacha hajmli, uzunligi tizzadan sal pastroq, plashch kiyishgan. Poludamentumni orqaga va chap yelkaga tashlab, o'ng yelkada fibula bilan qistirib kiyishgan. Ba'zan, uni sharsimon taxlab, chap yelkaga tashlar edilar va uni bir necha marotaba chap qo'lga o'rashardi.



3.6-rasm.

Jangchilar katta bo'lmagan jun mato parchasidan qilingan plashch "*sagum*"ni kiyishardi. Kambag'allar va qishloqliklar dag'al jundan plashch "pengla"ni kiyishgan. Uning shakli yarim doira yoki doira edi, bosh uchun kesim qilib, kapyushon tikib qo'yar edilar. Biroq, ko'pincha qimmatbaho matodan qilingan penulani rimlik oliftalar ham kiyishgan.

Rimliklar ishton kiyishmagan. Biroq shimolda ular bu kiyim turini ko'chmanchi qabilalardan olishgan. III asrdan boshlab ko'p rimliklarning garderobiga ishton kirgan edi, ayniqsa harbiylarda.

Erkin rimliklarning oyoq kiyimi shippak va nimetik bo'lgan. Ular toga bilan kiyilishi shart edi. Shippaklar tasma yordamida oyoqqa mahkamlanardi. Ular rang-barang charmdan tayyorlanib, kumush va oltin to'qalar bilan bezatilardi. Kambag'allar va qullar oddiy yog'ochdan tayyorlangan boshmoqni kiyishgan. Rimliklarning soch turmaklari har xil edi. Sochlari jingalak yoki silliq bo'lgan. Odatda, ular soqollarini qirib tashlar edilar, ammo kichkina jingalak qilingan soqol ham qo'yishgan. Kostyumga qo'shimcha bezaklar: uzuklar, to'qalar, yumaloq "*bull*"lar va gullar, yaproqdan gulchambarlar taqishgan, harbiy sarkardalar oltindan yasalgan gulchambarlar bilan yasanishgan.

Ayollar kiyimi. Rimda ayollarning o'rnini yunon ayollariga nisbatan boshqacha bo'lgan. Ular katta yuridik huquqlarga ega bo'lib, izzat-hurmat qilinardi. Ammo Yunoniston va Rimning ijtimoiy tuzumining o'xshashligi va yunon madaniyatining ta'siri natijasida qadimiy yunon va rim ayollarining qiyofasida o'xshashlik bor edi. Qadimiy rim ayollari kiyimining badiiy tomoni shaklni drapirovka yordamida yaratishga asoslangan, ammo rimliklar kiyimining gdrapirovkasi yunonlarnikiga o'xshash plastik bo'lmagan. Ayollar kiyimi tunika, "*stola*" va "*pall*adan iborat edi.

Oldingi bezak elementlari kiyimda ko'p joy egallamas edi. U vaqtda kiyim tor va to'g'ri shaklli tunikadan iborat edi. Tunikaga tikilgan yumshoq charm tasma ko'krakni ushlab turar edi.

Tunikaning ustidan kengroq, uzun, xitonsimon "*stola*"ni kiyishardi. Agar tunika yengli bo'lsa, stola yengsiz edi va aksincha. Stolani belbog' bilan bog'lashardi, ortiqcha uzunlikdan "*buf*" hosil qilishardi. Ko'pincha stolani ikkita belbog' bilan bog'lashardi: odatda, birining ustiga ikkinchisini ko'ndalang qo'yib mahkamlanardi. Tunika va stolaga qo'llangan matolar har xil edi: qalinrog'i ichki kiyimga, yupqa va qimmatbahosi — ustki kiyimga. Stolaning etagi keng quyma burma "*instita*"(3.7-rasm)bilan bezatilardi.

Ayollarning ustki kiyimi yunonlarning gimatiyiga o'xshagan "*yopinchoq*," "*palla*"(3.7-rasm)bo'lgan. Uni turli usulda kiyishgan. Plashch palla gavdaning atrofida aylana drapirovka qilinardi. Uydan chiqqanda rim ayollari boshlarini va yuzlarini to'r bilan berkitishardi.

Yosh qizlar pallaning o'rniga kalta, tizzadan yuqorida bo'lgan "*tunika interior*"ni kiyishgan. Balog'atga yetganda va to'y kunida ular tor, uzun belbog'siz "*tunika tekta*"ni kiyishgan.



3.7-rasm. Rim ayollari liboslari.



3.8-rasm. Qadimgi rimliklar sig'inishgan xudolar

Imperiya davrida boylikka intilish ayollarning kiyimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xilma-xil ranglarga bo'yalgan yupqa matolar paydo bo'lgan. Ayniqsa, Yunon va Ossuriya ipaklari boshqa shoyi gazmollardan afzalroq hisoblangan.

Shoyi matolarga qiziqish shunchalik zo'r ediki, hattoki bir qadoq shoyining narxi bir qadoq oltinga teng edi.

III—IV asrlarda asta-sekin drapirovka yo'qoladi. Qimmatbaho, og'ir, yirik naqshli matolar Yunon va Ossuriya matolarining o'rniga keladi. Kiyim og'ir, shakli yassi va tananing go'zalligini ko'rsatmaydigan bo'ldi. Plastik stolaning o'rnini uzun, tor, keng yengli, qalin gazmoldan qilingan "*dalmatika*" (3.2-rasm) egalladi.

Rim kambag'al aholi dag'al matodan qilingan tunika(3.9-rasm) va palla kiyishardi. Ko'chaga chiqqanda ular boshlariga pallani o'rab yurishardi.

Boy ayollar kashta va metall to'qa bilan bezatilgan yumshoq boshmoqni kiyishgan. Ularni qizil, oq, to'q sariq (zafaron) charmdan qilishardi.

Rim patristiankalarining soch turmaklari xilma-xil va murakkab bo'lgan. Ular sochlarini to'g'ri farq ochib, silliq tarashar, ba'zan uzun kokillar yoki yunonlarnikiga o'xshash pricheskalar qilishardi. Lekin karkasda mahkamlangan kokillardan qilingan baland pricheskalar, darhaqiqat, rim ayollariniki bo'lgandi. Agar o'zining sochi yetmasa, sun'iy sochlarni qo'llashardi.

Patristiankalar o'z kiyimini oltin, marvarid va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargar buyumlari bilan bezatar edilar. Kiyimga qo'shimcha qilib patdan yasalgan yelpig'ich olib yurishardi.

Rim matronalari suhbat paytida, ko'pincha, qo'lida qaxrabo (yantar) soqqa ushlab turar edilar. Ayollar ko'p miqdorda har xil kosmetik vositalarni ishlatar edilar: hidli yog'lar, sirkalar, upa va boshqalar.

Rim imperiyasi barbod bo'lgandan keyin (476y.) antik quldorlik dunyosi ham yo'qoldi. Qadimiy dunyo tarixining so'nggi bosqichi yakunlandi. Lekin ularning yaratgan madaniy merosi jahon tarixida muhim o'rin egallaydi



3.9-rasm. Tunuka



3.10-rasm. Ayollar penulasi



3.11-rasm. Ayollar tunikasi




3-12-rasm. Rim sarkardasi va askarlari kostyumlari



Tayanch iboralar: tunika,

Topshiriq savollari




1.Rimliklarning estetik ideali kim edi?

2. Rim saltanat ramzi.
3. Qirmizi chiziqdagi "toga preteksta"ni kimlar kiygan?
4. Rimliklarning ramziy ustki kiyimi
5. Rimda 17 yoshdan boshlab o'smirlar kiyimlari

G'arbiy Yevropa kostyumlari



Qadimiy Rimning 476 yilda fojiali halokatga uchrashi bilan uning texnik va badiiy madaniyati uzoq muddatga esdan chiqdi. Quldorlik tuzumi va antik sivilizastiya vayron bo'lgan edi. Shundan so'ng bir necha asrlar davomida Yevropa mintaqasida barqaror qudratli mamlakatlar faoliyat ko'rsatmagan yoki paydo bo'lishi bilan yana barbod bo'lgan. Nihoyat, Yevropada birinchi mustahkam mamlakat — franklar davlati — IX asrning oxirida paydo bo'lgan edi.



4.1-rasm. O'rta asr Yevropa

O'rta asr Yevropa mamlakatlari yangi feodal ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosida qurilib, jamiyat asosiy kuchlari — feodallar va ularning qaramog'idagi dehqonlardan iborat bo'lgan.

IX asrda Yevropa xalqlari nasroniylikni qabul qilishgach, cherkov odamlar hayotida muhim rol o'ynay boshladi. Monastirlarda qishloq ho'jaligi, hunarmandchilik va har xil san'at turlari: miniatyura san'ati, kitoblarni ko'chirib yozish, zargarlik kabi sohalar rivojlantirildi.

X asrga kelib Yevropa mamlakatlarida feodalizmning shakllanish jarayoni tugadi. Bu yerda jamiyat madaniyati tarixi ikki asosiy davrdan iborat: ilk o'rta asrlar (IX— XII) va kech o'rta asrlar (XIII—XV)ga bo'linadi.

Jamiyatda dinning roli kuchli bo'lgani natijasida din ta'sirida yangi estetik g'oya paydo bo'lgandi. Bunga ko'ra odamlar dunyo lazzatlaridan voz kechib yashaganlar. Ibodatxonalarining freskalarida nomutanosib, azob - uqubat chekkan, jinssiz odamlar tasvirlangandi.

Ilk nasroniylik san'atida keng tarqalgan Bibi Maryam siymosi ayollarning go'zallik ideali bo'lgan. Ammo o'rta asr estetik tasavvurining paydo bo'lishida faqat din asos bo'lmadi. Unda xalq va ristarlik ideallari ham muhim rol o'ynadi. "Roland to'g'risida qo'shiq", "Nibelunglar to'g'risida qo'shiq", shuningdek, "Trubadurlar" poeziyasida bular o'z ifodasini topgan. Ristarning kuchi, jasorati, mardligi, o'z vatanining himoyachisi ekanligi uning tashqi ko'rinishida aks etgan.

Ular kuchli, epchil, chidamli, jasur, irodali, keng yelkali jangchilar sifatida tasvirlangan.

Yevropa jamiyati estetik qarashida birinchi marta jasoratli erkak go'zalligi ayollar go'zalligini ifodalaydigan nazokatga qarama-qarshi qo'yilgan.

XI—XII asr shoirlari ma'lumotlari bo'yicha, ayollar jingalak tilla sochli, gulgun chehrali, endigina uzilgan shaftoli kabi labli bo'lishi kerak edi. Ularning go'zalligi, rahmdilligi, vafodorligi ritsarlar musobaqalarida tarannum qilinardi. Noziklikning, nimjonlikning, nafislikning ramzi bo'lgan atirgul timsoli keng tarqalgandi. Ovqatlanadigan stolni atirgullar bilan bezatar edilar, gul barglari vino kosalariga solinardi. Aynan, shu shafqatsiz, zulmat bosgan davrda "go'zal ayolga" sig'inish paydo bo'lgandi va bu kelajak avlodlarning ayolga bo'lgan munosabatiga katta ta'sir etdi.

Ilk o'rta asr davr san'atida Roman badiiy uslubi vujudga kelgan edi. Bu uslubda diniy-feodal mafkura hukmron edi. Uning asosiy xususiyatlari dabdabalilik,



ulug'vorlik bo'lib, qurilishlar og'ir va salobatli, inshootlarning devorlari qalin, eshik va yarim doira shaklidagi derazalari tor qilingandi. Qurilish materiali mahalliy rangli granit toshi bo'lgan. Roman uslubidagi binolarning ichki ko'rinishi zulmat bosgan me'morchilikka mos edi. Bu to'q ranglar, gumbazsimon shiftlar, teri bilan qoplangan terrakota rangli pollar, yog'ochdan yasalgan panellar, xonani yoritish va isitish uchun kaminlar, devorga temir halqa yordamida mahkamlanib, yonib turgan mash'allar edi.


4.2-rasm. Erkaklar va ayollar kostyumi, Roman uslubi. Ichki kiyim "kamiza".

Ritsarlarning salb yurishidan keyin savdo-sotiq, hunarmandchilik rivojlandi, shaharlar o'sa boshladi, shahar madaniyati rivojlandi. Dorilfununlar ochildi. Shaharlarning markaziy maydonlarida hashamatli butxonalar, shahar idora markazi "ratushalar" qurilgan. San'atda Gotik uslubi yuzaga keldi.

Gotik uslubi Roman uslubining asosida paydo bo'lsa ham, undan ancha farqlanardi. Bu uslubda me'morchilik va anjomlar qatori kostyumlarda ham yengil, nafis shakllar ustunlik qilardi. Gotik uslubning intereri unchalik zulmat bosgan emas edi, yorug'ligi ko'proq edi. Salb yurishlari qatnashchilari Sharqdan olib kelgan qimmatbaho buyumlar (yumshoq gilamlar, idishlar va b.) paydo bo'ldi.

Fransiya o'rta asr klassik mamlakati, Parij esa o'rta asr toji deb hisoblanardi.

Roman uslubi kostyumlari (IX—XII asrlar): Bu davrda, odatda, mato va kiyimlar feodallar qarorgohida ishlab chiqarilardi. Faqat XI asrda shaharlarning rivojlanishi bilan kiyim tikadigan sexlar paydo bo'ldi. Kiyim jun va zig'ir matolardan qilinardi. Rim savdogarlaridan sotib olingan shoyi boylik ramzi edi va faqat boy feodallargina shoyidan kiyim kiyishi mumkin edi.



Yuqori tabaqalar kiyimi, asosan, yorqin rangli (ko'k, yashil, qirmizi) matolardan, oddiy tabaqalarniki esa to'q ranglardan (kul va jigar rang) tikilardi. Odatda, sariq rangli kiyimni kiyishmasdi, chunki bu rang xiyonat va nafrat ramzi hisoblangan. Umuman, ramziylik o'rta asr san'atiga mansub edi. Oq rang — soflik, ishonch, sadoqat; qora — qayg'u; zangori — nafislik ramzi bo'lgan. O'rta asrlardan boshlab jallodlar butunlay qizil rangli (qonning rangi) kiyim kiyishgan.

4.3-rasm. Ayollar kostyumi. Roman uslubi. (kotta)

Matolar sidirg'a bo'lgan, kiyimlarning chegarasi mo'yna, naqshli hoshiya yoki kashta bilan bezatilardi.

Sinfiy farq kiyimlarda, asosan, matoning sifati va bezakning qimmatbaholigi bilan belgilangan. Barcha kostyumlarning shakli va bichimi juda oddiy va odmi bo'lgan. Ilk o'rta asrlarda, asosan, qoplanma kiyimlar bo'lgan. Gavdani imkoniyat boricha yopishardi — bunda din ta'siri sezilardi. Ayollar kiyimi yopiq va uzun, erkaklarniki esa uzun yoki kaltaroq bo'lardi. Iqlim ham o'rta asr kiyimining tuzilishiga ta'sir etgan.

Erkaklar kostyumi. Erkaklar kostyumi birining ustidan biri kiyiladigan ikkita ko'ylak "tunika" va yopinchoqdan iborat edi. Oldin tunikalar kalta, tizzagacha bo'lgan, XI asrdan boshlab ular boldirgacha uzaydi, kaltasini faqat yoshlar va dehqonlar kiyishgan. Bu davrda kostyumning farqi yoshga qarab o'zgarardi. Odatda, keksaygan odamlar juda kalta, juda tor va juda yorqin rangli kiyimlarni

kiymas edilar. Qirol tunikasining uzunligi yerga tegardi. Tunika doimo beldan bog'lanardi, ba'zan, belbog'ning ustidan kiyim osilib turardi.

Ichki tunika "**kamiza**" yaxlit bichilgan uzun yengli edi, ustkisi esa —"**kotta**" yengsiz yoki keng kalta yengli bo'lgan. Yoqa o'mizi to'g'ri to'rtburchak yoki ovalsimon edi.

Kotta, kamizaga nisbatan, qimmatroq matolardan tikilardi. Sovuq paytda ustidan "**rob**" (nimchaga o'xshash) va o'ng yelkada to'qa bilan mahkamlangan yopinchoqni kiyishgan. Oddiy aholi ko'pinchaplashch penulani kiyishardi. Yunon va rimliklardan farqli ravishda erkaklar ishton kiyishgan. Matodan bichilib tikilgan ishtonlar tor, oyog'iga yopishib turgan va uzun bo'lgan. Qizil ishtonlar eng modabop edi.



4.4- rasm. Naramnik miparti.

Oyoq kiyimlari rangli yumshoq charmdan yoki matodan tikilgan, qattiq tagliksiz, uzun tumshuqli yumshoq boshmoqlar edi.

Sochlarini aylana shaklida qisqa qilib qirqib, peshanaga gajak qilishgan. XI asrda esa uzun sochlarini yelkaga tashlab yurishgan.

XII—XIII asrlarda tikish usuli takomillashishi bilan kiyim xilma-xil bo'la boshladi. Cherkovning talablariga qarshi kiyim torayib, gavdaning tepa qismiga yopishib turadigan bo'lgan edi.

Erkaklar kostyumi avvalgiday ikkita tunika — kamiza va kottadan iborat edi. Kottani yelkasi juda tor bo'lib, u yon qiyiqlar yordamida pastiga kengaygandi. Aslzodalar uzun, past tabaqalar — kalta kottani kiyishardi.

Kotta yengli yoki yengsiz bo'lishi mumkin edi. Uning oldi berk bo'lgani uchun boshdan kiyilardi, shuning uchun old yoqa o'mizi sal qirqilib, bog'ichga bog'lanar edi.

Bu davrda erkaklar kiyimi shakli va bichimi ristarlar sovuti ta'sirida edi. Kiyimlari tanaga yopishib turadigan shaklda bo'lib, paxta bilan qavilgandi. "Blio" (ristar sovutiga o'xshash) — belidan pastroq kesilgan berk qoplanma ustki kiyim. Tepa tomoni yelka, ko'krak va belga yopishib turib, bo'ksasidan esa kengaygandi. Pastki bo'limi ikki yarim doyira shaklida bichilib, old va orqasiga tikilgandi. Uzunligi tizzasigacha yoki undan sal pastroq bo'lgan. Yaxlit bichilgan tor yenglarining uchi konussimon kengaygandi. Kontrast rangli ichki tunikasi etakning yon kesimlaridan ko'rinardi.

"Shoss"lar — yumshoq movutdan bichilib tikilgan, tor oyoqqa yopishib turadigan ishton-paypoqlar edi. Ularning poshnasi alohida kiyilib tepasi tasma yordamida yelka uslubi kiyimining belbog'iga biriktirilardi. Ishtonning pochalari o'zaro biriktirilmasdi, keyinroq ular old va orqa uloqlar yordamida ulanib qo'yilardi.



4.5-rasm."Syurko".

Ayollar kostyumi. Ayollar kostyumi, erkaklarniki singari, birining ustidan biri kiyiladigan uzun tunikalar edi. Ichki tunikani ichki ko'ylak "**kamiza**"ning ustidan kiyishardi. Tunikalar "**kotta**" va "**syurko**"(4.5-rasm) deb atalardi.

Kiyimning silueti yelkasi tor va etagi juda keng trapestiyasimon bo'lgan. Odatda, ko'ylaklar yoqasiz, berk edi. Bel chizig'i ko'tarilgandi. XI asrdan boshlab uzun yubkaning etagi yonidan yoki oldidan ko'tarilib, qorinning ustida burmalangan, chunki bu davrda urushlarda, vabo va o'lat epidemiyalari natijasida ko'p odamlar halok bo'lgan va shuning uchun aholini ko'paytirish kerak edi va homilador ayollar izzat-ikromda bo'lgan edilar.

Kotta (4.3-rasm) yangi tor va uzun, syurko esa yengsiz yoki keng kalta yengli bo'lgan. Syurkoni belbog' bilan bog'lashgan. Ustki kiyim — uzun, yorqin rangli, yarim doyira shakldagi .plashchlar bo'lgan.

Oyoq kiyimlari rangli charmdan, poshnasiz, yumshoq tagcharmli, yopiq tuflilar edi.

Qizlar sochini yoyib yoki o'rib yurishardi, ayollar esa sochini bosh kiyim bilan berkitar edilar. Ko'pincha bu yuz uchun teshik qilingan dumaloq ro'mol edi. Bu ro'mol butunlay boshni va yelkani berkitardi. Ko'pincha ro'molning uchini kottaning yoqa o'miziga kirgizilardi. Ba'zan, ro'molning ustidan yopinchoq, bog'ich, chambar kiyilardi. To'qa "**fibula**"lar, uzuklar, kamar va chambarlar bilan kostyum bezatilardi.

XII asrda nasroniy dinining ta'siri kuchli edi. O'rta asr madaniyati va san'ati antik an'analar zamirida vujudga kela boshlaganiga qaramay, unda asta-sekin antik an'analar susayib, sxematizm avj oldi. Bu o'rta asr madaniyatida aristokratlarga mansub elementlar paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Aslzodalarning saroy hayotida ayollar muhim rol o'ynaydigan bo'ldi. "**Go'zal ayol**"ga sig'inish Bibi Maryamga sig'inish bilan boshlangan edi.

Cherkovning ta'qibiga qaramay, aslzoda ayollar kostyumida hashamatli, murakkab siluetlar va boy bezaklar paydo bo'ldi. Ayollar avvalgiday ichki ko'ylak — kamizani va ustki ko'ylak — kottani kiyishardi. Kotta yonidan yoki orqasidan tasma bilan bog'lanib, belga yopishib turardi va bo'ksasidan yon qiyiqlar yordamida pastga qarab kengaygandi. Yenglari tor edi va ko'pincha uzunligi yergachayetardi. Belbog'lar faqat dekorativ rol o'ynardi, shuning uchun uni beldan pastroqda bo'ksaga taqishardi. Ustki kiyimlari erkaklarniki singari mo'yna bilan sirlangan yarim doira shakldagi plashchlar edi. Turli usulda o'ralgan oq ro'mol bilan ayollar sochlarini berkitishardi.

Gotik uslubi kostyumi (XIII—XV asrlar): XIII asr feodalizm rivojlanishi davri bo'ldi. Sinfiy kurash va feodallar orasidagi tabaqaga bo'linish kiyimda ham o'z aksini topgandi. Bu davrda dabdabalarga qarshi va kiyim yordamida tabaqalarning farqlanishi to'g'risida dastlabki qonunlar chiqarilgan edi. Mazkur qonunlar bilan har bir sinfga kiyimning shakli va mato tanlanishi cheklangandi. Ayni XIII asrda bichish asoslari paydo bo'ldi. Tikish usullari ham takomillashtirildi. Kiyimlarda o'tqazma yenglar paydo bo'ldi. Yenglar kunduzi vaqtincha ko'klanib, kechqurun so'kilardi, chunki kiyimning torligi sababidan echish qiyin edi. Keyinroq yenglarni tasma yordamida birlashtiriladigan bo'ldi.

XIV asrda oldi ochiq kiyimlar va yoqalar paydo bo'lgandi kostyumning shakli xilma-xil bo'la boshladi. Kiyimda ikkita yo'nalish paydo bo'ldi: "kalta va uzun" kiyim modalari. Ayrimlar uzun va keng kiyim kiyishgan bo'lsa, boshqalar, ko'pincha yoshlar, kalta va tor kiyimni afzal ko'rishardi. Bo'yiga cho'zilgan gotik mutanosiblik bu davr kiyimining asosi hisoblangan. Ayniqsa, XV asr kiyimlarida gotikaning ta'siri sezilardi. Shu davrda paydo bo'lgan baxmal yeng modali, deb

hisoblanardi. Matolar endi, asosan, naqshli bo'ldi. Yeng keng tarqalgan naqsh turi — o'simliklar tasviri bo'lgan.

Kiyimlarda yorqin ranglar ko'p uchrardi, ularning birikmalari haddan tashqari bashanglikni ko'rsatardi.

Erkaklar kostyumi. Aholi barcha tabaqalarining ichki kiyimi avvalgiday kamiza edi. Uning ustidan uzunligi boldirning o'rtasigacha yoki to'pig'igacha tushadigan kottani kiyishardi. Odatda, kotta uzun yengli va dekorativ belbog'li bo'lar edi. Lekin XIV asrning o'rtasidan boshlab u modadan chiqdi. Endi tor yengli kalta kurtka — "**purpuren**"(4.6-rasm) urf bo'ldi. Unga ishton-paypok mahkamlanardi. Oliftalar uzun purpuren kiyishgan.

Purpurendan tashqari oliy zotlar ikki ustki kaftan — "**kotardi**" va "**blio**" kiyishardi. Kotardi uzunligi bo'ksadan pastroq tushadigan tor, keng qanotsimon yoki tor yengli, gavdaga yopishib turadigan kiyim edi. Blio — belidan qirqilgan va past qismi yubkasimon, yoni tikilmagan kaftan edi. Odatda, blioni orqasi bog'ich bilan biriktirilardi.

Ustki kiyimlar ham xilma xil bo'lgan. Bu davrda ustki kiyim — naramnik barcha tabaqalarning kiyimi bo'lgan. Naramniklar kalta yoki uzun bo'lishi mumkin edi. Undan tashqari, ko'pincha, qo'ng'iroqsimon yengli, yoni tikilmagan kalta plashch "**tabor**"(4.7-rasm) uchrardi. Uni **geroldlar va pajlar** kiyardi. Yonlari tikilgan naramnik "**syurko**"ga(4.8-rasm) aylandi. Syurko qalbaki yengli yoki yengsiz bo'lgan, uni kapyushon bilan monaxlar kiyishgan

Oyoq kiyimlar charm yoki baxmaldan tikilgan poshnasiz nim etik va tuflilar edi. Oyoq kiyimning uchi oldin sal uchli bo'lsa, XIV asrdan boshlab u juda uzayib, 50 sm (9.11-rasm.) gacha cho'zildi. XIV asrgacha ular kashta va kimmatbaho toshlar bilan bezatilgan.

Prichyoskalar xilma-xil edi. Feodallar, ayniqsa yoshlar, yuziga va yelkasiga tushib turadigan kokillar bilan bezatishgan.

Oddiy aholi sochini qulog'igacha qisqa qirqib, peshonasiga gajak qilardi. Bunday prichyoskani feodallar ham qilar edi.

Bosh kiyimlar xilma-xil bo'lgan. O'rta asrning asosiy bosh kiyimi plashch yoki kurtkaga tikilgan kapyushon edi. Ba'zan, kapyushonni plashchdan alohida kiyishardi. XIV asrda ikki uzun matodan qilingan va boshiga sallasimon o'ralgan bosh kiyim "**shaperon**" kiyilgandi. Ulardan tashqari, turli shaklda fetr shlyapalar bo'lgandi.

XIV—XV asrlar modasini saroy burgund modasi deb ataladi, chunki shu davrda burgund saroyi Yevropada yeng boy bo'lgan va uning modasi go'zallik namunasi deb hisoblangan. Xilma-xil kostyumlarning shakllari tez-tez o'zgargani uchun bu davr modalar karnavali deb ataladi. Mutlaqo qarama-qarshi kiyim turlari

modada baravar mavjud bo'lgandi: tor va kalta, keng va uzun kiyimlar, ammo ular gotik uslubining moda yo'nalishiga bo'ysunar edi. Bejamdorlik, chiziqlarning nozikligi va mutanosiblik modali siluetning asosiy hususiyatlari edi.



4.6-rasm.



4.7-rasm.Tabor



4.8-rasm. Erkaklar syrkosi

Bu davrda burgund modasi asosan feodallar orasida tarqalgandi. Erkaklar kiyimlari noqulay, keng va uzun yoki tor va kalta qilingandi. Kamizani juda yupqa matodan, boshqa kiyimlarni esa shoyidan, baxmalidan va jun matolardan tikishardi.

Kalta purpuren ichki kiyim hisoblanib, unga ishton-paypoq biriktirilardi, ammo u ustki kiyim sifatida ham kiyilishi mumkin edi. Ishton-paypoq oyoqning shakli bo'yicha bichilardi, oyoq qiyshiq bo'lsa, paypoqni ichidan tikilgan kanop losini yordamida to'g'ri qilib ko'rsatilardi.

Bu davrning yangi modali kiyimi "**jaket**" bo'lgandi. Jaket — kalta, oldi ochiq, etagi belidan xurpaygan yubkasimon kiyim edi. Belni belbog' bilan bog'lashgan. Jaket tik yoqali bo'lib, ba'zan, u mo'yna bilan bezatilardi. Yenglari xilma-xil edi: qo'niroqsimon, osilib turadigan, ammo ko'pincha yelkada xurpaygan, bufli, uchi tor (bunday shakl "jigo" deb atalardi) bo'lgan. Yenglari uzun bo'lgani sababli qo'lni o'tkazish uchun kesimlar qilingandi. Bu xolda yenglar osilib turardi. XV asr o'rtalarigacha jaketning beli qirqilmagandi.

Keksaygan odamlar ko'chaga chiqqanda kaftan kiyishgan. Bu tor, uzunligi tizzagacha yoki boldirning o'rtasigacha bo'lgan kiyim edi, yengining shakli har xil bo'lgan. Odatda, belni bog'lab yurishgan.

Uzun kiyimlarga "**uplend**" va "**rob**" kirardi. Uplendning uzunligidan oldi yerda sudralib yurardi. Uning oldi ochiq bo'lib, beli bog'lanardi. U beligacha tugmalanardi, etagi esa ochiq, qolardi. Ko'pincha, sholsimon yoqasi mo'ynadan qilinardi.

Rob — bu yoqa o'mizi oldida yoki orqasida qirqilgan qoplanma kiyim. Robning oldi tor, beli bog'langan, orqasida, ba'zan, yoqasining tagiga shleyfni tikib qo'yishardi. Yengning tepasi bufli, uchi esa tor bo'lgan. Rob tik yoqali edi. Bu kiyimni, asosan, oliftalar kiyishardi.

Plashchlarning turi xilma-xil bo'lgan. Avvalgiday, ilk o'rta asrdagi yarim doyra shaklli plashchlarni oddiy tabaqalar kiyishgan, senor va pajlar — naramnikni; kalta va qo'ng'iroqsimon yenglari tikilmagan yengil plashch "**tabar**"ni (4.7-rasm) geroldlar kiyishgan. Yumaloq plashchlarni (diametri 4 metrgacha bo'lgan) ham kiyishgandi. Aslzodalar yumaloq mo'yna yoqali plashch, oliftalar esa penula turidagi kapyushonli, qo'l uchun kesimi bor kalta plashch kiyishgan.

Oyoq, kiyimlarining uchi juda cho'zilgandi (4.10,4.11-rasm). Avval ristarlar bu urfni kiritishgandi. Ular harbiy kasblarni ko'z-ko'z qilib, ishlamasliklarini ko'rsatish maqsadida bu urfni kirgizgan edilar. Ammo boyib ketgan byurgerlar ham oyoq kiyimlarining uchini cho'zdirar edilar. Ularning orasidagi musobaqa ta'sirida oyoq kiyim uchining uzunligi 70 sm gacha yetgandi. Ularning nomi "**pulen**" lar edi. Oyoq kiyimning uchiga kanop tikishardi yoki uchini oyog'iga

bog'lab qo'yishardi(4.11-rasmi). Chavandozlar yumshoq charmdan baland etik kiyishardi, aholi esa kalta etik kiygan.

Pricheskalarining turlari ham har xil bo'lgan.

Eng keng tarqalgan bosh kiyim — dandana va qo'ng'iroqchalar bilan bezatilgan kapyushon edi. Undan tashqari "**shaperon**" kiyishardi. Oddiy xalq chepest "**beguin**" kiygan. Boylar esa, beguinni ustidan shlyapa kiyishgan. Shlyapalar movutdan yoki yupqa namatdan (fetr) konussimon shaklli soyabonli qilinardi. Oliftalar baravar ikkita shlyapani kiyishardi — bittasini boshga kiyib, ikkinchisini esa orqaga tashlab yurishgandi.

Kostyumga zarur buyumlar qo'shimcha bo'lib urfga kirib keladi. Kamarga charm yoki kimxobdan hamyonni, xanjarni; yelkadagi tasmaga — ovchi burg'usini osib qo'yishardi. Boylar qo'lqop kiyishardi.

Odatda, uni chap qo'lga kiyishgan, cherkovga kirganlarida yoki raqsga tushganlarida yechib, belbog'ga qistirib qo'yishardi. Ov qilganda qo'lqopni ikkala qo'lga kiyishardi.

Ayollar kostyumi. Ayollar kostyumi avvaldagiday kotta va kamizadan iborat edi. Oddiy tabaqa aholida kamiza ustki kiyim ham bo'lgan. Kottani tepasi tor bo'lib, yoni yoki orqasi shnurovka, pasti esa yon uloqlar yordamida kengroq yubkasimon qilinardi. Kotta yengi uzun, tor va konussimon, manjetli bo'lardi.

XIII asrdan e'tiboran ko'ylakning beli pastroq tushib yubkasi shleyfli bo'la boshladi. Shleyfning uzunligi tabaqasiga mos bo'lishi kerak edi. XIV asrda modaga yengsiz mo'yna bilan bezatilgan syurko kiradi. Uni faqat boylar kiyishardi. Keyinroq syurko bo'ksagacha qisqarib, nimchasimon bo'ldi. Belbog'lar esa, dekorativ rol o'ynardi.

Ustki ko'ylakning yenglari xilma xil: tor, uzun, uchi tugunga bog'langan; keng, qo'niroqsimon, qisqa, tirsagidan tikilgan dekorativ mato bilan bezatilgandi. Ba'zan, yubkaning oldiga qorin ustida ser burmalangan mato parchasi tikilardi. Shu sababli ayollar gavdani orqaga sal egib qo'llarini qorin ustiga qo'yib yurishardi.(4.11-rasm).

XIII—XIV asrlarda yoqa o'mizi "**dekolte**" yelka tomoniga kengaydi. Aholining barcha tabaqalari uzun yoki kalta "naramnik"ni kiyishardi. Ba'zan, uni belbog' bilan bog'lashardi. Ustki kiyim yarim doyira yoki doirasimon, oldi ochiq ko'kragida to'qa "**fibula**" bilan biriktirilgan plashch edi. Boy ayollar ko'pincha qo'l uchun teshik qilingan penulani kiyishgan. Penula shleyfli bo'lib, uning yoqa o'mizi mo'yna bilan bezatilgandi.



4.9-rasm. O'rta asr Yevropa ayollari kostumlari

Oyoq kiyimlari esa erkaklarnikiga o'xshash, rangli yumshoq charmdan yoki qimmatbaho qalin matodan tikilardi.

Pricheskalar ham o'zgargandi. Qizlar sochini o'rmasdan, yoyib yurishardi yoki o'rab qulog'ining ustidan "**qo'yni shoxiga**" o'xshatib turmab qo'yishardi. Bu holda qulog'i berkilardi, bo'yni esa ochiq turardi. Ayollar boshlariga ro'mol tashlab yurishardi. Undan tashqari, har xil shaklli chepest va chamberlar kiyishardi. Ayollar taqinchoqlarga ko'p ahamiyat berishardi. Ular belbog', zanjir, to'qalar, marjon va qo'ng'iroqchalarni sevib taqishardi. Belboqqa tasbeh, oynacha, tumor va tilla yuritilgan kalxatning tirnog'ini osib qo'yishardi.

XIV—XV asrlardagi burgund modasi ayollar kiyimiga ham ta'sir etgandi. Ularning kiyimi erkaklarnikiga o'xshab silueti uzaytirilgan, qisqa lif, uzun, keng bo'lmagan yubka va baland bosh kiyim edi (4.11-rasm).

Kamiza va kotta avvalgiday ichki kiyimlar bo'lgan. Kottani tepa tomoni bo'ksasigacha shnurovkalangandi, yengi tor va uzun bo'lgan. Oddiy tabaqalar kottani ustki kiyim sifatida kiyishardi, oliy zotlar esa erkaklar uplendiga o'xshash robni kiyishgan. Robning lifi qisqartirilgandi, kamar ko'krakning tagidan bog'lanardi, yubkasi shleyfli edi. Shleyfning uzunligi qat'iy belgilangan va uning bo'yi ayolning ijtimoiy holiga mos bo'lishi kerak edi. Cherkov shleyfga doimo qarshi bo'lgan. Shleyfni u "**iblisning dumi**" deb atardi.



4.10-rasm. Oyoq kiyimlar



4.11-rasm. Purpen, ishton, chulki, noski va oyoq kiyimlari. (erkak).

Shleyfli pob ko'ylak va bosh kiyim "ennen" shaffof sharfda

Robning yangi tor, voronkasimon manjetli bo'lgan (4.11-rasm). Yoqa o'mizining asosiy shakli uchburchak bo'lgan. Ko'pincha ko'ylakning oldi va orqa

o'mizining chuqurligi beligacha bo'lib, oldi boshqa matodan qilingan uloq bilan berkitilardi. O'miziga yoqa yoki mo'yna tikilardi. Cherkov dekoltega ham qarshi bo'lgan, uni "**do'zaxga deraza**" deb atardi.

Robdan tashqari ayollar "do'zax derazali" yengsiz, kalta syurkoni kiyishgan. Syurkoni mo'yna bilan bezatishgan.

Plashchlar tobora yo'qola boshlaydi. Ammo uni ko'chaga chiqqanda kiyishardi. Penula uzayib, shleyfli, qo'l uchun kesimli va dekolte bo'lgandi.

Oyoq kiyimlarining shakli erkaklarnikiga o'xshash edi, lekin uchlari unchalik uzun bo'lmagan.



4.12-rasm.

XV asrda pricheskarlar o'z rolini yo'qotadi, chunki bosh kiyimlar boshni berkitardi. Bo'yinning go'zalligini ko'rsatish uchun peshona, chakka va ensa ochiq qoldirilardi. Ayollar, ba'zan, peshonani balandroq ko'rsatish uchun qosh, peshona hamda ensadagi sochni qirib tashlashardi. Eng keng tarqalgan bosh kiyim — "**ennen**" (4.11-rasm)edi. Uning shakli konussimon (9.11-rasm) bo'lib, balandligi ijtimoiy holga mos bo'lishi kerak edi. Undan tashqari, har xil chepestlar, turli usulda o'ralgan ro'mollar va kichkina fetr shlyapalarni ham kiyishardi.

Uyg'onish davri Yevropa Italiya va Fransiya kostyumlari: XV—XVI asrlarda g'arb mamlakatlarida burjuaziyaning feodallarga qarshi kurashi jarayonida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy harakat, o'rta asrlardagi uzoq turg'unlikdan so'ng, fan va san'at taraqqiyotida, ulug' kashfiyot va ixtirolarda o'z aksini topgan va antik madaniyatga qiziqishni kuchaytirgan.

Bu davr progressiv to'ntarish yasab, jahon madaniyatida yangi muhim bosqich bo'lgan edi.

Qirol hokimiyati shaharliklarga suyanib, tarqoq dvoryan kuchlarini qo'porib, yangi birlashgan milliy monarxiyalarni barpo etdi. Yangi iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar yaratildi. Yirik Yevropa mamlakatlari bosqinchilik siyosati natijasida mustamlakalarga ega bo'lib, boyiy boshladi. Keng jahon savdosi rivojlandi.

Zamon taqozosi ulug' siymolariga muhtoj edi va bu muhtojlik o'tkir fikrli, ehtirosli, serqirra bilimdonlarni — Petrarka, Kopernik, Jordano Bruno, Leonardo da Vinchi, Bokkachcho kabi mutafakkirlarni dunyoga keltirdi.

Ular o'rta asrdagi zulmat bosgan katolik dini dunyosiga qarshi yangi, ruhni ko'taradigan dunyoqarashni kiritdilar.

Bu davrda Rimda qazish ishlari olib borildi. Vizantiya barbod bo'lganda saqlanib qolgan qo'lyozmalarda, Rim xarobalaridan qazib olingan noyob san'at namunalarida yangi dunyo — yunon-grek obidalari vujudga keldi. Uning yorqin shu'lalari oldida o'rta asr sharpalari g'oyib bo'ldi.

O'rta asrlarda ruhiy ozuqa — din bo'lgan bo'lsa, Uyg'onish davrida esa — san'at edi.

Inson bilan qiziqish, go'zallik va tabiatga intilish tabiatshunoslik fanlarining, san'at va adabiyotning ravnaq topishiga asos bo'ldi hamda san'atda yangi badiiy usul — realizm yuzaga keldi.

San'at asarlarining markazida irodasi murakkab va o'ziga xosligi, yutuq va kamchiliklari bilan buyuk inson turar edi. Bu—yangi erkin inson, har tomonlama barkamol, cheksiz taraqqiyotga intilgan, epchil, xushyor, uddaburon, hayotiy kuchiga ishongan odam edi.

Tarixiy rivojlanish notekis bo'lishiga qaramasdan, barcha Yevropa davlatlari bu madaniy-tarixiy davrdan o'tib, o'ziga xos milliy fazilatga ega bo'lgan madaniyatni yaratadi.

Bu davr o'zining yangi go'zallik idealini, odamning yangi ko'rinishini va, albatta, yangi niqob — kostyumini yaratdi. Uni yaratishda nafaqat tikuvchilar, balki ko'plab rassomlar ham ishtirok etganlar.

Ichki kiyim keng, qulay bo'la boshladi. Kiyimlarda xarakatga erkinlik beruvchi kesimlar paydo bo'ldi. Yelkalar kengaydi, gavda salmoqli bo'ldi, oyoqlarga keng boshmoqlar kiyishdi.

Erkaklarning kiyimlari salmoqliligi va hashamatliligi bilan ajralib turar edi. Ular tashqi ko'rinishlariga ko'proq ahamiyat berardilar.

Bu davrda odamning tashqi ko'rinishi uning ijtimoiy holini, siyosiy fikr yuritishini, moddiy ta'minotga mansubligini ko'rsatar edi.

ITALIYA KOSTYUMLARI: Italiya madaniyati antik an'analar zamirida vujudga kela boshlaganiga qaramay, unda asta-sekin antik an'analar susayib, sxematizm avj oldi. XV asrdan — Uyg'onish davrida realistik san'at taraqqiy eta boshladi. Rassomlar tabiatga, insonga ko'proq murojaat qila boshladilar. Italiya liboslarida ham o'zgarishlar sezila boshladi. Farang, Vizantiya va Sharq mamlakatlari urfi zaminida mashhur Italiya kostyumi bunyodga kela boshladi.

Kiyimning go'zalligi kech o'rta asr modasidagi grafik noziklikdan ranglar barkamolligiga o'tdi. Kiyimlar qimmatbaho matolardan (baxmal, kimxob, kashtalangan va naqshli matolardan) tikila boshladi. Renessans kostyumi, ayniqsa ayollarniki, og'ir matolardan yasalgan drapirovkalardan iborat edi. Yashil, qizil, to'q qizil ranglar urf bo'lgandi.

Endi kiyimda gorizontal chiziqlar ustunlik qila boshladi. Bosh kiyim endi gavadani uzaytirmaydi. Oliy tabaqalarning modasi ustunlik qilar edi, ammo oddiy aholining kiyimida oldingi davr odatlari uzoq saqlanib qolgandi. Lekin uyg'onish davrining kostyumi deyarli demokratik edi, chunki unda asrlarning qat'iy sinfiy shartlanishi yo'qolib, moda endi odamning tabaqasini emas, balki uning moddiy ta'minotini ko'rsatardi. Kiyimda mehnatni mensimaslikni ko'rsatadigan detallar (uzun shleyflar, ingichka bel, juda uzun yenglar va boshqalar) yo'qoldi. Endi asortirlik ta'siridagi kiyimlar "**odamiy**" mutanosiblikka ega bo'ldi.

Erkaklar kostyumi. Bu davrdagi erkaklar kostyumi xilma-xil edi. Yoshlar burgund modalariga rioya qilib, ko'ylakni ustidan kalta tor kurtka "**purpuren**"ni va gavadaga yopishib turgan yorqin rangli ishton-paypoqni kiyishardi. Kurtkaning



tor yenglarining bukiladigan joylarida (yelka va tirsak) ichki ko'ylagi ko'rinadigan kesimlar paydo bo'lgandi. Ba'zan, yengni kurtkaga tasma yordamida biriktirishar edi. Bu yangilik bitta kurtkaga xilma-xil yenglarni biriktirishga imkoniyat bergan edi.

Kiyim, asosan, bir rangda tikilar edi, Farangilar ta'siridagi ikki rangli kiyimlar "**miparti**" ham modaga kirgan edi. Ko'pincha tor kurtkalarini yonida kesimi bo'lar edi va oldi tasma yordamida shnurovka qilib biriktirilar edi. Ba'zan, yengsiz va yoni tikilmagan kurtkalar yopinchoqqa aylangan edi.

4.13-rasm. Murakkab soch turmagi, nimshleyfli

ko'ylak(ayol) kalta tappert va miparti.(erkak). Yoqa o'mizi chuqur o'yilar edi yoki orqasida tugmalanadigan tik yoqali qilinardi. Kiyimlar kashta yoki mo'yna bilan bezatilardi.

Ustki kiyim kurtkaning yelkasiga tugmalangan plashch bo'lar edi. Uzun, keng kaftanlarni faqat keksaygan odamlar kiyishardi. Kaftanlar — keng, osilib turgan qo'ng'iroqsimon yengli bo'lib, odatda, uning beli bog'lanmasdi. Uzunligi tizzagacha yoki to'piqqacha tushardi. Yoqa o'mizi — kare edi.

Oyoq, kiyimi tumshug'i dumaloq yumshoq tuflilar, shippaklar va botinkalar edi.

Modali prichyoskalar ikki turli edi: sochlarini silliq orqaga tarashar yoki, ko'pincha, peshonaga gajak qo'yishardi.

Bosh kiyim turlari ko'p edi: yumaloq, feskaga o'xshash shlyapalar, chambarlar, soyabonli shlyapalar, beretlar, tyurbanga o'xshash bog'ichlar. Oliftalar baravariga ikkita shlyapani kiyishardi — bittasini boshga kiyib, ikkinchisini orqaga tashlab yurishardi.



Kostyumning qo'shimchalari: belbog'ga bog'langan cho'ntaklar, hamyonlar, qo'lqoplar hamda taqinchoqlar bo'lgandi. XV asr o'rtalarida ichki ziddiyatlar Italiyani tarqoq holga keltirdi. Italiya kuchli Yevropa mamlakatlariga qarshilik ko'rsata olmadi va ularning orasida kurash

4.14-rasm. Uyg'oish davri erkaklar bosh kiyimlari

maydoniga aylandi. Uning yerlarini Fransiya va Ispaniya askarlari toptadi. Siyosiy va ijtimoiy kuch- qudratini yo'qotgan Italiya modada ham ustunlikni boy berdi.

XVI asrning boshida Ispaniya Yevropadagi eng kuchli mamlakat bo'lib, modada ham hukmronlik qildi. Ispan askarlarining kiyimiga taqlid qilib kiyim kiyish urfga aylandi. Italiya modasida faqat erkaklarning kostyumida taqlid sezilardi. Kiyimlarning shakli va rangi odmiroq bo'ldi, erkaklar kostyumining asosi — ispan koleti oldi ochiq tik yoqali yoki oldi berk kare o'mizli kaftanga aylandi. Yoqa o'mizidan oq ichki ko'ylak ko'rinar edi. Yoqa o'mizi tasma yordamida burmalanardi. Kaftanni yangi bufli bo'lgan yoki yelkasida "**qanotchalar**" qilinar edi.

Ko'pincha koletlar zarbof kashta bilan bezatilgan bo'lib, to'q ranglari matoning fonida ajralib turar edi.

Bel kiyimlari: ishton-paypoq va ustidan kiyilgan uzunligi tizzagacha bo'lgan sharsimon ishtonlar edi.

Plashchning o'rniga keng, oldi ochiq, kalta keng yangli va katta sholsimon yoqali kaftan kiyishardi. Yoqasi mo'ynali ham bo'lishi mumkin edi.

Oyoq kiyimlari yumshoq poshnasiz, uchi keng boshmoqlar bo'lgandi.

O'rta asrdagi og'ir qilichning o'rniga shpaga taqishgan. O'ng tomonga xanjar, chap tomonga shpaga qistirib yurish faqat dvoryanlarga xos edi.

Pricheskalarini avvalgiday uzun yoki ispanlarnikiga o'xshash kalta qirqilgan sochlar edi. Soqol qo'yishar edi.

Bosh kiyimlar: beret va ispan shlyapalari. Uyda feskaga o'xshagan shlyapani kiyishardi.

Ayollar kostyumi. Ayollar kostyumi erkaklarnikiga nisbatan xilma-xil edi. XV asrda Florensiya modalari keng tarqalgandi. Bu davrda ayollar libosi kamtarona bo'lib, shakl va undagi chiziqlar hamda siluetning oddiyligi bilan farqlanardi.

Ayollarning ko'kragi maxsus mato bilan siqilgan va uning chiziqlari tekislangan edi. Ular naqshli kimxob va baxmaldan tikilgan baravar ikkita ustki ko'ylak kiyishardi. Ichki kiyimni hali kiyishmagandi. Odatda ko'ylaklarning beli

qir qilgandi, bel chizig'i ko'krakdan sal pastroq bo'lib, yubkasi uzun shleyfli edi(4.6-rasm). Lifning yoqa o'mizi o'ziga xos edi: oldi — to'rtburchak, orqasi — uchburchak (bo'yinni uzunroq ko'rsatish maqsadida). Ko'pincha, ustki ko'ylak lifining oldini qir qib shnurovka qilishardi. Odatda, yenglari lifga tasma yordamida biriktirililar yoki ko'klanardi. Ba'zan, bitta ko'ylakka har xil yenglarni biriktirish mumkin edi. Tor yenglar ko'pincha uzunasiga qir qilib, o'zaro shnur yoki tasma yordamida biriktirilardi. Yenglari uzun edi, lekin panja ochiq qolardi. Bu o'rta asrlikka nisbatan yangilik edi, chunki u davrda urf-odat bo'yicha kaftni yopib yurish kerak edi.

Yosh qizlar yupqaroq yengil matolardan ko'ylak kiyishi mumkin edi. Tantanali ko'ylakni ustiga qimmatbaho yengil yopinchoqlarni tashlab yurishar yoki yelkasiga yerda sudralib yuradigan mayda burmalangan mato parchasini biriktirib qo'yishardi. Astarli uzun plashchlar avvalgiday ustki kiyim hisoblanardi. Plashchlarni ranglari qizil va zangori bo'lardi.

Bosh kiyimlari: yostiqsimon yumshoq hamda tyurbanga o'xshagan uzun uchli shlyapalar urf bo'lgan. Bularni, asosan, keksaygan ayollar kiyishgandi, yoshlar esa tor va vuallarni afzalroq ko'rgan. Sochlar ayollar go'zalligining asosiy ramzi, deb hisoblangan. Qizlar sochlarini tashlab yurishgan, ayollar esa turmaklab marvarid, to'r va yengil sharflar bilan bezatishgan.

Kiyimga qo'shimcha qo'lqoplar, hamyonlar va dastro'mollarni olib yurishgan. XVI asrdan boshlab ayollarning ko'ylagi erkaklarnikiga nisbatan hashamatliroq bo'lgan. Bel chizig'i tabiiy holiga kelgan. Yubkani og'ir matolardan taxlam qilib taqilganligi sababli uning uzunligi qisqargandi. Ichki ko'ylakning yengi tor va uzun, ustki ko'ylakning esa bufsimon keng va kalta edi.

Yoqa o'mizi chuqur bo'lib, qimmatbaho kashtalangan ro'mol bilan yopilgan edi. Ustki kiyimi plashch bo'lgan. Oyoq kiyimlari yumshoq bo'lgan, ba'zan ayrim modaga berilgan ayollar bo'yini balandroq ko'rsatish maqsadida baland Ispaniya tavonli tufli kiyishardi. Bu davrda ichki kiyim va paypoq odatga kirdi. Florensiyada oqmatodan tikilgan paypoqlar eng modali deb hisoblanardi. Prichyoskalarining shakli ham xilma-xil bo'lgan (4.15.-a, b rasm). Asosan sochlarini faqat to'r bilan yopishgandi. Bosh kiyimlar ispan beretlari, poxol shlyapalar bo'lib, ular kamdan-kam kiyilgan.

Modaga niqoblar kirib keldi, ularni ko'chaga chiqqanda kiyishardi. Niqobni faqat dvoryanlar kiyishi mumkin edi. Matodan tikilgan, kashta va qimmatbaho toshlar bilan bezalgan qo'lqoplar va dastro'mollar kostyumning qo'shimchasi bo'lgan. XVI asrda ixtiro qilingan to'r igna bilan to'qilardi va juda qimmat turardi. Kiyimga qo'shimcha yana kichkina qimmatbaho matodan qilingan xaltachalarni

beliga qistirib qo'yish, yelpig'ichlar va muftalarni olib yurish ham modaga kirgandi.



4.15-rasm. a — Sebastiyano Maynard. Yosh ayolning portreti. Italiya, б — Domeniko enesiano. Xonum portreti Italiya. в — Jos van Kleve. Fransuz malikasi Ellenoraning portreti. г — Frasia Klue. Elizaveta Balua.Ispaniya



4.16-rasm. Uyg'onish davri ayollar soch turmaklari va kiyimlari.

FRANSIYA KOSTYUMI

XVI asr davomida Fransiya g'arbiy Yevropadagi qudratli davlatlardan biriga aylandi. Fransiya mutlaqligining — absolyutizmining xalqaro munosabatlardagi asosiy maqsadi Yevropada o'z mavqeini kuchaytirish va so'ngra o'z yerlarini ko'paytirish edi. Lekin muvaffaqiyatsiz olib borilgan urushlar Fransiyaning ahvolini og'irlashtirib, ularga qaram qilgandi.

Kuchli Ispaniya Franstiyaning madaniyati va kostyumini butunlay o'ziga qaratib ololmadi. XV asr oxiridan boshlab Franstiyaga asta-sekin Italiya Renessansining gumanistik dunyoqarashi va badiiy ideallari tarqalgandi. Adabiyotda va san'atda o'zining realistik yo'nalishi paydo bo'lgandi. U taniqli yozuvchi Rable va rassom Kluening ijodlarida o'z ifodasini topgandi. Me'morchilikda antik ta'sir sezilar edi. Franstiya qiroli Franstisk I o'z saroyiga ishlashga Italiyadan mashhur rassomlarni (Leonardo da Vinchi, B. Chelinini va boshqalar) taklif qilgandi.



4.17-rasm. Yengli va kalta yengli

erkaklar kostyumi

xos xususiyatlar sezilardi. Franstiya kostyumlari hech qachon bo'g'iq va qotib turgan bo'lmagan, kostyumga doimo qandaydir milliy didga oid yumshoqlik, yengillik kiritilardi. Ularning kostyumi yorqin, och va quvnoq bo'lib, erkin va elegant harakat qilishga imkoniyat berardi.

. Modada og'ir matolar — baxmal, movut, shoyi, kimhoblar edi.(4.17-rasm). Shu qimmatbaho matolar tilla va kumush kashta va mayda marvarid bilan bezatilardi.

Etiket bo'yicha aslzodalarga mansub kostyumlarning soni 30 dan kam bo'lmasligi kerak edi va har kuni kiyimni almashtirish zarur edi. Bu davrda "aristokratlar o'z boyligini yelkasida olib yuradi" degan maqolning paydo bo'lishi bejiz emas edi.

Erkaklar oq, kashta qilingan ko'ylak, oldi ochiq kamzol, ishton-paypoq va kalta



4.18-rasm. Kalta ishton brichesda(erkak)

sharsimon(4.18-rasm) ishton "**briches**"ni kiyishardi. Ustki kiyimi oldi ochiq, beli mahkam bog'langan kaftan bo'lgan. Asr o'rtasida modaga ko'pincha qaytarma yoqali plashchlar kirgandi.

Oyoq kiyimning to'mtoq tumshug'i — "**ayiqning oyog'i**" — kesimlar va kashtalar bilan bezatilardi.

Kalta qirqilgan sochlar, soqol va mo'ylovlar modada edi.

Franstuz beretlari Ispaniya beretlariga nisbatan keng, qattiq soyabonli bo'lib, pat bilan bezatilardi.

XVI asrning o'rtalaridan boshlab Franziya kostyumi Ispaniya kostyumiga ko'proq o'xshaydigan bo'ldi. Franziya qiroli Genrix II faqat qora ispan kostyumini kiyib, ko'pchilikka namuna bo'lgandi.

Kamzol kalta qaytarma yoqali koletga aylandi. Freza va manjetlar kengroq bo'ldi. Tashlab yuradigan kiyimlarning o'rniga kalta, mo'yna bilan sirlangan, tik yoqali plashchni kiyiladigan bo'ldi. Koletning oldi "**uchburchak**"li bo'ldi, keng yenglari qavilib, manjetli qilindi. Ishton-paypoqni ustidan tor, uzunligi tizzadan pastroq ishton "**kyulot**"ni kiyishadigan bo'lishdi. Kyulot ustidan "**bufon**" kiyilardi.

Kostyumlarning rangi faqat och bo'lgan: pushti, zangori va boshqa ranglarda bo'lgan.

Erkaklar sochlarini bo'yab, jingalak qilishardi; yuzlarini qizartirishardi, ziraklar taqishardi, boshlariga patdan "**toj**" kiyishardi.

Freza shunchalik katta qilinganligi uchun uni "**tegirmon g'ildiragi**" deb atalardi.

Bu davrda Franziyada birinchi marta yarim niqoblar paydo bo'lgan. Uni ko'chaga chiqqanda kiyishardi.

XVI asrning oxirida erkaklar kostyumiga yana bitta o'zgarish kiritilgandi. Kostyum oddiyroq va odmiroq bo'lgandi. Unga qiroli Genrix IV ning qarorlari sabab bo'lgandi. Ularga binoan, dvoryanlarning kiyimi to'q, odmi, ammo qimmatbaho va nozik bo'lishi shart edi. Kolet kengroq bo'ldi, unga faqat frezani emas, balki shu paytda paydo bo'lgan qaytarma yoqa qilishgandi. Plashchlar uzaydi va ko'pincha bir yelkaga tashlab yuradigan bo'lishdi. Pantalonlarning uzunligi tizzagacha uzaydi va ular yumshoq burmali bo'ldi. Prichyoskalari ham o'zgardi. Modaga orqasiga silliq taralgan uzun sochlar kirdi. Qirolning sochi erta oqargani uchun chakkasidagi sochini upalash modaga kirdi. Bosh kiyimi oq tuyaqushning pati bilan bezalgan soyabonli shlyapa edi.

Ayollar kostyumi. Ayollar kostyumi erkaklarnikiga nisbatan ispan modasi ta'siriga kamroq tushgandi. Ispan ko'ylaklarini franstuz ayollari faqat odob yuzasidan tantana munosabati bilan kiyishardi. Bu og'ir va noqulay kiyimlarni ular o'zlarini didlariga mos o'zgartirgan edilar: bo'ynini va ustki ko'ylakning oldini ochiq qilib, kiyimlarini bezakli qilishardi.

XVI asrning birinchi yarmida ispan modali silueti konussimon shaklni eslatardi. Ichki va ustki ko'ylaklar karkasga tortilgandi, tor lifi dekoltesi "**kare**" edi. Ba'zan, dekoltesi uluq "**shemizetka**" bilan berkitilardi. Yenglarining boshi tor bo'lib, uchi juda kengaygandi va ko'pincha mo'yna manjetli edi. Ustki ko'ylagining yangi orasidan ichki ko'ylakning yenglari ko'rinardi.

Asr o'rtalarida ayollar kostyumi erkaklarnikidek ispan modalariga o'xshardi. Shu davrda ayollar kostyumida birinchi marta korset ixtiro qilindi. Ko'ylakning silueti avvalgiday bo'lgan, faqat yenglari o'zgargandi. Ustki ko'ylak yengining

shakli kichkina bufli edi. Uning kesimlaridan ichki ko'ylakning yengi ko'rinardi. Ba'zan, ustki ko'ylakning yengi o'rta asrlarning valikli "**jigo**" yoki "**qanotcha**"larini eslatardi.


Oyoq kiyimlari past poshnali tuflilar va baland taglikli italian tuflilar edi.

Prichyoskalar — marjon bilan bezatilgan, sochlar ikki yarim doyira shaklida peshonada joylangan. Bosh kiyimlar pricheska shakliga mos to'r bilan bezalgan chepestar va beretlar edi.(4.19-rasm).

To'r bilan bezatilgan dastro'mollar va yarim niqoblar urf bo'lgan.

Marvarid marjonlar va uzun dekorativ kamarlar antiqa bezak edi.

XVI asr oxirida ayollar kostyumining shakllari keskin o'zgargandi. Asosan,



4.19-rasm. Uyg'onish davri Fransiya ayollari bosh kiyimlari

yubkaning shakllari o'zgargandi. Oldin yubka keng taxlamli bo'lgan bo'lsa, endi esa uning shakli abajurga o'xshash shaklga aylangandi. Yubkaning tagidan qattiq karkas va uning ustidan belga aylana "**g'ildirak**"simon valikni kiyishgandi. Lif yana toraydi. Belni ingichkaroq ko'rsatish uchun lifning old "**uchburchak**" yubkaga uzaytirilgandi. Yenglarning shakli avvalgiday qolgandi va to'qa bilan birlashtirilgan yotiq kesimlar qilinardi. Dekolte ovalsimon va juda chuqur bo'lganligi tufayli "**shemizetka**" bilan berkitilardi. Yoqa shakli ham juda o'zgardi. Frezaning o'rniga boshdan balandroq ko'tarilgan karkasli tik yoqa kirgandi. Yoqa bir yoki ikki qavatli bo'lishi mumkin edi.

Prichyoskalar ikki xil bo'lgandi — yo sochlarni jingalak qilib orqaga tashlab yurishardi yoki simli karkas yordamida tepaga ko'tarib qo'yishardi.


Niqoblar did-farosatga qarab tanlanardi.

Kostyumning qo'shimchalari: taxlama elpig'ichlar, hamyonlar, oynachalar, piyoz shaklli zanjirga osilgan soatlar, tasma yordamida belga osilgan teri parchalari (burgani tutish uchun) edi.



Tayanch iboralar

Purpuren, kotta, kamiza, tabor, pulen,ennen, "kare", "shemizetka", "jigo", "qanotcha", "g'ildirak"simon valik, "briches", "ayiqning oyog'i", "kyulot", "bufon".



Topshiriq savollari


1. Italiya kostyumi qanday tarzda bunyodga kela boshladi?
2. Renessans kostyumlari qanday edi, ularda qaysi ranglar urf bo'lgandi ?
3. Uyg'onish davrida yoshlar kiyimi qanday edi?
4. "Miparti" asosan qaysi davlatga xos bo'lgan kiyim edi?
5. Fransiya erkaklari kostyumlari qanday edi?

Rus xalqi kostyumlari



X asrga kelib Sharqiy Evropa xududida slavyanlarning Kiev Rusi deb nomlangan birinchi feodal mamlakati vujudga keldi.

Mo'g'ullar bosqinigacha bo'lgan Rusning Vizantiya va Sharqiy Yevropa bilan yaqin aloqalari rus kostyumining shu davrdagi ko'rinishini belgilab berdi



5.1-rasm. Qadimgi rus

Rus kostyumi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib tursa ham, lekin Yevropa modalari rivojlanishini umumiy yo'nalishiga mos bo'lgan.

Rus kiyimlarni shakllanishiga Rossiyaning iqlimiy sharoitlari katta ta'sir etgan. Qattiq va sovuq iqlim – uzoq qish, salqin yoz – yopiq issiq kiyimlarni paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Rus xalqi matolarning asosiy turlari zig'ir va jun bo'lgan. Bu matolar krestyanlar kiyimida va boyarlar ichki kiyimlarida ishlatilgan.

Xristianlik qabul qilingandan so'ng qadimiy Rusda X asrda uzun va keng kiyimlar tarqaladi. Ularning shakllari oddiy bo'lib odam gavdasini berkitardi, bemalol turadigan, lekin juda keng bo'lmagan. Deyarli barcha kiyimlar boshdan kiyilib oldi berk bo'lgan.

Old bo'lak tepa qismida kichkina kesim bo'lgan. Ijtimoiy belgilar kostyumda asosan matoning qiymati bilan ifodalangan.

XV asrga kelib bosqinchilardan qutulgan Rus Moskva knyazlari ostida birlashadi va markaziydagi Moskva mamlakatiga aylantiriladi.

Ruslarning tashqi ko'rinishi, bo'y - basti, qaddi-qomati, terisining oqligi, yuzidagi qizillik, oltin rang sochlari evropaliklar va osiyoliklarni zavqlantirardi. Ruslar kostyumi - to'g'ri yoki yengi kengaytirilgan bo'lib, unda simmetrik, asimmetrik kompozitsiyada esa bosiqlik, oltin va kumush effektli naqshli

gazlamalar va turli xil rangli gazlama, mo'yna, kashtalardan iborat kiyim foydalanish kuzatiladi.

Gazlama, rang, naqsh turli sifatli zigir va jun matolardan, chetdan keltiriladigan shoyi va atlaslardan bo'yoq va marvariddan kashta bilan kiyimlar tikishardi.

O'rmon hayvonlari mo'ynasidan, iqlimga ko'ra, foydalanishardi.



5.2-rasm.



5.3-rasm.



5.4-rasm.

X asr rus xalqi kostyumlari (5.2, 5.3, 5.4 rasmlar)

Ustki kiyim «svita» - oldi berk boshdan kiyiladigan kiyim bo'lgan. Svita, shu davrning barcha kiyimlari kabi, to'g'ri, yon qiyiqlar yordamida pastga kengaygan (trapetsiyasimon) shaklli bo'lgan. Qishki svita mo'yna astarli bo'lgan.

Eng an'anaviy bosh kiyim – shapka bo'lgan.

Amaldorlar kiyimini o'ziga xos turi – vizantiya-rim plashiga o'xshash «**korzno**» bo'lgan. U to'rtburchak yoki ovalsimon shaklli, chap elkaga tashlanardi, o'ng elkada esa to'g'nog'ich «**fibula**» bilan biriktirilardi



5.5-rasm. Moskva qizlari ko'ylagi, rus dehqoni kostyumi



5.6-rasm. Qadimiy Kiyev rusi kiyimlari



5.7-rasm. Qadimiy Novgorod koastyumlari

Boylar va dvoryanlarni ustki va bashang kiyimlari asosan Vizantiya, Eron, Italiya va Angliya mamlakatlaridan olib kelingan gazlamalardan tikilgan. Barcha keltirilgan qimmatbaho matolarni Rusda «**pavolok**» deb nomlashgan

Rus kostyumi juda ham ko'rkam va jozibador bo'lgan. Kiyimlarni turli tusdagi qizil rang (to'q qizil, qoraytirilgan qizil), ko'k, havo rang, ba'zan yashil rangli matolardan tikishgan. Barcha rangli matolar «**krashenina**»lar deb nomlangan. Odatda rus kiyimlarni turli kashtalar (ipak va marjonlar) yoki mo'yna bilan bezatishgan

Moskva davlati davrida osma taqinchoqlar nisbatan kam edi, kiyimlarni boy bezatilgan matolardan tikishardi. Aksariyat hollarda kiyimlar «harakatsiz» bezaklar bilan qoplanardi – shoyi iplar, buralgan tilla va kumush iplar «**kanitel**», «**bit**» - oddiy ip yordamida chizilgan naqsh bo'yicha matoga biriktirilgan yassi kumush simlar yoki marjonlar. Kostyumlar o'sha davrda paydo bo'lgan «**podnizi**» to'rlari va boshqa rangli mato bilan hoshiyalanardi.


Qadimdan ruslarda go'zallik timsoli mag'rur va shonli qaddi qomatni talab etgan, ayollarda – oppoq yarqiragan yuzli, qalam qoshli, erkaklar – soqolli bo'lgan.

Kalta kiyimlar ham aslzodalar, ham xalq kostyumida bir xil uyatsiz xisoblanardi. Kostyumga bo'lgan ushbu yagona munosabat hozirgacha rus xalqining birligi va milliyligidan dalolat beradi.

Mo'g'ullar bosqinigacha bo'lgan davrda barcha kiyimlarga oddiy bichim va odmi matolar xos bo'lgan, lekin shu bilan birga kiyim ustidan kiyiladigan taqinchoqlar ko'p bo'lgan: bilakuzuklar, bo'yin marjonlari, zirak, uzuklar va «**koltlar**» - ayollar bosh kiyimiga maxkamlangan osilchoqlar.

Rus mamlakati rivojlanishining barcha bosqichlarida kashtachilik, zargarlik san'ati, gazlamaga bosma naqsh solish kabi xalq amaliy san'at turlari yuqori taraqqiy etgan

Erkaklar kostyumi knevcha kaftan, svita, drapirovkali kiyim, ya'ni plashkorzis misol bo'ladi. SHlapkalar gardishi va quloqchini mo'ynali. Ichki kiyim bo'lib, rubaxa va porti hisoblangan. Rubaxa bir necha bo'lak gazlamadan(5.8-rasm a) (gazlama eni h 30 - 60 sm), ayrim xollarda yeng uchiga «**zarukavya**» - cho'zinchoq shaklli kashtalangan qimmatbaho mato bo'laklarni taqishgan. Porti keng bo'lmasdan. Pastga tomon toraygan, uzungina bo'lib yoki onuch, ya'ni ustidan lapti kiyiladigan, oyoqqa o'ralgan gazlama bo'lagiga kiritiladi.



5.8-rsm. a-Rus dehqonlari kiyimlari, b-rubaxa, v-zapona

Ayollar kostyumini asosi ko'ylak bo'lib, u erkaklarnikidan uzunligi bilan farqlangan. Badavlat ayollar barobar ikkita ko'ylak kiyishgan – ichki va qimmatbaho gazalama ustki ko'ylak.

Turmushga chiqqan ayollar ko'ylaklar ustidan «**ponyova**» yubkasini kiyishgan qizlarning kundalik kiyimi bo'z matosidan tikilgan «**zapona**»(5.8-rasm,v) kiyimi bo'lgan. To'g'ri to'rtburchak mato bo'lagini elkada buklab bosh qismida dumaloq o'yilgan, bayramlarda ponyova yoki zapona ustidan hashamdor bezatilgan va kashtalangan kiyim – «**navershnik**» kiyishgan.

Ayollar kostyumidagi rubaxa uzun bo'lib, uning yoqa o'mizi va yeng uchlari kashta yoki rangli sidirg'a mato bilan bezatiladi. Rubaxa ustidan poneva - belbog'da maxkamlangan, uchta tikilmagan gazlama bo'laklaridan iborat yubka kiyilardi.

Zapova ustki kiyim bo'lib, rubaxadan kaltaroq, yonlari tikilmagan naramnikga o'xshash qoplama kiyim hisoblanadi. U belbog' bilan kiyilib pastda maxkamlanardi. Ko'krak yopqich - nagrudnik kalta keng yengli, yoqa o'mizi, yeng uchlari bezatilgan, rubaxa ustidan kiyiladigan kiyimdir.

Bosh kiyimlar shakli uncha o'zgarmagan holda, bezaklari boyitildi. Uyda kichkina dumaloq «tafya» kiyishgan, ko'chaga chiqqanda uning ustidan turli konusimon qalpoqlar «murmolka» - o'rta balandikdagi qimmatbaxo matodan mo'ynali bosh kiyim; «gorlatnaya» - mo'ynali baland tepaga kengaygan silindr shaklli bosh kiyim kiyishgan.

Moskva Rusi davrida ko'proq oldi ochiq kiyimlar keng tarqaldi. Ayollarga xos bo'lgan kiyim «shushun» yon qiyiqlar yordamida pastga kengaygan, burmalanmagan, keng bo'lmagan uzunligi yergacha bo'lgan sarafan.

Kiyimlarni o'ziga xos an'anaviy turi «dushegreya» bo'lgan. Uni barcha ayollar kiyib, oddiy tabaqadagi ayollarda tantanali kiyim sifatida tarqalgan. Kalta ustki kiyimlarni yana bir turi «shugay» yoki engsizi «bugay» bo'lgan.

Ayollar bosh kiyimlari turli-tumanligi bilan ajralib turgan: «povoynik», «kika», «ubrus», «kaptura», «kokoshnik». Ayollar kostyumi qo'shimchalari sifatida shoyi ro'molchalar «shirinka», qo'llarni berkitib turadigan mo'ynali «muftalar» va ko'plab taqinchoqlar bo'lgan sirg'a, uzuk, marjon va boshqalar



5.9-rasm. Rus ayollari bosh kiyimlari

Oyoq kiyimlar. Erkaklar oyoq kiyimlari onuchli laptilar yoki rangli charmdan tikilgan poshnasiz kashtali etiklar kiyishgan. Laptilar oyoqqa iplar bilan bog'langan bo'lgan. Amaldorlar rangli charmdan tayyorlangan poshnasiz etiklar kiygan.

Ayollar oyoq kiyimlari ham erkaklarnikiga o'xshash onuchli laptilar yoki rangli charmdan tikilgan poshnasiz kashtali etiklar kiyishgan.

Askarlar kostyumi. Qadimiy rus askarlari kalta tizzagacha keladigan boshdan kiyiladigan ko'ylaklarda, kalta yengli sovutlar kiygan.

Sovutlar qimmat bo'lganligi uchun oddiy askarlar “kuyak” – metal plastinka yopishtirib tikilgan yengsiz charm ko'ylak kiyishgan. Boshni tepasi uchlik dubulg'a bilan himoya qilganlar, dubulga'ni ich tarafidan sovutga o'xshash setka chiqib, orqa va yelkagacha tushib turgan. Rus askarlari to'g'ri va egri qilichlar, nayzalar, kamon va o'qlar hamda boltalar bilan jang qilganlar.



a



b



v

5.10-rasm.A-sovut, dubulg'a,qilich va qalqonda rus sarkardasi, b-oddiy rus askari, v-rus sarkardasi otliq holatda.



Tayanch iboralar

Rubaxa, porti, ponyova, korzno, pavolok, krashenina, podnizi, kanitel, bit

Topshiriq savollari



- 1.Rus xalqi nimani “**povolok**” deb atardi?
- 2.Rus xalqi matolarining asosiy turi nima edi?
3. «**Krashenina**»lar nimaga ?
- 4.Rus erkaklari kostyumlari nomlari qanday?
5. Rus ayollari kostyumlari nomlari qanday?

Qadimiy Hind kostyumlari tarixi.



Sharq davlatlari qatorida Hindiston inson sivilizatsiyasining beshigi bo'lgan. Hozirgi zamonda dunyoga mashhur hind madaniyati 5000 yillik davrni o'z ichiga oladi. Bu madaniyat muqaddas Gang daryosining vodiysida tug'ilgan edi.



6.1-rasm. Qadimiy Hindiston

Miloddan 1000 yil avval Hindistonda yirik quldorlik davlatlari yuzaga kelgandi. Dehqon jamoalari hokimiyatining barqarorligi jamoa munosabatlarning bo'linmaganligiga va ibtidoiy tuzum sarqitlarining saqlanib qolishiga sabab bo'ldi. Shunga qaramasdan, davlat iqtisodi va madaniyati rivojlangan edi. Mehnat taqsimoti jarayonida tabaqalar paydo bo'lgandi. Ularni shimoli g'arbdan kelgan ariylar joriy etgandi. Eng ulug' kohinlar tabaqasiga braxmanlar kirardi, kshatriylar tabaqasiga — jangchilar, vayshi tabaqasiga — yer egalari va hunarmandlar, shudra tabaqasiga — harbiy asrlar va qullar kirardi.

Hindlarning eng qadimiy dini vedaizm (veda — bilim)ni ariylar olib kelgan. Bu dinda tabiiy hodisalarga sig'inilardi.

Keyin braxmanlar vedalik xudolarni chekintirib, yangi din — braxmanizmni kirgizishdi. Bu dinda Dunyoni yaratgan Braxma, uni saqlab turadigan Vishnu, barbod qiladigan Shiva va boshqa bilim, yaxshilik va yomonlik xudolari mavjud edi. Braxmanizm tabaqalarga bo'linishni saqlab qolgandi.

Miloddan avvalgi III asrda braxmanizmga qarshi yangi diniy oqim buddizm keng tarqalgandi. Bu dinda kastalar (tabaqalar) tyng deyilgani uchun buddizm davlat diniga aylangandi.

Feodal munosabatlar V—VI asrda barpo etilgan . edi.

Dehqon jamoalarining kasta sistemasi va, ayniqsa, kohin tabaqalarining mustahkamligi braxmanizmning qayta tug'ilishiga sabab bo'ldi. Lekin ular buddizmning ba'zi fikrlarini o'ziga kiritgandi. Yangi din induizm deb atalardi. Induizm — falsafa, din, etik va huquqiy sistemalarning murakkab kompleksi. Bu dinlar Hindiston aholisi turmushining barcha tomonlariga, madaniyat va san'atning rivojlanishiga asrlararo kuchli ta'sir ko'rsatgandi.

Ilk feodalizm davrida Hindiston boshqa xalqlar va qabilalarning (yunonlar, saklar, xunlar, kushonlar va b.) bosqinchiligiga uchragandi.

VIII—IX asrlarda Hindistonga arablar bostirib kirdi. Ular islom dinini va islom etnik asoslarini olib kelgan edi.



6.2-rasm.Erkaklar kostyumi, dxoti va orxni.

XVI—XIX asrlarda (1526—1858 yillarda) Dehli sultonligini Buyuk Mo'g'ullar (Boburiylar) sulolasi boshqargandi.

XVIII asrning o'rtalarida Yevropalik mustamlakachilar tomonidan Hindistonga bosqinchilik urushlari boshlangan edi (portugallar, gollandlar, fransuzlar va inglizlar). Natijada, XIX asr o'rtalarida inglizlar Hindistonni butunlay bosib oldi va o'z mustamlakasini o'rnatdi. Endi ular Hindistonda nasroniy dinini targ'ib qila boshladilar.

XIX asrning ikkinchi yarmida (1947 yil) Angliya Hindistonga mustaqillik berishga majbur bo'ldi.

Hozirgi paytda Hindiston aholisining 84 foizi induizmga, 12 foizi islomga, qolganlari buddizm, sikkizm, nasroniy va boshqa dinlarga e'tiqod qiladi.

Hindistonning tabiati juda boy va xilma-xil bo'lganligi sababli, u har xil ajoyib shakllarni yaratgan. Odam va tabiat orasidagi qarama-qarshilik hindlarning fikr va dunyoqarashidagi xususiyatlarining juda murakkabligiga asos bo'ldi. Tizzada turgan odamning tabiatga bo'ysunishi, tushunmaslik va qo'rqinch, ezilganlik va

qattqlik diniy fikrlash asosida sodir bo'lgandi. Soni ko'p xudolar hind fikrlashini son xususiyatiga, miqdor hukmdorligi hind san'atining tushunchasiga olib keldi.

Hind me'morchiligi — bu faqat me'morchilik, tuzulish, fikr va hisni ifodalash emas, balki u haykal va tasvirlar uchun asos edi. Diniy va fuqarolik me'morchiligida soni ko'p tasvirlar takrorlanib, ustuvorlik qilardi.

Qadim zamonlarda Hindistonda haykaltaroshlik va monumental rassomchilik rivojlangandi. Adjantadagi g'or ibodatxonalarda hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan. U yerda, asosan, afsonaviy va induistik kompozistiyalar tasvirlangandi.

Miniatyura tasviriy san'ati Hindistonda qadim zamonlarda mavjud bo'lgan. XI asrda yaratilgan miniatyuralar palma yaproqlariga ishlangandi. Hind miniatyurasining bir necha yo'nalishi bo'lgan:

— Mo'g'ul maktabi;

— Paxri — diniy afsonaviy mavzular;

— Malva — g'arbiy Hindiston gudjar miniatyurasi, Ramayana va Maxabxarata dostonlari shu usulda tasvirlangan;

— Kangra — vishnuizmning qayta takrorlanishi. Krishna — hukmdorlik mavzulari;

— Bengal — afsona va qishloq mavzulari. (6.3-rasm).



6.3-rasm.Hind afsonalaridagi qahramonlar kostyumlari

Ko'p asrlardan beri Hindiston ma'naviy madaniyatidagi falsafiy va ilmiy adabiyot yodgorliklari, Baxsa, Kalidasa va boshqa shoirlar va dramaturglar yaratgan asarlar jahon madaniyatida taniqli o'rin egallaydi. Adabiyot xazinasida Ramayana va Maxabxarata epik poemalari, afsonalar, rivoyatlar, xalq ertaklari

to'plangan. Hindiston musiqa va raqs san'atiga g'oyat boy mamlakat. Qadimiy raqs, ashula, musiqa, pantomima hozirgacha mashhur va ommabop.



6.4-rasm. Hindistonning “Ramayana” asari qahramonlar kostyumlari

Ming yillardan buyon Hindiston hunarmandchiligida eng muhim o'rinni mato to'qish egallab keladi. Hindiston paxta vatani bo'lsa ham, u yerda ipak, jun toladan yupqa harir yoki qalin dag'al matolar to'qilardi. Matolarning sifati juda yuqori darajada bo'lgan. Ip gazlama shunchalik harir bo'lganki, yetti qavat mato ostidan tanadagi xol ko'rinardi. Gazmollarning naqshi to'qima, bosma, qo'lda tasvirlangan, trafaret yordamida batik va tuguncha usulida, kashtalangan yoki o'yma modda yordamida hosil qilingan edi. Mato naqshining ko'rinishlarida o'simlik, hayvonot, odamiy tematik tasvirlari, adabiy mavzular va hirot (musulmon) mavzulari bo'lgandi.

Hind kostyumidagi shakl — bu din bilan yuqori darajaga ko'tarilgan go'zal va pok tana; u hayot beradi va hayot davomchisidir. Uni berkitish kerak emas, chunki tana shakli har tomonlama kamolot cho'qqisi deb hisoblanardi. Tana barkamol edi va unga faqat bironta narsa qo'shilishi mumkin edi.

Ijtimoiy tabaqalar ajralib turish uchun zargarlik taqinchoqlaridan foydalanishardi. Ularning miqdori va bahosi shaxsning tabaqa belgisi sanalardi.

Braxmanlarning kiyimlari oppoq harir matodan bo'lib, qo'shimcha ko'p bezaklar taqilardi.

Induizm dini falsafasi bo'yicha hamma narsa juda yaxshi va kiyimni o'zgartirishga hojat yo'q. O'zing kamolga yetgin, ortiqchalik — bu o'tkinchilik, deb hisoblanardi.

Erkaklar kostyumi. Dxoti va orxnidi. Bu kiyimning yangi shakllarining paydo bo'lishiga yo'l qo'ymasdi.

Eng qadimiy tasvirlangan kiyim shakllari (miloddan avvalgi III minginchi yil) belga va yelkaga o'ralgan tikilmagan mato bo'laklari edi. Yelka kiyimi mato parchasidan iborat bo'lib, chap yelkaga tashlanardi va o'ng qo'ltiqostidan o'tqazilib, tanaga o'ralardi. Bel kiyimi esa hozirgi dxotiga o'xshash ariylar olib kelgan kiyim edi.

Kostyumning asosiy elementi "nivi" edi. Bu belga o'ralgan va qorinda taxlam qilingan tikilmagan mato bo'lagi edi. "Nivi" so'zi sanskrit (qadimiy hind tili)dan kelib chiqib, hozirgacha ayollar kiyimida saqlanib qolgan.

Tananing yuqori tomoni yopinchiq "upavasa" va "paridxana"ga o'ralgan. Ushbu kiyim elementlari erkak va ayollar kiyimining asosi bo'lgan edi.

Miloddan avvalgi 320-yildan milodning 320-yiligacha bo'lgan davr kostyum evolyustiyasida muhim rol o'ynadi. Bu davrda bichilgan va tikilgan kiyimlarning asoslari mavjud bo'lgandi. Markaziy Osiyodan kelgan bosqinchilar (xunlar, shaklar, kushonlar) yopishib turadigan, bichilib tikilgan kiyimni olib kelishdi. U kimxobdan, shoyi astarli, tor, tanaga yopishib turadigan, tunikasimon bichilgan "joma"simon yelka kiyim va etikka kirgizilgan, tor, tizzasidan tepaga sal kengaygan "payjoma"simon ishton edi. Lekin bu xil kiyim hindlarga to'g'ri kelmagandi. Ular kiyimga yangi shakl va xususiyat berishdi — yelka kiyimi yupqa zarli iplar bilan to'qilgan muslindan qilinib, belida belbog' bilan burma hosil qilib bog'lanardi. Bel kiyimi esa "nimdxoti" — yumshoq, tiniq, yo'l-yo'l matodan qilinardi. Bu davrda ham juda ko'p taqinchoqlar taqilardi. Erkaklar ustki kiyimi "adxivasa" — bichilib tikilgan va zar bilan kashtalangan ko'ylak bo'lgan.

320—1100 yillar hind kostyumining barqarorlashgan davri deb hisoblanardi. Bu davrda erkak va ayollarning hamda mahalliy kiyimlarning ajralishi yuz bergandi. Aynan shu davrda musulmonlarning Hindistonga kirib kelishi san'atning rivojlanishida yangi bosqichni nishonlaydi. Yangi din — islom — mahalliy urf-odatlarining o'zgarishiga olib kelgandi.

Agar oldingi davrda etnik omil kiyimning asosi bo'lsa (tikilmagan — mahalliy aholiniki, tikilgan — chet elliklarniki), musulmonlar kelgandan so'ng diniy omil birlamchi bo'lib qoldi. Bu davrdagi kiyimlar bilan miniatyuradan tanishib chiqsa bo'ladi. Hindlarda odatdagi tikilmagan kiyimlar (bel kiyimi — dxoti va yopinchiq — dupatta) saqlanib qolgandi, islom diniga kirganlar musulmonlar kiyimini kiya boshladi. Lekin musulmonlar kiyimi chapdan o'ngga o'ralsa, hindlar esa o'ngdan chapga o'rashardi (o'xshamaslik uchun). Sharf yoki yopinchiqni yelkaga

tashlashardi yoki boshga o'rashardi. Ayollar esa yot ko'zdan saqlanish uchun sharf bilan yuzlarini berkitishardi, keyinchalik, XIX asrda, u "sari"ga aylandi. Islom dini ta'sirida ayollar kichkina, tor, yopishib turadigan, bichilgan, orqasida tugmalangan koftasimon kiyim "choli"ni kiyishadigan bo'ldi.

Shunday qilib, bichilgan va tikilgan kiyim etnik to'siqlardan o'tib, kostyum asosi bo'lib qoldi. Ammo odatdagi bo'ksaga o'ralgan bog'ich kambag'allarning kiyimiga aylandi.

Bu davrda liboslar kengroq, aniq shaklsiz va uzunroq bo'lgandi. Keyinroq kiyim yana qisqara boshladi.

Bel kiyimi shalvar edi (turkiya shalvarining xili). Yupqa va qimmatbaho matodan qilingan ayollar ishtoni "sutxni" deb, erkaklarniki esa — "sutxna" deb atalardi.

Yelka kiyim — "kamis" (avval uni "kurta" deb atashardi, Radxa va Krishna, hozirgi vaqtda kurta deb erkaklar ko'ylagini atashadi). Kamisning old va orqa bo'laklarini alohida bichilardi, yelka kesimi qiya bo'lgandi, belida vitachkalar qilinardi. Kamisning uzunligi bo'ksa o'rtasidan boldirning o'rtasigacha bo'lishi mumkin edi. Beldan pastroq yon choklarda kesimlar qilingandi. Kamisning old yoqa o'mizi uchburchak shaklida bo'lib, orqasida kichkina tik yoqa bo'lgan. Ko'ylak turli rangli naqshli ipak matodan qilinardi.

Erkaklarning bel kiyimi, ya'ni ishtoni, "payjoma" ikki poy va rombsimon og'dan iborat bo'lgandi. Ishtonning tizzasidan tepa tomoni keng bo'lgan, pasti esa yopishib turardi. Ishtonning tepa tomoni uzunroq bo'lgani uchun uni bilaguzuk kabi ko'ndalang taxlamlari hosil bo'lardi, shu sababdan uning nomi "churidara" ("churi"- bilaguzuk) deb atalardi. Ishton ko'pincha oq ip gazmoldan tikilardi.

Eng ko'p tarqalgan erkaklarning yelka kiyimi — "**kurta**"— ip gazlamadan tikilardi. Ko'ylak yaxlit bichilgan stan, yon qo'shimchalardan, alohida bichilgan yeng va hishtakdan iborat edi. Tik yoqa o'miziga planka tikilardi, yoqasi esa yo'q edi.

XIX asrda inglizlar hukmdorligi davrida mahalliy kiyimga yana bir necha o'zgarish kiritildi. Ingliz harbiy kiyimi hind kiyimi bilan aralashgandi. "Syurtuk" va "pilotka" XX asr erkaklari milliy kiyimiga aylandi. Ammo bel kiyimi dxoti bo'yicha qoldi. Ayollarning kiyimi o'zgarmasdan, burungi holidan qoldi.

Bezaklar hindlar kiyimida hozirgacha, ayniqsa ayollarda, muhim rol o'ynaydi. Ular faqat bezak belgisi emas, balki ko'proq ijtimoiy rol o'ynaydi. Hindistonda bezak taqmagani biron ham ayol yo'q (bevalardan tashqari). O'rta va past tabaqali ayollar barcha taqinchoqlarini doimo taqib yurishardi. Zargarlik buyumlari xilma-xil bo'lgan: ziraklar, uzuklar, marjonlar, bilaguzuklar, to'qalar, kamarlar, sochiga va peshonasiga taqadigan taqinchoqlar va boshqalar. Ular chig'anoqdan, fil

suyagidan, marjondan, marvariddan, donlardan, nozik, rangli shisha va oynachalardan qilinardi. Oltin va qimmatbaho toshlar ham juda ko'p qo'llanardi.

Hindlar kostyumida kosmetika (bo'yanish) keng qo'llanardi. Ular yuzlarini, qo'llarini, oyoqlarini turli ranglarga bo'yashardi. Peshonadagi nuqta VII asrdan boshlab Buddaning yetti go'zalligidan biri deb hisoblanardi. Keyin bu xolsimon nuqta odatga aylandi.




6.5-rasm. Hind ayollari kostyumlari

Oyoq kiyimlari: charm yoki yog'ochdan ishlangan shippaklar, qishda somondan to'qilgan tufli va namat yoki charmdan qilingan etik. Hindlar uyga kirganda oyoq kiyimini yechib kirishardi (musulmonlardan o'tgan odat).



Tayanch iboralar

Dxoti, nimdxoti, sutxni, sutxna, kamis, adxivasa



Topshiriq savollari

- 1.Hind erkaklari yelka kiyimlari nomi nima.?
- 2.Hind ayollari kiyimlari nomi nima?

3. Hind kiyimlarida o'zgarishlar asosan qachondan boshlab shakllana boshladi ?
4. Hind ayollari sarisi qachondan shakllandi?
5. VII asrdan boshlab Buddaning yetti go'zalligidan birining belgisi nima deb hisoblanardi.

O'rta Osiyo kostyumlari



Millodan avvalgi 2-ming yillikning oxiri — 1-ming yillikning boshlarida O'rta Osiyoda yirik quldorlik davlatlari Baqtriya, So'g'd va Xorazm davlatlari paydo bo'lgandi.

O'rta Osiyoning katta qismini miloddan avvalgi VI asrda Eron ahmoniylari, ulardan so'ng miloddan avvalgi

329—327 yillarda Iskandar Zulqarnayn qo'shinlari bosib olishi ham bu yerda quldorlikning yanada rivojlanishiga ta'sir etgan. Miloddan avvalgi III asr o'rtalarida O'rta Osiyoning g'arbida yirik quldorlik davlati — Parfiya vujudga kelgan. Ko'pgina yozma manbalarga ko'ra u hatto Rim imperiyasining ham xavfli raqibiga aylangan.

Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan qabartma suratlar, oltin va kumush idishlarga ishlangan bo'rtma manzaralar, turli xil tangalar fikrimizga yorqin dalil bo'la oladi.

O'rta Osiyoda quldorlik madaniyati miloddan keyingi I—III asrlarda, ya'ni Kushon podsholigi davrida o'zining eng yuksak davrini boshdan kechirgandi. Bu yuksalish, albatta, o'z-o'zidan yuz bermay, uning bir qator omillari ham bordir. Bu hollar, dastavval sinfiy ziddiyatlarning keskinlashuvi, jamoaning yemirilishi, erkin jamoa a'zolarining haddan tashqari qashshoqlanishi bilan bog'liq bo'lgandi.

Parfiya podshohligi inqirozga uchragandan keyin (III asrning birinchi yarmi) O'rta Osiyoning g'arbiy viloyatlari, asosan, Eron sasoniylari qo'lga o'tdi. IV—V asrlarda Baqtriya va Su'g'diyonada esa Eftalitlar davlati paydo bo'ldi.

Urug'- aymoqlar uyushib yashashiga ko'nikkan O'rta Osiyo xalqlari ayniqsa dehqonchilik va chorvachilikka zo'r berdilar. Ular chorva mollarini asrash maqsadida keng maydonlarni qamragan qal'alar qurdilar.

Buyuk yunon muarrixlari Gerodot, Kvint, Kursiy Ruf, Plutarx, Arrian, Diador, Starbon, Pompey Torg, Yustin, Aristotel, Ksenofontlar O'rta Osiyo xalqlari haqida ajoyib tarix bitganlar. Misol uchun, yozma manbalarga ko'ra, O'rta Osiyo xalqlari ko'pincha skiflar deb atalgan. Yunon muarrixi Pompey Trog O'rta Osiyo xalqlari



7.1-rasm. O'rta Osiyo

haqida gapirib, "Qadimiylikda ular misrliklar bilan bahslashardilar", deb yozgan.



b
Buxoro. Yangi milodning
boshi



v
Samarqand. Yangi
milodning boshi
7.2-rasm.



a
Samarqand. Ayol haykali
III-IV asr

O'rta Osiyoda oromiy, yunon, forsiy yozuvlari keng tarqalgan. Ular moddiy va ma'naviy madaniyatning keyingi ravnaqiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi.

Shu davrga taalluqli rasmlarda va haykallarda yer va unumdorlik xudosi Anaxita, otliqlar, hayvonlar, xayoliy mahluqlar shakl-shamoyillarini ko'ramiz. Afrosiyob topilmalari orasida chakmon, uzun qo'njli etik, uchli bosh kiyim kiygan, bo'yniga qimmatbaho ma'danlardan bezaklar osib olgan haykalchalar (7.2-rasm) diqqatimizni tortadi.

Qadimda zarb etilgan tangalar, idish-tovoqlar, qurol - aslahalarga tushirilgan rasmlarda tabiat manzaralarini, odam va hayvonlar tasvirini ko'ramiz.

Ayritomdan topilgan yodgorliklarga ko'ra O'rta Osiyoda musiqa san'ati taraqqiy topgan.

O'rta Osiyo xalqlari qadimda ajoyib me'morchilik obidalarini bunyod etdilar. Qadimdan qolgan katta yodgorliklar — Qo'yqirilgan qal'a, Tuproq qal'a, Ayritom, Yonbosh qal'a, Dalvarzintepa, Varaxsha va boshqa tarixiy joylardan topilgan ajoyib saroylar, qadimiy san'at namunalari: me'morchilik, tasviriy san'at, naqqoshlik, haykaltaroshlik asarlari o'tmish ajdodlarimizning yuksak aql-zakovatidan dalolat beradi.

O'rta Osiyo va Eron xalqlarining qadimgi madaniy merosining asl durdonalaridan biri bu muqaddas "Avesto" kitobidir. "Avesto" zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, bu din kurtaklari ibtidoiy jamoa davrida paydo bo'lgan. Zardo'shtiylik quldorlik va ilk feodalizm davrida O'rta Osiyoda asosiy diniy e'tiqod sifatida keng tarqalgan. Zardushtiylik bu o'lkalarda islom dini joriy etilgan ilk davrlarda ham bir necha yillar saqlanib qolgan. "Avesto" nafaqat diniy kitob, balki ko'p mamlakatlarning uzoq asrlardagi tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tili yozuvi badiiy madaniyatini o'rganishda ham buyuk manbadir.

Zardo'shtiylik mohiyati — ezgulik va yovuzlik (yaxshilik va yomonlik) o'rtasidagi qarama-qarshilikka asoslangan.

Kushonlar imperiyasi davrida O'rta Osiyoga Hindistondan buddizm dini kirib kelgan. Imperiyaning madaniy markazlarida barpo etilgan budda ibodatxonalari o'sha zamon san'ati bilan bezalganligi bilan ajralib turadi. Buddizm Kushonlar davlati tomonidan mafkuraga aylangan bo'lsada, aslida bu din unchalik e'tibor topmadi.



7.3-rasm. Ayollar bosh kiyimlari va soch turmaklari

Kushon podsholigi davrida mustahkam istehkom-shahar qurilishi keng rivojlangandi. Shaharlar qalin devorlar bilan o'ralgan, ularning ichida askarlar bo'lib, har xil binolar qad ko'targan. Sopol idishlar nihoyatda nafis, nozik va xilma-xilligi bilan ajralib turgan. Amaliy san'at keng taraqqiy etgan. Zeb-ziynat buyumlari, mehnat va jang qurollari va mato to'qish rivojlangandi.

Qadimiy O'rta Osiyo san'at yodgorliklari antik davri kiyimlarining turlari bilan tanishishga zo'r imkoniyat beradi.



a

b

7.4-rasm. O'rta Osiyo kostyumlari. Milodning boshi.

Yunon muarrixi Gerodotning ma'lumoti bo'yicha, hamma qabiladagi odamlar, hattoki erkaklar ham, kiyimsiz yurishni uyatli deb hisoblashardi.

Ayollar kostyumi. Ayollar kostyumi yunonsimon, skifsimon va hindsimon bo'lgandi. Ular ichki va ustki: yelka, bel, bosh va oyoq kiyimlardan iborat edi.

Ayollar ko'ylagining ikki turi uchrardi. Birinchisi — tunikasimon bichimli ko'kragi tagida va belida belbog' bilan bog'langan to'g'ri ko'ylak edi. Uning yoqa o'mizi dumaloq bo'lgan, oldi esa tomchisimon kesimli edi (7.4-rasm,a). Ko'ylakning ikkinchi turi yunon xitoniga o'xshash edi: bo'y baravar mato parchasini yelkada to'g'noig'ch bilan biriktirishardi, etagining yon burchaklarini tugunga bog'lab qo'yishardi (antik yunon xitonlarda esa etagi erkin tushib, drapirovkalanardi). Bu ko'ylak belida yoki ko'kragini tagidan belbog' bilan bog'lanardi (7.4-rasm, b).

Ustki kiyimlari skifsimon kaftanlar va yopinchoqlar bo'lgan. Kaftan bichimi tunikasimon bo'lgan, shakli to'g'ri yoki gavgavga yopishib turgan. Tor yengi uzun edi, ba'zan, ko'ndalang taxlamalilari ham uchrardi. Kaftanlar tik yoki diagonal yo'nalishida qavilardi. Yoqa o'mizi va oldi to'qilgan tasma bilan bezatilgandi.

Ko'ylak yoki kaftan ustidan yopinchoq kiyishardi. Ular bo'y baravar to'g'ri to'rtburchak matodan qilinib, yelkaga tashlanardi, old uchlari esa to'g'nog'ich bilan biriktirilardi.

Bel kiyimi — uzun, etikka kirgizilgan ishtonlar edi. Ular ko'ylakning tagidan ko'rinishi mumkin edi.

Bosh kiyimlari konussimon namatdan qilingan qalpoqlar, yumshoq yassi shapkalar, sallasimon, tojsimon bosh kiyimlar va yopinchoqlar bo'lgan.

Prichyoskalari murakkab va xilma-xil bo'lgan. O'rilgan sochlar turli usulda turmaklangandi .



7.5-rasm. Erkaklar kostyumi. Buxoro. Milodning boshi.



7.6-rasm. Saroy devoridagi rasmlar. Afrosiyob-Samarqand. VII-VIII asrlar.

Bezak taqinchoqlar: tojlar, ziraklar, tillaqoshlar, grivna va boshqalar bo'lgan. Oyoq kiyimlari yumshoq etik edi, gohida, qo'njining tepa qismi qaytarilishi mumkin edi.

Buddizm turidagi kiyimlar quyidagilardan iborat edi:

— gavgda yopishib turadigan yoki ser drapirovkalangan ko'ylak; ustidan tugma va naqshli tasma bilan bezatilgan uzun ko'ndalang taxlamli yengli ko'ylak yoki kaftan va yana ustidan kiyilgan yengsiz ko'ylak. Ustki kiyimi yopinchoq. Bosh kiyimi — yumshoq, bir uchi yelkaga tashlanadigan ro'mol. Bezaklari: bo'ynida grivnalar, bilakuzuklar, peshona osilchoqlari, tillaqoshlar, og'ir ziraklar va marjonlar bo'lgan;

— tunikasimon, tor, uzun, ko'ndalang taxlamli yengli ko'ylak, ustidan beli bog'langan xitonlar yopinchoqqa o'ralgan edilar; drapirovkalangan ishtonlar bo'ksada keng yumshoq belbog' yordamida mahkamlangandi;

— pricheskalari har xil va murakkab bo'lgan: yuzining aylanasiga joylashgan o'rilgan sochlar yoki jingalaklar.

Erkaklar kostyumi. Ularning kiyimi ham yelka va bel, ustki va ichki kiyimlardan iborat.

Yelka kiyimi ichki ko'ylak va ustidan kiyiladigan kaftandan iborat. Ularning bichimi tunikasimon, shakli to'g'ri edi. Kiyim gavgda sal yopishib turardi. Uzunligi bo'ksasidan pastroq yoki tizzagacha edi. Uzun yengi tor yoki ko'ndalang taxlamli bo'lgan. Belga belbog' bog'lashardi (7.5-rasm). Bel kiyimi tor yoki ko'ndalang taxlamli ishtonlardan iborat edi. Bosh kiyimlari yassi yoki konussimon qalpoqlar bo'lgan. Oyoq kiyimlari esa yumshoq, tepasi qaytarilgan etiklar edi.

Shunday qilib, O'rta Osiyo antik kostyumiga skiflar, ellinlar va hindlarning ta'siri bo'lgan. Ammo O'rta Osiyoliklarning kiyimlarining shaklida, kiyinish odatlarida, kiyim turlarida mahalliy odatlariga oid xususiyatlari mavjud bo'lgan va u juda keng, boy tarixga ega edi.

O'zbekiston hududida quldorlik munosabatlarining ilk feodal munosabatlariga o'sib o'tishi uchun zarur shart-sharoitlarning yetilishi III—V asrlarga to'g'ri keladi. VI—IX asrlar davomida ilk feodal jamiyati bu xududda uzil-kesil qaror topdi.

V asrda O'rta Osiyo va Qozog'iston xududini ishg'ol etib, o'z davlatini vujudga keltirgan xun qabilalardan iborat eftalitlar xukmronligi davrida feodal munosabatlari ancha rivoj topadi. Eftalitlar bilan Eron sasoniylari uzoq vaqt urush olib bordilar. Eftalitlar zarb etgan tangalar savdo-sotiq muomalasida muhim rol o'ynaydi. Ular mahalliy aholi bilan tobora aralashib, o'troq hayot kechira boshlaydilar. Bu davrda bir qator shaharlar bunyod bo'lib, savdo-sotiq kengayadi. Shaharlarda yirik karvonsaroylar, shinam uy-joylar va ibodatxonalar qad ko'taradi.

VI asrda hozirgi Oltoy o'lkasi hududida ko'chmanchi turk qabilalarining birlashuvi natijasida turk hoqonligi tashkil topdi. Turk hoqonligi hukmronlik ta'sirining o'sib borishi O'rta Osiyo xalqlarining keyingi tarixiy taqdirida alohida

o'rin tutdi. Uning kuchli zarbalari ta'sirida O'rta Osiyodagi eftalitlar davlati barbod bo'ldi. Bu davrda feodal munosabatlari o'sib, mustahkamlanib bordi. Turk hoqonligi savdo-sotiq ishlarini jonlantirdi, g'arbiy Osiyo, Eron va O'rta Osiyodan boshqa davlatlarga, VI asrning 80-yillariga kelib Turk hoqonligi sharqiy va g'arbiy qismlarga ajralib ketdi. Bunday vaziyatdan arab istilochilari foydalanib qoldilar.

VII asr boshlarida Arabiston ijtimoiy-siyosiy kuchlari yangi din — islom g'oyasi bayrog'i ostida qisqa muddat ichida o'z mavqelarini mustahkamladilar.

Butun Arabiston, Old Osiyo, Eron hududlari arablar tomonidan bosib olinib, u yerlardagi xalqlar majburan islom diniga bo'ysundirildi.

II asr boshlaridan e'tiboran arab bosqinchilarining asosiy diqqati O'rta Osiyo yerlariga qaratildi va bu yerlarni ishg'ol qildilar.

O'rta Osiyoga islom dinining yoyilishi hamda u bilan bog'liq bo'lgan diniy rasm-rusmlar, shariat va tariqat qonun-qoidalari, aqidalarining tarkib topib borishi, mahalliy xalq namoyandalari uchun muayyan ijobiy rol o'ynadi. Odamlar har xil xudolar, chiltonlar, muqaddas sanalgan narsalarga sig'inishdan xalos bo'lib, yakkayu yagona Olloh taolaga, uning rasuli Muhammad alayhissalom ko'rsatmalariga e'tiqod ila amal qiladigan bo'ldilar.


O'rta Osiyoga bostirib kelgan arablar bu yerda o'zlariga qaraganda ancha yuqori darajada bo'lgan moddiy va ma'naviy madaniyatga, yuqori turmush darajasiga duch keldilar. Shu boisdan ular pirovardida bu yerdagi xalqlarning ilg'or madaniyati, urf-odatlarini va an'alarini qabul etib, singishib ketdilar.

Tarixiy va arxeologik ma'lumotlar Sug'diyona, Baqtriyaning yuksak darajadagi o'ziga xos madaniyati, san'ati haqida guvohlik beradi. Afrosiyob, Varaxsha, Panjikentdagi qazilmalardan topilgan san'at buyumlari O'rta Osiyo xalqlari qadimgi va ilk o'rta asr madaniyatining naqadar boyligidan darak beradi. Shohona bazmi jamshidlar, raqslar, piyoda va otliq jangchilarning savashlari manzaralaridan ayrim sahnalari, odamlarning haykalchalari, odam va hayvonlar surati tushirilgan yog'och o'ymakorlik buyumlari, Mug'tog'i va Afrosiyobda topilgan sug'd yozuvlari O'rta Osiyo kostyum tarixini o'rganishga yangi yo'l ochdi.

Mug'tog'i va Afrosiyobda topilgan sug'd yozuvlari O'rta Osiyo kostyum tarixini o'rganishga yangi yo'l ochdi.

Ilk o'rta asr rassomchilik uslubi nozik, kompozitsiyasi dinamik kuchlarga to'la, qatnashuvchilarning harakatlari va holatlari plastikli, odamlarning siymolari imkon boricha tipiklashtirilgan bo'lgan. Devoriy tasvir va koroplastika san'ati O'rta Osiyo matolari va kostyumi to'g'risida boy ma'lumot beradi. Ularning tahlili bu davrda to'qimachilik san'ati yuqori darajaga erishganligini ko'rsatadi. Tog'li joylarda jun, vodiylarda — ipak va ip matolar qo'llanardi. Ular asosan organik

bo'yoqlarga bo'yalardi. Bir yoki ko'p rangli ipaklar, sidirg'a yoki naqshli ip gazmollar, zar qo'shib to'qilgan matolar kiyimlarda qo'llanardi. Naqshlari to'qima, bosma yoki tuguncha usulida qilinardi. Naqshda asosan geometrik, o'simlik, hayvoniy, fantastik va qarta mavzulari uchrardi. Naqsh kompozitsiyasi ikki-uch yoki to'rt rangli bo'lgan. Rang gammasi qizil, sariq, yashil, oq, qora edi.



7.7-rasm. Erkaklar ustki kiyimlari

O'rta Osiyo gazmol markazlarida "zandanachi" kabi ko'k rangli ipak va boshqa matolarning ishlab chiqarilishi yopishtirma yassi, g'ilof kiyimlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Kiyimning kompozitsion markazi mato bo'lgandi.

Ilk o'rta asr kostyumida o'z manbalari bor edi. Kushon, eftalit, sosoniy, turk, hind, eron ta'sirlari bilan mahalliy meros ma'lum darajada umumiy uslub yaratgandi. Bu davrda estetik ideallari badiiy uslubga mos bo'lgandi.

V asr erkaklari kuchli, baqaloq, yumaloq yuzli, bodomsimon ko'zli, kalta qirqilgan sochli, soqolsiz tasvirlangan. Ularning kiyimi otga minib yurishga mos bo'lib, quyidagilardan iborat edi: kalta kaftan va ko'ylaklar, keng ishtonlar va baland qo'njli etiklar. Yelka kiyimida trapetsiya shaklli tunikasimon bichim yon qiyiqlar yordamida (qiyiqlar qo'ltig'i dan yoki belidan tikilishi mumkin edi) hosil qilinardi. Ishton bichimi uch bo'lakdan, ya'ni ikkita poycha va bitta og'dan iborat edi.

Etnik differentsiasiyasi ham belgilanardi: eftalitlar kostyumiga oldi ochiq bir tomonlama qaytarmali, tunikasimon bichilgan, bilagida toraytirilgan uzun yengli va etagida yon kesiklari qilingan kaftan kirardi. Ularning yoqasi, yon kesiklari, oldi, etagi, yengining uchi boshqa mato bilan bezatilardi. Ishtonlarni poychasi va boldirigacha yon choki boshqa rangli mato hoshiyasi bilan bezatilardi.

Bu davrda ideal ayol gavdasini mag'rur tutardi. U to'ladan kelgan, keng yuzli, nazokatli, qoshlari yoysimon, to'g'ri farq qilib ochilgan silliq uzun sochli, to'g'ri burunli, kichkina og'izli va nozik qo'lli bo'lgandi. Ayollarning kiyimi erkaklar kiyimi kompleksiga o'xshash edi: ko'ylaklar, kaftanlar, bir tomonlama qaytarmali yopinchoqlar va ishtonlar edi .

Ulardan tashqari shleyfli uzun ko'ylak, kofta, yubka va po'stinlar ham kiyishardi. Ustki kiyimlarining (kaftan, yopinchoq va po'stin) uzunligi tizzagacha bo'lgandi. Yelka kiyimning yoqasi, etagi, oldi, yengning uchi boshqa rangli matodan qilingan hoshiya bilan bezatilardi.

VI—VII asrlarda erkaklarning estetik ideali o'zgargandi. Qo'pol kuchning o'rniga aql va noziklik kelgandi. Qad-qomati kelishgan va ayollarga xushmuomalali bo'lgan kishi shu davrda mard, deb hisoblanardi. Ideal erkakning beli ingichka uzunroq, qo'li ingichka bilaguzuk va uzuk bilan bezatilgan bo'lishi kerak edi. Kostyumda chorvador va shahar aholisi kiyimlarining assimilyatsiya bo'lganligi, o'troq xalqlarning madaniyatiga qizg'in qo'shilishi o'z ifodasini topgandi.



7.8-rasm.. Tohariston. Erkak va ayol kiyimlari

Erkaklar kostyumida avvalgi davrning kiyimlari qatorida ikki tomonlama qaytarmali turk kaftanlari keng tarqalgandi. Kaftan gavdaga yopishib turardi, uzunligi esa bo'ksagacha bo'lib, yon kesimi bo'lmagandi. Dekorativ mato bilan faqat yoqasi va yeng uchi bezatilardi. Ustki kiyim — yopinchoq ham ikki tomonlama qaytarmali bo'lgan. Bu davrda etiklari ham nozik bo'lgan.


VI—VII asrlarda ayollarning estetik timsoli ham o'zgargandi. Endi u beli ingichka, yuzi nozik ayol edi. Kiyimning yangi chegaralari yangi plastik siymosini yaratgandi. Kosmetika bunga ancha yordam berdi. Ayollarning kiyimi erkaklar kiyim kompleksiga o'xshash edi. Ulardan tashqari, ayollar kiyim ansamblida nimchalar, koftalar, to'g'ri shaklli yubkalar va uzun ko'ylaklar uchragandi.

VII asrning oxirida — VIII asrning boshlarida O'rta Osiyo xalqlari kostyumining bichimi murakkablashgandi. Tanaga yopishib turishiga qulaylik beradigan o'tqazma yangli kiyim paydo bo'ldi. Kaftan va yopinchoqlarning bezagida kushonlar tunikasimon ko'ylagining bezaklarining ta'siri sezilardi. Yopinchoqlarda rang-barang matodan qilingan hoshiyali qiyiqlar paydo bo'lgan; ularning etaklari va yoqalarining bezagi ham o'zgargandi.

Kiyimlarning uzunligi endi tizzadan pastda joylashgan. Tunikasimon bichim ham o'zgargan: yenglari yelkadan sal pastroq tikilardi va yelka choklari dekorativ mato bilan bezatilgandi.

Erkaklar va ayollar kostyumida taqinchoqlar muhim rol o'ynagan. Ular shaxsning ijtimoiy holini ko'rsatardi. Ayol va erkaklar zirak, qo'l va oyoq bilaguzuklarni, marjonlarni, ko'krak osilchoqlarni va kamarlarni taqishardi. Toharistonda faqat erkak va ayol xizmatchilar belbog' taqishardi, (7.8-rasm)aslzoda ayollar esa belini bog'lamasdi.

Arablar istilosidan keyin O'rta Osiyoda (IX— XII asrlar) feodal munosabatlar yanada mustahkam negizda qaror topa bordi.



7.9-rasm. Ayollar libosi.

X asrning ikkinchi yarmiga kelib feodal xo'jaligi o'sishi va cho'lli qipchoqlar, Volga bo'yi xalqlari va sharq mamlakatlari bilan savdo-sotiqning yo'lga qo'yilishi

natijasida Xorazmning mustaqilligi kuchaya boshladi, chunki shimoliy va sharq mamlakatlari bilan savdo-sotiq ishlari Xorazm orqali amalga oshirilardi.

IX—XII asrlarda O'rta Osiyoda fan va madaniyat bobida shu qadar ajoyib fan kashfiyotlari va tadqiqotlari yaratildiki, bu o'tmish ajdodlarimizning jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan bebaho hissasigina bo'lib qolmasdan, ularning dahosi va aql-zakovatining nihoyatda yuksakligidan ham dalolat beradi.

O'rta Osiyo xalqlarining ushbu davrdagi madaniyati, san'ati va ma'naviyati darajasining nechog'li o'sganligi, taraqqiy etganligi dalilini Buxoro, Poykent, Afrosiyob, Varaxsha, Axsikent shaharlari xarobalaridan, hozirgacha saqlanib qolgan ajoyib minora, madrasalar va maqbaralardan (Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Turkistondagi Ahmad Yassaviy maqbarasi va h.k.) ham bilishimiz mumkin.

XIII asr boshlariga kelib O'rta Osiyoda feodal munosabatlar yanada kuchaydi va keskinlashdi. Bu so'zsiz markaziy hokimiyatni zaiflashtirdi.

XIII asrda mo'g'ul qo'shinlari O'rta Osiyoni ishg'ol etdilar. Bosib olingan shahar va qishloqlar shafqatsizlik bilan talanib, xonavayron qilindi. Turmush va madaniyati g'oyatda past bo'lgan ko'chmanchi mo'g'ullar mahalliy madaniyat obidalari va yodgorliklarni xarob qildilar.

XIV asrning 50—60-yillarida Movarounnahr ancha murakkab davrni boshdan kechirdi va mo'g'ul istilochilarining bu yerlarni istilo qilishiga olib keldi. XIV asrning ikkinchi yarmi — XV asrning boshlarida Amir Temur o'zining buyuk imperiyasiga asos soldi. Bu davrda Movarounnahr misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etishi bilan nishonlandi. Temurning avlodlari davlatning yuksalishini davom ettirdi. Temuriylar davrida Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot o'z maromida davom etdi.

Bu davrda hunarmandchilik birmuncha rivojlandi va savdo-sotiq ishlari ancha keng rivoj topgandi. O'rta Osiyo ko'p mamlakatlar bilan savdo-sotiq va diplomatik aloqada bo'lgan. O'z navbatida qo'shni Hindiston, Eron, Balx, Rossiya va boshqa mamlakatlardan katta-katta savdo karvonlari bu diyorga kelib turgan. O'rta Osiyodan chet mamlakatlarga asosan to'qimachilik mahsulotlari, bo'z, har xil rangdagi matolar, gilamlar, mis idishlar chiqarilardi va ular sharq bozorlarida asosiy o'rinlardan birini egallardi.

O'rta Osiyo kech o'rta asr davrining miniatyurachi rassomlari san'atda boy meros qoldirgan edilar. Kamoliddin Behzod, Muhammad Chagri, Muassin Abdullo, Muhammad Murod Samarqandiy kabi rassomlar shu davrdagi aholining barcha tabaqalarini, turmush tarzini, tashqi ko'rinishi, kiyishgan liboslarini yuksak mahorat bilan tasvirlashgan. Ammo kostyum bilan miniatyura orqali tanishganda tasvirlarning shartlilikiga ahamiyat berish kerak. Matolarning rangi aslida va

rasmda har xil bo'lishi mumkin, chunki rasm va matoni bo'yash uchun bo'yoqlar har xil bo'lgan.

Miniatyuralarga ko'ra, O'rta Osiyo kiyimida asosan sidirg'a oq, zangori, binafsha, kul va jigar ranglar uchragandi. Naqshli matolar juda kam qo'llangandi, yo'l- yo'l matolar asosan hind va eronliklarniki edi. O'rta Osiyoda faqat XVIII asr oxirida ular kiyimda qo'llangandi.

Erkaklar kostyumi. Erkaklar libosi ustki va ichki, yelka va bel kiyimlardan iborat edi. Ustki yelka kiyimlari turli chopon va chakmonlardan iborat bo'lgan. Eng keng tarqalgan kiyim — oldi ochiq chopon edi. Ularning bichimi bir xil — tunikasimon — bo'lib, detallari, bezagi, matosi va kiyish usuli bilan farqlanardi. Oldi ochiq kiyimlar kalta va uzun yengli yoki yengsiz bo'lardi. Ular tunikasimon bichimli bo'lgan holda, orqa bo'lagining o'rtasida yoqa o'mizidan beligacha vitochka qilinardi va shuning yordamida kiyim gavgaga yopishib turardi. Odam harakatiga qulay bo'lishi uchun yon choklarining pastida kesik qoldirilardi. Choponlar qaytarma va tik yoqali yoki yoqasiz bo'lardi. Yoqalar va qaytarmalar boshqa rangli matodan qilinardi. Aslzodalarning kiyimida mo'yna yoqalar ham uchrardi. Yoqalarning shakli asosan trapetsiyasimon bo'lgan. Odatda yoqalar qora rangli qilinardi, Buxoroda esa XVI asrda zarbof kashta tikilardi.

Choponlar astarli edi. Astarining matosi va uning rangi boshqa bo'lardi. Mo'yna astarli, mo'yna shol yoqali, bo'yi va yengi juda uzun chopon "faradji" deb atalardi. Uning yengida qo'lini chiqazish uchun kesik qilinardi.

Uzun yengli choponlar, ko'pincha, belbog'siz kiyilardi. Ishlagan paytda va dafn marosimida belbog'ni albatta kiyishardi.


Kalta yengli chopon "koba"ning bir necha turi uchragan. Yeng uzunligi belagining o'rtasigacha bo'lsa, choponning etagi kengaytirilib, ziyiga qavilgan mag'iz qilishardi. XV asrda shu turdagi choponda belidan pastgacha ikki yon kesim bo'lgan va, ba'zan, orqasida ham kesim uchrardi. Keyinroq orqa kesim kiyimlarda qilinmaydigan bo'ldi.

Koba uzun yengli joma yoki faradjiga nisbatan kaltaroq edi. Uning uzunligi tizzagacha yoki boldirning o'rtasigacha bo'lgan, ba'zan, qariyalar, aslzodalar va saroy xizmatkorlarida uzunroqlari ham uchragandi.

Choponlar trapetsiyasimon qaytarma yoqali va oldi qaytarmali edi. Ular boshqa rangli matodan qilinardi.

Bu davrda mo'g'ullar olib kelgan yengsiz, keng yelkali choponlar ham bo'lgan. O'ziga xos oldi ochiq kiyimning turi — asimmetrik tugmalanadigan chopon "jubba" bo'lgan. Bu kiyim aslzodalarda, askarlarda, ko'chmanchilarda va ba'zan shaharliklarda — uchrardi. Ushbu kiyim turi ko'chmanchilar, mo'g'ul va turk odatlari bilan bog'liq. Shunga e'tibor berish kerakki, turklarning kiyimi o'ngdan

chapga, mo'g'ullarniki esa — chapdan o'ngga o'raladi. Jubbaning uzunligi har xil bo'lib, shaxsning ijtimoiy holini ifodalardi.



7.10-rasm. Erkaklar ko'ylaklari, ishtonlari, belbog' va kamarlari

Yenglari tor bo'lib, uzunligi kafti yoki bilagining o'rtasigacha edi. Kamdan-kam to'g'ri to'rtburchak yoki trapetsiyasimon yoqalar bo'lardi. Old qismining o'rtasida choki bor edi, chunki matoning eni tor bo'lgan. Yon kesimlari kam uchragan. Jubba asosan sidirg'a matodan tikilardi. Uzun yengli jubbalar qatorida keng kalta yenglilari ham bo'lgan. Yengning ziyida qavilgan mag'iz qilinardi. Qiya chap old bo'lagi o'ng tomonida qo'ltig'idan beligacha bog'ichlar yordamida biriktirilar, ustidan esa belbog' bog'lanardi. Ba'zan, jubbani chopon bilan kiyishardi.

Oldi ochiq ustki kiyim qatorida miniatyuralarda oldi berk ustki kiyimlar ham tasvirlangan. O'rta Osiyoda XV—XVIII asrlarda oldi berk kiyimlar oldi ochiq kiyimlarga nisbatan kamroq uchrardi. XV—XVI asrlarda ular odatda uzun bo'lgan, XVII—XVIII asrlarda uzuni va kaltasi (tizzagacha) uchraydi. Yenglari tor, uzun yoki kalta bo'lgandi, yengsizlari ham uchraydi. Ko'ylakning bichimi tunikasimon edi. Uchburchak shaklli yoqa o'mizi ko'kragigacha yoki beligacha bo'lishi mumkin edi. Yoqalari ham choponlarning to'ridan bo'lgan, XVIII asr oxirida esa yoqasiz qilinardi. Chuqur o'yilgan yoqa o'mizi tugma va izmaga tugmalanardi. Old va orqa bo'laklarining o'rtasida va yonlarida kesimlari bo'lgan. Oldi berk kiyimlari ham astarli qilinardi. Ularning rangi boshqa edi. Ushbu kiyimni aholining barcha tabaqalari ayri rasmiy sharoitlarda, ko'pincha dam olganda kiyishardi. Asl-

zodalar sayr-tomosha qilayotgan paytda va xizmatkorlar ishlaganda bellarini bog'lashar edi.

Ustki kiyimning ostidan har xil ko'ylaklar kiyishgan Ko'pincha baravar ustma-ust ikkitasini kiyishardi. Ichki ko'ylak "perohan" yupqa oq matodan, ustkisi "peshvoz" esa — zangori, ko'k, yashil va jigar rangli matolardan qilinardi. Ko'ylakning yengi keng va uzun bo'lgan. Yoqa o'mizi tor, chuqur, ovalsimon yoki berk, qornigacha vertikal kesimi bo'lishi mumkin edi. Yoqa o'mizining ziyiga qavilgan hoshiya qilishgan, ba'zan uni tugmalashardi.

Ustki ko'ylakning uzunligi tizzagacha bo'lgan, ichki ko'ylak esa uzunroq, boldirning o'rtasigacha yoki to'piqqacha edi, xizmatkorlarniki — tizzagacha bo'lgan. Ko'ylaklarni erkaklar faqat uyda kiyishardi.

Miniatyuralarda tasvirlangan ishtonlarning bichimi ikki alohida poychadan va og'dan iborat bo'lgan. Ishton shaklining tepa tomoni keng bo'lib, pastga toraygandi (7.9-rasm). Ishton belda popukli tasma yordamida mustahkamlanardi. Ko'pincha ishtonlar sidirg'a oq, ko'k va jigar rangli bo'lgan, yo'l-yo'l matolari ham uchrardi. Turk kiyimi ta'sirida ishtonlar shalvarsimon keng bo'lgan va qizil, to'q sariq hamda to'q qizil rangga bo'yalgan. Ishtonni yelka kiyimning ostidan kiyishardi. Boylar ov qilgan paytda poychasi keng ishtonlariga ustki kiyimni kirgizishardi.

XV—XVI asrlardagi miniatyuralarda erkaklarda bo'lgan sonbog'ich "fo'ta" tasvirlangan. U bo'ksaga aylana o'ralib, ingichka belbog' yordamida mahkamlanardi. Sonbog'ich keng, to'g'ri to'rtburchak cho'zinchoq mato bo'lagidan qilingan. Uning ranglari zangori, ko'k, yashil edi; yonlarida esa bitta keng yoki bir necha ingichka qora yo'llari bo'lgan. Sonbog'ichni quruvchilar, kurashchilar, jilovdorlar va aholining barcha tabaqalari hammomda kiyishgan.

XV asr oxirida bel kiyimining yana bir turi "beldemchi"ga o'xshash bo'lgandi. U oldi ochiq yubkaga o'xshagan va qalin rangli matodan qilinardi. Uni aslzodalar ovda kiyishgan.

Erkaklar kiyimida bir necha qo'shimcha detallari bo'lgan. Olimlar, ilohiyot mutaxassislari va so'filarda yelka sharfi "taylason" bo'lgan. Taylason, musulmonlarda eskidan qolgan, ushbu tabaqalarning an'anaviy kostyum belgisi bo'lgan. U yelkaga tashlanar yoki uchlari ko'krakda tugunga bog'lanardi; so'filar va imomlar esa — bosh kiyimning ustiga tashlashardi. XV—XVI asrlarda taylason fo'taga o'xshagan qilinardi. XVI asrning o'rtasidan boshlab u tor yoki keng, qora va jigar rang, uchi ko'pincha oq hoshiyali qilinardi.

Oldin aytilganday, erkaklar ustki kiyimni belbog' bilan bog'lashardi. Boylar va aslzodalarning belbog'i keng, Kambag'allarniki — ingichka bo'lgan va ba'zan oddiy tasmadan bo'lgan. Belbog'lar har xil rangli matolardan iborat edi. Ba'zan, fo'tani belbog' sifatida ishlatishardi. XVI asrdan boshlab bo'ylama yo'l-yo'l

matodan qilingan belbog'lar keng tarqaldi. Ular kengroq bo'lgan. Ko'pincha oldida tugunga bog'lashar yoki uchlarini yonida qistirib qo'yishardi. Aslzodalar va askarlar belbog'ning o'rniga yensiz, uch-to'rt yumaloq to'qa bilan bezalgan, oldida tugmalanadigan, qora charmdan ishlangan kamar taqishardi. Boylar kamarining to'qasi qimmatbaho toshlar bilan bezatilardi. Miniaturalariga binoan har xil shaklli matodan tikilgan telpaklar edi. Uni aholining barcha tabaqalari uyda va ko'chada kiyishgan,

Har xil bichimlar bosh kiyimlarning balandligini va shaklini o'zgartirardi. Odatda, astarli qilinib, qavilardi ular. Telpakning gardishi qaytarma va kesimli qilinardi. Bu holda telpak rangli matodan, astari esa boshqa, ko'pincha, qora matodan qilinardi. Ularni aslzodalar va ba'zan askar va ko'chmanchilar kiyishgan. Hindlardan farqli ravishda, O'rta Osiyoda ularni salla yoki bog'ichsiz kiyishgan, gardish qaytarmalari aslzodalar yuzining markazida joylashardi, quyi tabaqalar bu bosh kiyimini erkinroq kiyishardi.

Namatdan qilingan qalpoqlar ham keng tarqalgan. XV — XIX asrlarda ularni asosan hunarmandlar, ovchilar, xizmatkorlar va tog'li aholi kiygan. Ular an'anaviy, dumaloq shaklli bo'lib, turk qalpog'i ta'sirida shakli konussimon bo'lgandi. Qalpoqlar oq yoki rangli namatdan qilingan. Qalpoqni chekkasi sal qaytarilib, kesim qilinardi. Mo'g'ullar Markaziy Osiyoni bosib olganidan keyin ko'chmanchi aslzodalar va ularning xizmatkorlari orasida qalpoq keng tarqalgandi. Shaharliklar orasida bu bosh kiyim kam uchragan. Boylar bosh kiyimining gardishlari kashta bilan bezatilgan edi (7.11-rasm).


O'rta Osiyoda mo'yna bilan bezatilgan yoki butunlay mo'ynadan qilingan bosh kiyimlari ham bo'lgan. Ba'zan, matodan qilingan bosh kiyimlar mo'yna bilan sirlanardi.

Salla — O'rta Osiyoda asosiy bosh kiyim hisoblanardi. Uni aqliy mehnat bilan shug'ullangan aholining barcha tabaqalari kiyishgan. Salla — rasmiy va tantanali bosh kiyim deb hisoblanardi.

O'rta Osiyo sallasining kattaligi o'rtacha bo'lgan. O'rash usullari bir necha xil bo'lib, deyarli murakkab emas edi. Diniy va aqliy mehnat arboblari sallaning bir uchini iyagini ostidan o'tkazishardi. Boylar sallani *egret* bilan bezatishardi. Aslzodalarning sallasi — oq rangli; olimlar, shoirlar, din arboblari va so'filarniki — oq, zangori, yashil va kul rangli; jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchilarniki — yorqin rangli bo'lgan. Odatda, salla sidirg'a va yo'l-yo'l matodan qilinardi.

Ayollar kostyumi. Miniaturadagi tasvirlarga ko'ra ayollar kostyumining nomlari, turlari, shakli, bichimi, bezagi erkaklarnikiga o'xshash bo'lgan.

Bosh kiyimlarining turlari har xil bo'lgan (7.11- rasm). XV—XVIII asrlarning



7.11-rasm. O'rtasiyo erkaklari bosh kiyimlari

XV—XVII asrlarda O'rtasiyoda erkaklarning zaruriy aksessuari (kostyumning qo'shimchasi) — o'ng yoki chap tomonida belboqqa qistirilgan ensiz dastro'mol edi.



7.12-rasm. Movaunnahr ayollar kostyumlari XVII asr..

Ichki kiyim tunikasimon bichimli, uzun yengli oq ko'ylak "kurta" edi. Uning yoqa o'mizi gorizontali yoki chuqur vertikal bo'lgan. Bu ko'ylakning orqa va yon choklari bo'lgan. Ichki ko'ylak ustidan boshqa rangli, tunikasimon bichimli ko'ylak "piroxan"ni kiyishgan. Piroxani uzun yoki kalta yengli bo'lib, ichki ko'ylagidan kaltaroq (tizzagacha) edi va beliga yopishib turardi.

Ichki bel kiyimi ishton "ezor" bo'lgan. Uning uzunligi to'piqqqacha bo'lib, ba'zan, etik yoki mahsining ichiga kirgizilardi.

Ayollarning ustki kiyimi joma, koba, faradji, mursak, yopinchoq va kaltachadan iborat edi. Ko'ylaklar ustidan oldi ochiq kiyim kobani kiyishgan. Uning yengi uzun (qo'lidan uzunroq) yoki kalta (tirsagigacha) bo'lardi.

Chopon joma ob-havodan saqlardi. Ipak yoki kimxobdan qilingan, uzunligi yergacha, juda uzun yengli (etagitgacha) bashang chopon faradjini tantanali marosimlarga kiyishgandi. Uni yelkasiga tashlab yurishardi yoki bitta qo'lga kiyib, yelkaga tashlashardi.

Ulardan tashqari miniatyuralarda ustki kiyim sifatida kalta, oldi ochiq, uzun yoki kalta yengli kiyim "kaltacha" tasvirlangan.

Koba, joma, faradji va kaltachaning astari boshqa rangli matodan qilinardi. Aslzodalar ustki kiyimining astari ipakdan, faradjida esa — olmaxon, tulki va suvsar mo'ynasidan qilinardi.



7.13.-rasm. Buxoro ayollari liboslari. XVI asr

Erkaklarnikiga nisbatan ayollar kiyimi tanaga yopishib turgani bilan (yon va o'rtta choklari yordamida), kiyim turlari, bosh kiyimlari va zargarlik buyumlari bilan farqlanar edi.

Ijtimoiy farqlar baravar kiyilgan kiyimlar soni bilan va qo'llangan matolar bilan belgilanardi.

Erkaklarda yo'q, ayollarning o'ziga xos ustki choponi — "mursak" (munisak) edi. Uning old yoqa o'mizi chuqur qilinardi; qo'ltig'ining ostida yonlari ser burmalanardi, yenglari keng edi, bichimi tunikasimon bo'lgan. Shunday choponni O'rta Osiyoda XIX asrgacha kiyishgan, XX asrda esa u dafn marosimiga kiyiladigan kiyimga aylandi. Miniatyuralarda mursak kobani ustidan kiyilgan.

Ayollarning o'ziga xos kiyimlarining ikkinchi turi yopinchoqlar va paranjilar bo'lgan.

Ko'cha kiyimi sifatida ayollar yopinchoq kiyishgan. U keng, to'g'ri to'rtburchak shaklli matodan qilinib, gavdani berkitardi. Yopinchoqni boshga yoki

yelkaga tashlab yurishgan, uchlarini esa qo'l bilan ushlab turishgan. Yuzi ochiq qolar, ammo kerakli paytda yuzni ko'zgacha berkitishar edi. Shunday yopinchoqlar noqulay bo'lganligi uchun ayollar ko'chaga chiqqanda boshga choponni tashlab yuradigan bo'lishdi. XVI asrning oxirida — XVII asrning boshida miniatyurada shunday yopinchoqlar tasvirlangan. Choponni shu usulda kiyganda, yenglari erkin osilib turar yoki bir qo'lga kiyilardi.

XVII asrning ikkinchi yarmida miniatyura tasvirlarida paranji tasvirlangan. U yuqorida ta'riflangan chopon faradji edi, ammo paranjida uzunligi ko'krakgacha tushadigan ot qilidan yasalgan to'r "chashmband" bo'lib, u bilan ayolning yuzi berkitilgandi.

O'rta Osiyo ayollari kiyimining beli bog'lanmasdi. Bu davrda ayollarning kiyimiga hind, mo'g'ul, eron, xitoy kiyimlarining ta'siri liboslar to'rida, qo'llangan matolarida va bezaklarida sezilardi.

Mahalliy urf-odatlar ayollar kostyumida ham sezilardi. Buxoro kiyimlari hashamli va bashangroq edi, ularda chet el ta'sirlari ko'proq bo'lgan. Buxoro liboslarida zardo'zi kashtani old va orqa bo'laklarning yelkasida qilinardi. Bu davrda boshqa gazmol bilan kiyimni bezatish ham uchrardi. Kiyimga qo'llangan matolar qimmatbaho va rang-barang bo'lgan. XVI asr boshidan Buxoroda, Hirotda moda bo'lgan kiyimlarni kiyishgan. Barcha kiyimlarning uzunligi yergacha bo'lib, oyoqni berkitardi. Koba va choponlar sidirg'a matodan qilinib, zardo'zi kashta bilan bezatilgandi. Asrning 20-yillaridan boshlab, bu modaning o'rniga sipo, kashtasiz, sidirg'a gazmoldan qilingan kiyimlar keldi. Ularning rangi ko'k, zangori, jigar rang va boshqa ranglar bo'lgan. Koba kichkina qora yoqali bo'lgan. Ichki ko'ylagining yoqa o'mizi ko'ndalang bo'lib, tugmalanardi. Jomaning old chegarasida qora hoshiyasi va ikki tomonida tugmalari bo'lgandi. 30-yillarda kiyimlar ancha qisqarib (to'piqqacha), oyoqlar ko'rinardi. Asrning o'rtalariga borib, ayollar kostyumi yana bezaklarga boy va turlicha bo'ldi. Yana zar kashta (orqasida, ko'kragida va yelkalarida) paydo bo'ldi. Kiyimlarning rangi sariq, binafsha, ko'k, zangori bo'lib, sidirg'a koba va choponlarning bir-biriga mos bo'lishiga olib kelardi.

XVI asr oxiri — XVII asr boshida Movarounnahr Eron bilan yana aloqa bo'lganligi Buxoro kostyumida sezilgandi. Ichki koba va ko'ylaklari safaviylar modasi bo'yicha — chuqur old yoqa o'mizi yuqorisida bitta katta tugmaga tugmalanar edi. Ko'ylaklar boldirgacha qisqargani uchun poychasi toraygan yo'l-yo'l ishtonlari ko'rinardi. Mayda yoki yirik gul naqshli matolar qo'llangandi.

XVII asr birinchi choragida kiyimlar yana uzaya boshladi, kaltacha esa tizzagacha uzaydi. Mursak keng tarqaldi. kiyimlar yopishib turib, ayol gavdasini ko'rsatardi (hind kostyumining asosiy xususiyatlari). Ular mahalliy va hind matolaridan tikilgandi. Harir matolar qo'llanadigan bo'ldi. Ustki kiyimlar, ayniqsa, koba va

kaltacha kalta yengli edi (tirsagigacha), yengini uchi va etagi keng zar tasma bilan bezatilardi. Ustki ko'ylagini yoqa o'mizi ko'ndalang bo'lib, yirik tugmaga tugmalanardi. Shunday moda Buxoro kostyumida XVII asrning oxirigacha bo'lgan.



7.14-rasm. Buxoro ayollari liboslari. XVII asr.

Samarqand modalari oddiyroq bo'lgan. Ularning sidirg'a matodan tikilgan choponlarida kashta qilinmasdi. Chet el modasi ta'siri juda kam bo'lgan va O'rta Osiyo xususiyatlari XVI—XVII asrlar davomida shakllangandi.



7.15-rasm. Buxoro ayollari kiyimlari, XVII asr.

Asrning 40-yillarida Buxoro modasiga hind kostyumlarining ta'siri sezilardi — XVI asrning boshida Samarqandda Hirot choponlariga o'xshash kiyimlarni kiyishgandi (butun temuriylar imperiyasiga tarqalgan mo'yna bilan sirlangan faradji). XVI asr 40-yillarida gavgavga yopishib turgan, uzunligi to'piqqacha tushadigan, baxmaldan tikilgan kichkina qaytarma yoqali koba va choponlarni kiyishgan.

XVII asrda Samarqandda Buxoro chopon va kobasiga o'xshagan kiyimlarni kiyishgan, ammo, ular sidirg'a matodan tikilib, bezagi bo'lmasdi. Ko'ylaklarning old yoqa o'mizi chuqur uch burchakli edi va beli sal burmalanardi. Ichki ko'ylagi yirik tugmalarga tugmalanardi.

Keksa ayollarning kiyimi yoshlarnikiga nisbatan eng avval baravar kiyilgan kiyimlarning soni bilan farqlanardi. Ular ko'pincha juda keng kalta (bilagigacha) yengli, uchburchak yoqa o'mizli ko'ylakni kiyishgan. Ishtonlari esa keng, uzunligi to'piqqacha bo'lgan. Ularning yana bir farqlanadigan belgisi — ustki kiyimning beli bog'lanardi.

Motam kiyimi qora va to'q ko'k rangli, oldi yirtilgan choponlar bo'lgan. Yana bir narsaga e'tibor berish kerak — motam kiyimida belbog' bo'lmagan, u XVIII yoki XIX asrda kiyilgan, chunki XVII asrdagi miniatyuralarda belbog' tasvirlanmagan.

Bosh kiyimlari ro'mol, mo'yna bilan chekkasi bezalgan do'ppisimon qalpoqlar, peshonabandlar va boshqalar bo'lgan. Peshonaband eshilgan ro'moldan yoki yupqa oq tasmadan qilingan. Buxoroda u naqshli kashta yoki qimmatbaho toshlar bilan bezatilardi. Peshonabandning ustidan ro'mol o'rashardi.

Sochlari harakat qilganda oldiga tushmasligi uchun ro'mol ostidan boshga sochpopuk "kulyuta" yoki "chochkap" kiyishardi. Hozirgi zamonda ular qirg'iz va qozoqlarda saqlanib qolgan.

Qari ayollar qozoqlarnikiga o'xshash bosh kiyim "kimishek" kiyishgan. (7.16-rasm).



7.16-rasm. Qozoq ayollari bosh kiyimi "Kimishek"

Motam marosimida bosh yalang bo'lishgan.

Malikalar, xonlarning xotinlari, xon avlodlari toj kiyishardi. Erkak va ayol tojlari o'zaro farqlanardi.

XVI asrda Buxoro ayollari zar ipli doka ro'molning ustidan tillaqosh taqishgan.


Ayollar sochini berkitib yurishardi, qizlar esa sochini ikkitaga o'rib, uchiga pilik yoki soch popuklar o'rashardi. Samarqandda qizlar sochini mayda o'rishardi.

Miniatyuralarda zargarlik buyumlari kam tasvirlangan, chunki ular kiyimning ostida bo'lgan. Yozuv ma'lumotlari bo'yicha va tasvirlarga qaraganda zargarlik buyumlari quyidagilar bo'lgan: zebigardon, tumorlar, ziraklar, uzuklar, bilaguzuklar. Shu narsaga e'tibor berish kerak, ular motam marosimlarida taqinchoqlarini echmasdilar.

Ayollar kostyumini oyoq kiyim yakunlaydi. Miniatyuralarda yosh ayollar va qizlar etik "mahsi", nim etik "nimchakme", baland qo'njli poshnali etik "chakme" va charm tufli "kavush"da tasvirlangan.

Buxoroda etikning qo'nji kashtalanardi. Poyafzal asosan qora va ba'zan oq va sariq rangli bo'lgan. Qari ayollar qora, uchi uchli kavushlarni yalang oyoqqa kiyishgan, yoshlar esa etikni ustidan kiyishardi.

Qozoq xalqi kostyumlari: Qozoq xalq san'ati tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bu haqda Qozog'iston Respublikasi hududidan topilgan birinchi asriga oid tarixiy obidalar ham guvohlik beradi. Geometrik tasvirlar tushirilgan spool idishlar, suyakdan yasalgan buyumlar, birinchi va tilla taqinchoqlar bunga misoldir.



7.17-rasm. Buxoro kamarlari
.XIX asr oxiri XX asr boshlari.



7.18-rasm. Saroy qo'riqchisi kostyumi. Movaunnahr XV asr.

Miloddan avvalgi Qozog'iston hududida yashagan sak, usun, xunn kabi elatlar san'ati bilan genetik jihatdan bog'liqlik bor, degan taxminlar yuradi. Mazkur elatlarning yashash tarzi va xo'jalik yuritishlari qozoqlarnikiga juda o'xshash va yaqin bo'lgan. Ular ham ko'chmanchilikda hayot kechirgan, chorvadorlik bilan shug'ullangan.

Qozoq xalq naqshlari (ornamenti). Qozoq xalq san'ati tarixiga razm soladigan bo'lsak, qadim zamonlarda chizgi – ornament biror diniy ma'noni anglatganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan, birinchi va kumushdan yasalgan tumorlarda turkiy elatlar quyosh, oy, osmonga sajda qilayotganligi tasvirlangan. Liboslar uchun tanlanadigan matolar rangi va naqshlar grafikasi bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Ranglar kontrast usulda ham tanlangan (oq va qora). Har bir rang esa o'z ma'nosiga ega bo'lgan:

- havorang – osmon ramzi;
- qizil – olov ramzi;
- oq – haqiqat, baxt, xursandchilik ramzi;
- sariq – aql–idrok ramzi;
- qora – yer ramzi;
- yashil – bahor ramzi.

Qadimiy qozoq an'anaviy liboslari. Ko'p asrlar davomida qozoq liboslarining matolari o'zgardi, bichimlarga o'zgarishlar kiritildi, kiyimda bezaklar paydo bo'ldi. Tabaqalar orasidagi farq asosan kiygan kiyimlaridan yaqqol ajratish mumkin edi. Shuni aytish mumkinki, bu farq ayniqsa mato turi va tayyorlanish sifatida bo'lib turgan. G'arbiy Qozog'istonda bayramlarda kiyiladigan ayollar va qisman erkaklar kiyimlari qimmatbaho duxoba, ipak–shohi matolardan tikilgan, kumush tangachalar bilan bezalgan. Ko'ylaklar zarli iplar bilan kashta qilib tikilgan, bosh kiyimlarga esa kumush qimmatbaho toshlar qadalgan, tovus patlari qistirilgan va marjonlar terilgan.

Erkaklar libosi. Erkaklarning ichki kiyimi ko'ylak va ishton, yelkaga tashlanadigan ustki kiyim hamda shalvordan iborat bo'lgan. Shalvorlar asosan etikning qo'njiga tiqib qo'yilgan. Qozoqlar XVIII asrning oxirlari – XIX asr boshlarida egnilariga *jejde*, *jegde*, *jelde* kabi kiyimlarning hammasini bir paytda ustma–ust kiygan.

Odatda ko'ylakning yon qismiga yengning tagidan pastga qarab kengayib ketgan hishtak solingan. Hishtakning tepa qismi uchburchak shaklida bo'lib, bu *qo'ltiqsha*, deb atalgan. Ko'ylaklar asosan paxta tolasidan olingan, asosan sidirg'a, oq rangli, ba'zan gul bosilgan ipli gazlamalardan tikilgan. Jeyde old tomondan ikki yoki uchta tasmacha yordamida bog'langan. Ustma–ust kiyiladigan bunday ko'ylaklar aksariyat O'rta Osiyo xalqlari – qirg'iz, o'zbek, tojik, uyg'urlarda urf bo'lgan. Ko'p xalqlarda bu ko'ylak yengilgina bo'lib, bichimi jihatidan bir–biridan farq qilmagan. O'zbeklar va tojiklar bu ko'ylak *yaxtak* yoki *aktay* deb atagan. Janubda yashaydigan qirg'izlarda *jegde* deb atalgan. Aksariyat qozoq urug'lari orasida, asosan, sharqiy va janubi–sharqiy Qozog'iston aholisi orasida *jejde* nomi saqlanib qolgan va yangi rusumdagi ko'ylaklar ham shunday atala boshlangan. Qozog'istonning ko'p tumanlarida esa u ko'ylak deb yuritiladi.

XIX asr oxirlariga kelib, qaytarma yoqali ko'ylaklar asosan sharqiy va qisman janubiy Qozog'istonda, Mangishloqda urf bo'ladi. Respublikaning boshqa viloyatlarida esa bunday ko'ylaklar faqat tikyoqa sifatida tikilgan. Ko'ylakning ko'krak qismi qirqimining ichki tarafiga chok berib, qaytarib tikilgan va uning ikki tarafidan huddi shu matodan bostirib tikilib, yoqa oldi bog'ichlar bilan chatib qo'yilgan. Keyinchalik XIX asr oxiri va XX asr bo'sag'asida ko'ylakning qirqimi planka bilan qoplanadi va tugma uchun izma ochiladi.

Dambal–erkaklarning ichki ishtoni hisoblangan. Erkaklarning ichki va ustki ishtonlari bir–biridan uncha farq qilmagan. Ishtonlar qadam tashlashga qulay bo'lishi uchun keng qilib, bel qismida ham katta bichilgan va belboqqa tikilgan keng uzun bog'ich – tasma yordamida belga tortib mahkamlangan. Qishda qo'y terisidan mo'ynasi ichki tarafga o'girib tikilgan ishton – *teri shalbar* (teri shalvor) yo bo'lmasa, paxta yoki jun solib qavilgan shalvor kiyilgan.



7.19–rasm. Yigitlarning(djigit) qishki libosi: ustki kiyim– mo'nali kostyum, *shapan*, *to'n*, bosh kiyim – *borik*, , etik–*saptama yetik*.



7.20-rasm. Yoshlari karraroq erkaklar to'ni belida kamari, etik. XIX asr.

Boylar esa ipak bilan kashta tikilgan, naqsh chekilgan, qizil yoki sariq rangli, maxsus ishlov berilgan, ya'ni oshlangan mayin, baxmalsimon charmdan tikilgan ishton kiygan. Ustki ishtonlar Semireche, markaziy va sharqiy Qozog'istonda *sim* (shim) deb atalgan va yozgi va qishki turlarga bo'lingan. XIX asrda yozgi ustki ishtonlar oshlangan, mayin, baxmalsimon teri, ya'ni charm, qalin qog'ozli va jun matolardan tikilgan.

XIX asrda turkiy xalqlar orasida juda keng tarqalgan ichki ishtonlar *dambal*, *tambal* yoki *ishton*, ustki ishtonlar esa *shalbar* deb atalgan. Ko'ylak ustidan erkaklar yengil, oldi ochiq, tugma taqiladigan, gavda qomatiga moslab bichilgan,

etak tomoni xiyol kengaygan – *kemzal* (kamzul) kiygan. Kamzul astarli qilib tikilgan. Sovuq tushganda kamzul astari jun matodan qalin qilib, avrasi bilan birga qavilgan. Qishda esa kamzul astari mo‘ynali qilingan.

Qozoqlar yilning qaysi fasli bo‘lishidan qat’iy nazar, ustki kiyim – *shapan* (chopon) kiygan. Choponlar har xil, yupqa va qalin, ranglari ham turli matolardan, ko‘pincha astari junli matodan tikilgan. Oshlangan mayin, baxmalsimon teri, charm choponlar ham bo‘lgan. Erkaklarning ustki kiyimlari: mo‘ynadan ikki qavat qilib tikilgan chakmon – *shekpen*;plash– yopinchiq – *kebenek*; qirg‘iz yopinchiqlar, avrasiz po‘stin – *ton* (to‘n), mo‘ynali po‘stin – *ishik* hisoblangan. Ustki kiyim turlari, uzunligi va eni, yupqa va qalinligi bilan farq qilgan.

Erkaklar libosiga qo‘shimcha detal sifatida charm kamar taqilgan. Kamar tilla, kumush va misdan naqsh chekib, bezak berilgan. Aksariyat katta yoshli kishilar bosh kiyim kiygan. Ular sochlarini qirib, kichkina qalpoqcha – do‘ppi, uning ustidan boshqa bosh kiyimlarni kiyganlar. Do‘ppilarning – *taqiya va kepes* kabi turlari ham bo‘lgan. Yozda do‘ppi va boshqa bosh kiyimlar o‘rniga boshga *oramal* – kichik oq ro‘mol bog‘langan. Yoshlarning ro‘mollariga kashta tikilgan. Do‘ppi baxmal, movut, ipak, sidirg‘a va yo‘l–yo‘l matolardan tayyorlangan Yozgi yengil *qalpaq*; qirg‘iz qalpoq va chekkasi mo‘ynali bosh kiyimlar; qishki *tyumak*, maxsus bichimli, mo‘ynali telpak qozoqlarning ustki bosh kiyimlari sanalgan.

Timak (tumoq) orqasi uch bo‘lakdan iborat, peshona qismi bo‘rtib chiqqan, orqa tarafidagi bo‘lagi kattaroq bo‘lib, bo‘yin va yelkalarini yopib turgan (7.21 – rasm). Erkaklar bosh kiyimiga chit astarli, qora movutdan tikilgan *jalbag‘ay* ham kiradi. *Jalbag‘ay* qattiq bo‘ron turgan vaqtlarda *timak* (tumoq) ustidan kiyilgan, To‘rg‘ay va markaziy Qozog‘iston hududlarida qor va yomg‘irdan himoya qiluvchi vosita sifatida keng tarqalgan. O‘lchami kichikroq, shunga o‘xshash boshqa bir bosh kiyimi *dalbay*, deb ataladi. Dalbay Qozog‘istonning janubiy qismida keng tarqalgan bo‘lib, u erkaklarning yozgi bosh kiyimi hisoblanadi.



7.21–rasm. Erkaklar bosh kiyimi – *timak* (tumoq).

Hukmdorlar, sultonlarning bosh kiyimlari konussimon uzun qalpoq shaklida bo‘lib, hoshiyasi keng va qayrilib turgan. Qalpoq och pushti yoki qizilrang kimxob bilan qoplanib, hoshiyasiga yashil rangli zar iplar bilan kashta tikilgan. Yo bo‘lmasa, qalpoq kumushrang parcha bilan qoplanadi va do‘ppi ustidan kiyilgan(7.22-rasm).



7.22-rasm. Erkaklar bosh kiyimi

Qozoq erkaklari oyoqlariga yumshoq poshnasiz mahsi – *masi* ichkaridan tashqariga chiqqan kavush – *kebis* kiygan. Erkaklar poyabzalidan yana biri – *kiiz yetik* (qirg‘iz etik) hisoblanadi. Erkaklarning qishki etiklari – *saptama yetik*, *dau yetik*, *baypaq yetik* bo‘lib, ular bir–biridan balandligi va eni, qo‘njining kengligi bilan farqlangan. Etiklar atayin shunday keng tikilgan, chunki qishda etiklar qirg‘iz paypoqlar bilan kiyilgan.

Ayollar libosi. Qadimda qozoq ayollari *ish ko‘ylek* (ichki ko‘ylak) – ich kiyimini kiygan. Ich ko‘ylak uzun, keng, yengsiz bo‘ladi, yelkasi ensiz, yoqa o‘mizi keng o‘yiladi. Oldi qirqimli, bog‘ich bilan bog‘lab qo‘yiladi, ko‘ylak uzunligi tizzagacha keladi, yengil, oq matodan tikiladi. Ayollar ichki ko‘ylak ustidan *ko‘ylek* (ko‘ylak) kiygan. Ko‘ylakning oldi yopiq, yoqali, old qismida qirqimi bo‘lgan, bo‘yniga bog‘ich bog‘lab qo‘yilgan. Keyinchalik bog‘ichlar o‘rnini tugmachalar egallaydi.

Kundalik kiyim uchun paxtalik matolar tanlangan. XVIII asr oxiri–XIX asr boshlarida qizil va ko‘k rangdagi matolar urf bo‘ladi. Qizlarning ko‘krak oldi ochilib qolmasligi uchun maxsus ko‘krakpech –*alqa o‘nirshe* kiyilgan. Turmushga chiqqan juvonlar esa ko‘krak qismini *kimeshek* yopib, bekitgan. Ayollar ko‘ylak ustidan – *kemzal* (kamzul) kiygan. Kamzullar tikilishiga qarab turlicha atalgan. Ba‘zan yengsiz kiyim *kemzal*), yengligi esa *beshmet* (7.19-rasm) deb atalgan. Bunday kamzulning boshqa nomlari ham bo‘lib, lekin ular kam tarqalgan. *Dambal* va *shalbar* ishton qozoq ayollarining bel kiyimi hisoblanadi. Bichimiga ko‘ra bu ishton erkaklarnikidan farq qilmagan. Ustki ishton – *shalbar* (shalvor) turmushda juda asqotadigan zarur kiyim sanalgan. Bunday ishtonlar qog‘ozli qalin matolar




7.23-rasm.Qozoq askarlari kostyumlari. XIX asr.

yoki qo‘lbola movut va qo‘y terisidan tikilgan. Badavlat xonadon qizlarning shalvorlari kimxob, ipak va boshqa qimmatbaho matolardan tikilgan, bezaklar berilgan.

Qizlar ikki xil bosh kiyim kiygan. Do‘ppi asosan qizlarning bosh kiyimi hisoblanadi. Bunday do‘ppining keng tarqalgan nomi – *taqiya*, Mangishloqda *telpek*, sharqiy Qozog‘istonda – *kepesh*, deb atalgan. Ikkinchi bosh kiyim – *bo‘rik* bo‘lib, uning chekkalari mo‘ynali, issiq qalpoqdir. *Saukele* – kelinlarning eng qadimiy baland, bosh kiyimi shunday ataladi. Odatda saukele to‘ylarda kiyilgan (7.24– rasm).

Timak – kichik bosh kiyimi hisoblanadi. Uchi qirrali, baland ushbu bosh kiyim tepa qismi bilan ajralib turadi. *Taqiya borik* – ayollar bosh kiyimining eng qadimiy namunalaridan biri sanaladi. Ushbu bosh kiyim baland, uchli bichimdagi do‘ppi shaklida bo‘lib, to‘q qizil kimxob va mo‘yna bilan bezatiladi. Odatga ko‘ra, ilk bor ona bo‘lgan yosh juvon birinchi farzandi dunyoga kelgach, uvali–juvali ayollarning bosh kiyimini kiyadi. Ayollarning ushbu bosh kiyimi ikki qismdan iborat: ichkisi *kimeshek* va ustki *salde* – salla u ichidagisi ustidan o‘raladi. Bosh

kiyimning ikki qismi ham asosan oq matodan qilinadi. Ayollarning bosh kiyimi – kimeshek bosh, ko‘krak, yelka va orqani yopib turadi.



A



b

7.24–rasm. A-ayollar bosh kiyimi – *saukele*, b- ayollar taqinchoqlari

Ayollarning zargarlik buyumlari ham xilma–xil: rang–barang ichsirg‘a, taqinchoqlar bo‘yin va ko‘krak ustiga, soch va boshga taqiladi. Taqinchoqlar, uzuk, bilaguzuklar shular jumlasidandir. Qozoq ayollarining poyabzali erkaklarnikidan deyarli farq qilmagan. XIX asr oxiri–XX asr boshlariga kelib, qozoq ayollari poyabzallarining ko‘rinishi va shakli o‘zgaradi. Qiz – juvonlarning ko‘pchiligi *etik* –kiyganlar. Ular aksariyat *masi* va *kebisni* (mahsi va kavush) ma‘qul ko‘rgan. Keksa ayollarning asosiy poyabzali *ichigi* va kalish hisoblangan.

Qirg‘iz xalqi kostyumlari: Qadimda qirg‘izlar ko‘chmanchilikda turmush kechirgan. Qirg‘izlarning urf–odatlar va an‘analari ko‘chmanchi hayot tarzida shakllangan. O‘tovlar ko‘chmanchi bo‘lib yashashda qo‘l kelgan. Bir joyga ko‘chib o‘tganda o‘tov qurish ko‘ngilga yaqin tantana hissini uyg‘otgan. Ana shundan o‘tov qurish va unga ko‘chib o‘tish rasmi paydo bo‘lgan. O‘tovga kirib yashashgacha bir necha marosim va tantanalar o‘tkazilgan. Qadimda ko‘chmanchi qavmlarning urf– odatiga ko‘ra, egasining nasl–nasabi, nufuzidan kelib chiqib, o‘tovlar qurilgan. O‘tovga kiraverishdan chap tomoni *er jak* – erkaklarniki hisoblangan. Erkaklar chap tomonga o‘zlariga xos ashyolar, ya‘ni ov quroli, ot qamchinini osib qo‘ygan. O‘tovning kiraverishdan o‘ng tomonini esa *epchijak* – ayollar egallagan, demak, bu tomon ularga tegishli sanalgan.

O‘ng tomonda sandiq, kiyim–kechak, oziq–ovqat turgan, oshxona bo‘lgan. Odatda o‘ziga to‘q odamlarning bir nechtalab katta va kichik o‘tovlari bo‘lgan. Kichik o‘tov *ashxana–uy* – oshxonadan iborat bo‘lib, bu yerda idish–tovoq va oziq–ovqat saqlangan. Yana vaqtinchalik, omonat o‘tov – *meyman–uy*, ya‘ni

mehmonxona ham bo'lgan. Keyin boyning ikkinchi va uchinchi xotinlari uchun ham maxsus o'tovlar barpo etilgan. Yangi turmush qurgan o'g'illarga ham o'tov berilgan. Jamiyatdagi tabaqalar qatlamiga ko'ra, avom xalq o'tovi boy odamlarnikidan o'tovining bezalishida farq qilgan. Vaqtlar o'tib, qirg'izlar o'troq hayot kechira boshladi.

Ayollarning xilma-xil taqinchoqlarini ayol taqinchoqlarini ko'zdan kechirsak, unda uchta asosiy etnik va tarixiy-madaniy aloqalar yo'nalishini ko'rishimiz mumkin. Ushbu yo'nalishlar: shakli, ishlanish usuli va bezalishi, ya'ni taqinchoqlarga o'yilgan chizgi-ormentlardir. Bular qozoq va yarim ko'chmanchi bo'lgan o'zbek xalqida ham uchraydi. Mazmunan bu taqinchoqlarda Sinszyan uyg'urlari va mo'g'ullarga xos chizgi ifodalari ham o'rin olgan. Demak, Markaziy Osiyo xalqlari bir-birlari bilan madaniy aloqada bo'lgan, ya'ni ularning madaniyat va san'atida mushtaraklik bo'lgan, deb xulosa chiqarish mumkin. Borib-borib o'zbek va tojik xalqlari san'ati va madaniyatida ham ayni shu yaqinlikning guvohi bo'lishimiz mumkin. Qirg'iz libosi oradan necha asrlar o'tibdiki, o'z milliyligini saqlab kelmoqda.

Erkaklar libosi. Ko'yalak bilan ishton – qirg'iz erkaklarining ichki kiyimi. Erkaklar ko'yalagi ko'proq tunikani eslatadi, uzunligi beldan pastga tushadi va yenglari uzun, qo'l panjalarini yopib turadi. **Kementay** – keng, astarsiz qirg'iz to'n. Yana kementay astari qavilgan to'n ham bo'lishi mumkin. Kementay tikilgan matosiga qarab, **pashayi ton** (poshshoyi to'n), **kimkap ton** (kimxob to'n), **zarbarak ton** (zar to'n) deb nomlanadi. Kementay cho'ponlarni yomg'irli va sovuq kunlarda nam-sovuqdan saqlagan. Qadimda o'ziga to'q, badavlat qirg'izlar serbezak, oq rangli kementay kiygan. Qishda kementay ustidan qo'y terisidan tikilgan po'stin kiyilgan. Erkaklarning ustki kiyimi **chepken** hisoblanadi. Chepken maxsus ishlangan movutdan tikilgan bo'lib, u boshqa kiyimlar ustidan kiyilgan. Sovuq tushganda chepkenning o'rni uni boshqa hech qaysi kiyim bilan bosolmaydi. Chunki chepken shamol-to'zonga dosh bergan. Movut chepkendan nam o'tmagan, bo'kmagan, sovuqdan ham, quyosh nuridan ham bir xilda himoya qilgan. Pishiq-puxtaligi uchun ham u kundalik kiyim sifatida kiyilgan. Tuya junidan tikilgan bu ustki kiyim ko'proq ko'chalik, ya'ni kishilik bo'lgan. Chepkenning narxi juda qimmat bo'lgani uchun uni badavlat qirg'izlar kiygan. O'ziga to'q kishilar tuya junidan to'qilgan ishtonlar ham kiygan. Erkaklarning yana bir uzun ustki kiyimi – **chapan** (chopon), deb atalgan. Ko'chaga choponsiz chiqish mumkin bo'lmagan. Bu beodoblik sanalgan. Qadimda choponlar ichiga paxta, tuya juni solib qavilgan. Avrasi baxmal, movut chit-duxoba, astari **mata** (mato) yoki chitdan qilingan. Choponlarning **naygut chapan**, **kaptama chapan** degan bir necha turlari bo'lgan. Ular etnik ko'rinishi jihatidan bir-biridan farq qilgan. Keng, tunikasimon to'g'ri bichimli, yenglariga hishtak solingan chopon **naygut chapan**, deb ataladi. Yeng

o‘mizi yumaloq shakldagi o‘tkazma yengli, to‘g‘ri bichimli, etagining ikki yon tomoni qirqimli, tor chopon *kaptama chapan*, deb atalgan. Kaptama choponning etagi va yengiga ipdan jiyak tikilgan. Shalvor – *jargashym* erkaklarning bel kiyimi hisoblanadi. Ushbu shalvor jun, chit, ba‘zida oshlangan mayin, baxmalsimon charm va teridan ham tikilgan. Qirg‘iz erkaklarining bosh kiyimiga to‘xtalganda, dastlab qalpoqlarni qayd etish mumkin. Qalpoqlarning bichimi har xil bo‘lgan. *Kalpak* (qalpoq), haqli ravishda, qadimiy qirg‘iz bosh kiyimlaridan biri sanaladi. Qalpoq to‘rt qiyikli bo‘lib, yuqoridan pastga tomon kengayib borgan. Ikki yonining uch qismi tikilmagan. Quyosh nuridan saqlash uchun uni yuqoriga qayirib qo‘yish yoki pastga tushirish mumkin bo‘lgan. Qalpoqning uch qismi shokila bilan bezatilgan. Zodagonlar qalpoqlarining tepa qismi baland bo‘lib, chekkalariga qora baxmal tikib, jilo berilgan. Oddiy xalq qalpoqni satin, bolalar qalpog‘ini qizil baxmal yoki qizilrang mato qo‘yib bezagan. XIII asrlarda qirg‘iz qalpoqlar O‘rta Osiyo xalqlarining bosh kiyimlari safidan o‘rin oldi. Oq qirg‘iz qalpoq qirg‘izlarda eng keng tarqalgan bosh kiyim hisoblanadi.



7.25-rasm. Qirg‘iz erkak va ayollar kostyumlari.

Malaxay – bosh kiyimning bir turi. Ushbu bosh kiyim kurakkacha tushib turganligi, orqasi uzun, chakkasi yon qismiga ulanib ketganligi bilan qalpoqdan farq qiladi. Malaxay tulki mo‘ynasi, qo‘zi yoki bug‘u mo‘ynasidan tikilgan, ustiga mato qoplangan. Qirg‘iz milliy erkaklar libosining bir qismini tashkil etadigan, keng tarqalgan qishki bosh kiyim – *tebetey* hisoblanadi. Tebeteyning tepa qismi tekis to‘rtta qiyiq bo‘lakdan iborat bo‘lib, baxmal yoki movut matosidan tikilgan,

unga tulki yoki suvsar mo'ynasi bilan bezak berilgan. Agar biror kishi xonlikka ko'tarilganda, ya'ni mavqei oshganda boshiga **qizil** – **tebetey** kiygan. Qadimda qirg'iz xalqining bir udumi bo'lgan. Bu udumga ko'ra, nufuzli boyon xizmat vajidan tegishli joyga o'z choparini yuboradi. Chopari esa xo'jayinining tebeteyini kiyib oladi. Erkaklar ilgari tagi qalin qirg'iz etik kiygan. Qirg'iz poyabzalining yana bir turi – **ichigi** hisoblanadi. Ichigi yumshoq, poshnasiz charm etik bo'lib, uni erkaklar ham, ayollar ham kiygan. Etik ustidan **kepich** – poshnali kalish kiyilgan.

Odatda kiyimlar tayyorlanishi va mato sifatiga qarab tabaqalar farqlangan. Qabila ulug'lari, oqsoqollar, martabali kishilar – a'lo sifatli qizil charm poyabzal kiygan, avom esa xom charmdan etik kiygan. Etiklarning bir necha turi bo'lgan. Uchi qayrilgan – **chokoy**; qo'nji kalta, g'ijim, xom charmdan **charik**(choriq); yumshoq, oshlanmagan charmdan tikilgan **paycheki** shular jumlasidandir. Mo'ynali, qo'nji qayrilgan **maasvi** (mahsi) qishki poyabzal hisoblangan.

Ayollar libosi. Ayollar ko'ylagi uzun, keng, uzun yengli, tik yoqali ko'ylak bo'lib, yorqin rangli matolardan tikilgan. Qirg'izlar yashagan joyiga qarab, ko'ylaklarning yoqa shakli va bezagida farq qilgan. To'q rangli, tanaga yopishib turuvchi, yengsiz kamzul – **beshmant** ko'ylak ustidan kiyiladi. **Beldemchi** – qirg'iz ayollarining an'anaviy libosiga kiradi. Tantana va bayramlarda beldemchi qora, yaltiroq matolardan tikilgan. Shohi, ba'zan uyda to'qilgan movutga kashta bilan bezak berilgan. Maxsus chevarlar bu kashtalarni tikkan. Beldemchi keng belboqqa tikiladi, unga kashta va kumush bezaklar bilan bezak beriladi. Unga mo'yna ham qo'yilib, sernaqsh kashta tikilgan. Beldemchi bayramlarda milliy libos bilan birga to'y, mehmondorchilikka borganda, uyda mehmon kutganda, oilaviy bayramlarda taqilgan. Kundalik taqiladigan beldemchiga kashta tikilmagan. Beldemchi kamzul, ko'ylak ustidan belga bog'langan (7.25-rasm). **Ichik, kemsal** – ayollarning ustki kiyimiga kiradi, qishki po'stin desa ham bo'ladi.

Eleчек – ayollar bosh kiyimi bo'lib, to'liq ko'rinishi uch qismdan tashkil topadi: do'ppi; uning ustidan to'g'ri to'rtburchak mato bo'lagini yopib, u bilan bo'yin va iyak yashirilgan; ularning ustidan esa oq matoli dastor o'ralgan. Oq matodan o'ralgan salla ko'rinishidagi **eleчек, eleki, ko'ylak** ayollar bosh kiyimlari bo'lib, xalq orasida keng tarqalgan. Eleчек necha marta o'ralishiga qarab bezalgan. Shimolda **eleчек**ka marjon tizilgan, tangachalar tikilgan ipak mato bog'langan. Boyvuchcha juvonlar boshlariga naqsh chekilgan, kumush plastinkali **kumush kirgак** kiyganlar.

Qadimda to'y-ma'rakalarda kiyiladigan bosh kiyimi –**shokyulo** turli marjonlar bilan bezalgan. Janubda eleчекka **saymo kirgак** degan mato tikilgan. Ba'zan **eleчек**ning bezagi ham bo'lgan. Qirg'iziston janubida yashovchi qirg'izlarning qalpoqlari ham to'rtburchak yoki dumaloq shaklli plastinkalar bilan bezatilgan.

Ayollar va qisman erkaklarning milliy liboslarida kashta (1-rasm) alohida o‘rin egallaydi. Yana ayollar orqasiga taqib yuradigan **arkaliq** mashhurdir. Manbalardan ma‘lum bo‘lishicha, ilgarilari **arkaliq** bosma bahyalar, toshlar bilan bezatilgan. Qadimda bunday taqinchoqlarni qizlar yelkalariga tushib turgan, o‘rilgan sochlariga taqib yurganlar. XX asrning birinchi choragidan boshlab qirg‘iz qiz–juvonlari **arkaliq** taqmaganlar. Boshqirdlar **arkalig‘i** – yo‘l–yo‘l matodan tikilgan bo‘lib, unga tangalar qadab chiqilgan. Qirg‘iz ayollari soch uchlariga osilchoq osib yurganlar. Shimolda yashaydigan qirg‘izlarning qadimgi shokildalari: **chach ushtuk** yoki **chach monchoq** (uzunligi 60sm va undan ortiq) bo‘lgan, yana kumush shokilda – **cholpu** urf bo‘lgan. Chach monchoq – soch munchog‘i uchburchak yoki figurali plastinka shaklida, Issiqko‘l cholpulari esa katta–katta plastinkali, jimjimador yoki silliq bo‘lgan. Cholpular yumaloq, naqshin tangalardan iborat bo‘lib, bunday shokildalar – **zeer** deb atalgan.

XIX asr oxirida **chalpu** o‘rnini marjonlardan ishlangan **chach ushtuk** egallaydi. Bu turdagi taqinchoqlar qozoqlarda **shalpi**, Qozon tatarlarida **cho‘lpi** va boshqirdlarda **sulpy** deb yuritilgan.

Zirak–isirg‘alar – **iynek**, **kulol soyka** o‘zining turli xilda ishlanishi, shakllarining har xilligi bilan ajralib turadi.

Qadimda shimoliy qirg‘izlar orasida murakkab shakldagi ko‘krak–osilchoq taqinchoqlari tarqalgan va bezaklarining o‘ziga xosligi bilan ajralib turgan. Bu taqinchoqlar **soyko jelbyurooch**, deb nomlangan. Uning ikki turi ma‘lum: eng qadimgisi – soyko jelbyurooch juft konussimon shokildalardan iborat; yuqori qismi ilgaksimon taqilmali bo‘ladi.

Soyko jelbyurooch – kundalik taqadigan taqinchoq hisoblanmaydi. Soyko jelbyuroochni qiz–juvonlar to‘y–hasham, bayramlarda taqqanlar. Bir necha marjon tizilgan iplardan tashkil topgan **shuru** bo‘yin taqinchoqlaridan biri hisoblanadi.

Ko‘krak taqinchoqlarining yana bir necha turi mavjud: birinchisiga qizlar taqinchog‘i, marjonlardan tizilgan ko‘krak taqinchog‘i – **ala tashak** kiradi. Kumushdan ishlangan uchburchak va to‘rtburchak shakldagi **boytumor** ham shu jumladandir. Boytumor ichida faqat taqinchoqlar emas, balki "Qur‘on" suralari ham saqlangan. Boytumorqa ornament–naqshlar chekilib, bezak berilgan. Bu turdagi taqinchoqlarni O‘rta Osiyoning qozoq, o‘zbek, turkman, uyg‘ur va boshqa xalqlarida, hatto mo‘g‘ullarda ham uchratish mumkin.

Bilerek bilaguzugi esa mahalliy ustalar tomonidan ishlanib, hozirgi davrgacha ayollar taqinchog‘i sifatida xizmat qilib kelmoqda. Qirg‘iz ustalari yana **topchu** degan kumush tugmalarni ham yasaganlar. Kumush tugmalar qiz–juvon liboslarida bezak o‘rnida qo‘llanilgan. Qirg‘izlarda **karga tirmak** nomi bilan mashhur uch yaproq mazmunidagi chizgilar urf bo‘lgan.

Boshqa turdagi bezakli tugmalar ham bo‘lib, ular *tuyme, shuuru, topchu* yoki *chok topchu*, deb ataladi. Issiqko‘lda bunday tugmalar ikki xil ko‘rinishda bo‘lgan.

O‘shning janubi–sharqi hamda shimoliy tumanlarda ayol liboslari, ayniqsa ustki ko‘ylaklarining ko‘krak qismiga *onur* kashta tikilgan.

Qirg‘iziston janubida turmush qurgan ayollar qadimiy bosh kiyimlari – *chach kep* yoki *kep takiya* hisoblanadi. Kep takiya kashtasining nafisligi, nozikligi bilan katta badiiy ahamiyat kasb etadi. Qalpoq aksariyat nafis, oq rangli surpdan tikilgan. Yuqori qismiga oq rangli salla (*elechek, eleki, kalyak*) o‘rab qo‘yilgan. Kashta asosan ko‘rinadigan joylarga: yuz, orqa, yelka, peshona qismiga tikilgan.

Qirg‘izlar ro‘mollari tojiklarnikiga tikilishi jihatidan juda yaqin. Ularning nomi ham bundan dalolat berib turibdi. Masalan: *duriya*; tojikchasi: duruya.

Ayollar poyabzali erkaklarnikiga o‘xshab ketadi. Ayollar poyabzali naqshin bezak berilgani va poshnali ekanligi bilan erkaklarnikidan farq qilgan.

Tojik xalqi kostyumlari: Biz tojik milliy liboslarini o‘rganish bilan birga O‘rta Osiyo xalqlari liboslarining bir–biriga mushtarak tomonlari, kelib chiqishi tarixi va ularning farqli jihatlarini ko‘rib chiqamiz. Tojik an‘anaviy milliy libosi XIX asr oxiri–XX asr boshlarida aniq ko‘rinishga ega bo‘ldi. Kiyim erkin, keng tunikasimon bichimli bo‘lib, inson qomatini yashirib turgan. Erkaklar, ayollar va bolalar libosi shakli va bichimi jihatidan bir–biriga juda yaqin bo‘lgan. Shunga qaramay, kiyimlar uchun ishlatilgan matolar sifati, bezakligi asosiy ahamiyatga ega edi. Bunda boy va rang–barang xalq amaliy san‘ati sezilib turardi.

Erkaklar libosi. Tojik kiyimlari xilma–xilligi bilan ajralib turadi. Yelka kiyim sifatida ko‘ylak, chopon kiyishgan. Erkaklarning ichki kiyimiga tunikasimon ko‘ylak – *kurtai mardona, kiftaki* yoki *ko‘ylak* kiradi. Ko‘ylak oldi gorizontal va vertikal kesik bo‘lgan. Ko‘ylak kesigi xoh gorizontal bo‘lsin, hoh vertikal bo‘lsin, ko‘ylak oldiga tasma qo‘yilgan. Ko‘ylaklar orasida oldi kesilmagan *yaxtak* – ko‘ylaklar ham kiyilgan.

Uzun va keng ishton shalvor va *ezor* – ishton bel kiyimi bo‘lib, xizmat qilgan.

Bu ko‘ylak, yaxtak yoki jelak bir–biriga o‘xshab ketadi. Tojikistonda ko‘ylak ustidan nimcha– *voskat* kiyiladi. Ko‘ylak ustidan chopon, chakmon, bir nechta xalat kiyilgan. Xalatlar uch xil tikiladi. Buxoroda keng, uzun, tik xalatlar tikilgan, ularning yenglari uzun, keng va to‘g‘ri bo‘lgan, ikki yonida cho‘ntagi bo‘lgan. Xalat yarmiga astarlik qo‘yilgan, yarmiga qo‘yilmagan. Qishki xalatga paxta solib qavilgan, xalat astarli ham bo‘lgan.

Tojik erkaklar ichki kiyimi – *yaxtak* va *joma*– ustki kiyim bo‘lib, ularning bir necha turlari mavjud: yengil, astarli, issiq qavilgan. Yaxtak asosan yorqin va rang–barang matolardan bichilgan bo‘lib, xalat bichimi, kiyadigan odamning

yoshidan qat'iy nazar, bir xilda tikilgan. Kiyim butun mato parchasidan bichilgani uchun old va ort bo'lakning yelka qismi choksiz yaxlit, bichilgan. Yeng o'mizining qirqimi bo'lmagan. Unga uzunasiga pastga qarab torayib ketgan yeng ulangan, qo'l yengi (qo'ltiq) orasiga hishtak solingan. Kiyimning ikki yonini kengaytirish uchun *kiritma* (qiyiq, uloq , kulfak) qo'yilgan (ilgari matolar eni tor bo'lgan) va etagining ikki yon tomonidan vertikal qirqim qiyilgan. Bort chetlari, etak qirqimi va yeng uchi qo'lda to'qilgan *zehi dasti* – ensiz tasma bilan ishlov berilgan, ko'krak oldi *kamarcha* bog'ichi bilan bezalgan. Erkaklarning kundalik chopon asosan satin va chitdan, katta–katta guldor, naqshli va ko'k, yashil tusli movut matosidan tikilgan. XX asr boshlarida kamzul kiyish urf bo'ldi. Tog'liklar qishda qavilgan paxtalik chopon ustidan mo'ynali po'stin va uy sharoitida to'qilgan movutdan chakmon kiygan.

Ensiz uzun gazlama bo'lagi *fo'ta* belbog' sifatida xizmat qilgan. Yosh yigitlar kashta tikilgan qiyiqchalar – *miyonband*,(7.26-rasm) badavlat kishilar va amaldorlar *kamarband* – baxmalga zar iplar bilan kashta yoki iroqi tikilgan keng belbog' bog'lagan. (7.27-rasm)

Erkaklar bosh kiyimi *toqi* – do'ppi yoki *kuloh* qalpog'i ustidan salla o'ralgan. Asosiy bosh kiyim do'ppi hisoblanib, u – *to'ppi, qalpoq, kallapo'sh*, deb har xil atalgan. U oddiy matodan tikilgan. Shohiga tillarang, kumush iplar bilan kashta tikib, bezak beriladi, chetlariga mag'iz tikiladi. Yigitlar bezak berib tikilgan



7.26-rasm. 1-Tojik erkaklari kiyimlari. Yupqa yakta kustidan belbog', ustidan paxtalik chopon, oyog'ida maxsi va kalish. 2-paxtalik chopon, ustidan belbo'. 3-paxtalik chopon, belbo', ostidan oq yaxtak. bunday do'ppilarni to'ylarda kiygan. Erkaklarning bosh kiyimiga yoshiga mos ravishda rang va bezak berilgan. Katta yoshdagi erkaklar sipo, kashtasiz bosh



7.27-rasm. Tojik amaldori. XIX asr

kiyim kiygan. Pomirda hozirgi vaqtlarda ham qishda do‘ppi o‘rniga qalpoq, *poxol* kiyiladi. Uning shakli uzun qalpoqqa o‘xshaydi.

Bundan tashqari taqvodor kishilar, domla–imom, mullalar, qariya baland yumaloq qalpoq kiyardi. Qariyalarning bosh kiyimlari shakli har xilligi, yumshoq matolardan tayyorlanganligi bilan farq qilgan. Qariyalar do‘ppisi ustidan matodan salla, dastor o‘ralgan.

Qish faslida aksariyat tumanlarda do‘ppi ustidan telpak kiyilgan. Dumaloq mo‘ynali qalpoq ikki xil bo‘lgan. Buxoroda yarim konusli mo‘ynali qalpoq kiyilgan. Yuqori qismi qorako‘l terisidan tayyorlangan. Qalpoq uchun ko‘proq qo‘zichoq mo‘ynasi terisidan foydalanilgan. Dokadan salla o‘ralgan. Salla o‘rashning har xil usullari bo‘lib, har bir viloyatning o‘ziga xos o‘rash uslubi bo‘lgan.

Erkaklar va ayollar poyabzali *mahsi* ommabop hisoblangan. Mahsi charm *kavush* bilan birga kiyilgan. Bu poyabzalning echki terisidan tikilgan *qayroqi* xili ham bo‘lgan. Qishloqlarda turli poyabzallar kiyilgan. Yengil etiklardan tashqari baland poshnali etiklar ham kiyilgan. Qish fasli tog‘lik tumanlarda *kafshi chubin* – taxtadan uch oyoqli boshmoqlar kiyilgan. Terini oshlab, tayyorlangan yumshoq etik XX asrning eng zamonaviy poyabzali sanalgan. Loklangan teridan tikilgan ushbu etik juda qadrlangan.

Ayollar libosi. An’anaviy tojik ayollari libosi to‘piqqacha tushadigan uzun ko‘ylak bo‘lgan. Bu ko‘ylak – *kurta* deb atalgan. Kurta tunikasimon bichilgan, uning yon–etak qismi va yeng uchlari xiyol kengayib borgan. Ko‘ylakka solinadigan kvadratsimon shakldagi kulfak yoki hishtak boshqa rangli matodan qilingan. Kulfakning har xil rangda qilinishi zamirida ko‘ylak egasi bo‘lgan juvon serfarzand bo‘lsin, degan tilak yotadi. Qizlar ko‘ylagi yoqasi – *kitfaki* gorizontal qirqimli bo‘lib, unga old va ort o‘ng yoqa o‘mizining yon qismidan pastga qarab, katta bo‘lmagan qirqim beriladi. Agarda ko‘ylak kir bo‘lib qolsa, orqasini oldiga

aylantirib kiyib olinishi uchun shunday qirqim qo'yilgan. To'ydan so'ng yosh kelinchaklar ayollarning *peskusho* yoki *peshyala* vertikal qirqimli ko'ylagini kiygan.



7.28-rasm. Tojik ayollari liboslari.

Qadimda tojik ayollarining *kurtai marmar* yoki *kurtai peshmarmar* ko'ylaklari ham bo'lgan. Bu ko'ylaklar nafis, oq matodan tikilgan. Ko'krak qismini yopish uchun *siynapo'shak* yoki *siynabandak* taqilgan. Siynapo'shak ustiga iroqisimon kashta tikilgan. Ayollar ko'ylak ustidan kurtacha kiygan. Kurtachaning uzunligi belgacha tushgan, yenglari ko'ylaknikiga nisbatan kalta bo'lgan. Albatta, oddiy xalq bunday kiyimlarni kiya olmagan. Bunday serhasham liboslarni boyvuchcha ayollar kiygan.

Ayollarning to'y-hashamlarda kiyadigan kiyimi uch qavatdan iborat bo'lib, o'zida uch xil ko'ylakni namoyish etadi. Ushbu ko'ylaklar yenglarining uzunligi va eni har xil bo'ladi. Yenglar uchi *mohiri kashta* usulida tikilgan gullar bilan bezaladi. Bezaklar bir-biriga o'xshamaydigan, betakror naqshlari bilan e'tiborni tortadi. Bunday ko'ylaklar bezagi, matosining hashami bilan ajralib turadi. Ushbu ko'ylakni kiygan ayol, avvalo, libos dabdabasi bilan birga o'z-o'zini ham ko'z-ko'z qiladi. Davrlar o'tadi, vaqt o'tishi bilan birga kiyimlar ham o'zgaradi. Endi bu ko'ylaklarni faqat kelinchaklargina to'y-hashamlarda kiya boshlaydi.

Chakion xalati ko'proq uy sharoitida kiyishga mo'ljallangan. Bu xalat uyda ham, ko'chada ham kiyilgan. Chakionni ko'proq katta yoshdagi ayollar belbog'siz qishda kiygan.

Ayollar kiyimining ikkinchi asosiy qismi shalvor bo'lib, u *pojyoma*, *lozim*, *azor*, *tambon*, deb ataladi. Bunday lozim va shalvorning yuqori qismiga rezinka

tasma qo'yiladi. Shalvor asosan ikki xil matodan tikiladi, pastki qismi ko'ylak ostidan ko'rinib turadi. Shuning uchun lozimning tizzadan past qismi qimmatbaho matodan, tizzadan yuqori qismi esa mayin, arzon matolardan tikiladi. Lozim pochasisiga matoning o'zidan manjet qilinadi. Yoki bo'lmasa, lozim pochasisiga boshqa matodan manjet qilinadi yoki jiyak qo'yiladi.

Tojik ayollari lozimi pochasisiga bir xil matodan bezak beriladi. Lozim eni va uzunligi har xil bo'ladi. Tog'li hududlarda yashaydigan ayollar uzun, to'g'ri shalvor kiyadilar. Bunday ishtonlarning pocha qismi torroq bo'ladi. Yuqoridagi kiyimlardan ustidan paxtali uzun xalat, joma, chopon ham kiyilgan. Ayrim vohalarda uzun va kalta kamzul kiyilgan. Bundan tashqari, ayrim tojiklar kamzul va nimcha astarligi, ya'ni rasposhonkasini (ichki ko'ylak) kiygan. Bu kiyim yengsiz, yoqasiz, ikki yonida qirqimi bo'ladi. Uning nomi ***munisak*** yoki ***xaltacha***, deb ataladi.

Ayollar ko'chaga chiqqanlarida paranji yopingan. Paranji uzun va yolg'ondakam yengi bo'lgan. Ayollar paranjisi bilan birga yuzni yashirish uchun qalin va tikka, to'rli chachvon ham taqilgan va u ***chashmband***, deb atalgan. Chashmband qora ot yolidan to'qilgan. Chashmband ba'zan munchoqlar bilan ham bezalgan.

Ma'lumki, musulmon davlatlarida paranji yopinish shariat talabi hisoblanib, bu yopinchiq ayolning qaddi-qomatini yashirishga mo'ljallangan. Tog'li tumanlarda ayollar, jumladan, kelinlar xalatning hamma turlari, shuningdek, paranji yopingan. Borib-borib bu paranjilar o'rniga shohi ro'mol – ***duband*** yoki chashmband taqilgan. Bu kelinni yomon ko'zlardan asragan.

Pomirda ustki kiyim sifatida gilamnusxa qilib bosilgan rasposhonkali xalat kiyilgan. Ayollar to'rtburchak ro'molni sevib o'ragan. Bu ularning bosh kiyimi hisoblangan. Har bir viloyatning o'ziga xos ro'moli bo'lgan. Yosh juvonlar sharfga o'xshash ro'mol o'ragan. Bu ro'mol uzun bo'lib, chekkalariga naqshli kashta tikilgan. Do'ppi XX asr o'rtalarida kiyilgan. Do'ppi ayollarning ko'chalik bosh kiyimi sanalgan va keyinchalik kelinchaklarning bosh kiyimi bo'lib qoldi.

Keksa va o'rta yoshli ayollar ***kulutapo'shak*** qalpog'ini, kichkina ro'mol bilan birga o'ragan. Tog'li tumanlarda keksa ayollar bunday qalpoq ustidan salla o'ragan To'g'ri to'rtburchak yoki uzun mato bo'lagi bilan tomog'i va bo'ynini o'ragan va uning ustidan yana bitta katta ro'mol yopib yurgan. Qizlar yumshoq matodan tikilgan bunday do'ppi ustidan ro'mol o'ragan. XX asrga kelib, asta-sekin salla o'rash, qalpoq kiyish urfdan chiqa boshladi. Xo'jakentda hozir ham asosiy bosh kiyim asosini katta to'rtburchak ro'mol tashkil etadi. Bosh rangi qora yoki to'qrang, eni 15–17 smli kichkina ro'mol bilan o'raladi. Bu ro'molni o'raganda ko'ylak burmalari ko'rinmaydi, gulli va qora ro'mol bir-biriga xoch shaklida bog'lanadi. Odatda bunday bosh kiyimni ayollar o'g'illarining sunnat

to‘ylarida o‘raydilar. Buxoroda bunday ro‘mollar ustidan uzun doka tashlab yuriladi.

Bu bosh kiyimlardan tashqari, yosh juvonlar, asosan turmushga chiqqan qizlar birinchi marta mehmonga borganlarida har xil bosh kiyimlar kiyadilar. Bu *sarbandak* yoki *mandil*, tilla va kumushrangda tikilgan *peshonaband*lardir. Buxoroda *qoshi tillo*, bilak, barmoq, boshga taqadigan kumush va tilladan yasalgan har xil qimmatbaho toshli taqinchoqlar taqilgan. Taqinchoqlar aksariyat kumush va tilladan yasalgan.



7.29-rasm. Tojik ayollari bosh kiyimlari. (do‘ppilari).

Qadimda oddiy doka va kashta tikilgan ro‘mol o‘ralgan. Eng sevimli bosh kiyim shohi matodan tayyorlangan. Kashmiri ro‘mol, kamarut ro‘mol, sholro‘mol. Shol ro‘mol to‘ylar, har xil tadbirlarga o‘ralgan. Poyabzal – juda xilma–xil bo‘lib, kavush, charm etikshular jumlasidandir. Etikning qo‘nji uzun bo‘lib, ichiga shalvorlar kirgizilgan. Badavlat odamlar sirti shohi iplardan tikib bezalgan iroqi tufli kiygan. Etik qo‘njli bo‘lib, oyoqqa paytava o‘ralgan. Paytava yumshoq paxmoq matodan qilingan, paypoq bilan ham kiyilgan. Tog‘li tumanlarda, qishloqlarda ko‘proq charm etik, tufli kiyilgan. Qishda kalish, *cho‘bi*, kavush kiyilgan. Pomir va Darvoza mintaqalarida issiq kunlarda poshnali *tufli payzor* – *afg‘on tufli* kiyilgan. Afg‘on tuflisi chiroyli kashtalar bilan bezalgan. Qishda ko‘chaga *chonus choruk* – yumshoq etik kiyilgan, uning ichki qismi jundan tikilgan.

Matolar. Ayollar asosan tabiiy paxta va shohi matolardan kiyimlar kiygan. Parcha, kimxob, kundal, baxmal–duxoba, atlas, bulardan tashqari, yarim ipak matolarning har xil, rang–barang, yo‘l–yo‘l turdagi matolar ishlab chiqiladi.

Shu bilan birga Tojikistonda ipak mato, qattiq mato, kanausa urf bo‘ladi. Bu mato katta–katta yo‘lli, markazi boshqa rang, cheti boshqa rangli bo‘lgan. Tojikiston shohi baxmali, katak–katak va har xil bosilgan, yo‘l–yo‘l rusumda matolar ishlab chiqarila boshlangan. Rangli mato ham urf bo‘ladi.

Ayollarning kashtali ko‘ylaklari, ya‘ni har xil naqshli ipak matolardan tikilgan ko‘ylaklar urfga kiradi. Ko‘ylaklarning asosan, yengi, etagiga mijozning didiga mos ravishda kashta tikila boshlandi. Lozimlar pochasisga ham kashta tikiladi.

Turkman xalqi kostyumlari: Turkman xalq liboslari madaniy, an‘anaviy merosga boy ekanligi bilan ajralib turadi. Liboslarga o‘ziga xos

etnografik guruh, qadimiy urug'larning ta'siri katta bo'lgan. Ayniqsa ana shu o'ziga xoslik ayollar libosi va bosh kiyimlarda saqlandi. Qadimiy urug'larning shakllangan, ildizi mustahkam an'analari uzoq davrlarga borib taqaladi. Aksariyat urug'lar liboslarining o'ziga xos xususiyatlarini turkmanlarga qo'shni bo'lgan davlatlar turmushi bilan bevosita bog'liqligi bilan izohlash mumkin.

Turkman liboslari unsurlari va nomlanishiga ko'ra O'rta Osiyodagi boshqa o'zbek, qoraqalpoq, qozoq va tojik xalqlariga yaqin. Ayniqsa, xivalik turkmanlar liboslarida ana shu jihat yaqqol ko'zga tashlanadi. Qo'shni yashagan millatlar, xalqlar bir-biriga bog'liq holda rivojlandi. Ammo liboslardagi ayrim unsurlar etnografik jihatdan kelib chiqqanligini inkor etib bo'lmaydi.

Erkaklar libosi. Erkaklar ichki kiyimiga ko'ylak va ishton kiradi. Erkaklar ko'ylagi **koynek** – tunikasimon bichimli, o'rtacha uzunlikda (bo'ksadan pastroq), keng, uzun yengli, etak qismining ikki yon tomonida **yartmach** – qirqimi bo'ladi. XIX asr boshlarida ko'ylaklar yoqa o'mizi ko'ngdalang, ya'ni gorizontal o'yilgan va bir yoki ikki tomonidan tizimcha bilan bog'langan. Bunday yoqali, tegeekek **yaka** ko'ylagini aksariyat qariyalar va bolalar kiygan. Mazkur ko'ylak turi hozirgacha saqlanib qolgan.

Bundan tashqari erkaklar ko'ylagi yoqa o'miziga qarab turlicha nomlanadi: sopi yaka koynek, kurta-i-mullocha, sha yaka koynek. Yoqalar nomi ham har xil: epleme yaka, oris yaka, golbi, chek yaka, sopi yaka, sha yaka.

Turkman erkaklar ko'ylaklari etagi erkin tushib turadi, belga belbog' bog'lanmaydi. Oxirgi yuz yil ichida ko'ylaklar bichimi sezilarli darajada o'zgardi. Ularning alohida qismlari va rangiga o'zgarishlar kiritildi. XIX asrda ko'ylaklar oq ipli matodan tikilar edi. XX asr boshlarida turkman (qariyalardan tashqari) erkaklar ko'ylaklarida ma'lum o'zgarishlar bo'ldi. Ko'krak qismi o'ng tomonidan vertikal kesimi – chek yaka qo'yildi.

Turkmaniston janubida yosh yigitlar qizil ipakdan ko'ylaklar kiygan, ularning yoqasi qismi va yeng uchlariga (manjetlariga) nozik qilib kashta tikilgan. Qariyalar paxta tolali ip matoli ko'ylak ustidan, sovuq tushgan paytlar yoki bayramlarda **kurta** ko'ylagini kiygan. Kurta – ipak matodan bichilib, astarli, paxtasi yupqa solib qavilgan, yoqasi gorizontal o'yilgan ko'ylak.

Ko'ylak va xalatning asosiy detali hishtak–**be-geyik** hisoblanadi. Be-geyik uchburchak shaklida qilinadi.

Erkaklar bel kiyimi ikki turda bo'lgan: ichki – **balak** (baloq), **dizdan ishtan** (ishton) va ustki – **jalbar** (shalvor). Turkman ishtonlari – **balak**, deyiladi. Balak lar katta qadam tashlab, bemalol yurishga mo'ljallangan. Buning uchun mato katta, yaxlit qilib bichiladi. Unga bog'ich taqiladi. Katta tikilgan bu ishton tasma yoki bog'ich bilan bog'lanadi .

XVII–XIX asrlarda erkaklar otda yurga. Otliqqa qulay bo‘lishi uchun ishtonlar keng–mo‘l qilib tikilgan. Aksariyat turkman urug‘i erkaklari oq rangli ishton kiygan. Faqat yosh yigitlarga yashil yoki ko‘krang ishton kiygan. Qishda issiqroq matodan to‘qroq rangdagi kiyim kiyilgan. Badavlat kishilar **jalbari** qimmat matolardan tikilgan, oddiy xalq esa arzon matolardan tikilgan jalbar kiygan yoki ustki ishton kiyagan.

Erkaklar ustki kiyimi ayrim xususiyatlariga ko‘ra ikki xil: issiq va yengil kiyim bo‘lgan. Issiq ustki kiyimga quyidagilar kiradi: **don** (to‘n) – turkman erkaklarining keng tarqalgan ustki kiyimi sanaladi; qo‘y terisidan tikilgan po‘stin – **ichmek, postun**. Yengil ustki kiyim: astarli va ayrim turlari astarsiz – **paxtasiz don** bo‘lgan. Turkmanlar yengil ustki xalatlardan ko‘k, qora va havo rangli movutdan tikilgan **mavut don** (movut to‘n) ham kiygan. Tunikasimon bichimli **yektay** astarsiz, ustki kiyim – **chekmen** juda keng tarqalgan. Plashga o‘xshash chekmen qo‘y yoki tuya junidan ishlangan movutdan tikilgan. Kundalik kiyish uchun mo‘ljallangan – **yegin chekmen**, dag‘al movutdan tikilgan (1–rasm).

O‘rta Amudaryoning shimoliy tumanlarida qishda yo‘l–yo‘l matodan, yelkadan belgacha bo‘lgan qismiga avra–astar orasiga paxta solib qavilgan –**lenke don** kiyilgan.

Kundalik po‘stin – **deri ichmek** bo‘lib, uni tikish uchun 6–7 ta qo‘y terisi ketgan, to‘y–hashamlarda kiyiladigan kishilik po‘stin –**silkme ichmek** esa 10–11 ta hali juni olinmagan yosh qo‘zilarning jingalak terisidan tikilgan. Qo‘y terisidan tikilgan, erkaklar qishki kiyimi – **ichmek , postun** ovullarda hozirgacha kiyiladi. Turkman ustki kiyimlarining hammasi tunikasimon bichimda bo‘lgan. IX asr oxirlarida tunikasimon bichimda bo‘lmagan, ustki kiyim– **guppi–kemzor** kiyilgan. Bu kamzul paxtalik bo‘lgan. Qadimda xalatlardan bo‘yi ham, yenglari ham uzun bo‘lib, kiyganda yeng qo‘l barmoqlarigacha tushib turgan. XIX asr oxirlariga kelib xalatlardan uzunligi qisqardi va shunga qarab, ularning yenglari ham kalta qilindi. Ushbu xalatlarning ko‘krak qismiga tasmalar tikilgan bo‘lib, bular kiyim old qismini bog‘lash uchun mo‘ljallangan.

Ersarin turkmanlari sidirg‘a, kulrang xalat kiygan. Amudaryo taraflarda buxorocho xalatlardan kiyilgan. Xalatlardan yorqin tus berilgan gullar bilan bezatilgan. Kundalik kiyish uchun mo‘ljallangan xalatlardan **yektay** bir xil rangda bo‘ladi.

Turkmanistonning ko‘pgina tumanlari, ya‘ni sharqiy va janubiy tomonlarida – **girmizidon** deb atalgan, to‘y–tantanalarda kiyiladigan xalatlardan bo‘lgan. Ushbu xalatlardan qizil ipak, qora va oq, yo‘l–yo‘l matodan tikilgan. Aslzodalar qimmatbaho matolar, ya‘ni movut va baxmal girmizidon xalatlardan kiygan.

Erkaklar bosh kiyimlari o‘ziga xos qadimiy xususiyati bilan ajralib turadi. Ushbu bosh kiyimlarda turkman xalqi an‘analari saqlanib qolgan. Turkman erkaklari ham aksariyat O‘rta Osiyo xalqlari kabi, birdaniga ustma–ust ikki xil

bosh kiyim: ichki – mayin do‘ppi, bir necha qavat matodan tikilgan, shakli har xil va turli shakldagi ustki – mo‘ynali telpak kiygan.



7.30-rasm. Turkman ayollari va erkaklari kostyumlari.

Erkaklarning ichki bosh kiyimi dumaloq, konussimon shaklda bo‘lgan. Har xil turkman elatlari yashagan joyiga qarab, bosh kiyimlar ham turlicha nomlangan: **taxya** yoki **tayxa**, **borik**, **kalpak** va h.k.

Erkaklar ustki bosh kiyimi mo‘ynali bo‘lib, kishi yashayotgan joyi, bichimi va mo‘ljallangan o‘rniga qarab har xil nomlangan: **telpek**, **borik**, **chovre**, **chulakchin** va h.k. Bosh kiyim yechilmagan. Yilning qaysi fasli bo‘lishidan qat’iy nazar, mo‘ynali telpak quyoshning jazirama issig‘idan, qishning qahraton sovug‘idan asragan. Telpak uchun qora, oq, sarg‘ish rangli, qo‘y va qorako‘l terisi ishlatilgan (1 –rasm).

Turkmanistonning ayrim tumanlarida qariyalar salla – **selle** o‘ragan, salla uchun uzunligi 3–4 metrli, rangli ipli mato olingan. Oq sallani aksariyat din peshvolari, domla–imomlar va taqvodor qariyalar o‘ragan.

Turkman erkaklarining milliy oyoq kiyimi har xilligi bilan diqqatga sazovor. **Chokoi** va **chariq**, **chepek** yoki **yelken**, **edik**, **kaush**, **mesi** – ana shunday erkaklar poyabzali sirasiga kiradi.

Chokoi – ushbu poyabzal uchi tepaga qayrilgan tumshuqli bo‘lib, buzoq terisidan tikiladi. **Chepek** – cho‘ponlar poyabzali hisoblanadi. O‘ziga xos bu sandalning poshnasi charmdan yasilib, jun bog‘ich yordamida bog‘lanadi.

Erkaklar qishu yozda etik kiyganlar. Aksariyat badavlat kishilar otda yurishga qulay bo‘lgani uchun etikni ma‘qul ko‘rgan. Bunday etiklar baland,

ingichka poshnali bo'lgan. Ayrim erkaklar o'zlariga poshnasiz yumshoq etik tiktirib olganlar.

Ayollar libosi. Qadimdan turkman ayollari ichki kiyim sifatida – **koynek** (ko'ylak) kiygan . **Koynek** – tunikasimon bichimli, etagining uzunligi to'piqqacha tushadigan qilib, erkaklar ko'ylagiga o'xshash tikilgan . Ayollar ko'ylagining hammasini bichimi bir–biriga o'xshash bo'lib, old bo'yin o'mizining o'rtasidan ko'krakkacha vertikal qirqim beriladi (7.30–rasm). Ko'ylaklar yoqali, ba'zida yoqasiz ham bo'ladi. Turkman ayollarining kundalik ko'ylaklari uyda to'qilgan **alaja** (olacha) – mayda pushti–siyohrang katak – katak ipli gazlama yoki yarim ipaklik matodan tikiladi. Turkmanistonning janubi–sharqiy tumanlarida ayollar uyda to'qilgan **mata** – ipli matodan, ko'k–havorang ko'ylaklar kiygan.

Girmizi keteni – qizil rangli, pishiq va zich qilib to'qilgan ipak bo'lib, u boshqa ipaklardan ustun turgan. Turkmanlarda qizil rang ramziy ma'noni anglatadi. **Keteni** – matosi qadimiy bo'lib, Misrda ishlab chiqarilgan va XVI asrda O'rta Osiyoga olib kelingan. To'y–tantanalarda kiyish uchun qizil ko'ylak – **girmizi keteni** ko'ynek tanlangan. Bo'yiga yetgan qizlar sepida kamida ikkita–uchta **girmizi keteni** ko'ylagi bo'lishi shart edi.



7.31-rasm.Turkman ayollari kostyumlari.

Ayollar ko'ylaklarining yoqasi va ko'krakkacha bo'lgan qirqimlari **jexek** deb atalgan ensiz, qizil va yashil rangli shohidan tasma qilib tikilgan. Ko'ylakning old qirqimi – ko'krak qismiga **gurtikin** yoki **pugtama** deb atalgan har xil, zich, sidirg'a mayda geometrik naqshlar bilan kashta tikilgan.

Ayollar bel kiyimi – ishton bo‘lib, guruhiga qarab, u turlicha nomlanadi: **balak, dizdan, ishtan** va h.k. **Balak** (baloq) – erkaklar ishtonlari o‘xshab ketadi, lekin pastki qismi torayib boradi. Aksariyat badavlat xonadon ayollarigina issiq ustki kiyim kiygan. Shunga qaramay, ayollar ustki kiyimlarining bir qancha turlari shakllangan. **Ichmek** – po‘stin; ayollar ichmegi mayda hayvonlar terisi yoki tulki panjasidan tayyorlangan. Ichmek erkaklar po‘stinidan kaltaroq qilib, sirtiga qizil rangli shohi yoki baxmal qoplab tikilgan.

XIX asr o‘rtalariga kelib, Turkmaniston g‘arbida qiz–juvonlar paxta solib qavilgan issiq kiyimning boshqa turini kiya boshlagan. Bu kiyim **kurte**, deb atalgan. Kurte – oldi yopiq, uzun, tunikasimon bichimda, yonlari trapesiyasimon shaklda bo‘ladi. Kurtega ba‘zan hishtak solinmaydi. Ba‘zan esa rombsimon hishtak qo‘yiladi. Kurta etagining yon tomonlariga qirqim beriladi.

Etagi va yon qirqimlariga zanjir chokda rangli kashta tikib bezaladi. Yengil ustki kiyimlar bichimi va ko‘rinishi jihatidan har xil bo‘lgan. Turkmanistonning markaziy, janubiy va janubi–sharqiy tumanlarida **don, chabit va kurte** kabi yengil ustki kiyimlar – qizil va sariq rangdagi ensiz, yo‘l–yo‘l yoki sidirg‘a ipakdan tikilgan, astari yashil satindan, keyinchalik chitdan qilingan. XX asr boshlarida Turkmanistonning shimoliy tomonida **kemzor** kiyilgan. Kemzor tik yoqali, qirqma cho‘ntakli, astarli bo‘lgan. Odatda Toshovuz turkmanlari kemzorni yoqasiz tikkan, ko‘krak qismiga oq ip bilan xiyol bezak berilgan.

Kemzor kundalik va to‘y– hashamlarda kiyilgan. XX asr boshlarigacha **xivalidon** kiyimi kiyilgan. Toshovuz turkmanlari tizzalarigacha uzunlikdagi nimcha kiygan. Bunday nimcha **kolmak**, deb atalgan. Qizlar do‘ppilari – **taxya, borik** hisoblanadi, uchida keng tarqalgan asosiy bezak taqinchog‘i – **kupbasi** (qubba) bo‘ladi. Taxyaning qubba shaklida yuqoriga chiqib turgan kichkina kumush naychasi bo‘lib, kumush shokildasi osilib turadi. Taxya kumush tangachalar bilan zich va chiroyli qilib bezatiladi (7.32–rasm).

XIX asr oxiri–XX asr boshlarida do‘ppi ko‘rinishi va konussimon shakldagi baland qalpoqlar urf bo‘ladi. Ushbu bosh kiyimi qizil movut yoki ipakdan, astari ip gazlamasidan tikiladi. Ko‘pgina turkman urug‘larida qizlar turmush qurgunlariga qadar oddiy, mayin do‘ppiga o‘xshash bosh kiyim kiygan. Peshona tepasiga – **sinsile** (silsile, sunsule, sumsule) taqilgan. Bu taqinchoq juda nafis, kumushdan yasalgan zargarlik buyumi bo‘lgan. Sinsilega o‘xshash peshonaga taqiladigan taqinchoqlarning **alinshai, ilgich** kabi mayda osilchoqli bezaklari ham bor.

Bundan tashqari yana peshonabog‘ taqinchoqlar **eurme** (sorme), **egme, manlayik** – kumush taqinchoqlar ham bo‘lgan (7.32 – rasm).

Ersarinlik turkman ayollari sinsile taqinchog‘ini **bogmak, bogmach** bosh kiyimlari ustidan taqib yurganlar (7.34 – rasm).

Turkman ayollarining to‘y–hashamda kiyadigan asosiy bosh kiyimlari – **hasaba** yoki **havasa** baland, qattiq karkasga qo‘yilgan. Kundalik bosh kiyimlar yumshoq asosda bo‘lib, bitta ro‘moldan salla o‘ralgan va kumush bezaklarsiz kiyilgan. To‘y–hashamlarda kiyiladigan **hasaba** bosh kiyimi esa aksariyat tilla va kumush bezaklar bilan bezalgan. Ayollar bu bosh kiyimni to‘ng‘ich farzandlari dunyoga kelguncha kiyishgan .




a



b

7.32-rasm. A-Turkman ayollari milliy zamonaviy taqinchoqlari. B- ipakdan tikilgan kashtalik do‘ppisi. XIX asr.



7.33-rasm. Turkman qizlarining zamonaviy, milliy kostyumlari

Turkmanistonning janubiy qismida ayollar xalat–yopinchiqda yurgan. Hozirgacha saqlanib qolgan **chirpi** kiyimi to‘y–hashamlarda astarli xalat–yopinchiq bo‘lib xizmat qilgan. Bu kiyim asosan sariq, yashil yoki oq rangli ipakdan tikilgan. Yaqin–yaqinlargacha ayollar, qizlar libosini zeb–ziynatsiz taasavvur etish qiyin edi. Hattoki kundalik turmushlarida ham qiz–juvonlar zeb–ziynat taqib yurganlar. Ushbu taqinchoqlar bo‘yin va ko‘krak oldiga, bosh kiyim va ko‘ylak, ustki xalatlar ustidan taqilgan. Ayniqsa, katta va boytegin, nomut, sariq,

ersar urug‘lariga mansub qiz–juvonlar ko‘plab zeb–ziynat, taqinchoqlar taqqan. Bunday taqinchoqlar asosan tilla, kumush, misdan yasalgan va feruza – **piruza**, sedolik – **hakik**, yashma, marjon toshlari bilan bezalgan.


Qadimda turkman ayollarining poyabzal turi kam bo‘lgan. Bu hol ularning turmush tarzi bilan bog‘liqdir. Ilgarilari ayollar oldin ko‘proq uyda, ro‘zg‘or yumushlari bilan band bo‘lib, ovuldan tashqariga kam chiqqan. Ko‘p tarqalgan poyabzal turi **kaush** (kavush) bo‘lib, keng, yog‘och poshnali yoki baland, charm poshnali bo‘lgan. Bu poyabzal yilning sovuq faslida paypoq bilan kiyilgan. Kavush bilan yumshoq (mahsi) **etik–mesi** kiyilgan. Poshnasiz ana shu etik erkaklarnikiga o‘xshab ketadi. Bundan tashqari yana ayollar qizil yoki jigarrang charmdan baland poshnali, qo‘nji bezalgan etik ham kiygan.



7.34-rasm. Turkman ayollari taqinchoqlari.



Tayanch iboralar



Topshiriq savollari

1. Turkman erkaklar ko‘ylagi.
2. Erkaklar ko‘ylagining bichimi qanday?
3. Erkaklar libosi qanday kiyim turlaridan tashkil topadi?
4. Erkaklar bosh kiyimlari xususiyatlarini tavsiflab bering.
5. Qadimda turkman ayollarining kiyimi qanday ko‘rinishda bo‘lgan?
6. Turkman qiz–juvonlar bosh kiyimlarini tavsiflab bering.

O‘zbek milliy kiyimlari kompozitsiyasi va tarixi



Ma‘lumki o‘zbek xalqi o‘zining milliy marosimlarida alohida kiyinadi. Nikoh yoki xatna to‘yida kelin-kuyovlar liboslari, to‘y bolaning kiyimi, dafn marosimida marhumni yodlash davrida kiyiladigan liboslar. Yana liboslar bezakli, bayram, tantanalarda,

kundalik kiyiladigan , korxonada kabi turlarga bo'linadi. Jinsga qarab: erkaklar, ayollar va bolalar hamda yoshiga qarab: yoshlar, o'rta yoshli va keksalar kiyimlari.

Erkaklarning milliy kiyimlari ham ichki (ichdan kiyiladigan) va ustki – yelkaga kiyiladigan, belga bog'lanadigan turlardan iboratdir. Erkaklarning ichki libosiga yengsiz mullayoqa ko'ylak, ko'ylak – xalat (yaktak) va ishton kirgan. Ustki libosga turli-tuman xildagi yengil, issiq (paxta solib qavilgan) choponlar (to'nlar), mo'ynadan tikilib, gazlama bilan qoplangan po'stinlar, chakmonlar, kamzullar, uzun yoki qisqa nimchalar kiradi.

Ustki kiyimlar ichida yeng ko'p tarqalgan va hozirgacha etib kelgan libos – to'n chopondir. To'n tikilishiga qarab avra to'n, astarli to'n, paxtalik to'n deb atalgan. To'n tikilgan matosiga qarab qalami to'n, banoras to'n, beqasam to'n, kimxob to'n, surra to'n va hokazo: kimga mo'ljallanganligiga qarab esa bola to'n, kuyov to'n, quda to'n kabi nomlar bilan atalgan. To'n choponlar ustidan bog'lash uchun belbog'lar, chorsilar, charm, duxoba kamarlar ishlatilgan.

Bosh kiyimlar do'ppilarni, sallalarni, turli – tuman telpaklarni (qo'y mo'ynasidan tikilgan cho'girmalar) o'z ichiga olgan.

Poyabzallar charmdan tikilgan xilma-xil etik, mahsi, choriq, qo'n va yog'ochdan ishlangan kavush va zardo'zi etiklardan iborat bo'lgan.

Ayollarning milliy liboslari ichki, ustki va kishilik kiyimidan iborat bo'lgan. Ichki kiyim deganda, belidan yuqorisi, belidan quyi yoki faqat old qismi ulama liboslar va lozim tushuniladi.

Ustki kiyimlar deyilganda – kamzul, yengil xalat (mursak, kaltacha), yengsiz nimchalar.

Paranji ham an'anaviy ayollar ustki kiyimi sanalib, ichidan qora ot yolidan ishlangan chachvon tutilgan.

O'zbek ayollarining bosh kiyimlari ham turlichadir, masalan, ro'mol, peshonabog', do'ppilar bo'lib, ularning har biri o'ziga yarasha matodan, rang-barang ip-iplaklardan to'qilgan, tikilgan.

Ayollar poyabzali –mahsi, kavush, kalish, kabilar ko'n yoki rezinadan ishlangan.

Zeb – ziynatlar o'zbek ayollari kiyim-kechagining tarkibiy-zaruriy bo'lagi sanaladi. Ular o'zining go'zalligi, nafisligi, jozibaliligi bilan hayrat soladi. Bular: sochga taqiladigan shokilali marjon-munchoqlar, popuklar, tangalar, qadama bezaklar, gajilar, zalvorli kumush ziynatlar, ikki chekkaga va quloqqa taqiladigan peshband, tillaqosh, zulf, shokilador ziraklar, isirg'a va buloqilar. Bo'yinga va ko'krakka taqiladigan marvaridlar, zebigardon, tumor va boshqalar. Qo'lga va barmoqlarga taqiladigan bilakuzuk, uzuklar, kiyimga qadaladigan ukpar, jig'a kabilar.

Toshkent – Farg’ona

Toshkent azaldan yirik markaz sifatida katta ahamiyatga ega bo’lib, O’rta Osiyo va boshqa qo’shni mamlakatlar, ayniqsa, Rossiya bilan savdo-sotiq aloqalarida vositachi rolini bajarib kelgan. Bundan tashqari, Turkiston o’lkasining poytaxti sifatida Toshkent o’lka aholisining iqtisodiy va siyosiy hayotida katta ta’sirga ega bo’lgan.

Farg’ona vodiysi hamma vaqt mamlakat durdonasi, xomashyo bazasi hisoblangan. Toshkent va Farg’ona vodiysi aholisining turmush tarzi va tartibi, kiyimlari bir-biridan deyarli farqlanmagan.

Toshkent va Farg’ona vodiysi an’anaviy milliy kiyimlarining noyob namunalari aholi har bir toifasining ijtimoiy holatidan kelib chiqib, taqdim etilgan.



8.1-rasm.Kelin libosi.Toshkent.XX asr. Ko’chalik libos. Farg’ona.XX asr

Chunonchi, Toshkent, Farg’ona vodiysi hunarmandlarining kiyimi.

Mahalliy ziyolilarning kiyimi jadidlar, mullalar va diniy tabaqa vakillari – masjid imomi, so’fi, darvishlar kiyimi va boshqalar.

Urf – odat yoki marosim kiyimlar: to’y, o’g’il bolalarning sunnat to’yida kiyadigan kiyimi, dafn marosimi kiyimlari, yodga olish marosimlari kiyimlari.



8.2-rasm. Tillaqosh, ilaguzuk, to'g'og'ich. Toshkent-Farg'ona



8.3-rasm. Kamzul. Toshket-Farg'ona. XIX oxiri XX asr boshi.

Buxoro – Samarqand

Buxor – Samarqand o'zbeklari milliy kiyimlarining noyob namunalari aholi har bir toifasining ijtimoiy ahvolidan kelib chiqib taqdim etilgan. An'anaviy milliy kiyimlarda qo'shni davlatlarning madaniy ta'siri kuzatiladi, uning asosiy shakllari va ayrim elementlari asrlar davomida yaratilgan.

Kiyimlar quyidagicha tavsiflanadi: bashang (kishilik, tantanali kunlar kiyimlari), kundalik, ish kiyimlari. Kiyimlar bir to'plam, ya'ni bosh-oyoq kiyim(komplekt) qilib berilgan: ichki kiyim, ustki kiyim, bosh kiyim, oyoq kiyim, kiyim bezaklari. Shuningdek, kiyimlar tikilgan matolar ham taqdim etilgan.

Buxoro va Samarqand gazlamalarining shuhrati to'g'risida Narshaxiy, maqdisiy va boshqa X asr tarixchilarining asarlari dalolat beradi. Ularning xabar berishicha, mahalliy gazlamalar Bag'dod, Xuroson, Misr, Suriya, Vizantiya kabi shaharlarga chiqarilgan.

Buxoro va Samarqandning milliy kiyimlari O'zbekistonning boshqa mintaqalari kiyimlaridan serhashamligi va noyob zardo'zi kashtalari bilan ajralib turadi.

XIX asrda Buxoroda zardo'zlik san'ati gullab-yashnagan. Zardo'zi kashtalar bilan, asosan, saroy a'yonlari, ayollar va erkaklar kiyimlari: chopon, belbog'lar, bosh va oyoq kiyimlar bezatila boshlandi. Zardo'zlik san'atida zardo'zi – zamindo'zi texnikasi keng tarqaldi, bunda asos sirasiga kashta bilan tikib chiqiladi. XX asrda zardo'zi – guldo'zi texnikasi rivojlandi, bunda naqsh gullari qattiq qog'oz yoki kartondan qirqib olinib, mato ustiga qo'yiladigan va zar ip bilan tikib qoplanadi.

Hozirgi vaqtda zardo'zlik san'ati an'analari yanada yuqori pog'onaga ko'tariladi. Buyumlarning turlari ko'paydi, kompozitsiyalar ishlab chiqish sifati yaxshilanadi. Do'ppilar, ayollarning yengsiz nimchalari, shippaklar, belbog'lar, sumkachalar, divan yostiqlari, devoriy pannolar va boshqalar keng tarqaldi.

Shunday qilib, Buxoro va Samarqand O'zbekistonning zargarlik va zardo'zlik san'ati rivojlangan markazlaridan hisoblanadi.





8.4-rasm. Buxoro zardo'zlik san'ati namunalaridan.

Qashqadaryo – Surxondaryo

Qashqadaryo va Surxondaryo vohasi O'zbekistonning janubida joylashgan. Ular iqlimining issiqligi bilan ajralib turadi. Tabiiy shart – sharoitlardan kelib chiqqan holda o'lka aholisining milliy kiymlari ham tabiat sharoitlaridan kelib chiqqan holda o'lka aholisining milliy kiyimlari ham tabiat sharoitlariga mos bo'lishi lozim. Kiyimlarning yorqin ochiq bo'yoqlari, erkin bichimi va noyob, turli-tuman kashtalari kishilarning yuqori dididan dalolat beradi. 2001 yilda

Boysun YUNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan xalq madaniyatining durdonasi deb tan olinganligi tasodifiy emas. Ushbu mintaqa uchun an'anaviy, o'ziga xos kiyimlar aholining xo'jalik yuritishi, estetik qarashlari asosidagi hayot tarzi va iqtisodiy omillarning o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda tayyorlangan.

Surxondaryoda ayollarning “kiygich”, “bosh” deb ataladigan bosh kiyimlari faqat ayni Surxondaryogagina xos bo'lib, O'zbekistonning boshqa joylarida uchramaydi. “Bosh” juda o'ziga xos bosh kiyimi bo'lib, bir nechta vazifani bajargan:

1. Ayollarning boshi issiq, sovuq va shamoldan himoyada bo'lgan;
2. Unda ayollar turmushda tez-tez zarur bo'lib turadigan mayda buyumlarni (ip, igna, to'g'nog'ich va taroq)saqlaganlar.

Surxondaryoning ayollari qizil olcha rangni juda yaxshi ko'rganlar. Kiyim uchun yo'l-yo'l, sidirg'a va yirik gulli abrli gazlamalarni tanlaganlar. Kiyimlarga kashtalar faqat go'zallik va estetika uchun tikilgan emas, balki ular diniy asoslarga ham ega bo'lgan, ya'ni ayollar, bolalar va kelinchaklarni yomon ko'zdan asraydi, deb hisoblangan.

Ayollarning kiyimlarini zargarlik bezaklarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Surxondaryoda zargarlik buyumlari xuddi kiyimlar kabi ushbu mintaqaning etnik turmush tarziga xos bo'lgan, alohida ajralib turadigan xususiyatlarga ega, kumushdan mohirona tayyorlangan peshona bezaklari “sinsila” (sil-sila) deb atalgan. Ayollarning ziraklari juda turli tuman bo'lgan. Burunga taqiladiganlari

“letuva ” va “natti” deb atalgan. Surxondaryo ayollari zargarlik buyumlarini juda sevganlar va ko’plab taqib yurganlar.

XIV – XV asrlarda Shaxrisabz temuriylar saltanatining yirik siyosiy, ma’muriy va madaniy markazi hisoblangan. Bu ko’p jihatdan Shaxrisabz kashtalariningo’ziga xosligi va badiiy xususiyatlarini belgilab beradi. Qashqadaryo va Shaxrisabzning kashta tikilgan buyumlari o’zining yorqinligi, ranglarining uyg’unligi bilan ajralib turadi. Bu erkaklarning choponlari, shalvarlari, do’ppilari, kuloh va turli - tuman ayollar buyumlari, ya’ni ro’mol sumkachalar, dastro’mol,

oynaxalta, taroqxalta va boshqa buyumlar bo’lib, ular qarama-qarshi ranglar: yorqin qizil, to’q sariq, to’q jigarrang, binafsharang, yashil ranglar bilan ajralib turadi.

Qashqadaryo va Shaxrisabzda kashta tikishning “yo’rma”, va “kandaxayol” usuli qabul qilingan bo’lib, kashtaning “iroqi” usuli keng tarqalgan.



A



b

8.6-rasm. a-kultapo’shak,oyoq kiyim. Shaxrisabz.iriqi uslubda tikilganXIX-XXasr. B-Kelinlar bosh kiyimi. Surxondaryo. XX asr





8.8-rasm.Qashqadaryo-Surxodaryo kostyumlari

Xorazm

Xorazm – qadimi voha bo’lib, O’zbekistonning shimolida joylashgan, keskin kontinental iqlimi, yozi issiq va qishi qattiqligi bilan ajralib turadi.

Xalq san’atining yeng yaxshi an’analari Xiva – muzey – shaharning XIII-XIX asrlardagi me’moriy tarixiy obidalarida aks ettirilgan, bunda xorazmlik qadimiy me’morlarning yuksak san’ati ansamblarning uyg’un birligida mujassamlashgan. Qadimiy shahar Xiva – Amudaryoning o’ng qirg’og’i va qadimiy ipak yo’lida joylashgan bo’lib, hammadan ko’proq o’z milliy xislatlarini saqlab qolgan. Bu belgilar genetik jihatdan ularning qadimiy ota-bobolariga borib taqalishidan dalolat beradi.



8.9-rasm. Xorazm milliy liboslari

Xorazmda misga zarb berib, naqshlar solib buyumlar tayyorlash va zargarlik san'ati juda rivojlangan. Xiva ustalari tomonidan tayyorlangan Xiva xoni taxti (hozir Moskvadagi Qurol aslaha saroyida saqlanmoqda) shu vaqtgacha butun jahonni o'zining tayyorlanish mahorati – qimmatbaho materiallarning tanlanishi va noyob naqshlari bilan hayratga solib kelmoqda. O'zbekistonning, xususan, Xorazm zargarlik san'atining vujudga kelish manbalari ming yillarga borib taqaladi. Hozirgi vaqtda Britaniya muzeyida saqlanayotgan va eramizdan avvalgi V-III asrlarga oid bo'lgan Amudaryo xazinasining zargarlik buyumlari shundan dalolat beradi.

XIX asrda zeb-ziynatlar oltin, kumushdan tayyorlangan, ular qimmatbaho toshlar: olmos, “sevgi timsoli” hisoblangan la'l, zumrad, marvarid, qahrabo, yoqut, firuza, tog' billuri, sadaf, aqiq, xrizolit kabi turli tuman an'anaviy shaffof va tovlanadigan hamda naqshli toshlar bilan bezatilgan. Usta zargarlarning manzarali materiallarni tanlash borasida badiiy imkoniyatlari ancha keng bo'lgan. Ularning badiiy nafislig, usta zargarlarning mahoratidan dalolat bergan va bunday buyumlarning ahamiyati yuksak qadrlangan.

Shuni qayd etib o'tish kerakki, Xorazm zeb-ziynatlarning deyarli barcha turlari, kishilarning estetik dinini qondirishdan tashqari, turli xil ofatlar va baxtsizliklardan saqlash hamda yaxshilik keltirish kabi tasavvurlar bilan bog'liqdir. Ularda shu zeb-ziynatlarni egasining yoshi va ijtimoiy mavqei aks etadi. Xorazmda yuz yillar mobaynida qadimiy eski urf odatlar va ular bilan bog'liq diniy marosimlar saqlanib qolgan bo'lib, ular, ayniqsa, to'ylarda o'z aksini topadi. Ularning yuksak badiiy didi, ba'zi mahalliy koloritiga qaramasdan, umuman, o'zbek xalqining yuqori va o'ziga xos madaniyatidan dalolat berib turadi.



8.10-rasm. Xorazm ayollari taqinchoqlari. Xiva. XIX asr

O'zbek milliy liboslaridagi zardo'zi naqshlar va gullar kompozitsiyasi va tarixi : Zardo'zlik san'ati o'zining uzoq tarixiga ega bo'lib, deyarli barcha sharq. Mamlakatlari uning vatani hisoblanadi. Pliniyning aytishicha, Vavilon kashtachiligi qadimdan mashxur bo'lib, matoga turli rangdagi iplar bilan kashta tikishni o'sha yerda kashf etishgan. Keyinchalik Vavilon Rim imperiyasi tarkibiga kirgach, zar, ipak yoki jun ip qo'shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan shuxrat kozongan. Zardo'zlik san'atining an'analari Vizantiyada ham rivoj topib, zardo'zi kiyim-kechaklar fakat imperator a'yonlari va aslzodalarigagina mansub bo'lgan. Sosoniylar davrida Eron podshohining saroyida ham zardo'zlik san'ati rivoj topgan deyishga asos bor, chunki bu mamlakat Vizantiya bilan muntazam madaniy va siyosiy hamkorlik qilgan. Hozirgi Eronda XV—XVII asrlardagi zardo'zlik namunalaridan anchagina yodgorlik saqlanib qolganligi badiiy an'analar uzoq, yillar davomida rivojlanganligidan dalolat beradi.

Qadimgi Rus ham Vizantiyaga taqlid qilib zardo'zlik san'atini o'rgangan. XIII va XV asrlarda Kichik Osiyo doirasida paydo bo'lgan hamda Vizantiya imperiyasini barbod qilgan usmonli turklar ham ushbu san'atga o'zlarining munosib ulushlarini qo'shganlar, Qrim va Kavkazning qayeridaki Vizantiya madaniyati uzoq vaqt va kuchli ta'sir o'tkazgan bo'lsa, o'sha yerda zardo'zlik ham rivojlanavergan. O'rta Osiyoda ham zardo'zlik san'ati, shubhasiz, o'zining chuqur ildiziga ega. Shu narsa ma'lumki, masalan, 1403—1406 yillarda Samarqandga sayohat qilgan ispan elchisi Ryui Gonzal esde Klavixouz esdaliklarida, Temur saroyida zardo'zlikning milliy kashta bezaklarini tomosha qilganini yozgan. Esdalik sahifalarida elchilarni qabul qilish marosimiga bag'ishlab o'tkazilgan dabdabali ziyofatlar ta'rifini keltirib yozar ekan, zardo'zlik usulida tikilgan ash'yolarni bir necha bor eslab o'tadi. Zar tikilgan ko'rpa-to'shaklar, ipak matoga zar taqilgan qimmatbaho darpardalar va chodirlar haqida batafsil hikoya etiladi. Klavixo erkaklar va ayollarning zar ipda tikilgan va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan kiyimlari xaqida zavq bilan yozadi. Abdurazzoq Samarqandiy o'zining «Hindiston safarnomasi» risolasida Shoxrux 1442 yili Hindistonning Kalkutta viloyati hukmdori huzuriga yuborgan elchilaridan zardo'zi do'ppi ham sovg'a qilib berib yuborganini qayd etib o'tadi.«Ishratxona» maqbarasi haqidagi 1465 yilgi xujjatlardan birida ham zardo'zlik buyumlari haqida eslab o'tilar ekan, «zardo'zi tikilgan gunafsharang dasturxon (tuya junidan to'qilgan mato) astari malladan» va «zardo'zi tikilgan gunafsharang darparda» degan satrlarga ko'zimiz tushadi. Hirotda Alisher Navoiy davrida yashab ijod etgan Vosifiy o'zining risolalarida zardo'zlik kasbi

to'g'risida so'z yuritgan. Adabiy yig'inlarning qatnashchilari haqida gapiraturib, «istiqboli porloq. yoshlari» qatoridan o'rin olganligini aytadi.

Podshoh Aleksey Mixaylovichning Abdulazizxon huzuriga yuborgan elchilari (1669—1671 y) Boris va Semen Pazuxanlarning hisobotida yozilishicha: elchilar Buxorodan jo'nash oldidan zardo'zi chopon, telpak va belbog' sovg'a olganlar.

XVII asrning oxirida yashagan samarqandlik shoir Fitratning asosiy kasbi zardo'zlik bo'lib, u zar ip bilan matolarga kashta tikkan. Shunday qilib hozirgi kungacha Buxoroda saqlanib kelayotgan kashtachilik san'atining o'ziga xos va qiziqarli bu turi nihoyat uzoq, davr mobaynida sayqal topgan va takomillasha borgan. Buxorolik zardo'zi ustalarining o'ziga xos sermazmun kashtalari, g'oyat nafis texnik uslublari, mukammal terminologiyani, uzoq davrlar mobaynida sayqal topgan rang-barang choklarini nazarda tutsak bu san'atning tarixiy rivojlanish jarayonini to'laroq tasavvur etishimizga imkon beradi. XIX va XX asr boshlarida kashtachilik san'atining bir turi bo'lgan zardo'zlik Buxoroning o'ziga xos xususiyatini aks ettirgan. Mazmuni jihatidan xalqchil bo'lgan va qimmatbaho matodan tayyorlanadigan zardo'zi kiyimlar mahalliy aholining turli tabaqalari o'rtasida keng tarqalgan ipak ip bilan kashta tikishga qaraganda nozik didni talab qilgan. Bu kiyim-kechaklar asosan amir saroyidagilarning ehtiyoji uchun tikilgan, ba'zangina shahardagi boy ayonlar uchun tayyorlanganlar. Ota-bobosidan meros bo'lgan kashtachilik kasbi bilan shug'ullangan yuzlab qo'li gul ustalar Buxoro amirining hashamatli saroyidagi qimmatbaho zardo'zi kiyimlarni tayyorlash bilan band edilar.

Buxoro zardo'zi ash'yolarining deyarli hammasi amir saroyining ehtiyoji uchun ishlatilardi, faqat juda oz miqdorigina sotish uchun bozorga chiqarilardi.



8.11-rasm. Zamindo'zi do'ppi, "Yostiq jildi",.

Zardo'zlik uchun ishlatiladigan zaruriyashyo va asbob-uskunalar

Zardo'zlik ishida chetdan keltirilgan turli xil fabrika materiallari singari mahalliy jaydari gazlamalardan XIX-XX asr boshlarida foydalanilgan.

Erkaklar cho'ponlari chetdan keltirilgan baxmal birishim yeng a'lo navli barhutlardan tikiladi. Baxmali farangi deb atalgan rus barhuti ham keng

foydalanilgan. Bu gazlama g'arbiy Evropadan Rossiya orqali keltirilgani uchun baxmali zagranish deb yuritilgan (ruscha zagranichniy so'zidan olingan). Barhutlar g'oyat rang-barang tusda bo'lishiga qaramasdan, kishilarga qizil, binafsha, yashil va ko'k rangdagilari ko'proq yoqqan. Qizil va binafsha rangdagi barhutlardan ayollar va bolalar kiyimlari uchun qo'llaniladi. Sof ipak barhutdan tashqari baxmali musi degan silliq, yarmi ipak barhut erkaklar choponidan boshqa barcha buyumlar uchun ishlatiladi. Yarim shoyi jaydari olacha gazlama zardo'zlikda deyarli barcha buyumlar tayyorlashda ishlatiladi. Undan asosan uy-ro'zg'or buyumlari.

"So'zana", "Yostiqlik jildi", "Joynamoz", "lo'la bolish"lar jildi tikiladi.

Turli navdagi simli iplar zardo'zlik uchun asosiy xom-ashyo bo'lib hisoblanadi. Qadimdan Misr hamda Bobilda zar va kumush ip tayyorlash texnologiyasi ma'lum bo'lgan. O'rama zar simlar dastlab Dehli shahrida ishlab chiqarilgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buxoroga zar iplar faqat Moskvadan, keyinchalik Angliyadan, hozirda Yaponiyadan keltirilyapti. G'oyat momiq zar tolalar buxorolik zardo'zlar tilida kalyobatun nomi bilan mashhur bo'lib, u goh zar, goh kumush ip o'rnida qo'llanilgan. U yoki bu navni ajratish zaruriyati tug'ilib qolsa zar ipga tilla kalyobatun, kumush ipga kalyobatun safed (oq) deb ataladi. Kalyobatun ingichka metal ip bo'lib, shoyi ipga puxta o'ralgan. Kalyobatun tayyorlash uchun kumush qotishmasini oz emas, ko'p emas 84 foizgacha bo'lgan sifati ishlatilgan.

Birishmi tillo chor tor -u to'rt yo'lli zar ip va yeng yaxshi sifatli ipak ip. Oq ipak ipdan kumushrang gullar tikiladi. XIX asrning 90-yillari boshida 40-raspoli pechak g'altak ip paydo bo'lgan bo'lib, zardo'zlikda keng ishlatiladigan xom ashyo.

"Tilla " kalyobatun qilish uchun sim ipga tilla suvi yugurtirilgan. Kalyobatunning asosini tashkil etuvchi ipak ipning rangi turlicha bo'lgan. Kolyobatun bilan sim Buxoro zardo'zligining asosiy xom-ashyosi hisoblangan. Ayniqsa, kolyobatun XIX asrning boshida shu paytgacha bo'lgan davrga oid barcha buyumlarda uchraydi. Zardo'zlikda oltin, kumush rangdagi ipak hamda sun'iy ipak va tolalardan foydalaniladi.

Zardo'zlikda yana po'lakcha, olmos qubbalar, zarhal to'g'alar va boshqalar ishlatiladi.

Po'lakcha-zardo'zlikda ishlatiladigan kichkina piston (pirpirak). U mayda oq, qizil, sariq va boshqa ranglarda bo'ladi. Buyumga bezash uchun qadaladigan, o'rtasidan teshikcha qilingan metall pistoncha.

Olmos qubbalar-turli nav oltindan zardo'zlamning o'zlari yasagan zargarlik taqinchoqlariga o'xshab ketuvchi bo'rtma naqshlar, dur, hamda qimmatbaho tabiiy va sun'iy toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar ishlatiladi.

Zarhal to'g'alar-mahalliy zargarlar ishlagan, odatda qora sir va feruza bilan bezatilgan, nafis gul naqshi tushirilgan bo'ladi.

Chambarak, ya'ni korcho'p, uning to'n, nimcha va mayda-chuyda buyumlar uchun mo'ljallangan uch turi ma'lum. Ular tuzilishi jihatidan bir xil bo'lib, hajmlarining katta-kichikligi bilangina bir-biridan farq qiladi.



8.12-rasm. Zardo'zlikda o'ziga xos asbob-uskunalar ishlatiladi. Naqsh kompozitsiyalarini chizish uchun chizg'ichlar, yumshoq va qattiq qora qalamlar, daftar, albom, o'chirg'ichlar, shaffof, karton qog'ozlar kerak bo'ladi. Zardo'zlik qurollari unchalik ko'p emas.

Korcho'b uzunligi 320 santimetrgacha bo'lgan ikki tyeng yonli silliq yog'och dastadan iborat bo'lib, uchida joylashgan harakatlanuvchi shamshirak yordamida chambarakni istalgan kattalikka keltirish mumkin.

Chambarakka bo'zdan qilingan kerish (tavar) tortilib, u tikib tayyor bo'lgan buyum bilan birga chiqarib olinadi. Zardo'zlikda qadimdan patila degan asbob ishlatiladi. Patila qattiq yog'ochdan, uzunligi 20 santimetr bo'lgan, to'rt qirrali va nafis qilib tarashlangan, ichini kovlab qo'rg'oshin quyib vazminlashtirilgan bo'ladi. Unga to'rt qavat qilib zar ip o'raladi.

Bunday patilalar ipni zich qilib o'rashni ta'minlagan. Zardo'zlikda angishvona ham ishlatiladi. Ang-forscha, angusht, ya'ni barmoq, vona, bona saqllovchi degan ma'noni bildiradi.

Qo'lga igna kirib ketmasligi uchun barmoqqa kiyiladigan metall g'ilof Angishvonananing ustki va yoni ignani keti qadaladigan ya'ni igna toyib ketmasligi uchun chuqurlardan iborat bo'ladi. Zardo'zlik ishida ikki xil angishvonadan foydalaniladi. Biri fabrika angishvona bo'lib, uni o'rta barmog'iga, ikkinchisi tagsiz, qalin charmdan yasaliib, chap qo'lning uchta barmog'iga taqilib islanadi.

Charn angishvonani fabrikada metallardan ishlangani ham bo'ladi.

Zardo'zlikda ikki xil qaychi bo'ladi. Qaychi ushtur gardan, ya'ni "Tuya bo'yin qaychi" degan ma'noni beradi. Tuya bo'yniga o'xshash qaychi bo'lib, gul qirqishda ishlatiladi. Oddiy uy ro'zg'orda ishlatiladigan metall qaychilar ham ishlatiladi. Ignalarning fabrikasidan chiqqan, o'rtacha kattalikdagilari ishlatiladi.



8.13-rasm. . Korcho' b, patila, tuyabo'yin qaychi, kerish.

Zardo'zlik -zar ip bilan naqsh (kashta) tikish kasbi. U forscha zar (tilla), do'zi (tikmoq) so'zini anglatadi.

Zardo'zlikni bilish uchun asosan quyidagi hunarlarni yaxshi bilishi kerak: 1. Rasm solish va naqsh chizishni; 2. Gul kesishni, ya'ni gulbur bo'lishni; 3. Kesilgan gulga zarni tika bilishi kerak;

Zardo'z quyidagi tartibda ishlaydi. Tikiladigan har bir buyum uchun alohida andoza tayyorlanadi va bichiladi. Axta va Xoka yordamida kartonga naqshi tushiriladi. Axta, ulgi, nusxa -naqsh yoki rasmni qog'ozga chizib, chiziq yo'llarigina bilan teshilib, tayyorlangan andoza. Naqsh gullarini tuya bo'yin qaychi yordamida kesib olinadi. Bunday ishni gulbur bajaradi. Hozirda kartondan foydalaniladi. Kartonni yuziga sariq bo'z yopishtirilsa, bu holatda karton sinmaydi va bir tekisda chiqadi. Kartondan gul kesish tez va oson, zar bilan tikish qulay hamda sifatli bo'ladi. Gullar kesilib, chamberak tayyor bo'lgach, ya'ni unga bo'zdan qilingan (8.14-rasm.) kerish tortiladi. Kerish (ta'vor) ustiga tikiladigan buyum gazlamasiga qadab chiqiladi. Gazlama ustidan qo'yilgan gul bichiqlari surilib ketmasligi uchun ular yirik qaviqlar bilan chatib qo'yiladi. Odatda ta'vor ish batamom nihoyasiga yetgandan keyin olib tashlanadi. Usta zardo'z ikkita angishvona yordamida tikib hammamizga ayonki, zardo'zlik ikki qo'l bilan tikilib, ignasi kalta va nozik bo'lishi lozim. Tilla rangli zarni qizil, sariq iplar bilan. Kumush zarni oq ip bilan tikiladi. Zar ipni to'rt qavat qilib patilaga ya'ni zar ip o'raydigan cho'pga o'raladi. Keyin maxsus kartondan kesilgan gullar ustidan tikib chiqiladi.



8.15-rasm. Zardo'ziy birishimdo'ziy usuli "Lola gul" Usta Sa'dullo rasmi.




8.16-rasm. Guldo 'ziy-zamindo'ziy aralash usuli.



Tayanch iboralar:

Mursak, “yo’rma”, “kandaxayol”, “iroqi”, “kiygich” *zardo’zi*,
zamindo’zi, *guldo’zi*, *patila*, *do’kon*



Topshiriq savollari

1. Marosim liboslariga ta’rif bering
2. Buxoro va Qashqadaryo liboslaridagi farqlarni ko’rsating
3. Toshkent va Samarqand liboslarini farqini ayting
4. Zamonaviy milliy liboslar
5. Toshkent – Farg’ona kostyumlari
6. Buxoro – Samarqand kostyumlari
7. Qashqadaryo – Surxandaryo kostyumlari
8. Xorazm kostyumlari
1. Zardo’zlik hunarining tashkil etilishi
2. Saroy zardo’zlik ustaxonalari
3. Xususiy ustaxonalar
4. Zardo’zlik uchun zaruriy ashyo va asbob-uskunalar
5. Mahsulot ishlab chiqarish texnikasi
6. Zardo’zli knaqshlari va ularning tuzilishlari
7. Zardo’zlikning kelib chiqish tarixi
8. Ryui Gonzal esde Klavixoning Temur saroyi haqida
9. XVII asrda yashagan samarqandlik shoir va zardo’z

XIX asr oxiri -XX asrning birinchi yarmida o’zbek kostyumlari



Xotin - qizlarning ko’proq ko’krak burma ko’ylagi asrimizning boshlarida Farg’ona keyinchalik Toshkentda paydo bo’lgan. Qishloq xududlarida va qo’shni viloyatlarda esa XX asr 30 –yillar dan boshlab tarqalgan. O’zbekcha ko’ylak o’zining zeboligi va sipo qilib tikilishi bilan boshqalardan ajralib turadi. Bunda ko’ylakning bo’yi (koketkadan pastki qismi)

to'g'ri yenglardan tikilganligi uchun gazlamaning gullari ko'ylakda butunligicha saqlanadi va ko'ylak chiroyli chiqadi. Ko'proq burmali to'g'ri ko'ylak to'la gavdali xotin-qizlarga ham nozik gavdali xotin - qizlarga ham yarashadi. Hozirgi kunga kelib, ko'krakburma ko'ylaklar nusxalarda juz'iy o'zgarishlar yuz beradi. Ular qishloq va shahar aholisining sevimli va doimiy kiyimlari tarkibidan joy olib, uchburchak, yarim doira va boshqa nusxalarda bichiladigan bo'lib qoldi.

Ko'krakburma ko'ylaklar butun O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari shuningdek boshqa millat xotin - qizlari tomonidan ham sevib kiyilmoqda.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida O'zbekiston to'qimachilik san'ati va dekorativ amaliy san'ati ham keng rivojlangan edi. An'anaviy o'zbek shoyilari (*kaunas, shoyi, xonatlas*), nimshoyilar (*beqasam, banoras, parpara, adras*) Buxoro, Samarqand, Namangan va boshqa shaharlarda ishlab chiqarilardi. O'rta Osiyo aslzodalari shu gazmollardan kiyim kiyishardi. Kambag'al aholining kiyimi asosan ip matolardan (*bo'z, olacha, susi, janda*) bo'lardi.

O'rta Osiyoni chor Rossiyasi bosib olgandan keyin fabrikalarda ishlab chiqarilgan matolar (*chit, satin va boshqalar*) keng tarqalgandi. Aslzodalar kiyimida Franstiya va Rossiyada ishlab chiqarilgan naqshli shoyi gazmollar — *baxmallar, kimxoblar, , faranilar va atlaslar* ko'llanardi. Ulardan tashqari, jun matosi *movut* ham erkaklar ustki kiyimida ko'p ishlatilgan.

Ayollar kostyumi. Qadimdan ayollarning an'anaviy ichki kiyimi tunikasimon ko'ylak va lozimdan iborat edi. Ko'ylakning shakli to'g'ri, ba'zan etagi kengaygan bo'lib, uzunligi topig'igacha edi. Qizlar ko'ylagida yoqa o'mizi ko'ndalang qilinib, chetlari boshqa rangdagi mato yoki tasma bilan tikib chiqilardi va o'sha matodan tayyorlangan tasma bilan bog'lanardi yoki bitta tugma bilan qadab qo'yilardi.

Turmushga chiqqan ayollar esa vertikal kesimli ko'ylaklarni kiyishardi. Kesim ko'kragini o'rtasidan uzunligi taxminan 25 sm qilinib, tasmalar bilan bog'lanar, bitta tugma yoki to'g'nag'ich bilan qadalardi. Buxoro va Samarqand viloyatlarida ayollar kiyimida yoqa o'mizining chetlari zarbof tasma "*peshko'rta*" va kashta bilan bezatilgan. Yoqa o'mizi bu yerlarda juda uzun (etagiga sal etmas edi) qilinardi. Ko'ylaklar juda keng bo'lgan, uning yenglari esa g'oyat keng va uzun bo'lib, kaftni berkitib turgan. Yenglari, ba'zan, boshqa qimmatbaho matodan qilinardi yoki kashta bilan bezatilardi. Ayollar qo'lini ko'ksiga qo'yib yurishardi va shu bois yengining go'zalligi to'liq ko'rinardi.(13.5-rasm).

O'rta Osiyo chor Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan keyin tik yoqalar paydo bo'la boshladi. Ularni keyinchalik plissirovkalik "*par-para*" bilan bezatishadigan bo'ldi. Turkiston o'lkasida (avval shaharlarda, so'ngra qishloqlarda) odatda vertikal qirqimli qopqoq bilan berkitilgan yoqa o'mizi, baland

tik yoqa kirib kela boshladi. Bu yoqani "it yoqa", "no'g'oy yoqa", zarafshon vodiysida "qozoqi yoqa" deb atashardi.



9.1-rasm. Toshkent ayo;;ari ko'ylaklari. 1-qadimiy ko'ylaklar, 2-XIX –XX asring boshlaridagi ko'ylaklar



9.2-rasm. Ko'krak burma ko'ylak. XIX –XX asring boshlari



9.3-rasm. Toshkent.XIX asr boshlarida kuyov to'ni.

Yosh ayollar birinchi farzand tug'ilganicha uchlari yuqoriga qaragan ko'pgina uchburchak ko'rinishda "tishchalar" yoki plissirovka par-para bilan bezalgan tik yoqali ko'ylaklarni kiyishgan. Shunday tik yoqa o'zbek va tojik ayollarning ko'ylaklariga xos edi.

XIX asrning oxirlarida qirqilgan koketkali ko'ylak — ko'krakburma ko'ylak. paydo bo'ldi. Bu ko'ylak asr davomida tunikasimon bichimning rivojlanishi natijasida kelib chiqdi. Ko'ylak ser burmalangan gavda qismi, yelkasi qiya bichilgan koketka, o'tkazma yeng va yoqa qismlardan iborat edi. Ushbu ko'ylak keyinchalik ayollar garderobida barqaror o'rnashib, ayollar milliy kostyumining asosi bo'lib qoldi.

Shular qatorida, tunikasimon bichimli, tik yoqali va yenglari manjetli ko'ylaklar ham keng tarqalgandi. Katta yoshdagi ayollar vertikal kesimli yoki plissirovkasiz tik yoqali ko'ylaklarni kiyishda davom etishgan.

Shu davrda uzun, uchi tor yengli ko'ylaklarni kiyishgan, ularga tirsak va bilak orasida ingichka, kashtalangan tasmalar tikishgan. Ilgarilari bu tasma o'rtasida kesim kirqilib, undan ishlagan paytlarida qullarini chiqarib qo'yar edilar, yeng uchini esa shimarib kuyishardi. Bunday ko'ylaklar asosan Xorazmda qayd etilgan. Hozirgi paytda kashtalangan tasma tiqilib, kesim qilinmaydi, u dekorativ bezagi bo'lib qolgan.

Uy ichida bitta va sovuq kunlarda ikkita ko'ylak kiyilardi. Bayram kunlari aholining taniqli, boy tabaqalaridan bo'lgan ayollar ustma-ust uchta ko'ylakni kiyishardi. Bunda uchala ko'ylakning yenglari bir xil kenglikda, lekin har xil uzunlikda bo'lib, birinma ketin biri ko'rinib turardi, yeng uchlari esa kashta bilan



A

b

9.4-rasm.XIX asr o'zek milliy kiyimlari

tikib chiqilgandi(13.5-rasm,b). Agarda yana ham boyliklarini kursatmoqchi bo'lsalar, o'zlari bilan bir necha ko'ylakni olib, mexmonga kelgandan so'ng, vaqti-vaqti bilan almashtirishar edilar. Buxoro va Samarqandda badavlat odamlar orasida ko'ylaklarning soni yettitagacha yetardi. Kiyimning seroblighi bilan libosning egasi boyligini ko'rsatishni xoxlardi. Buni faqat yosh kelinlar to'ylaridan keyingi kunlarda kiyishar edilar.

Ba'zan, ustki ko'ylak ostidan ichki ko'ylak kiyishgan. Ular oq ip matodan qilinardi.

Ko'ylaklarning uzunligi turlicha bo'lgan. Keksa ayollar uzunligi yergacha etadigan, yoshlar — kaltaroq ko'ylaklarni kiyishardi.

Xorazmda qizlar va yosh ayollar ola chipor matodan tikilgan ko'ylaklarni tikishardi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida ayollar ko'ylaklari ola chipor chitlardan, o'ziga to'q oilalarda esa qizil shoyidan tikilardi. Qirq yoshlardagi ayollar odmiroq, ya'ni ko'k, zangori, yashil, binafsha rangdagi ko'ylaklarni ma'qul ko'rishardi. Keksa ayollar mahalliy ishlab chiqarilgan oq ip gazlama — bo'z yoki yashil qora mayda xolli va gulli chitdan tikilgan ko'ylaklarni kiyishardi. Boy oilalarda kelinning nikoh, ko'ylagi mahalliy ishlab chiqilgan yoki Qo'qon, Buxorodan yoki O'rta Osiyoning boshqa shoyi to'kuv markazlaridan keltirilgan shoyilardan tikilardi. Ba'zan, mablag'i yetishmagan oilalarda esa chopon ostidan ko'rinmaydigan ko'ylak bo'laklari boshqa, arzonroq mato, masalan, chitdan qilinardi.

Ayollar kostyumining ikkinchi asosiy qismi — *lozim*. Lozim beldan yuqori qismida o'tkazilgan ishtonbog' yordamida ushlab turiladi. Odatda lozimlarni ikki xil matodan: pastki qismini, ya'ni ko'ylakdan ko'rinadigan qismini, ancha qimmat va chiroyli matolardan, yuqori qismini esa (taxminan bo'ksa o'rtasidan beligacha qismini) arzonroq va oddiyroq matodan tikilardi. Ishtonni uchi to'qilgan va kashta qilingan tor tasma "*jiyak*" bilan bezalgan, uning uchlari popukni hosil qilardi.

Lozimning uzunligi va kengligi turlicha bo'lgan. Shaharlarda, shahar atroflarida va qishloqlarda asosan uzun lozim kiyishardi.

O'rta Osiyo xalqlariga oid ayollarning ishton bichimi odatdagicha bo'lib, erkaklar ishton bichimiga o'xshash edi. Ishtonlar uzun, asosan, to'piqqacha bo'lgan. Tepa qismi keng, pasti esa toraygan ishton poylarining orasiga OG' tikilardi. Katta romb, kvadrat va uchburchak shaklidagi qadam tashlaganda ishtonni kengaytirardi va yurishga hamda otga minib yurishga xalakit bermasdi.



9.5-rasm. Buxoro ayollari kiyimlari

Qizlar va yosh ayollar mahalliy ishlab chiqilgan oq yo'l-yo'l yoki gulli matodan, keksa ayollar — asosan oq matodan ishton kiyishardi. Rossiya fabrikalarida ishlab chiqarilgan matolar O'rta Osiyoga olib kelingandan keyin ular keng qo'llanadigan bo'ldi, chunki ular mahalliy matolardan arzonroq bo'lgan.

Ayollar ustki kiyimiga qavilgan paxtali choponlar kiradi. Ular erkaklar choponidan birmuncha farqlanib, tunikasimon bichimli edi. Ayollar choponlarining yoqa umizlari ochiq va keng bo'lgan, ular baxyalanmagan, adipi bir biriga kirmagandi. Erkaklar choponiga Qaraganda yenglari birmuncha kaltaroq va kengroq bo'lgan. Xorazmliklarning paxta choponlari o'ziga yarasha juda qiziqarli edi. Qo'lda qavish o'rniga, ular xiylagina mashinada qavishgan. Bilak qismida esa qo'l uchun kesim qilinib, ish qilayotgan paytda iflos bo'lmasligi va xalaqit bermasligi uchun qadalib qo'yilardi.

Paxtali choponlardan tashqari yozda qishloq, asosan Zarafshon vodiysi ayollari, astarsiz chopon "*delegay*"ni kiyishgan. Buxoro va Samarqand viloyatlarida ustki kiyim sifatida yengli, beliga sal yopishib turib, pastiga qarab kengaygan, astarli chopon "*rumcha*"ni kiyar edilar. Rumchaning o'tkazma tor yenglarining uzunligi bilagigacha edi.

Ayollarning maxsus ustki kiyimi bo'lgan chopon "**mursak**" O'zbekistonda keng tarqalgandi. U Toshkentda — mursak, Samarqandda — munisak, kaltacha,

Farg'onada — munisak, munsak, Buxoro va Shaxrisabzda — kaltacha deb ataladi. Mursak yoniga tikiladigan qiyiqlar yordamida kengayardi, yonlarida esa yeng ostidan ser mayda burmalar, etagining yonlarida kesimlar qilinardi. Mursaklar astarli qilinib, qavilardi, qishki mursakka esa yupqa qatlam paxta quyilardi.

XIX asr ikkinchi yarmigacha Toshkentda oddiy choponga nisbatan mursak yenglari birmuncha kalta bo'lgan. Keyinchalik mursakning yenglari tirsakkacha qilingan, u "tirsak yeng" (13.5-rasm,a)deb atalib, uning ostidan ko'ylakning uzun yenglari chiqib turardi.


Samarqandda mursakning tor yenglari qo'lning kaftigacha yetardi; Buxoro va Qashqadaryoda esa yenglari keng bo'lib, tirsakdan tushib turgan, uning ostidan esa ko'ylak yenglari chiqib turardi. Xorazmda oddiy chopondan mursak faqat etagining shakli bilan farqlanardi (yengi uchiga qarab toraygandi).

XIX asr mobaynida mursak odatdagi bashang kiyim bo'lgan; XX asr boshlarida uni belbog' bilan bog'lab, faqat dafn marosimlarida kiyishadigan bo'ldi. Ammo Samarqandda katta yoshli ayollar mursakni belbog'siz mehmonga yoki to'yga borganda kiyishgan. XX asr boshida Toshkentda mursak kiyilmagandi, biroq, u har bir oilada bo'lishi shart edi, chunki u bilan ayol o'lganda tobuti ustini yopishardi.



9.6-rasm. Ayollarning bosh yopinchoqlari: 1 – tog'li tojiklar ro'molari, 2-boshiga ro'mol yopingan o'zbek ayoli; 3-beludj yopinchoq'i, 4-Samarqand tojik kelinlarining turli yopinchorlari; 5-oddiy choponni yopinchoq sifatida kiyish; 6-yopinchoq peshvo yoki jegde;

Rossiyadan O'rta Osiyoga kiyimning yangi turi — "kamzol" (*kamzur*, *kamzul*, *pesmet*) kirib kela boshladi. Bu beliga sal yopishib turgan, kalta va tor o'tkazma yengli, qaytarma yoqali, yonlarida va ko'ragida cho'ntak qilingan ustki kiyim bo'lgan. Ko'pincha kamzollarni tovlanib turuvchi yo'l-yo'l beqasamdan yoki rangli duxoba, baxmal va boshqa matolardan tikilardi.



9.7-rasm.

a- chirpi-turkman bosh yopinchoq'i; b-paranji; v-ko'rta-bosh yopinchoq'i (o'zbek-qarluqlar); -paranjidan keyin Samarqand tojiklarining bosh yopinchoq'i.

Bu davrda kalta yengsiz kiyim "*nimcha*" (Toshkentda) va "*kamzur*" (Farg'ona vodiysida) paydo bo'lgandi. Uni kamzul ostidan yoki ko'ylak ustidan kiyishardi. Nimchani to'q, baxmal yoki duxobadan tikishardi, qizlarniki esa — qora satindan qilinib, etagida kashta tikilardi. Nimcha milliy kostyumning zarur qismlaridan biri bo'ldi.

Shaharlik va boy qishloq, ayollari paranjini kiyishardi. U katta va keng chopon bo'lgan, uzun va tor sohta yenglari "*sochvok*," orqaga tashlanib, uchlari bir-biri bilan biriktirilgandi. Paranjini ayolni jussasini boshidan tovonigacha berkitib turardi, yuzini to'g'ri to'rtburchakli ot qilidan to'qilgan "*chachvon*" ("*chimbat*") bilan berkitishardi. Chachvonning chegaralari qora mato bilan tikilardi, ba'zan u zanjir kashta bilan yoki mashinada tikilgan naqsh bilan bezatilardi. Chachvonga esa ko'z tegmaslik maqsadida rangli ko'zmunchoqlarni tikib kuyishardi.

Paranji tarixi uzun va murakkabdir. Paranji so'zi "faradji" so'zidan kelib chiqqan. Fors tilidan tarjima qilganda "faradji" so'zi ko'ylak ma'nosini bildiradi. Faradji Misrda paydo bo'lib, sharq mamlakatlariga tarqalgan. O'rta Osiyoda Shayboniy davrida (XVI asr) faradjini olimlar kiyishgan. Hindistonda va O'rta Osiyoda Temuriy va Bobur davrlarida faradjini olimlar, aslzodalar, davlat amaldorlari va ruhoniylar kiyishgan. Faradji so'zi ham erkak, ham ayollar kiyimini anglatardi. O'rta Osiyo paranjisining qadimgi timsoli bor. Feodal davrida vujudga kelgan bu kiyim yangi shakllar asosida o'zgarib turardi, ammo o'zining qadimgi negizini saqlab qolgandi. Shunday qilib, O'rta Osiyo ayollar paranjisi qadimgi faradjidan kelib chiqib, yopinchoq sifatida kiyilardi. XVI asrga kelib uzun va noqulay yenglari dekorativ detal bo'lib qoldi, XVIII asrda esa ular asosiy vazifasini yo'qotib, xaqiqiy yenglarga o'xshab bichilib va tikilib, orqasida biriktirilib uzun dekorativ tasmaga aylandi.

Feodalizm so'nggi davrlarida paranjining qo'llanishi o'zgardi: u ayolni begona ko'zdan berkitishi shart edi.

Chachvon, *chimbat* (*chashm band* — ko'z uchun bog'ich)ning paydo bo'lishi dastlab paranji bilan bog'liq bo'lmagan. Yuzni berkitish Sharqda XV asrda belgilangan. Ammo bu odat azaldan mavjud bo'lgan va u qadimiy mo'g'ul odatlaridan kelib chiqqan.

XIX—XX asrning boshlarida chachvonlarni tayyorlash bilan kp'chmanchi lo'lilar shug'ullanar edi. Qarluq o'zbek ayollari Surxondaryo viloyati o'zbeklarining jelagiga o'xshash kalta chopon "*ko'rta*"ni boshga tashlab yurishgan, Xorazm o'zbeklari va qoraqalpoqlarning "*jegede*" sini va turkmanlarning "*chirpi*" va "*eleg*"ini kiyishgan. Yoqalari kashta bilan bezatilib, kalta yenglarining uchlari jiyak bilan tikilib chiqilardi. Kurtani qizil va pushti rangdagi ip gazmoldan qilishardi.

O'zbek ayollari kiyimini tashkil etuvchi kiyimlardan biri bosh kiyimdir. Eng an'anaviy bosh kiyim — kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchak ro'mol edi, uni turli usullarda o'rash mumkin edi. Buxoroda katta uchburchak ro'mol — "rido", Farg'onada — "qalag'ay", Xorazmda — shoyi "ro'mol" o'rashgan.



9.8-rasm. Kimxob nimcha, oyoq kiyimlar, maxsi, nimetik. XX asr boshi. Toshkent-Farg'ona.

Ro'mollar asosan chetdan olib kelingan (Xindiston, Afg'oniston va Rossiya). Boy ayollar tantana paytda kumush yoki oltin zar iplar bilan to'qilgan ro'mollarni o'rashardi. Kundalikda ayollar boshiga oq doka, ba'zan kashtalangan ro'molni o'rashgan.

Yoshlar do'ppi kiyishardi. Qadimda ayollar do'ppilar o'rniga qalpoqlar kiyib, ularning ustidan ro'mollarni yoki sallani o'rab yurishgan. Ayollar qalpog'i — "kulta", "kyichig"ni boshga yopishib turadigan baland, yumshoq gardishi bilan tikilardi. Qalpoqlarning eng cho'qqisida dumaloq teshik qoldirilardi va undan o'rilgan sochlarini chiqarib qo'yar edilar. Xon saroy ayollari va boy oilalarda asosan zardo'zi "kalta po'shak" kiyishgan.

XX asr boshlarida kashta qilingan do'ppilar tarqala boshladi. Qadimiy salla asosiy bosh kiyim bo'lgan. XIX asrning o'rtasidan boshlab Samarqandda, XIX asr oxirgi choragidan boshlab Toshkent va Andijon viloyatlarida ayollar sallani kiymaydigan bo'ldi. Aksariyat, ayollar sallani maxsus bosh kiyim "lachak"ni ustidan kiyishgan. Lachak yuzga yopishib turib, ko'krakni berkitardi. Lachak qozoq va qoraqalpoq ayollarining bosh kiyimi "kimeshek"ka o'xshaydi. Asosan, lachak ip gazlama "karbas"dan tikilardi. Janubiy Xorazmda lachakni kiyishmasdi, sallani o'raganda bir o'ramini ko'kragiga tushirib, engagini va yuzini o'rashardi.

Buxoro atrofidagi va Amudaryo quyi qarluq ayollari "qopodon", "kasava" va "shoxboshi" bosh kiyimlarni kiyishgan.

O'rta Osiyo ayollari taqinchoqlarining turlari xilma-xil bo'lgan. Toshkent, Buxoro va Farg'ona vodiysida peshonaga kiyiladigan "tillaqoshlar", Xorazmda — "osmado'zi", Buxoro, Samarqand va Toshkentda — "tilla bargak." bo'lgan. Boshqa ayollar taqinchoqlari ham xilma-xil edi: uzuklar, bilaguzuklar, sirg'alar, buloqilar va holbindilar; ko'krak bezaklari — zebigardon, nozigardon, bo'yin tumor, qo'ltiq tumor, sinsila, xapaband, topish va boshqalar; bo'yin bezaklari — tuf, sochpopuk va boshqalar keng tarqalgan. Bezaklar turlicha materiallardan har xil usulda yasalardi.

Ayollar oyoq, kiyimlari turli bo'lgan. Shahar va qishloqlarda, odatdagicha, maxsi kiyilardi. Maxsining qo'nji uzun bo'lib, unga ishton kirgizilardi. Maxsilar juda yumshoq, yengil va O'rta Osiyo sharoitiga qulay bo'lgan.

Maxsini ustidan kavush kiyilardi. Ular charmdan qilinardi. Boylar, odatda, iroqi usulida kashtalangan maxsi va kavushni kiyishardi. Qishda O'zbekistonda yog'ochdan yasalgan boshmoq "xakkar kavush" va yog'och kavush kiyishgan.

Erkaklar kostyumi. Barcha yoshdagi erkaklar kiyimi tunikasimon bo'lgan. Bu erkaklar kiyimining qadimiyligini ifodalaydi. Erkaklar kiyimi ichki va ustki, bel va yelka kiyimlardan iborat.

Qadimdan erkaklarning ichki ko'ylagining uzunligi tizzagacha bo'lgan, keyinroq uni bo'ksasigacha qisqartirishdi. Ko'ylakning yoqasi ikki xil bo'lgan. Farg'ona vodiysida yoqani to'g'ri to'rtburchak shaklda matoning diagonali bo'yicha qirqib, keng tomonlarini biriktirib vertikal yoqa o'miziga tikishgan. Ko'ylakning ikkinchi turida esa, yoqa o'mizi gorizontal qilinardi. Farg'ona vodiysida va Toshkentda uni "mullavachcha" deb atashardi. Yoqa o'mizining chekkasi jiyak bilan tikib chiqilardi. Ko'ndalang yoqali ko'ylakni Zarafshon, Qashkadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Xorazmda ham kiyishgan.

Farg'ona va Toshkent viloyatlarida ichki ko'ylak "yaktak" keng tarqalgandi. Uni ip matolardan (chit, bo'z) tikishardi. Yaxtakni yoshlar va keksalar kiyishgan. Bu yengil va qulay ko'ylakning oldi ochiq bo'lib, uzunligi tizzagacha yoki uzunroq edi. Yoqasi zich choklar bilan qavilardi, ko'kragida bitta tugma va izmaga tugmalanardi.

Ichki bel kiyimi "ishton" keng bo'lgan. Uzunligi to'piqqacha bo'lib, ishtonbog' bilan mahkamlanardi. Ishtonni ip gazlamadan tikishgan. Sovuq paytda jun yoki qalin ip gazmoldan tikilgan astarli yoki astarsiz "shimni" kiyishardi; chavandozlar namatdan qilingan, ovchilar — mo'yna yoki jundan qilingan astarsiz "shalvar" kiyishardi. Bu shalvarlar O'rta Osiyo erkaklarining qadimiy kiyimi bo'lgan.

Erkaklarning ustki kiyimi turli choponlar edi. Uni ko'ylak ustidan kiyishgan. Choponlarning tunikasimon bichimi ikki turli bo'lgan.

Choponning birinchi turi yaxlit mato parchasidan bichilardi; to'g'ri yoki sal toraygan yenglari gavda qismiga, qo'ltig'iga xishtak (lastovista), yonlariga qiyiq tomoni bilan uloqlar tikilardi. Choponning ikkinchi turida gavda qismi ikki bo'lak matodan qilinardi.

Choponlarning ikki yonidan kesimlar qilingandi. Yoqasi, etagi va yengining uchiga tasma yoki jiyak, ko'kragida ikkita bog'ich tikilardi. Choponlar astarsiz, astarli va paxtali qilinardi.

Farg'ona vodiysida, Toshkent va Xorazmda qavilgan choponlar gavdaga yopishib turardi. Ularni qatorida Farg'ona vodiysida astarsiz chopon "avrato'n"ni qavilgan chopon ustidan kiyishardi.

Zarchoponlarni asosan amirlar kiyishgan. Qishda badavlat erkaklar qavilgan chopon ustidan "chakmon", "kebanak", mo'ynali "po'stin"ni kiyishardi. Chakmonning bichimi choponga nisbatan kengroq, va erkinroq bo'lgan, yoqasi esa orqada tik bo'lib, oldida torayar edi. Chakmon qo'y yoki tuya junidan qo'lda to'qilgan matodan qilinardi. Chorvachilik bilan shug'ullangan o'zbeklar jun matodan qilingan chopon "kebanak" kiyishgan. O'rta va katta yoshli erkaklar qishda qo'y terisidan qilingan po'stin kiyishgan. Choponlar va po'stinlar ikki bortli bo'lib, chapdan o'ngga o'ralardi va belbog'siz kiyilardi. Ularni chegaralariga mo'yna tikilardi.

Belbog'lar (belqars, chorsi, qiyiqcha) mahalliy matodan kvadrat shaklida qilinib, kashtalanardi. Badavlat odamlar va mansabdorlar duxobadan qilingan zar uqali yoki iroqi usulda kashtalangan keng kamarni taqishgan. Kamarlarga sirlangan, qora kumush bilan ishlov berilgan yoki tagishton (qadama naqsh) qilingan katta to'qaga qadalardi.

Qishda kiyimni ip yoki ipakdan qilingan (uzunligi 11m gacha) "o'rama belbog'" bilan bog'lashardi.

XIX asr o'rtalaridan boshlab Rossiyadan kelgan "kamzol"ni shaharliklar kiyishgan. Bu oldi berk tugmalangan, tik yoqali, orqasida kesimi yo'q, syurtuksimon kiyim bo'lgan. Uni ko'ylak ustidan kiyishar edi. Qishda esa uning ustidan chopon kiyishardi.

XIX asrda eng keng tarqalgan bosh kiyim do'ppi (qalpoq, kallapush va boshqalar) bo'lgan. U gazmoldan tikilib, odatda, ipak yoki kumush va zar iplar bilan kashtalanardi. Oldin, do'ppining shakli salla o'rashga qulay bo'lishi uchun, cho'qqili qilinardi, gardishi esa keng bo'lgan.

XX asrda kvadrat yoki yumalok tepali do'ppilar paydo bo'ldi. Farg'ona vodiysida va Toshkentda "bodom" va "qalampir" naqshli (chust do'ppisiga



9.9-rasm.Surxondaryo do'ppilari. XIX-XX asrlar

o'xshash), Qashqadaryoda tutash iroqi kashta qilingan "gilamdo'ppi", Surxondaryoda "piltado'zi" do'ppilarni kiyishgan.

Kashta qilingan do'ppilar qatorida Toshkentda duxobadan tikilgan kashtasiz do'ppilar keng tarqalgandi.

Do'ppining yana bir turi — "shobpush" — ip gazmoldan qilinib, mashina yoki qo'lda qavilardi. Uni qishda bosh kiyim ostidan yoki kechasi yotganda kiyishardi.

Ruhoniylar va ayrim aslzodalar, keksalar uch yoki to'rt qirrali mato parchalaridan tikilgan baland yumaloq bosh kiyim "*kulox*"ni kiyishgan.

Farg'ona vodiysi qishloq aholisi namatdan qilingan kigiz qalpoh'ini, qishda esa qozoqlarnikiga o'xshash mo'ynadan "tumoq" kiyishgan.

Xorazmda uzun mo'ynali qo'y terisidan qilingan katta yumaloq yassi bosh kiyim "chugurma"ni kiyishgan.

Qishda do'ppining ustidan mo'ynadan qilingan, astarli yumaloq bosh kiyim — "telpak" kiyishgan. Buxoro voxasida mo'ynadan konussimon shaklli bosh kiyim kiyishgan. Uning tepasi qorako'ldan, chekkasi — qunduz mo'ynasidan va ichi — qo'y mo'ynasidan qilinardi. Farg'ona vodiysida va Toshkentda qalpoqlar duhobadan tikilib, chekkasi tulki, suvsar yoki barra mo'ynasidan qilinardi.

Sallani ip, nimjun yoki dokadan qilishardi. Aholining har bir ijtimoiy tabaqasi uchun sallani o'rash usuli bo'lgan, Buxoroda esa, sallani o'raydigan maxsus mutaxassislar bo'lgan.

Ishlagan paytda va uyda boshni salla o'rniga chorsi yoki mato parchasi bilan bog'lashardi. XX asrga qadar sallani o'spirinlar ham kiyishgandi. Keksalar sallasi — oq, o'rta yoshlarniki — kul rang, yoshlarniki — rang-barang bo'lgan.

Erkaklarning asosiy oyoq kiyimi maxsi, kavush bo'lgan. "Amrikon" (Amerikadan kelgan) charmdan qilingan oyoq kiyimlari qimmatbaho edi. Maxsi va kavushlar qalin charmdan qilinardi. Yozda kavushning o'zini kiyishardi.

Ulardan tashqari, erkaklar baland qo'njli va poshnali etik kiyishgan.

Qishloqda oyoq kiyimlar oddiyroq bo'lgan: etik, "chorik," (qo'ng'siz oyoq kiyim), kalta etik "mo'kki" (poshnasiz, yumshoq va qattiq teridan tikilgan) yoki "tovuldiriq," (yog'ochdan qilingan uch oyoqli), dalada ishlaganda "xom kavush" (mol yoki ot xom terisidan ishlangan) kiyishgan.



9.10-rasm.Kalit-bog'i-ko'krak va belga taqiladi, bodom-oy peshonaga taqiladi. Xorazm XIX asr.



Tayanch iboralar:

individualizm, "cho'girma", "tumok", "shobpush", "lachak",
kimeshek", "karbas", "kopodon", "qasava", "shoxboshi"
"tillakoshlar", "osmado'zi", "tilla bar gak."



Topshiriq savollari


1. O'zbek xotin - qizlar kiyimlari.
2. O'zbekcha kiyimni turli viloyatlardagi ko'rinishlari.
3. Buxorocha milliy kiyimlari.
4. Erkaklar kiyimlari.
5. Oliy tabaqadagilar kiyimlari.
6. Bolalar kiyimlari.

Bobil Ossuriya kostyumlari



qismida

Qadimgi Mesopetamiyada eramizdan avvalgi III ming yillikning o'rtalariga kelib, birinchi davlatlar vujudga kela boshladi. Uning janubiy



10. 1-rasm. Babil-Ossuriya

markazlashgan qadimiy Babil davlati vujudga keldi. Babil davlatinig janubiy qismida “**Shumer**”lar, shimoliy qismida “**Akkad**”lar yashar edilar. Mesopotamiyaning shimoliy qirlik, tog’lik joylarida Ossuriya davlati vujudga keldi. **Semiramida osma bog’lari**. Miloddan avvalgi IX asr oxirlarida Ossuriya podshosi

Navuxodonosor Babil shahrida tarixda «**Semiramida osma bog’lari**» nomi bilan kirgan bog’ni bunyod etgan. U bu bog’ni

xotini Midiya malikasi Semiramidaga atab qurdirgan. Bog’ to’rt qavatli saroy shaklida barpo etilgan. «**Osma bog’**» supaga o’xshash qilib qurilgan. Bu supalarni ustunlar ko’tarib turgan. Supalar ustiga tuproqlar tashlanib, unga rang-barang gullar, har xil ko’chatlar o’tqazilgan. Har bir qavatdagi bog’ga zinapoyalar orqali chiqilgan. Bu bog’larga suv quyush uchun qullar pastdan yuqoriga suv tashiganlar.

Qadimgi Bobilda hokimyatni podshoh boshqargan. Mamlakat aholisi ozod, teng huquqli kishilar va qullardan iborat bo’lgan.

Ossuriya Bobildan farqli o’laroq kambag’al davlat edi. Ular uchun asosiy kiyim bu,-teri va jundan tayyorlanar edi.

Babil shoxi Gudeaning kiyimi o’ng yelkasi ochiq, chap yelkasi yopilib turuvchi uzun plashchdan iborat edi.

Babil – Ossuriyaliklar o’zlarining gilamlari, tikgan kashtalari, qimmatbaho metallardan yasagan taqinchoqlari bilan shuhrat qozonganlar. Qadimgi Ossuriyaliklar paxta, qimmatbaho junlardan, zig’irdan matolar to’qiganlar.

Babil—Ossuriya madaniyati yodgorliklari — yozuvi hashamdor edi. Odamlarning ijtimoiy holi kiyimda yaqqol ifodalanardi.

Ossuriya—Bobilda matolar juda qimmat turgan. Mashhur kashtachilar — sidon cho’rilari — matoni kashtalardi. Ular chiroyli ranglar ijod qila olganlar. Matoni bo’yash kasbi juda rivojlangandi. Ayniqsa, qirmizi, to’q noformon ranglarni juda qadrlaganlar. Ularning qizil, zangori, sariq, ko’k va jigar ranglari aynimasdi; qirmizi rang bo’yoqni tayyorlash va gazmolni unga bo’yash usullari sir saqlanardi. Bunaqa matolar juda qimmat turgan, uni faqat amaldorlarga kiyishi mumkin edi.

Aslzodalarning kiyimi qimmatbaho metallardan yasalgan taqinchoqlar bilan bezatilardi. Turli ma'noli ramzni ifodalaydigan ziraklar, bilaguzuklar, uzuklar og'ir va oddiy shaklli bo'lsa ham, chiroyli, naqshli qilinardi. Ularda qadimiyliklari uchun muqaddas timsol tasviriga aylangan koinot elementlari — quyosh, oy, yulduzlar — tasvirlangandi.

.. **Shoxlar kostyumi.** . Bir yo'la bir kiyimdan ortiq faqat podshoh kiyishi



mumkin edi. Hashamdor bezatilgan kandan tashqari podshoh plashch "**konas**" kiyardi. Kandi va konas geometrik naqshli kashta bilan bezatilardi. Unga o'yma naqshli oltin plastinani kiritishardi. Konas va kandini chegarasiga tikilgan popuk maxsus ingichka tolali jundan qilinardi va to'q-

10.2-rasm. Shoxning tiarasi va soch turmagi.

qizil (qirmizi) rangga bo'yalardi. Shohning kandisi yuqori sifatli oq jun matodan qilinardi, plashch konas esa qirmizi rangga bo'yalardi. Oltin plastinkalar va kashtalar yordamida shoh kostyumi yorqin taassurot qoldirardi. Tarixning barcha davrlarida shohning saltanat ramzi — bosh kiyimi tiara "**kidaris**" bo'lgan. U namatdan qilingan tepasi tor, metall plastinka bilan bezatilgan qalpoq, sir va qimmatbaho tosh bilan bezatilgan oltin toj — bog'ich "**fanons**" edi. Fanonsning uchi popukli bo'lib ensadan bog'lanib, orqaga tushardi. Shohning qo'lida tirsagidan yuqori spiral bilaguzuklar, bilagida esa ossur xudosi tasvirlangan bilaguzuk taqilardi. Kamon tortib turgan qanotli xudo Ossur tasviri — quyosh ramzi — doirada tasvirlangandi. Shohlarning oyoq kiyimi — shippaklar — kiyimiga nisbatan oddiyroq edi.

Podshohga yaqinlarning xizmatkorlardan farq qiladigan belgisi — kandini bezatadigan popuk uzunligi va eni edi. Popukning eni qanchalik kengroq bo'lsa va kiyimda uning miqdori ko'proq bo'lsa, tabaqa oliy hisoblanardi. Popukning bir bo'lagini kiyimga tikmasdan tanani aylantirib, turli usulda o'rashardi. Oltin peshona bog'ich ham aslzodalarning farq belgisi bo'lgan. U popukli uzun tasma bilan yakunlanardi.

Erkaklar kostyumi. Aholi bo'ksasida belbog' bog'langan kalta ko'ylak kiyishardi. Kiyimning bahosi va baravar kiyilgan kiyim soni qat'iy belgilangandi. Bir yo'la bir kiyimdan ortiq faqat podshoh kiyishi mumkin edi. Oddiy xalq, cho'ponlar birgina kalta "**kandi**"ni kiyishar edi. Uzun kandini "**kandi**" ustidan yopinchoqni, faqat podshoh, kohin, podshohga yaqinlar va yirik amaldorlar kiyishi

mumkin edi.

Ayollar kostyumi. Ayollar kiyimi erkaklarnikidan farq qilmas edi. Ular uzun to'g'ri, yenglari ham uzun ko'ylaklar, shu bilan birga kichkinagina shapkachalar ham kiyganlar. Amaldorlarning ayollari yorqin bezaklar bilan bezatilgan uzun, qirmizi rangli popukli ko'ylak kiyganlar. Popuklar qancha uzun bo'lsa, jamiyatdagi mavqelari shuncha baland ekanligidan dalolat bergan. Quloqlariga halqalar, bilakuzuklar, boshlarida ham qimmatbaho bezaklar taqishgan.

Yozuv yodgorliklarning ma'lumoti bo'yicha, Ossuriya-Bobilda ayollarning ahvoli juda og'ir bo'lgan. Ular umuman huquqsiz bo'lib, umrbod otasiga, eriga, o'g'liga yoki erkak qarindoshlariga qaram bo'lgan. Shuning uchun, san'atda ayollarning tasviri deyarli bo'lmagan. Tasviriy yodgorliklarning birida shoh Ashurbanipalning xotini bilan shiyponchada, ziyofatda o'tirgani tasvirlangan. Tasvirda shohning xotini va uning xizmatkorlari uzun ko'ylak va ustidan yopinchoq kiyishgan, ularning bichimi va shakli erkaklar kiyimidan farqlanmasdi. Ular ham sernaqsh va serbezak qilib bezatilgandi.

Oyoq kiyimlari. Qattiq charmdan orqasi yopiq shippaklar kiyganlar. Orqa tomonidan maxkamlangan tasmalari oyoqni maxkamlab turgan. Shox va amaldorlar orqali shippaklarda yurishgan. Kiyimlarda qo'llangan asosiy mato — jun gazmol bo'lgan. Ossuriya—Bobilda matolar juda qimmat turgan. Mashhur kashtachilar — sidon cho'rilar — matoni kashtalardi. Matoni bo'yash kasbi juda rivojlangandi. Ularning qizil, zangori, sariq, ko'k va jigar ranglari aynimasdi; qirmizi rang bo'yoqni tayyorlash va gazmolni unga bo'yash usullari sir saqlanardi.

Aslzodalarning kiyimi qimmatbaho metallardan yasalgan taqinchoqlar bilan bezatilardi. Turli ma'noli ramzni ifodalaydigan ziraklar, bilaguzuklar, uzuklar og'ir va oddiy shaklli bo'lsa ham, chiroyli, naqshli qilinardi. Ularda qadimiyligi uchun muqaddas timsol tasviriga aylangan koinot elementlari — quyosh, oy, yulduzlar — tasvirlangandi.

Saqlanib qolgan san'at yodgorliklariga binoan, Ossuriya—Bobilda kiyilgan kiyimlar asrlar davomida kam o'zgargan va sharq xalqlari kiyimining asosi bo'lgan.

Askarlar kostyumi.


Ossur davlatining armiyasi piyoda, ot arava va otliqlardan tashkil topgan edi. Piyoda askarlarning kiyimlari charm ko'ylak ustidan o'q o'tqazmaydigan qobiq kabi metall plitalar bilan qoplangan teridan qilingan ko'ylak kiyib yurishgan. Ular butun tanani va qo'llarini yopib, beligacha tushar edi. Bundan tashqari, askarlar teri bilan qoplangan, metall plitalar bilan qoplangan shim kiyib, oyog'ini mahkam yopib yurar edi. Jangchilar nimetikda edilar. Bunday poyabzalda uzoq muddatli yurish qulay edi.



10.3-rasm. Bobil-Ossuriya podshoxi va ayonlari, harbiylari kostyumlari



a



b



v

10.4-rasm. Shox(a), xotini(b) va qizi popuklik kostyumlarda

.Shox Senaheribni huzurida askarlar ishton va tizzagacha keladigan ko'ylakni kiyganlar. Yuqori qo'mondonlar keyinchalik metall plitalar bilan qoplangan teri qoplamali kiyimlarni kiyadigan bo'ldilar. Oddiy jangchilarning tanasi qalqon bilan himoyalangan edi. Boshlarini dubulg'alar bilan himoya qilar edilar.



10.5-rasm. Babil –Ossuriya jangchilari



Tayanch iboralar

"konas", kidaris, "fanons", popuk

Topshiriq savollari




1. Babil-Ossuriya podshohlari qanday kostyumda bo'lgan?
2. Babil-Ossuriya erkaklari kostyumlari nomlari qanday bo'lgan ?
3. Babil-Ossuriya ayollari kostyumlari nomlari qanday bo'lgan ?
4. Babil-Ossuriya jangchilari qanday kiyingan ?
5. Babil-Ossuriya ayollari sir saqlagan rang turi.

Fors kostyumlari



Qadimiy Erondagi qabilalar alohida yashashar va boshqa mamlakatlarga nisbatan jahon tarixi doirasiga kechroq kirgandi. Faqat miloddan avvalgi VII asr o'rtasida Qadimiy Fors kuchli, harbiy texnika bilan qurollangan armiyaga ega yirik quldor mamlakatga aylandi. Ammo

uzoqqa cho'zilgan yunon-fors urushlaridan keyin miloddan avvalgi V asrda u barcha yutuqlaridan ayrilib, Osiyo viloyatiga aylangandi. Qadimiy Fors madaniyati va, ayniqsa, tasviriy san'ati bosib olgan xalqlar madaniyatlari ta'sirida yaratilgandi. Perespol va Suzadagi saroylar eng yirik san'at yodgorliklari edi. Ularning rangli devoriy tasvirlari forsliklarning tashqi ko'rinishi va kiyimi to'g'risida ma'lumot beradi.



11.1-asm. Qadimiy Fors



Erkaklar kostyumi. Asosiy aholining kiyimi eron avlodlari — tog'li cho'pon qabilalari — turmush tarzini aks ettiradi. Ularning kiyimi kalta, gavadga yopishib turgan "**kaftan**" (7.2-rasm)(fors, yelka kiyimi), charm ishton "**anaksarides**"(7.2-rasm) va uchli cho'qqili charm qalpoqdan iborat edi. Yunon tarixchisi Gerodot davrida (miloddan avvalgi V asr) bu kiyimlar dag'al jun matodan qilinardi, bosh kiyimi esa frigiya qalpog'iga o'xshash edi. Shunday kiyimlar iqlim va chorvadorlarning turmush sharoitiga juda mos edi.

Fors lashkarlari va aslzodalari kiyimi boshqacha bo'lgan. Tasvirlarga binoan, ular kuchli, jismoniy yaxshi tuzilgan, qorachadan kelgan, qora sochli, kelishgan yuzli odamlar edi. Ular erkin, uzun, keng yengli kaftanni kiyishardi. Kaftan keng belbog' bilan bog'lanardi.

Bosh kiyimlari har xil bo'lib, shaxsning ijtimoiy holini ko'rsatardi.

7.2-rasm. Kaftan va anaksarides Sinfy farqlar qadimiy forsliklar kiyimida ossuriya-bobilliklarnikiga o'xshagandi. Oltin bilan kashtalangan bosh kiyimlar, oltin zanjirlar, kashtalangan boshmoqlar va boshqalar ijtimoiy ramzlar bo'lgandi.

Shohning kiyimi eng qimmatbaho bo'lgan. U keng qirmizi kaftan, qizil anaksarides va qalin taglikli hashamdor qilib bezatilgan boshmoqdan iborat edi. Ustki kiyimi plashch "**kandis**" edi. Unda shoh ramzi — kalxat va burgut — kashtalangandi. Bosh kiyimi "**mitra** ham shoh ramzi bo'lgan. U tepaga kengaygan trapeستيya shaklli bo'lib, qimmatbaho toshlar va oltin bilan bezatilgandi.

Forslar kiyimda zig'ir, jun va shoyi matolarni qo'llashgan.

Forslarning bezaklari oltin, kumush va qimmatbaho toshli bilaguzuklar, ziraklar va marjonlar edi.

Ayollar kostyumi erkaklarnikiga nisbatan uzunroq bo'lib, yupqaroq matolardan qilinardi. Kiyim deyarli gavgaga yopishib turardi. Old qismining ko'kragida kesim qilinib, tasmalar yordamida bog'lanadigan taqilma hosil qilingandi. Oliy zot ayollari, erkaklar singari, ustma-ust bir necha kiyim kiyishgan.

Forslarni arablar bosib olganidan so'ng fors kiyimida bir necha o'zgarishlar ro'y bergandi.

Erkaklar kostyumi orasida qadimiy arab ko'ylaklari, salla, kaftanlar va plashchlar keng tarqalgandi. Arab va turk kostyumlarining fors kostyumi bilan qo'shilganligi natijasida yangi kostyum vujudga kelgandi. Uzun, keng, beli bog'langan xalat va kesik konussimon shaklli bosh kiyim endi forslarning kiyimi bo'lib qoldi. Kiyimlarning yenglari yergacha osilgan uzun yoki kesimli edi. Kalta yenglarning orqa qismi juda uzun (yergacha) qilinib, keng bo'lardi.

XV asr oxirida tasviriy san'at yodgorliklarida fors kostyumi tasvirlangan edi. Bu davrda forslar bir necha keng ishton va oldi tugmalanadigan keng belbog' bilan bog'langan uzun kaftan kiyishardi. Boshga rangli bosh kiyimlarni (ko'pincha duxobadan) yoki salla kiyishardi. Ayollar kostyumi oq ip matoli ko'ylakdan, keng, rangli shalvar, uzun yengli ichki kaftandan, uchi qayrilgan uchli tuflidan, belbog'-sharfdan, vual va qalpoqchadan iborat edi. Ko'chaga chiqqanda fors ayoli kiyimining ustidan yopinchoq va plashch kiyardi.

Oyoq kiyimlari charmli boshmoqlar bo'lgan. shnurovkali tuflisimon edi. Ular charm yoki mato bo'lagidan qilinib, oyog'iga yopishib turardi va do'ngsamda tasma yordamida bog'lanardi. Ochiq oyoq kiyimi dag'al charmdan qilingan shippaklar edi. Etiklar an'anaviy poyafzal bo'lgan. Keyinroq rangli oyoq kiyimlar keng tarqalgan edi. Saroyda eng qadrlangan oyoq kiyimlar qizil va sariq rangli bo'lgan, aslzodalarda qirmizi rang eng qadrli edi.

Keyingi davrlarda tovonsiz tuflari — "**kavsh**" — ayollar orasida keng tarqaldi. Kavshlar odatda qora, qizil va, ko'pincha, yashil ranglarga bo'yalgan saxtiyon terisidan qilinardi. Patagining chetlari yashil rangli charm bilan tikilardi, tagligiga poshnaning joyiga naqshli temir nag'al qoqilardi.

Forsliklarning milliy kiyimi ishton — anaksarides va tor kaftan ossurliklarning kandisidan keyin birinchi bichilgan kiyim edi va keyingi davrlarning sharq kostyumlariga asos bo'lgandi.

Askarlar kostyumi: otliq askarlarning kiyimlari ham qimmatbaholigi bilan ajralib turgan, oq ostarli kaftanlari, ishton, naqshlar bilan bezatilgan plashlar kiyar edilar.

Oddiy askarlar bosh kiyimlari charm shapka bilan yoki frigiyaliklar shapkasini kiygan, shapka quloqlarini yopib iyagida mahkamlanar edi. Ularning kiyimlari oddiy charmdan edi, ba'zan charmni ranglab ko'ylak qilar edilar.

Forslarning bayrog'ida burgutning ramzi oltin bilan tasvirlagan edi. Bu Axmoyslarning ramzi edi.



11.3-rasm. Fors shoxi o'zining a'yonlari bilan.




11.4-rasm. Fors ayollari kostyumlari



Tayanch iboralar

Kandi, konas, mitra, anaksarides, kaftan



Topshiriq savollari

- 1.Fors shoxi ramzi nima bo'lgan?
- 2.Fors erkaklari kiyimlari nomi nima edi?
3. Fors ayollari kiyimlari nomi nima edi?
4. Fors lashkarlari qanday kiyimlar kiygan?
5. Forsliklar qanday oyoq kiyimlar kiygan?

Qadimgi Xitoy kostyumi




Xitoy madaniyati 4000 yil ilgari vujudga kelgan. Uning madaniyati Misr madaniyati bilan raqiblik qilishi mumkin. Agar Misr

madaniyatidan faqat yodgorliklar qolgan bo'lsa (ehromlar, ibodatxonalar va san'at asarlari), Xitoy madaniyatining vasiyatlari esa hozirgi zamongacha o'zgarmasdan qoldi (til, yozuv, musiqa va boshqalar).

Xitoyda feodal tuzumi miloddan avvalgi V—III (ayrim ma'lumotlar bo'yicha XI—VIII) asrlarda tashkil etilgandan to XIX asrning yarmigacha o'zgarmasdan qolgan

edi. Xitoy madaniyati rivojlanishida qo'shni mamlakatlar stivilizastiyasining ta'siri deyarli bo'lmagan edi. Xitoyning mayda viloyatlari Bogdixanning hukmdorligiga sig'inishardi. U o'zini Osmon o'g'li, mamlakatni esa — Dunyoviy (Djungo)deb hisoblardi.



12.1-rasm. Qadimiy Xitoy.

Xitoyda davlat xizmati, saroy qoidalari, hayot, kiyinish odati davlat tomonidan qat'iy qonunlashtirildi.

Xitoyliklarning dunyo qarashiga va tafakkuriga bir necha falsafiy oqimlar va dinlar ta'sir etgan. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikda mavjud bo'lgan falsafiy oqimlardan biri "daosizm" (dao stzya) edi. Uning asoschisi Lao-Szi bo'lgandi. Uning asosiy fikri — dao (yo'l) ta'limoti bo'lib, bu ta'limotga ko'ra Koinotning o'z-o'zidan vujudga kelishi, rivojlanishi va barbod bo'lishining azaliy, tabiiy va umumiy qonuni bor.

Konfustianlik (ju dzya) — etik-siyosiy ta'limot. Uning asosida ajdodlarni hurmat qilish turardi. Bu falsafiy oqim keyin dinga aylandi.

Keyin O'rta Osiyo orqali Xitoyga asosiy din bo'lib buddizm kirib keldi.

Qadimiy Xitoy falsafalari tabiatning qarama-qarshiligini (Yan — yorug'lik, In — qorong'ulik) kurashda emas, balki muvozanatda, osoyishtalikda, qo'shilishda tan olgan edi. Ularning tasavvurida dunyo tuzilishining asosida erkak — Yan va ayol — In omillarning ijodiy o'zaro aloqasi bo'lgan.

"I stzin" (o'zgarishlar kitobi) qadimiy xitoyliklarning dunyo tushunishida ma'no so'z bilan emas, ramziy ishoralar bilan ifodalanardi.

1. Dunyo tuzilishi dialektikasining grafik ramzlari:

---- uzluksiz chiziq erkak kuchi — Yanni aks ettiradi;

---- uzlukli chiziq ayol kuchi — Inni aks ettiradi.

Yan o'z mohiyatini birlikda, In — ko'plikda ko'rsatadi.

Barcha dunyo voqealari erkak va ayollar kuchlarining o'zaro aloqasi natijasida bo'lgani uchun, ularning hammasi oddiy belgili chiziqning birikmalari bilan ifodalanishi mumkin:

= = erkak kuchining mutlaqo hukmronligini barbod bo'lish chegarasida, ulug' Yan, Yoz;

= = ayollar kuchining mutlaqo hukmronligini barbod bo'lish chegarasida, ulug' In, Qish;

= = erkaklar kuchining o'sish ramzi, yosh Yan, Bahor;

= = ayollar kuchining o'sish ramzi, yosh In, Kuz.

Qorong'ulik va yorug'lik — bu bir-biriga intilayotgan kuchlar, ular bir-birining o'rniga keladi. Yer bilan Osmon ijodiy harakatda ko'shilganda, shu stikl avjiga yetgan deb hisoblanadi. Ayni shu voqea qadimiy Xitoyning belgi ramzlari va naqshlarning asosi bo'lgan. Shu sababdan bulut tasmalar, to'lqinli jingalaklar, momaqaldiroq spirallar, bulut va chaqmoqni tug'diradigan ajdaholar xitoy kostyumining bezagining doimiy elementlari bo'lgan. Ular qadim-qadim o'tmishdan o'rta asrlargacha yetib kelgan va hozirgi zamongacha saqlanib qolgan.

2.Geometrik shakllar ramzi.

Qadimiy xitoyliklar tasavvurida Osmon — doira shaklda, chunki u bir chiziq chegarasida berk, boshi va oxiri yo'q va Osmonning cheksizligini ifodalaydi.

Yer — kvadrat (4 tomon va 4 burchak), yerning chegarasi bor, shuning uchun kvadratning har tomoni burchak bilan yakunlanadi.

Ushbu shakllar yer va Osmonning fizik holatining tasviri emas, aksincha, ularning faqat geometrik ishoralari va kosmik omillarining mohiyati. Shu ikkita shakllar qo'shimchasi san'atda va kostyumda ko'p uchraydi.

3.Son ramzlari.

"**I stzin**"da Osmon va yer son ramzlari quyidagicha bo'lgan: Osmon — 1,3,5,7,9;

Yer — 2,4,6,8,10. Demak, o'nning mobaynida toq sonlar — Yanni, juft sonlar — Inni ramzi bo'lgan. Osmon sonlari beshta, yer sonlari ham beshta edi. Bu sonlar ko'shilishib Metall-"Szin", Daraxt-"My", Suv-"Shuy", Olov-"Xo" va Yer-"Tu"nya yaratadi. Demak, 5 tabiiy kuchning aylanishiga ikkita asosiy sabab bo'lgandi.

9 — Yan chiziqning nomi, 3 — Yan sonning ramzi, 6 — In chiziqning nomi, 1 — Osmon ramzi, chunki u bitta chiziq bilan ifodalanadi, 4 — Yer ramzi, chunki u 4 chiziq bilan (kvadrat) ifodalanadi.

Kostyumda shakl, son va ramz ishoralari keng qo'llangandi. Qo'shilgan doira va kvadrat shaklli (yer va osmon qo'shilganligini ifodalaydi) imperator bosh kiyimida 5 nefrit har xil rangli osilchoqlar qilingandi, ular 5 tabiiy kuchlarning

ramzi edi. Erkaklarning kiyimida tugmalar soni toq, ayollarnikida — juft qilinardi; 8 ajdahoning tasviri erkaklar xalatining oldida bo'lsa, 9-si esa orqasida qilinardi.

4. Rang ramzlari.

Geometrik shakl va sonlar "tiliga" nisbatan rang ishoralari odamning tuyg'usiga zo'r ta'sir etar edi. Ammo ular qarama-qarshi va murakkab bo'lgan. Misol uchun, agar Osmon-Yan — koinotning yorqin omili, Yer-In unga qarama-qarshi deb hisoblansa, u holda nima sababdan Osmon qora — binafsha yoki qora, Yer — sariqrang ramzi bilan ifodalanganligini tushunish qiyin.

Ikkita omilning o'zaro aloqasi bilan tug'ilgan 5 tabiiy kuch ramzlari:

Yashil rang — Bahor rangi, yosh o'simlik va yaproqlar rangi; tabiiy kuch Daraxt-Muni mohiyatini aks etuvchi rang; Bahor — yilning boshi; Sharq — kun chiqadigan joy, shuning uchun yashil, tug'ilish va yoshlikning ramzi; Yupiter sayyoraning ko'kimtir-yashil rangi;

Qizil rang — Yoz, Olov-Xo, Janub va Mars sayyorasining ramzlari;

Oq rang — Kuz ramzi, u paytda omborlar oq guruch bilan to'ladi; kuzga tabiiy kuch metall-Szin mos keladi (qayralgan bolta tig'ining rangi); bu g'arb — o'chgan, quyosh botadigan tomoni va o'lgan odamlarning ketadigan joyi (motam kiyimlari oq rangli qilinardi); Oy va Zuhra — Veneraning ("Taybo" — "buyuk oq" — metall yulduzi) nurlari;

Qora rang — Qish rangi, eng qorong'i davrni, zimiston saltanat — Shimol rangi, yorqin emas, Merkuriy rangi, tabiiy kuch Suv-Shuyni rangi.

Sariq rang — Yoz faslining oxirgi rangi, don ekinlarning yetilishi, hosil tug'diradigan tuproq rangi, tabiiy kuch Yer-Tuning ramzi, bu markaz ramzi, ya'ni Yerni; Saturn sayyorasining ramzi (dehqonchilik xudosi).

5. O'simliklar va tirik jonlarning ramzlari.


Xitoyda Osmon va Yerning antropomorfik tasvirlari yo'q. Odamlarni Osmon va Yer unchalik qiziqtirmasdan, balki ularning qo'shilishi — nikohi qiziqtirardi. Shundan xitoyliklarning tasavvuri kelib chiqqan: ajdaho — yomg'ir hukmdori, erkak mohiyati edi. Ajdahoning bulutlar orasida parvoz qilib yurgani yoki to'lqinlararo suzgani va shu vaqtda yelkasidan va bo'ksasidan alanga chiqib turgani tasvir etilardi. Suv — uning tashqi, Olov — ichki muhitining ramzi deb hisoblanardi. Shunday qilib, ajdaho ikki qarama-qarshi kuchlarni: Yer-Osmon va Olov-Suvning birligini ko'rsatardi.

Alangali dur — sharsimon chaqmoqni eslatadigan momaqaldiraq siymosi bo'lgan.

Ajdaho — kuyov ramzi bo'lgan; baqa va quyon — abadiy eleksir bilan bog'liq; ko'rshapalak — baxt, sog'liq, sahovat; xo'roz — quyoshga sig'inish bilan bolliq; bug'u — martabani oshirish ramzi; zog'ora baliq — muvaffaqiyat tilash ramzi;

anor — ko'p bola tilash ramzi; shaftoli — ko'p yil yashash istaklarining ramzi va boshqalar.

Qadimiy Xitoy kostyumining oddiy shaklining paydo bo'lishiga odamlarning xo'jalik ishlari, xom ashyo imkoniyatlari va iqlim sharoitlari sabab bo'lgandi.



12.2-rasm. Har xil tarixiy davrlarda imperator kostyumi .



12.3-rasm. a-Xitoy ayollari kostyumlari; b-Xitoy askarlari kostyumlari.

Tantanali va rasmiy kiyimlarning shakllari oddiy kiyimlardan o'zlashtirilgandi. Ular, bichimi bir xil bo'lgani holda, matosi, bezaklari va arziyas konstruktiv farqlari bilan ajralib turardi.

Xitoyliklar kiyimlari ichki va ustki, yelka va bel kiyimlaridan iborat edi.

Yelka kiyimi. Odatda xitoyliklar yelka kiyimlarining oldi ochiq bo'lgan. Ichki va ustki kiyimlarning bichim asosi bir xil bo'lgan. Konstruktiv xususiyatlari bo'yicha barcha kiyimlari ikki turga bo'linadi:

— birinchi turi — Sharqiy-Osiyo turi — tunikasimon bichilgan, old va orqa bo'laklarining uzunligi teng, yelkasida ikkiga buklangan ikki yon matodan tikilgan kiyim edi; matoning eniga qarab yengi ham bichilardi, yetmagan uzunligiga qo'shimcha mato bo'lagi tikilardi; Rim tunikasidan va yapon kimonosidan bu bichim stanni qo'ltig'i yumaloqlanganligi bilan, O'rta Osiyo kiyimlaridan orqasida o'rta choki borligi bilan farqlanardi ;

— odatdagi xitoy kiyimining ikkinchi turi ham oldi ochiq va orqa o'rta chokli bo'lgan, lekin ularda qiyalangan yelka choki qilinardi; shu sababdan ularning old va orqa bo'laklari alohida bichilardi .

— odatdagi xitoy kiyimining ikkinchi turi ham oldi ochiq va orqa o'rta chokli bo'lgan, lekin ularda qiyalangan yelka choki qilinardi; shu sababdan ularning old va orqa bo'laklari alohida bichilardi.

Ushbu ikki tur kiyimlarning simmetrik va asimmetrik bichimlari bo'lardi. Simmetrik bichimda old bo'laklari uchma-uch bo'lgan, asimmetrik bichimda esa, chap old qismiga qo'shimcha bo'lag ulanardi, o'ng bo'lagi ko'rinmasligi uchun kaltaroq, qilinardi.

Sharqiy - Osiyo bichim turidagi simmetrik kiyimlarga erkak va ayollarning ichki va ustki ko'ylaklari kiradi, asimmetrik kiyimlariga esa erkak va ayollar xalatlari va ichki ikki bortli koftalar kiradi.

Yelka chokli kiyimlarga nimchaning barcha turlari, yoni tikilmagan simmetrik bichimli erkaklar ichki kiyimi va ayollar ko'ragini siqib turadigan ichki ko'ylagi kiradi.

Birinchi tur kiyim bichilganda, yonining pasti sal kengaytiriladi, tor matolardan tikilgan xalat va koftalarning yoniga qo'shimcha qiyiqlar tikilardi. Stan bilan yaxlit bichilgan yengning asosiy bo'laklariga qo'shimcha bo'laklar tikiladi. Yengning pastki tomoni (chok bo'ladigan joyi) to'g'ri yenglarda gorizonta va uchiga qarab torayadiganlari qiya bichilardi. Yelka kiyimning barcha turlarida yoqa o'mizi aylana qirqilgan; oldi qirqilgan ikki qavatli tik yoqasi bo'lgan. Etagi esa dumaloqlangandi.

Barcha turli xitoy kiyimlarda farqlovchi xususiyatlaridan biri — ma'lum uzunlikda etagining yonlarida, oldida va orqasida yoki hamma tomonlarida kesimlari bo'lishi shart edi. Kesimlar bo'limlarning pastki tomonlarining tikilmaganligidan hosil bo'lardi.

Xitoy yelka kiyimining yana bir qiziqarli xususiyati — o'ziga xos tugmalash usuli. Odatda, asosiy gazmoldan eshib shnur qilinardi va undan sharsimon

tugmacha to'qilardi. Ba'zan, sharsimon metall yoki shisha tugmalar ham qo'llanardi. Shnurdan qilingan izmalar o'ng tomoniga tikilardi. Asimmetrik kiyimlarda tugmalar yoqasidan yon kesimgacha qilinardi. Odatda, erkaklar kiyimida tugmalar soni toq, ayollarniki — juft bo'lardi.

Bashang kiyimlarning bichimi kundaliklardan farqlanmasdi, lekin ularga qo'llangan matolarning sifati ancha yuqori edi. Ayollar kiyimi, ayniqsa yoshlarniki, ranglar yorqinligi, naqsh, rang-barang kashtalari va bezaklari bilan ajralib turardi. Boy ayollar koftalarining yoqa va chap old bo'lagi aylana kashtalangan hoshiya bilan, Kambag'allarniki — bir xil rangli tasma bilan bezatilardi.

Har xil yelka kiyimlar, bel kiyimi — ishton ayollar va erkaklar kiyimining asosi bo'lgan. Shunga e'tibor berish kerakki, yelka kiyimi hech qachon ishtonga tiqib kiyilmas edi.

Eng keng tarqalgan erkaklar ichki kiyimi — Sharqiy-Osiyo bichimidagi simmetrik "duy stzin" yoki asimmetrik "se stzin" ko'ylak"xan shan stza" bo'lgan. Issiq ob-havoda ko'ylakning o'zi ostki kiyim bo'lishi mumkin edi. Boshqa vaqtda uning ustidan to'q rangli, astarli, paxtada qavilgan yana bitta yoki bir nechta kiyim kiyishardi.

Keng tarqalgan erkaklarning ustki kiyimi Sharqiy- Osiyo bichimidagi uzun xalat "chan pao" edi . Hashamatli bezatilgan xalatlar aslzodalar va amaldorlar uchun rasmiy kostyumning majburiy elementi edi.

Ko'chada va xizmatga oid joylarda xalat ustidan old bo'laklarining uzunligi teng kalta yoki uzun kofta kiyishardi.

O'rta tabaqali aholi shunga o'xshagan, lekin bezatilmagan xalat va ustidan kofta yoki nimcha kiyishardi. Ko'pchilik oldida xalatsiz yurish beadablik va kambag'allik hisoblanardi. Kambag'al shaharliklar va dehqonlar xalatsiz yurishardi.

Ayollar ichki kiyimining erkaklarnikiga nisbatan farqi bor edi. Qadimiy Xitoy odatlari bo'yicha ayollar go'zalligining asosiy belgisi — yassi ko'krak hisoblanardi. Unga erishish uchun qizlar va ayollar ko'kragini uzun ip gazlamali tasma "bao syun tyao" bilan tarang siqib bog'lab qo'yishardi. Shu maqsadda ham tanani siqib turadigan ichki nimcha "kan stzyan, kan stzyar"ni kiyishardi. Faqat homilador va bola emizadigan ayollar ko'kraklarini bog'lama edilar.

Qadimiy Xitoyda ayollar ustki kiyimi Sharqiy-Osiyo usulida turli asimmetrik bichilgan kofta "pao" bo'lgan. Uni uzun ishton va yubka — plaxta ustidan kiyishardi. Kofta ustidan nimcha "bey sin" va tantanali marosimlarda etagi shokila bilan bezatilgan uzunroq nimcha "sya pey" kiyishardi. Boy ayollar koftalarining yoqasi va chap old bo'lagining etagini kashta va hoshiya bilan bezatishardi.

Kambag'al ayollar koftasi bezaksiz edi yoki bir rangli tasma bilan bezatilardi. Koftani ishton ustidan kiyishardi.

Ayollar xalati "sti pao" Sharqiy-Osiyoli, asimmetrik bichimli edi. Xalatning shakli to'g'ri yoki sal tanaga yopishib gavda shaklini ko'rsatar edi. Modaga asoslanib, ularni yengi to'g'ri, keng yoki tor, qiyalangan, uzun yoki kalta bo'lardi. Yozlik xalatlar yengsiz bo'lishi mumkin edi. Xalatlarning uzunligi tizzadan yoki to'piqqacha bo'lib, yon kesimli yoki kesimsiz bo'lardi. Chap old bo'lagining borti qiyalangan, dumaloqlangan va boshqa shakllarda bo'lishi mumkin edi. Xalatning ikki qavatli tik yoqasining eni urfga oid o'zgarardi (5.3-rasm a, 5.4-rasm).

Xalat "sti pao"ni koftadan asosiy farqi — uni uzun ishtonsiz kiyishardi.

Erkaklar yelka kiyimining ranglari ko'k, qora, oq, kul rang va jigar rang, ayollar kiyimlarining ranglari yorqinroq bo'lgan.

Erkaklar va ayollar bel kiyimlari ishton "kustza", yubka-plaxta "styunza" va peshband bo'lgan.



12.4-rasm. Har qaysi tarixiy davrlarda, yuqori tabaqa ayollarning kiyimlari.

Ustki va ichki ishtonlarning bichimi farqlanmasdi. Ishtonlar ikki yoki bir nechta mato bo'laklaridan bichilardi. Ikki poycha bo'laklariga keng og' va tepasiga oq to'g'ri to'rtburchak shaklli mato tikilardi. Tepasi juda keng ishtonlar bo'ksada to'q rangli ip matodan qilingan tasma yordamida mahkamlanardi. Ortiqcha kengligidan oldida taxlam qilinardi. Ayollar ishtoni og'ida o'rta chok qilinmas edi

(yovuz ruh kirmasin deb), erkaklarnikida esa o'rtacha chok qilinardi. Ishtonlar cho'ntaksiz bo'lardi.

Sovuq paytda, ba'zan bayram va tantana munosabati bilan ishton pochasi paypoq ustidan chiqarilib, maxsus qora tasma bilan bog'lab qo'yilardi.

Uch faslga mos ishtonlar bo'lgan: yozlik — astarsiz, oq, qora, ko'k, kul rang matodan; bahor-kuzlik — astarli, to'q rangli matodan; qishlik — paxtali, qavilgan qilinar edi.

Ishton-paypoq, "pgokau" Xitoyda paydo bo'lgan. Bu alohida, og'i biriktirilmagan, paypoqsimon poychalar edi. Ular bog'ich yordamida belboqqa mahkamlanardi. Hozirgi davrda "tokau"ni ishton ustidan kiyishadi.

Odatda, ishtonni kanop tola "bu, mabu" yoki shoyi va ip matodan tikishardi.

Sovuq faslda ishton ustidan paxta bilan qavilgan ishton tokau ham kiyiladi.

Ko'pincha xitoyliklar ishton poychasini tizza pastidan bog'lar edilar. Ba'zan uni gamash "bi" bilan tortib qo'yishardi yoki ustidan etiksimon paypoq, "va"ga kirgizishardi.

Yubka-plaxta "shan"ni o'rtacha va yuqori tabaqaning erkak va ayollari kiyishardi. Uning bichimi bir xil bo'lgan: ikki to'g'ri to'rtburchakli matoga belbog' tikilar edi (peshbandga o'xshash) va ular yordamida belga mahkamlanardi. Shanni yon tomoni plissirovka, o'rtasi orqa va old bo'laklarida kashta qilinardi.

Ayollar yonlari tikilgan, yonining tepasida uchburchak kesiklari qilingan yubka kiyishardi. Kesiklar orasidan ichiga kirgizilgan kofta ko'rinardi.



12.5-rasm. Xitoy ayollari zamonaviy – milliy liboslarilari.

Ko'pincha kofta va plaxta kiyishganda old belboqqa peshbandni qistirib qo'yishardi. Uni qurbonlik marosimlarda kiyish shart edi. Peshband odatda qizil rangli bo'lib, shaxsning ijtimoiy sharoitiga mos qilib bezaklanardi.

Kostyumning eng muhim bo'limlaridan biri belbog' "day" hisoblanardi. Aslzodalar va amaldorlarning boylik belgisi bo'lib, ular xilma-xil bo'lardi. Ularning ikki turi uchrardi:

- 1) matodan qilingan ikkita izma va uzun osilinib turgan uchi bilan belbog';
- 2) charmdan qilingan va nefrit, metall yoki shox plastinalar bilan bezatilgan belbog'-kamar.

Nefrit halqalar va boshqa bezaklar bilan to'kilgan rangli shnurlar — "shou" shaxsning ijtimoiy holini ko'rsatardi. Shouni beliga bog'lashardi, uchlari esa yonida yoki orqasida osilinib turardi. Unga ba'zan kerakli foydali buyumlarni osib qo'yishardi.



Nefritdan yasalgan osilchoqlar "peyyuy" ham kiyimning bezagi bo'lgan, ular ham odamning ijtimoiy ahvolini ko'rsatardi.

Bosh kiyim va pricheskalar. Qadim zamonlarda xitoyliklar sochlarini qirqmaganlar. Ular sochlarini tugunga yig'ib, shpilka yordamida mustahkamlab qo'yar edilar. Bosh kiyimlarning shakllari har xil bo'lgan. Ularning kiyish odatlari Yevropaliklarnikiga qarama-qarshi bo'lgan. Agar Yevropaliklar hurmat bilan bosh kiyimni echsa, xitoyliklar esa qaytaga uni kiyar edilar.

Ochiq havoda yoki binoda o'tkaziladigan

12.6-rasm. Xitoy bolalar liboslari (uchrashuvlar, audienstiyalar, banketlar va b.) bosh kiyimni kiyish shart edi.

Qadimiy Xitoyda bosh kiyimni echish lavozimdan ozod qilishni yoki aybiga iqror bo'lib kelishini bildirardi.

1644 yilda manjurlar bosib olgandan so'ng, xitoyliklarning tashqi ko'rinishi o'zgardi, chunki manjurlar erkaklarning peshona sochini qirqishga, orqasida qolgan sochini esa uzun qilib o'rishga majbur qildilar.

.Bosh kiyimlarning shakli 6 qirrali, 3 qirrali, dumaloq, soyabonli yoki soyabonsiz, konussimon va b. bo'lgandi.

marosimlarda



(12.7- rasm). Xitoy oyoq kiyimlari. A-poxol shippaklar, b-qavilgan matodan tuflilar.

Bosh kiyim voyaga yetganda kiyilardi.

Bosh kiyimda mahalliy va ijtimoiy belgilar bo'lardi. Nefritdan osilchoqlar qilingan bosh kiyim faqat tantanali marosimda kiyilardi.

Xitoy ayollari odatda bosh kiyimni deyarli kiyish- masdi, faqat tantanali marosimda, ayniqsa, to'yda murakkab bosh kiyim kiyilardi.

Bosh kiyimlar namatdan, mo'ynadan va to'qilgan poxoldan qilinardi

Oyoq kiyimlar. Matodan, kanop tolasidan yoki poxoldan to'qilgan yengil tufli "Szuy", keyinroq "li" deb atalgan oyoq, kiyim keng tarqalgan edi. Matodan to'qilgan tuflining boshligi "semyan" ko'pincha naqshli qilinardi. Qalin tagligi bir necha qavat yelimgan va tikilgan qog'ozdan ishlanardi. Charmdan qilingan tuflilar ham uchrab turardi.

Tantanali tufli "si" ikki qavat hoshiya bilan bezatilardi. Tovonining yon tomonlari yanchilgan chig'anoq toshdan qilingan bo'yoq bilan bezatilardi. Uchi esa, yelkansimon qo'shimcha bilan bezatilardi.

Yog'ingarchilikda yog'ochdan qilingan skameykasimon, tepasi yo'q shippak "stzi" kiyishardi. Matodan qilingan tasma yordamida stzi oyoqqa bog'lanib qo'yilardi.

Ko'chmanchilar ta'sirida Xitoyga charm etik "syue" kirib keldi, shular qatorida matodan qilingan etik ham bo'lgan.


Sin davrida saroyda uchi sal ko'tarilgan ipak yoki charm etik kiyishgan. Fuqaro amaldorlar kvadrat tumshuqli etik kiyishardi. Bu Osmon va Yerning jismoniy va intellektual kuchlarining qarama-qarshiligini ko'rsatardi.

Etik qo'nji — "syuetun" dan ko'pincha cho'ntak sifatida foydalanar edilar.



Tayanch ioralar

Metall-"Szin", Daraxt-"My", Suv-"Shuy", Olov-"Xo", Yer-"Tu"nya, Yan, — In, "peyyuy", "shou", "pgokau"



Topshiriq savollari


- 1.Chan pao qanaqa kiyim?
- 2.Xitoy ayollari kiyimlari nomi qanday bo'lgan?
- 3.Xitoyda "Ajdaho" kimga nisbatan aytiladi?
- 4.Xitoy erkaklari kiyimlari nomi qanday bo'gan?

YAPONIYA KOSTYUMLARI



Yponiyada juda qadim zamonlardayoq stivilizastiya paydo bo'lgan sharqiy Osiyodagi mamlakatlardan biri. VI asrdan boshlab Nara shahrida imperator hokimiyati va Xitoyga oid rivojlanish boshlangan

edi. VI—IX asrlar feodal Yaponiyaning yeng yuqori yutuqqa erishgan davri edi. XIX asrgacha (1868 y.) Yaponiya tashqi dunyodan ajralib turgan feodal mamlakat bo'lgan. Ammo Xitoy, Hindiston, Koreya va Indoneziya madaniyatlari bilan Yaponiya aloqa bog'lagan edi.



Yaponiya dinlari sintoizm ("sin"-xudo, "tao"-yo'l) va VI asrda Koreya orqali Xitoydan kelgan buddizm edi.

13.1-rasm. Qadimiy Yaponiya

"Yaponiya madaniyatining muhim, o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu madaniyat tabiiyotga oid, ya'ni tabiat namunalariga qarab tuzilgan va shu xususiyati bilan boshqa Osiyo mamlakatlaridan, ayniqsa, Xitoydan farqdanardi" (Syunkiti Akimoto. *Izuchaya yaponskiy obraz jizni*. M., 1961.). Tabiat bilan inoqlikda turish yaponlarga odat bo'lgan. Tabiat bilan uyg'unlikka intilish — yapon san'atining muhim xususiyati edi.

Yapon san'atining kuchi — bu uning haddan tashqari oddiyligi va samimiyligida bo'lib, materialning mohiyatini tushunish uchun mayda-chuydaga e'tibor berilmaganligidadir.

Yapon san'atining asosiy negizi shuki — barcha atrofdagi narsalar badiiy ta'sir ostiga olingan. Bu san'at — butun jontani bilan chambarchas bog'langan turmush san'ati.

Yaponlarda go'zallikni anglash uchun 4 tushuncha mavjud: 3 tushuncha (sabi, vabi, sibuy) tomiri bilan qadimiy din — sintoizm bilan asoslanadi, 4-si esa (yugen) buddizm falsafasi bilan bog'liq.

"Sabi"— yaponlar uchun go'zallik va tabiiylik bir- biriga aynan o'xshash tushunchadir. G'ayritabiiy narsalar go'zal bo'la olmaydi. Faqat maxsus sifatlarni qo'shib tabiiylik yaratish mumkin. Sabi — bu tabiiy zang, arxaik mukammal emaslik, eskilikning go'zalligi, vaqt tamg'asi. U tabiat va san'at orasidagi aloqani amalga oshiradigan vositadir.

"Vabi" — san'at va kundalik hayot orasidagi ko'prik. Vabi tushunchasini, yaponlar ta'kidlashi bo'yicha, so'z bilan tushuntirib berish qiyin. Uni sezish kerak. Vabi — bu bironta bejamdorlikni, yaqqollikni, jo'rttaga qilinganlikni, ya'ni yaponlar tushunchasida beodoblikning yo'qligi. Vabi — bu doimiy go'zallik, dono izchillik, tabiat go'zalligi, buyumlarning go'zalligi — mana shularning hammasi "vabi" tushunchasi bilan bog'liq.

"Sibuy" (sabi+vabi) tushunchasi yaponlarning buyum bilan ishlashiga bog'liq. Yapon ustasi buyumga hukmdor qulga emas, balki sevgan ayoliga, undan o'ziga o'xshagan bola bo'lishini xohlagan erkakka o'xshab yondoshadi. Yapon rassomi

materialni zo'rlamasdan uning mohiyatini, go'zalligini ko'rsata oladi. Yapon san'atining maqsadi — toshni, yog'ochni, qog'ozni va boshqa materiallarni shunday holatga yetkazishi kerakki, ular eng to'liq o'z tabiiy go'zalligini ochishi lozim bo'lsin.

San'at siri shundaki, yetilmaganni eshitish, ko'rinmaydiganni tomosha qilishdir. Bu to'rtinchi go'zallik tushunchasi "yugen"ning asosidir. Bu sha'mani, tagma'noni ustalik bilan amalga oshirish, oxirigacha aytmasdan, sha'ma bilan yakunlash ham o'ziga xos go'zallikdir. Yaponlar o'tkinchi go'zallik manbaini his qilishgan va uni tomosha qilishgan (sakuraning gullashini, vulqon Fudziyamaning tutunini, suvning oqishini va b.). Ifodali qilib ko'rsatish o'rniga sha'ma qilish — yaponlar prinsipi bo'lgan. Hayotni abadiy rivojlantirish va barkamollik biri-biriga to'g'ri kelmaydi deb hisoblashardi. Ayni shu sababdan ular simmetriyani inkor etadilar. "O'rog'lik xatda bo'sh joylar mo'yqalam bilan chizilgan joylariga nisbatan ko'proq ma'noga egadir" (Jiao Stzi).

Faqat bitta so'zdan yozilgan she'r — "xayku", bitta poetik siymodan iborat teatr — "noo" yugenni ifodalaydi. Tosh va qumdan yasalgan poema boyeu yugen tushunchasining eng muhim yutug'i deb hisoblasa bo'ladi.

Yaponlar shu sababdan buyumlarni uzoqqa chidamaydigan qilib yasashadi.

Yaponiya me'morchiligi uzoq vaqt Xitoyning ta'sirida bo'lgandi (ibodatxonalar, pagodalar va b.). Me'morchilik va peyzajning bir-biriga uyg'unlik bilan qo'shilishi — yapon qurilishining muhim, o'ziga xos xususiyati edi.

Keramika va chinni san'ati yuqori estetik yutuqqa erishgandi.

Haykallar yog'och va bronzadan qilinardi. Mayda plastika "nestke" XVII asrda keng tarqaldi. Bu yog'och yoki suyakdan yasalgan hunarmandlar, aktyorlar, afsonaviy qahramonlar yoki hayvonlarning haykalchalari edi. Nestke tamaki xaltani, qinni yoki kamarni tasma-siga taqilardi. Bu cho'ntaksiz milliy yapon kiyimining bir bo'limi edi.

Laklangan buyumlarni, chinni buyumlarni, metalloplastikani tayyorlash va ipak matoda kashta tikishda amaliy san'at yuqori yutuqqa erishgandi.

O'ziga xos qonun-qoidani, turmush tarzini falsafiy mulohaza etish, tabiatni lirik tasavvur qilish yapon rassomchiligining asosi bo'lgan. Tasviriy san'at asosan chiziqli bo'lgan.

Gazmollar Yaponiyada eng qadim zamondan ma'lum edi. Ular zig'ir, paxta va kanop o'simliklarni ekar edilar. VI asrda chet eldan kelgan qimmatbaho ipak matolardan aslzodalar uchun buyumlar qilinardi.

Yapon san'atini ajratadigan xususiyatlaridan biri bu gazmoldagi naqshni raportli emas, balki, rasmday yoki raporti yashirilgan qilinardi.

Yaponlar Osiyodagi matoni bo'yash texnikalariga taqlid qilib, bir necha gazmol bo'yash usullarini qo'llashgandi:

- gazmolga erkin rasm solish;
- o'yma andaza (trafaret) ishlatish;
- mumda tasvir qilish;
- batik;
- bosma usulda gul bosish;
- tugun, qisqich va tasma bilan bog'lab matoni bo'yash;
- gazmolga kashta tikish.

Naqshda asosan tabiiy manbalar tasvirlanardi.

Odamni tashqi dunyoning bir bo'lagi, deb his etish kostyum san'atida o'z nozik aksini topgandi.

Erkaklar kostyumi. Erkaklar kiyimi ichki va ustki, yelka va bel kiyimlardan iborat. Ular shaxsning ijtimoiy ahvolini yaqqol ko'rsatadi.

Ichki kiyim "sitagi" bel va yelka kiyimlaridan iborat.

Bel kiyimi "fundosi" va "kosimaki" bo'lgan. Fundosi — bu ip gazlamadan qilingan, songa bog'lanadigan bog'ich. Fundosining birinchi turining uzunligi taxminan 2,25 m oqmatodan qilinardi. Uning bir uchi beldan aylantirib bo'g'imga bog'lanardi, ikkinchisi esa oyoq orqasidan o'tkazilib, orqasida belda mahkamlanardi. Fundosining ikkinchi turi "ettyu fundosi" birinchisiga nisbatan kaltaroq bo'lib, belga maxsus bog'ich yordamida mahkamlanardi. Uni feodal Yaponiyada samuraylar va amaldorlar, keyinroq XIX asrda, aholining barcha tabaqalari kiyishardi.

Kosimakit uzunligi tizzagacha bo'lgan. Matoni bo'ksaga aylantirib o'rab, tasma bilan mahkamlashardi.

Yelka ich kiyimi "dzyuban" va "nagadzyuban" deb atalardi. Dzyuban (12.2-rasm) ip gazlamadan qilinardi, yengi esa oq yoki rangli ipakli matodan bo'lishi mumkin edi. Uning bichimi tunikasimon bo'lgan. Dzyuban ikki bo'lak matodan qilinib, orqasida o'rta chok tikilardi, yon choki yeng o'miziga va yon kesimiga joy qoldirib tikilardi; yoqa o'mizi ham qirqilardi; old etagi taxminan 3-4 sm toraytirilardi. Eni taxminan 12 sm mato yoqa o'miziga va oldiga tikilardi va yoqa "eri" va qaytarma old "okumi" hosil qilinardi. Olib qo'yiladigan yoqa "xan'eri" ham tikilardi. Yeng bichimi to'g'ri to'rtburchak shaklida edi. U ikki buklanib, yeng o'miziga tikilardi. Yengning eni yeng o'mizi uzunligi bilan baravar qilinardi. Dzyubanining orqasiga ichidan koketka (astar) tikilardi.

Ichki yelka kiyimining yana bir turi nagadzyuban edi. Dzyubanga nisbatan uning uzunligi boldirgacha bo'lib, yengining eni yeng o'mizidan kengroq qilinardi va ortiqcha eni yeng o'miziga tikilmas edi.

Erkaklar ustki kiyimi yelka va bel kiyimlaridan iborat edi. Yelka kiyimiga "kimono" va "xaori" kirardi, bel kiyimiga — "xakama".

"Kimono" (kiru mono — ustidan kiyiladigan) XVII— XIX asrlarda ustki kiyim sifatida keng

tarqalgandi. Kimono — xalatsimon, uzunligi to'piqqacha tushadigan, etagi chapdan o'ngga o'ralgan kiyim. Uni kiyganda ichki kiyim yoqalari "xan'eri" ko'rinishi kerak edi. Kimonoga eni 35sm, uzunligi taxminan 9m mato ketardi. Ortiqcha uzunligi yoki eni qirqilmasidan chokka tikilardi yoki qaytarilardi. Kimononing asosiy bichimi ichki kiyim bichimiga o'xshash edi. U ikki bo'lak, ikki yeng, ikki old qiyiq, ikki yoqa "okumi"dan iborat edi. Asosiy bo'laklar shakli to'g'ri to'rtburchak, qiyiq tepa tomoni qiya qirqilgan to'g'ri to'rtburchakdan iborat edi. Yeng o'mizining uzunligi yeng enidan torroq qilinardi. Yelka chizig'idan pastroq qiyik uzun tomoni bilan oldiga tikilardi. Yoqa o'miziga va qiyiqning qiya tomoniga yoqa tikilardi. Kimononing bichimi yeng va yeng o'mizining uzunligi, xan'erining bor yoki yo'qligi bilan farqlanardi. Faslga moslanib kimono har xil qilinardi: — "xiton" — yozlik, astarsiz;


"avase" — salqin mavsumga moslanib, astarli qilinardi;

— "kosode" — qishlik, astar va avra orasiga xom ashyo ipak tolasi solingan, ammo qavilmagan;

— "vata ire" — qishki, astar va avra orasiga paxta solinib qavilgan.

Sovuq paytda yaponlar ustma-ust bir necha paxtali kimono kiyishgan.

Kimono sidirg'a yoki yo'l-yo'l to'q rangli ipak matodan tikilardi.



13.2-rasm. Erkaklar va ayollar dzyubanning bichimi



13.3-rasm. Erkaklar kimonosi tashqi ko'rinishi va bichimi

Erkaklar kimonosi kashta qilingan beshta oq gerb "mon" bilan bezatilishi mumkin edi. Ulardan uchtasi orqasida va ikkitasi oldida bo'lardi.

Kimononing ustidan belbog' "obi" bog'lanardi. Ularning ikki turi bo'lgan: "xeko obi" — kundalik kiyimda va "kaku obi"— kishilik va tantanali kiyimda. Xeko obi yumshoq eshilgan matodan qilingan, ikki qayta bo'ksadan aylantirib, uchlarini pastga qaratib bog'lanardi. Kaku-obi to'q ko'k, jigar rang yoki kul rang yo'l-yo'l qalin ipak yoki ip gazlamadan qilinardi. U uch qayta bo'ksadan aylantirilib, uchlarini tepaga qaratib o'ng tomonida tugunga bog'lanardi.

Ulardan tashqari erkaklar kiyimida yana bir necha turli belbog'lar bo'lardi:

—ishqiy munosabatlarga kiyiladigan mayda gulli yupqa matodan eni tor (5-6sm) obi;



13.4-rasm. Erkaklar kimonosi

— sipo rangli, ayollarnikiga o'xshash matodan qilingan, eni 10sm, taxlangan holda o'ng bo'ksasida galstuksimon bog'langan obi;

— to'q rangli "chaynalgan" matodan qilingan, eni 10sm qalinlikda eshilgan, sharfsimon, orqada bantga bog'langan obi.

Bolalarning belbog'lari esa uchinchi turga o'xshash, lekin uning rangi yorqinroq bo'lib, yirik rasmlı edi.

Ustki kiyim "xaori" faqat kimononing ustidan yoki xakama bilan kiyilardi. Bu oldi ochiq xalatsimon, uzunligi kimonodan qisqaroq kiyim. Uning old bo'laklari uchma-uch bo'lib, ilgaklarga ilingan ikkita bog'ich yordamida biriktirilardi.

Odatda xaori astarli qilinardi, ammo qishliklari paxtali va yozliklari astarsiz bo'lishi ham mumkin edi.

Bayram va rasmiy tantanaga oid xaori qora ipakdan qilinib, oqmon bilan kashtalanar edi; kundaliklari esa to'q rangli yo'l-yo'l bo'lishi shart edi.

Xaorining bichimi ham tunikasimon bo'lib, quyidagi bo'limlardan iborat edi: stan, yon qiyiqlar (yon qiyiqlari bo'lmasligi ham mumkin edi), yeng va yoqa bo'lgan. Xaorining yeng o'mizining uzunligi yengini eniga teng. Uning silueti pastga qarab kengaygan yoki toraygan bo'lishi mumkin.

Erkaklar ustki bel kiyimi "xakama"ning tashqi ko'rinishi yubka-ishtonga o'xshaydi. U uzun va keng kiyim bo'lgan. Xakama besh asosiy bo'limlardan iborat: og'i bilan yaxlit bichilgan tepasining markaz bo'lagi, ikkita poychasi va ikkita belbog'. Old bo'laklarida pastga qarab kengaygan, dazmollangan, qarama-qarshi uchtadan taxlamalar qilingan; orqa bo'laklarida esa ustma-ust qilingan uchta qarama-qarshi, chuqur, diagonal yo'nalishda dazmollangan taxlamalar qilingan. Rasmiy xakama juda uzun va plissirovkalangan qilinadi. Old va orqa bo'laklariga alohida uzun bog'ich-belbog'lar tikilardi, yon choklarining tepa tomonida chuqur kesimlar qoldirilardi.

Xakama ip yoki ipak gazmoldan tikilardi va astarli yoki astarsiz bo'lishi mumkin edi.

Xakamaning ijtimoiy farqi faqat matoda edi, bichimi esa bir xil bo'lgan.

Yaponlarning kostyumi nimaga mo'ljallanganiga qarab "past uslub" — "fundagi" va "yuqori uslub" — "refuku" ga ajralardi.

Kiyimning kiyilishi quyidagicha bo'lgandi:

— "sagefuku" — ish kiyim;

— "fundagi" — kundalik kiyim;


— "xaregi" — qishilik kiyim;

— "refuku" — rasmiy-tantanali kiyim.

Misol uchun, refuku uch bo'limdan: kimono, uning ustidan xaori va yirik plissirovkali xakamadan iborat edi. Kimono va xaorining oldi, orqasi va yenglarida oila gerbi — mon bo'lishi shart edi. Monning tasvirlari qat'iyon belgilangan bo'lib, har birining nomi bor edi. Refukuning rangi to'q yoki qora bo'lishi shart edi, mon va bant esa oq bo'lardi. Ish kiyimi — "sagefuku" — quyidagi bo'limlardan iborat

edi: yelka kiyim xanten, ishton momoxiki, belbog' obi va boldirga kiyiladigan buyum. Xanten tunikasimon bichilib bir bo'lak matodan qilinardi, orqasida esa qalbaki chok qilinardi. Old bo'laklariga to'rtburchakli qiyiqlar va yoqa tikilardi. Yenglari to'g'ri to'rtburchak yoki trapestiyasimon qilinardi. Xantenning yana boshqa bichimlari ham uchrardi.

Ishton "momoxiki" to'qqiz bo'lakdan iborat bo'lgan: to'rt qo'shaloq bo'lim — qiyiqlar va uzun tor belbog'. Har bitta to'rt qiyiqlar o'zaro tikilib alohida poychani hosil qiladi, belbog' esa tepa qismining taxminan yarmisiga tikiladi. Ishton belda emas, bo'ksada mahkamlanadi.



13.5-rasm. Ayollar kimonosi

Ayollar kiyimi. Ayollar kiyimining mohiyati — ayol gap qaytarmaydigan, qaram, bosiq va nafis, xushfe'l, muloyim bo'lishi lozim edi. Bu xususiyatlar ayolning tashqi ko'rinishida aksini topgan edi.

Ayollar kiyimi ichki va ustki xadadzyuban, yelka va bel kiyimlardan iborat. Ichki kiyim "futano" va "" yoki kosimaki va dzyuban edi. Futano — oq, ip matodan qilingan, uzunligi tizzagacha tikilmagan yubka edi. Kosimaki — muslin yoki qarilar uchun oq va yoshlar uchun rangli krepdan, uzunligi to'piqqacha qilingan, tikilmagan yubka. Bu bel kiyimlar kimononing oldi ochilganda ko'rinardi.

Dzyuban, xadadzyuban va nagadzyuban bir xil bo'laklardan iborat edi. Ammo erkaklarning kiyimida yeng o'mizi va stanning yon choklari to'liq tikilsa, ayollarnikida esa yon chokining qo'ltiq tomoni ma'lum darajada tikilmasdan ochiq qoldirilardi.

Ichki yelka kiyimlar o'zaro eni va uzunligi bilan farqlanadi. Dzyuban kalta, nagadzyuban esa uzun qilinadi. Xadadzyubanning ustidan bichimi kimonoga o'xshash nagadzyuban kiyiladi va belbog' "datemaki" bilan bog'lanardi.

Xadadzyuban sovuq paytda kosimaking o'rniga kiyiladi. Ichki kiyim ip yoki ipak gazlamadan tikiladi.

Ustki kiyim kimono va, ba'zan, uning ustidan kiyiladigan kiyim xaori edi.

Ayollar kimonosining bichimi erkaklarnikidan farqlanmas edi. Farqi faqat kimononing tikilishida bo'lgan: yengning ich tomoni va yeng o'mizining qo'ltiq tomonidan tikilmasdan ochiq qoldirilardi.

Kimono juda qulay kiyim bo'lib, quyidagi xususiyatlarga ega:

— belbog' obi bilan birgalikda issiqni yaxshi saqlaydi;

— yengining tikilmaganligi va yoqasini yopishib turmaganligi havo almashinishiga imkoniyat beradi;

— bichimi erkaklarnikiga nisbatan kamroq o'zgaradi.

Ayollar kimonosi nimaga mo'ljallanganligi matodan bilinardi. Bashang kiyimlarda yoshlar ko'k, kul rang, binafsha, pushti matolarni qo'llagan. Naqshlari esa (to'qilgan, kashtalangan yoki tasvirlangan) yenglarida va etagida joylashgandi. Kundalik kimonoga esa sipo rangli, ko'pincha yo'l-yo'l matolar qo'llanardi. Tantanali paytda ayollar ustma-ust bir necha (uchtagacha) kimono kiyishardi. Bu holda ichki kimonolarining xan'erisi oq bo'lishi va ustki kimonodan ko'rinishi shart edi.



13.6-rasm. Ayollar kimonosi va belbog' obi

Kimono ustidan belbog' "obi" bog'lanadi. U ayollar kiyimining yeng muhim bezagi edi. Qimmatbaho obini mahoratli to'quvchilar qo'lda to'qishadi va hashamatli tasvirlar bilan bezatishadi.

Obi beldan balandroq bog'lanib, yeng o'mizi qo'ltiq tagigacha borib, uni berkitadi. Belbog' obining bog'lash usullari juda murakkab. Kimono kiyilgandan so'ng, ortiqcha uzunligi ko'tarilib ko'krakdan pastroqda maxsus tasma bilan bog'lanadi. Kimononing osilib turgan qismi ikkinchi tasma bilan mustahkamlanadi. Keyin ustki belboqqa nisbatan torroq ichki belbog' "sita obi" kiyiladi va u tasma bilan mustahkamlanadi. Faqat shundan so'ng, ikkiga taxlangan asosiy ustki obi bilan gavda bir necha marotaba o'raladi. Uning tepa qirrasining orasiga maxsus yostiqlar "oblage-no-sin" ko'yiladi. Oblage-no-sin orqada bog'lanadigan yostiqlarimon bantning asosi bo'lgan. Obining old tomoni qattiq bo'lishi uchun maxsus karton plastinkasi ("mae-sin" yoki "obi-ita") ni qo'yishadi. Shundan so'ng, obi ikki qavat shnur "obzidame" bilan mustahkamlanadi. Odatda obzidame orqaga bog'lanadi, oldida esa dekorativ "dyengiz" tugun bog'lanadi yoki yirik munchoq qadaladi.

Obining taxlamlarida yapon ayollari mayda buyumlarini solib yurishadi, sig'maganlarini esa — yengning uchi — "sode"ga solishadi, chunki ular sumka olib yurishmasdi.

Ustki kiyim — xaorining uzunligi modaga bog'liq edi. Uning bichimi erkaklarnikiga o'xshash, tunikasimon bo'lgan, etak tomonini esa sal toraytirishardi. Farqi esa faqat qo'ltiq tomonining ochiqligida edi.



13.7-rasm. Ayollar kimonosi

Yapon milliy kiyim kiyish tartibi quyidagicha bo'lgan: oldin bo'ksa oq mato bilan o'ralgan; keyin och rangli yopishib turgan dzyuban kiyilgan; ustidan xalat "sitagi"ni va so'ngra kimono va obi, ba'zan, xaori kiyilardi.

XV asrga qadar ular sochlarini tashlab yurishgan, keyin prichyoska qilishadigan bo'lishdi. Prichyoskalar xilma- xil bo'lgan va ko'pincha juda murakkab edi. Prichyoskalar yog'och, bambuk, metall, marjon va toshbaqa kosasidan yasalgan dekorativ taroqlar va shpilkalar bilan bezatilardi.



13.8-rasm. Yapon ayollari va erkaklari kostyumlari. O'rta asrlar.

Yaponlarning bosh kiyimi bo'lmagan. Uning o'rniga issiqda va yog'ingarchilikda soyabon tutishardi. Sayrda va ishlagan paytda ular tekis keng soyabonli poxol shlyapalar, qishda esa — ro'mollar yoki kapyushonsimon yopinchoqlar kiyishgan.

Oyoqqa kalta paypoq kiyishardi. Ular paxta yoki shoyidan qilinib, tagligi esa qalin jun gazmoldan edi. Uni ibodatxona, teatr va uyda ham kiyishardi.

Oyoq kiyimi "geta" va "dzori" bo'lgan. Skameykasimon yog'och taglikli oyoq kiyim geta yaponlarning milliy poyabzali hisoblanadi. Dzori — oyoqqa charm tasma yordamida mustahkamlangan, yumshoq taglikli poyabzal bo'lgan.

Yapon milliy kostyumida issiq paytda elpig'ichlar qo'llangan. Ularning bir necha turi bo'lgan. I asrda xitoyliklarga taqlid etilgan qog'oz elpig'ich "utiva" keng tarqalgan edi. VII asrda Yaponiyada ixtiro qilingan taxlama elpig'ich "ogi" askarlar kostyumiga kirdi. Ular uni belbog'iga qistirib yurishardi. X asrda ogi aristokratlar orasida tarqaldi. Yaponlarda o'ziga xos pantomima — "elpig'ich tili" — tuzilgandi. Elpig'ichlar oltin yoki kumush ierogliflar bilan, she'rlar va nozik rasmlar bilan bezatilardi. Gullar, qushlar, peyzajli rasmlar, har xil sahna janrlari: odam shakllari va kalligrafiya ajablanarli uyg'unli yaxlitlik kasb etib, elpig'ichning naqsh tasvirlariga tabiiy ravishda uyg'unlashardi.

Erkaklar belbog'ining majburiy qismi "inro" bo'lgan. Bu dori, xushhidlar va pastalarni solib yuradigan quticha edi. Ular haykalcha nestke yordamida belboqqa qistirilib qo'yilardi.Odatda, inro yog'ochdan qilinib, oltin yoki rangli lak bilan sirlanardi va rangli rasmlar bilan bezatilardi.Yirik buyumlarini kvadrat shaklli ip yoki ipak gazmoldan qilingan "furosiki"da olib yurishardi.



13.9-rasm. Yapon ayollari ko'chalik kiyimlari



13.10-rasm. Yapon oyoq kiyimlari: a-geta, b –dzori.



Tayanch iboralar

“Sabi”, “Vabi”, Sibuy”, "inro", "elpig'ich tili", "utiva", "sode", "datemaki", "futano" "sagefuku", "fundagi", "xaregi", "refuku",

Topshiriq savollari

- 1.Qadimiy Yaponiyada tola olinadigan qanaqa o'simliklar o'stirilgan ?
- 2.Yapon erkaklari kiyimlari nomlari qanaqa bo'lgan ?
- 3.Yaponlarning kiyimlari nomlari qanaqa ?
- 4.Yapon oyoq kiyimlari nomlarini ayting ?
- 5.Yaponiya madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
- 6.Yaponiyada “Sabi” , “Vabi” va “Sibuy” tushunchalari nimadan iborat?
- 7.Yapon ayollari kostyumlari nomlari qanday?

Glossariy

Adxivasa – hind erkaklar ustki kiyimi.

Ayshik- doira yoki yarim oy shaklidagi ziraklar.

Alqa-ayollar ko'krak ustki bezagi.

Anaksarides – fors erkaklar bel kiyimi, charmdan tikilgan ishton.

Ansambl (fr.)– to'liq, tekis, uyg'un, turli qismlardan yoki bo'laklardan yig'ilgan bir butun manosini bildiradi.

Asil-qimmatbaho tosh.

Balak- turkman erkaklar ichki bel kiyimi.

Banoras — beqasamdan rang turlari bilan farqlanib, undan ayollarning ustki kiyimi bo'lmish paranji tikilgan.

Bey sin – xitoy ayollarning kofta ustidan kiyiladigan nimchasi.

Beqasam — yo'l-yo'l gazmol bo'lib, undan erkak, ayol va bolalar uchun kundalik kiyiladigan to'nlar, ko'rpa-ko'rpachalar tikishda foydalanilgan.

Belda turuvchi kiyimlar - bel chizig'ida mahkamlanib, bo'ksalar sirtiga tayanuvchi kiyimlar . Bunday kiyim odam gavdasining quyi qismi va oyoqlarni qisman yoki to'liq qoplab turadi. Belda turuvchi kiyimlarga yubkalar, shimlar va yubka-shimlar kiradi.

Beldik - kumush taqinchoqlar bilan bezatilgan kamar.

Bi – xitoyda gamash

Bilezik-bilakuzuk .

Bichim - kiyimning yeng ulanish chizig'i, old va ort bo'laklarining vertikal (bo'ylama) yoki gorizontaal (ko'ndalang) bo'linishlarining chiziqlari kabi - konstruktiv chiziqlar hosil qilgan tashqi ko'rinishi.

Biyalay-qo'lqop.

Blio – belning pastidan ajralgan yopinchiq shaklidagi libos. Yuqori qismi yelka, ko'krak va belga yopishib turib, bo'ksa tomon kengayadi. Etak tomoni ikki yarim doira shaklida bichilgan bo'lib. Ular old va orqa tomon bel etaklariga qo'shib tikilgan. Ushbu kiyimning umumiy uzunligi boldirning o'rtalariga qadar boradi.

Blioning yenglari yaxlit tor, past tomonga qarab voronka shaklida kengaygan. Yon yiriqlari orasidan rang jihatdan keskin tafovutli yorqin rangdagi tunika ko'rinib turadi. Blio odatda orqa tarafidan shnurlangan.

Borik - atrofiga mo'yna tikilgan bosh kiyimi.

Va – xitoy etiksimon paypog'i.

Gimatiy - eng keng tarqalgan ustki kiyim, ya'ni yopinchiqlar gimatiy deb atalgan.

Gimatiylarning razmeri 1,7 x 4 metr bo'lib, to'g'ri to'rtburchak shaklidir.

Gimatiylar inson tanasiga turli usulda o'ralib, burmalanib, tashlanib mustahkamlanadigan yopinchiqlardir. Matoning taxlanish, burmalanish,

mustahkamlanish va o'ralish uslubiga ko'ra gematiylar turli xil ko'rinishda yaratilgan. Yelkaga tashlangan uchi sirg'alib ketmasligi uchun unga bir bo'lak og'ir metall mahkamlanib, ilib qo'yilgan. Spartada sherst matosidan qilingan gimatiylar tanaga xitonsiz kiyilgan.

Girmizidon - turkman erkaklarining ustki yelka kiyimi bo'lib, u to'y- tantanalarda kiyiladigan xalat.

Graffiti – 60-yillardagi pop-artning o'ziga xos davomi sifatidagi yoshlar kiyimi uslubining davomidir. Yozgi maykalar, jinsi kostyumlari kashta, “shahar folklori” mavzularidagi bosma rasmlar, bolalar chizgan rasmga o'xshatmalar, turli matnlar (tekstlar) va yozuvlar bilan bezaladi.

Geta - taxtadan bo'lgan, skameykasimon oyoq kiyim

Day – xitoyliklarda - belbog', aslzoda va amaldorlarning boylik ramzi.

Dalmatika – keng yengli, ancha uzun, yoyilgan holatda kreatni eslatuvchi kiyim.

Bu kiyimni asosan rimlik xristianlar (1 asr boshiga kelib rimga xristian dini kirib kela boshladi. Dastlab ezilgan sinflarni qamrab olgan ushbu din vaqt o'tib, yuqori sinflar doirasida ham tarqala boshladi) kiyishgan.

Datemaki – yapon libosida belbog'.

Dzori – yapon libosidagi oyoq kiyim

Dzyuban – yapon erkak va ayollarining libosidagi ichki yelka kiyimi.

Diploidalar - bu qaytarmalardir. Libosda bezak o'rnini bosib, u boshqa rangdagi matodan qilingan turli tuman kashtalar, applikatsiyalar, bezakli detallar bilan bezaklangan. Qaytarmaning uzunligi turlicha bo'lgan. Xususan, ular ko'krakkacha, bo'ksagacha, tizzagacha bo'lishi mumkin edi. Xuddi erkaklar xitonlari singari ayollarniki ham yelkaga fibula-to'g'nog'ichlar ila mahkamlanib, belda kolpos deb nom olgan belbog' bilan mahkamlanib, ayol tanasi go'zalligini bo'rttirib turgan.

Duy szin – erkaklar xitoy libosidagi SHarqiy simmetrik bichimga ega ichki kiyim.

Dupatta – hind libosidagi yopinchiq

Dxoti – hind erkaklar bel kiyimi.

YOqa - yelkada turuvchi kiyimlarning odam gavdasining bo'yin asosida joylashgan detali. YOqaning bo'yinga yopishib turadigan qismiga yoqa ko'tarmasi deyiladi. Agar yoqaning barcha qismi bo'yinga tegib tursa, bunday yoqa tik yoqa deyiladi. Yoqaning bo'yinga yopishib turadigan qismiga yoqa ko'tarmasi deyiladi.

Yelkada turuvchi kiyimlar - yelkalarda ushlanib va yelka kamariga tayanib turuvchi kiyimlar.

Yeng - yelkada turuvchi kiyimlarning odam gavdasining qo'l va ba'zan yelka qismlarini to'liq yoki qisman qoplab turuvchi detali.

Jaga – qozoq libosidagi yoqa.

Jalbag'ay- qozoq libosidagi bosh kiyim.

Jalbar- turkman erkaklar ustki bel kiyimi.

Jargak – qozoq libosida mo‘ynasi tashqariga qaratib, echki yoki ot terisidan tikilgan ust kiyim.

Ja’dani - uzun va tor soxta yengli yoping‘ich, uni Xorazm ayollari kiygan.

Jeyde – qozoq erkaklari ko‘ylagi, o‘tmishda ustma-ust kiyilgan.

Jen – qozoq libosida yeng.

Jestyukor - qirol va yuqori tabaqa vakillari kiyimi bo‘lib, bu kiyim bel chizig‘idan sharf-belbog‘dan pastga qarab kengaytirilgan, mayda tugmachalar va petlyalar bilan qadaladigan tor, tizzagacha bo‘lgan uzunlikdagi kiyim turidir. Yenglarining yuqori qismi tor bo‘lib, u pastga qarab kengaytirilgan va keng qaytarma manjetga ega. Ranglar echimi yorqin va jilvador, oltin va kumush bilan kashtalangan. Jestyukor yoqasiz bo‘lib, uning o‘rnini oq matodan uchlariga to‘r o‘rnatilgan galstuk egallagan.

Joma – hind erkaklar yelka kiyimi

Jubba – arab erkaklarning ustki kiyimi

Inro – yapon erkaklar libosidagi belbog‘ining majburiy qismi.

Ichik - qirg‘iz ayollarning ustki kiyimi

Ichmek - qo‘y terisidan tikilgan, erkaklar qishki ustki kiyimi

Ishbop kiyim uslubi. Dam olish, bog‘ ishlari bilan shug‘ullanish va qisman mehnat faoliyati uchun mo‘ljallangan liboslarda ishchilarning mahsus kiyimlarining shakli va hususiyatlari saqlanadi. Misol uchun, modaga sexdan “kelgan” kombinezon uyda va ko‘chada ham o‘zinig qulay cho‘ntak va pistonlarini saqlab qoladi.

Ishik - erkaklarning mo‘ynali ustki kiyimi (qozoq)

Kavsh – ayollar tovonsiz oyoq kiyimi

Kaku obi – yaponiyada tantanali marosimlar uchun bog‘lanadigan belbog‘.

Kalarazis - ayollar libosi tananing ko‘krak qismidan to boldirgacha qismini bekitib turadigan chodirsimon matodan iborat bo‘lib, u bir yoki ikki tasma ila yelkadan o‘tkazilib kiyilgan. Kalaziris deb ataluvchi ushbu sarafanni eslatuvchi kiyim ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar, u xoh malika bo‘lsin, xoh kanizak, barcha ayollar uchun bir xil shaklda bo‘lgan.

Ayollar kiyimi faqat matoning sifati va qimmatini ila farqlangan.

Kamarband – baxmalga zar iplar bilan kashta yoki iroqi tikilgan keng belbog‘.

Kamis – rangli, naqshli ipak matodan tikilgan hind yelka kiyimi.

Kandis – Fors shoxning ustki kiyimi - plash

Kan szyan – ayollar ichki nimchasi

Kan szyar – ayollar ichki yelka kiyimi

Kaptama chapan - qirg‘iz erkaklar ustki kiyimi, yeng o‘mizi yumaloq shakldagi o‘tkazma yengli, to‘g‘ri bichimli, etagining ikki yon tomoni qirqimli, tor chopon.

Bo‘yinga rangli sharf-galstuk bo‘sh qilib bog‘langan. Karmanola tagidan kalta jilet kiyilgan.

Kaftan – Fors erkaklar yelka kiyimi

Kebenek - kigizdan tikilgan ustki kiyim.

Kebis - teridan tikilgan kovush.

Kementay – qirg‘iz erkaklar ustki kiyimi, u keng, astarsiz kigiz to‘n.

Kemsal – qirg‘iz ayollarning ustki kiyimi

Kiiz-namat, kigiz.

Kiygich, bosh - Surxondaryo ayollarining bosh kiyimi.

Kiyim - odam tanasini butunlay yoki qisman o‘rab turuvchi buyumlar yig‘indisi.

Kiyimni konstruksiyalash - tuzilmasini qurish - yassi materialdan odam gavdasini qoplab turuvchi hajmiy qobiq yaratish jarayoni.

Kiyimni modellashtirish - kiyim shakllarini hosil qilish jarayoni.

Kimeshek-ayollarning bosh kiyimi.

Kimono – yapon erkak va ayollarining milliy kiyimi.

Kolet — tik yoqali, tor va kalta, belgacha yoki bo‘ksagacha tushib turuvchi, old qismida tugma yoki tasma bilan qadaladigan ustki kiyim. Kolet ko‘krak, bel, bo‘ksaga yopishib turadigan kiyim turi bo‘lib u beldan ajratilgan. Bo‘yin o‘mizi turlicha bezaklangan. Yoqasi tik, chuqur o‘mizli, oval vstavkasi bilan. Uning yengi o‘mizga tikilmagan, balki alohida o‘rinlarda (o‘mizning tagi yelka qismi, yonidan). Bu holat harakatlar erkinligini ta’sinlashda yordam bergan. Yengning yelka qismi va tirsaklar kesib yoriqlar qilingan. Barcha yoriqlarning ichki sorochnaning matolari, keyinchalik dekorativ matolardan qilingan bezaklar shishib turadigan buflar tashkil qilinib, chiqarib qo‘yilgan. Paypoqli ishton elastik matodan bo‘lib oyoqqa yopishib turgan. XV asrda uning har ikki bo‘lagi yuqori qismidan va yonidan tugmalar ila qadaladigan yoki shnur bilan tortib qo‘yiladigan gulfik bilan qadalgan. Paypoqli ishton koletga maxsus teshiklar orqali shnurlar yordamida mahkamlangan. Paypoqli ishton orasida ichki ko‘ylak ko‘rinib turgan. Uzoq vaqt davomida miparti modasi saqlanib qoldi: ishtonning bir oyog‘i sidirg‘a, ikkinchisi yo‘l-yo‘l.

Kolombium – keng bo‘lmagan, belidan bog‘lanadigan yengi kalta tunikadir.

Kolpos - yenlik belbog‘ bo‘lib, uni odatda tugun qilib bog‘langach, qolgan qismi uzun qilib tashlab qo‘yilgan. Kolposlar odatda belga bog‘lansada, uni ko‘krak pastidan yoki bo‘ksadan bog‘lash keng tarqalgan. Kolposlar nafaqat belda, shuningdek bo‘ksadan yoki ko‘krak qismida xochsimon (krestsimon) shaklda bog‘lanib, ular yeng shaklini bera boshlagan.

Kosimaki – yapon erkaklar tikilmagan bel kiyimi, uzunligi tizzagacha bo‘lgan, matoni bo‘ksaga aylantirib o‘rab, tasma bilan mahkamlangan.

Kosode – qishlik, astar va avra orasiga xom ashyo ipak tolasi solingan, ammo qavilmagan ustki yelka kiyim.

Kostyum – vazifasiga, mo‘ljaliga binoan ma’lum darajada terilgan kiyimlardir.

Kostyum kompozitsiyasi – shu kostyumni tashkil etuvchi elementlarning ma'lum g'oyani, badiiy obrazni aks ettiruvchi yaxlitlikka birlashtirish.

Kotardi – old tomonidan tugmalanadigan va bo'ksada bezakli belbog' bilan qadaladigan, bo'ksa uzunligidagi tor kiyimdir. Kotardining yengi turlicha tor ham, keng ham, qanot shaklida ham. U ayniqsa bezakdor bo'lgan. Yuqori qismi tor yenglar past tomon kengayib, tishchalar yoki kengligi 10 sm, uzunligi 1,5 metrga boradigan mato bo'laklari bilan bezaklangan.

Kuloh - to'rt bo'lak uchburchak matodan, gardishsiz tikilgan erkaklar kiyadigan uchli qalpoq.

Kurtai mardona -erkaklarning ichki kiyimiga tunikasimon ko'ylak

Kurte – turkman ayollar yelka kiyimi, oldi yopiq, uzun, tunikasimon bichimda, yonlari trapetsiyasimon shaklda.

Kutsza – erkak va ayollar bel kiyimi, ishtoni

Kyulot - Erkak kishiga qat'iylik, xushmuomalik, kelishgan qomat, plastikani qaytarib bergan jestyukor bilan birga duxoba, shoyi, jun matolardan kyulotlar kiyishgan. Bu tizzagacha uzunlikdagi, yonlarida kesmasi bor va tugma yoki to'qa bilan qadaladigan tor ishton. Kyulotlar ko'p xollarda jestyukor bilan bir xil rangda bo'lgan. Shuningdek kyulotlarga o'yima cho'ntaklar ham qilingan.

Latserna - marosim plashlardan biri. U hajman ancha kichkina bo'lib, oltin va kumushdan gul qilib bezalgan matoning qimmatbaholigi bilan ham izohlanadi. Latsernani orqadan ikki yelkaga shunday tashlanganki, uning ikki uchi bo'yinga kelib turgan. U kalta bo'lib, tizzaga qadar bo'lgan.

Lekif - atirlar saqlanadigan flakon. Lekiflar ham haqiqiy san'at namunasi darajasida bo'lgan.

Mantilya – yupqa qora yoki oq mato yoki to'rdan qilingan yopinchiq. Ispaniya ayollar va erkaklar kostyumida osma taqinchoqlardan keng qo'llanilgan. Ular orasida durli marjonlar, zargarlik belbog'lari, ziraklar, uzuklar, zanjirlar, kameyalar keng urf bo'lgan.

Mantilya – yupqa qora yoki oq mato yoki to'rdan qilingan yopinchiq.

Ispaniya ayollar va erkaklar kostyumida osma taqinchoqlardan keng qo'llanilgan. Ular orasida durli marjonlar, zargarlik belbog'lari, ziraklar, uzuklar, zanjirlar, kameyalar keng urf bo'lgan.

Mahsi - erkaklar va ayollar poyabzali

Mitra – Fors shoxining ramziy bosh kiyimi

Mon – oq gerb.

Nagadzyuban – yapon erkaklar ichki yelka kiyimi.

Naygut chapan- qirg'iz erkaklar ustki kiyimi, u keng, tunikasimon to'g'ri bichimli, yenglariga hishtak solingan chopon.

Naramnik - o'rta asrlarda ko'plab erkaklar va ayollar libosi asosidir. U to'rtburchak yoki oval shakldagi mato bo'lagi bo'lib, yelkadan buklab tashab qo'yilgan. Uning bosh uchun o'mizi bo'lib, yonlari tikilmagan. Kiyimning ushbu turi turli uzunlik va ko'rinishga ega bo'lib libosning turini boyitgan.

Nivi –hind libosining asosiy elementi.

Nimdxoti – hind erkaklar bel kiyimi

Obi – yapon libosidagi belbog'.

Okumi – yapon libosidagi qaytarma yoqa.

Onirjiek- qozoq ayollarining ko'krak ustki kumushdan yasalgan bezagi.

Onirshe-ko'krakpesh.

Orxni – tikilmagan yelka kiyimi (miloddan avvalgi III ming yillik)

Payjoma – hind erkaklarning tepasi keng, pochasi tor ishtoni.

Pantolon - uzunligi boldirgacha bo'lgan tor tekis ishton bo'lib, uni yon choklari bo'ylab kashtado'zlik bilan, past qismini esa to'r burmali qo'shetaklar bilan yoki tasmali choklar bilan bezalgan. Pantolonlar ostidan tor paypoq-ishton kiyilgan.

Pao – xitoy libosidagi assimetrik bichilgan ayollar koftasi

Parpasha — beqasamdan qalinroq mato bo'lib, u paranji, shuningdek, chopon tikishda ishlatilgan.

Penula - doira yoki yarim doira shaklida, bosh kirishi uchun yirig'i bo'lgan va u yerga kapyushon tikilgan. Qalin va dag'al junli matodan tikilgan penulalar dehqonlar kiyimi hisoblanib, qimmatboho matodan tikib, bezatilgani yuqori tabaqa vakillari tomonidan kiyilgan.

Pigash - kalta tor kurtkalar shossalar va o'tkir uchli oyoq kiyim – *pigashlar* bilan kiyilgan. XIV asrga kelib pigashlar uchi judayam uzayib, ular uzunligi egasining jamiyatdagi o'rniga qarab 70sm.gacha borgan. Oyoq kiyim rangi ustki libos rangiga qarab alohida e'tibor bilan tanlangan: oq, qizil, qimmatbaho bezaklar bilan bezalgan oltin rang charm va x.k. Oyoq kiyim tuzilishi har ikki, ya'ni o'ng va chap oyoq uchun bir xilda. Inson tanasining tik va adlligini bo'rttirib turuvchi tor kiyim uzun yoki kalta, yetagi yengining past qismi juda keng ustki kiyim bilan kiyilgan. Bu ikki qrama qarshi siluetlar sababi erkak figurasi estetik jihatdan yanada ko'rkamlilik kasb etardi.

Sabi – Yaponiyada go'zallik va tabiiylik tushunchasi.

Salde - salla.

Sarapis - fors erkaklarning ustki kiyimi

Sari – hind ayollarining milliy libosi.

Saukeli - kelinlarning nigoh bosh kiyimi, konus shaklida bo'lib, u qimmatbaho toshlar bilan va turli naqshlar bilan bezatilgan.

Se szin – Xitoyda erkaklarning assimetrik bichimdagi ichki yelka kiyimi.

Simara —tugmalari taqilmaydigan har xil uzunlikdagi keng uzun engli ko'ylak.

Sinsila (sil-sila) - kumushdan ishlangan peshona bezaklari (Surxondaryo).

Sintaizm – Yaponiyadagi din, sin – hudo, tao-yo‘l.

Sitagi – yapon dzyubanining ustidan kiyilgan ayollar yelka kiyimi – xalat.

Sode – yapon libosida yengning uchi.

Sutxna – erkaklar bel kiyimi

Sutxni – hind ayollar bel kiyimi

Sxenti – peshband. Qadimiy imperiya davrida asosan erkaklar kiyganlar. Sxentilar shaklan to‘rtburchak, yoki trapetsiyasimon bo‘lib, turli xil o‘lchamlarda bo‘lgan. Sxenti belga ingichka charm belbog‘ bilan bog‘lab, mahkamlab qo‘yilgan. Sxentining ustidan yoki tananing ustidan to‘rtburchak shaklidagi peshband kiyilgan.

Tabar — orqa tomon keng, belidan bog‘lanadigan kalta yopinchiq ko‘rinishidagi ustki kiyim.

Tabi – yapon libosida oq paypoq

Tapert - ham beldan qattiq siqib bog‘langan va uning ham past qismi burmali yoki taxlamali (skladkali) bo‘lgan. Tapertlar jaketdan uzunroq bo‘lgan (tizzagacha uzunlikda), chetlari boy bezatilgan. Belbog‘, yoqa, yeng va yelka choklarga qo‘ng‘iroqchalar taqilgan. O‘miz old tomonda ham, orqada ham bo‘lishi mumkin edi. Asr oxirlarida tapertlarning ko‘krak qismiga va yelkaga mardonavorlikni bo‘rttirib ko‘rsatish uchun paxta qistirmalar (prokladka) qo‘yilgan.

Taxya -- qizlar do‘ppisi

Tebetey- keng tarqalgan qirg‘iz erkaklarining qishki bosh kiyimi

Toga - katta bo‘lak mato bo‘lib, u to‘rtburchak yoki ellips shaklida bo‘lgan.

Togalarning razmeri taxminan 6 x 1,8 m bo‘lgani sababli, uni kiyib olish birmuncha mushkul bo‘lgan. Odatda, ushbu libosni qullar xo‘jalariga kiydirib qo‘yishgan. Togalarni o‘rashning bir necha usuli bo‘lgan. Xususan, matoning uchdan bir qismi yelka orqali chap yelkaga tashlangan. Toganing bu qismi chap yelka va gavdaning chap tomonini yergacha berkitgan. Matoning qolgan qismi tananing orqa qismini yopib, o‘ng qo‘lning pastidan oldinga tortilgan. Togalarning husni ularning qordek oqligi va burmalarning nozikligida edi. Burmalar an’analar asosida shakllangan bo‘lib, qonun bilan mustahkamlangan edi. Burmalar matoga maxsus tarkibli moddani shimdirish orqali mustahkamlangan.

Upavasa-paridxana – hind erkaklar va ayollar yopinchiq‘i

Upelyand - qoplama va tugmalari qadalmaydigan, turli uzunlikdagi ustki kiyim bo‘lib, uni belbog‘ bilan yoki belbog‘siz kiyib yurishgan. Uzun upelyandning etaklari kengligi 7 metrgacha, yengi pastining kengligi 3 metrgacha borishi bilan xarakterlidir.

Upelyand - sovuq havoda ustidan jigarrang yoki kulrang movutdan yoqali va qizil rang duxoba qaytarmali plash.

Uslub – qandaydir vaqt oralig‘ida umumiy vosita va usullar bilan badiiy ifodalanishga aytiladi.

Utiva – yaponlarda qog‘oz elpig‘ich.

Fundosi – yapon erkaklarning tikilmagan bel kiyimi.

Futano – yapon ayollar ichki bel kiyim, uzunligi tizzagacha tikilmagan yubka.

Xan‘eri –yapon libosida olib qo‘yiladigan yoqa.

Xaori – yapon ustki kiyimi, faqat kimononing ustidan yoki xakama bilan kiyilgan.

Xasaba yoki havasa – turkman libosidagi ayollar bosh kiyimi

Xeko obi – yapon libosidagi belbog‘, kundalik kiyimlar uchun ishlatilgan.

Xiton - bizning tasavvurimizdagi ich kiyim bo‘lib, u asosan zig‘ir yoki junli toladan to‘qilgan matodan tayyorlangan. Xitonning yelka qismi tikilishi, yoxud fibula deb ataluvchi to‘qalar ila mahkamlangan. Xitonning ikki yonboshi tikilgan, ba‘zan bir yonboshi ochiq qoldirilgan. Xitonning uzunligi turlicha bo‘lsada, asosan tizzagacha bo‘lgan shakli keng tarqalgan.

Xitoe – yozlik, astarsiz kimono.

Si pao – xitoy ayollar xalati

CHakmon - erkaklar ustki kiyimi

CHan pao – xitoy erkaklar ustki kiyimi, xalat.

CHirpi – turkman ayollar kiyimi, to‘y–hashamlarda astarli xalat–yopinchiq bo‘lib xizmat qilgan.

Choli – hind libosi; ayollar yelka kiyimi - koftasi.

Shossa – elastik movutdan tanaga yopishib turadigan tor ishton-paypoq.

Ust kiyim belbog‘iga ip yordamida qotirilgan. XV asrga qadar ishtonlar bir biriga qo‘shib tikilmagan. Keyinchalik ularni old va orqa klinlar yordamida bir biriga qo‘shib tikila boshlandi.

Elechek – qirg‘iz ayollarining bosh kiyimi

Eri –yapon libosida yoqa.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xasanbaeva G. K., CHursina V.A. “Kostyum tarixi” T., O‘zbekiston, 2002.
2. Komissarjevskiy F.F. “История костюма”. Minsk – 2001
3. Zaharjevskaya R.V. “История костюма”. Moskva – 2005
4. Parmon.F.M. Композиция костюма. М 2002
5. Gorbachyova L.M. «Костюм XX века» М 1996
6. Tereshkovich T.A. «Словар моды» Minsk 1999
7. Djoan Nann. “История костюма 1200-2000 ”. Moskva 2003
8. Kibalova L. i dr . «Иллюстрированная энциклопедия моды»
9. Parmon F.M. “Европейский костюм : стили мода” М 1982
10. Sadikova M. «O‘zbek milliy kiyimlari» T 2006
11. Litvinskiy. B.A. “Восточный Туркистан и Средняя Азия, система культур древнего и среднего Востока ” М 1986.
12. Ensiklopediya. Искусство стран народов мира. Том-5 1962-1918.
13. Kon-Viner. “История стилей изобразительных искусств ” М 2000
14. Abdullaev T. A, Xasanova S.A. «Одежда узбеков» Т. Fan - 1978.
15. Pugachenkova G.A, Rempel L.I «Очерки искусства Средней Азии» М 1978
16. Костюм народов Средней Азии (pod redaksiye Suxarevoy OO.A)М: Nauka, 1975 g.
17. Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. – М: Nauka, 1975g.
18. Gradova E., Gutina E.«Театральный костюм» М 1967.
19. Erika Til. “История костюма” М 1971.
20. Kireeva E.V. “История костюма” М 1976
21. Sichev. V. “Китайский костюм”
22. Kozlovskaya. A .D. Женская мода XX века. М 1977
23. Anna Blyez «От Фараона до Денди». Moskva Olma-Press 2002 y. ”